

74. 58  
T 98

B. TO‘XLIYEV, M. SHAMSIYEVA,  
T. ZIYODOVA

# Ӯзбек тили

## о‘qitish metodikasi



Metodika-fan



Maqsad va vazifalar



Zamonaviy dars



Til bo‘limlari ta’limi

Toshkent - 2010

B. TO'XLIYEV, M. SHAMSIYEVA, T. ZIYODOVA

**O'ZBEK TILI  
O'QITISH  
METODIKASI**

Toshkent - 2010



74.58

T98

To‘xliyev, B.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi [Text] / B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova ; red. T. Niyazmetova. - Toshkent : Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. - 184 b.

ББК 74.58

I. Shamsiyeva, M. II. Ziyodova, T.

*O‘zbek tili o‘qitish metodikasi kursi uchun bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha yaratilgan mazkur o‘quv qo‘llanmada “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ona tili ta’limi Konsepsiysi”, “Ona tilidan davlat ta’lim standarti” talablariga muvofiq talabalar va o‘quvchilarining kommunikativ savodxonligini oshirish, ona tili mashg‘ulotlarini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish, til darslari samaradorligini hozirgi zamон talablari darajasiga olib chiqish va dars jarayoniga tatbiq etishning usul hamda vositalari haqida baholi qudrat tavsiyalar berildi. Unda zamonaviy yo‘nalishlar bo‘yicha yaratilgan qo‘llanmalar, darsliklar, maqola va ma’ruza matnlariga tayanildi.*

*Darslik pedagogika universitetlari va institutlarining filologiya fak talabalari uchun mo‘ljallangan.*

*“O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” O‘zbekiston Respublikasi oliv va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

**Mas’ul muharrir:**

T. Niyazmetova, f.f.n., dotsent

**Taqrizchilar:**

M. Qodirov f.f.n., dotsent O‘zMU  
I. Azimov, f.f.n., dotsent

№729-40-54

ISBN 978-9943-06-301-3

© B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”

269 992/3

NAMANGAN DAVLAT  
UNIVERSITETI  
Akboroi-resurs markazi

## KIRISH

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek diyorida ham yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayot umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo'nalishlariga jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. Xalq xo'jaligining barcha sohalari, shu jumladan, ta'lifim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor berila boshlandi. "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqich sifatida xarakterlanadi.

Yaxshi bilamizki, til va nutq ajralmas yaxlitlikni tashkil etadi. Shunga qaramay ular ayni bir xil hodisa ham emas. Ular nutqiy faoliyatning asosini tashkil etadi. Insonning nutqiy faoliyati zimmasiga ortilgan vazifalar nihoyatda ko'p. Shulardan biri kommunikativlik vazifasidir. Bu uning kishilar orasidagi aloqa, munosabat, muomalani ta'minlashi bilan bog'liq. Bunda axborotlarni boshqalarga yetkazish, o'zaro fikr almashish amalga oshadi. Uning vositalari esa turli ko'rinishlarga ega. Xususan, og'zaki, yozma, shuningdek, tilshunoslikda paralingvistik deb nom olgan vositalar bo'lishi mumkin. Oxirgi turkumga har xil imo-ishoralar, mimikalar kiradi. Bunda bevosita nutqning o'zi ishtirok etishi ham, ishtirok etmasligi ham mumkin.

Og'zaki nutq, odatda, bevosita nutq jarayonini tashkil etadi. Yozma nutqda esa muayyan masofaning bo'lishi nazarga olinadi. Shunga ko'ra ularning izchilligi, to'liq yoki notugalligi ham har xil bo'lishi tabiiy.

Nutqning yana bir vazifasi uning tafakkur quroli ekanlidigadir. So'z bilan "o'lukni tiriltirish va aksincha, tirikni o'ldirish mumkin" (Navoiy). So'zning inson tafakkuriga, ruhiyatiga, kayfiyatiga kuchli ta'siri ochiq haqiqatdir. Busiz badiiy adabiyotning bo'lishi mumkin emas edi.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fani ta'lifning turli bosqichlarida tilning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tili o'qitishga tegishli grammaticat atamalar tizimining allaqachon shakllanganligi va ularning ta'lif amaliyotida faol iste'molda ekanligini ta'kidlash joiz. Shunga qaramay, bu sohada hali anchagina notugalliklar, har xilliklar, hatto ichki ziddiyatlar mavjudligini e'tirof etishga to'g'ri keladi.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining boshqa bir qator nazariy hamda amaliy predmetlar bilan aloqadorligidan kelib chiqadigan atama va tushunchalar ham mavjud. Bunda, ayniqsa, didaktika, tarbiya nazariyasi,

*pedagogik psixologiya fanlaridan o'tgan atama va tushunchalar, bevosita fanning predmeti va unga yondosh sohalardan, tilshunoslik va adabiyotshunoslikdan o'igan atama va tushunchalar ham asosiy mavqega ega. Nihoyat, bularning eng katta qismini bevosita til o'qitish nazariyasi va amaliyatiga oid soj metodik tushuncha va atamalar tashkil etishini eslash mumkin. Mazkur qo'llanmada o'rni-o'rni bilan mana shunday atama va tushunchalarning ta'riflari, tavsif va izohlari ham berib ketildi.*

*Tilni tizimli o'rganishga asoslangan ona tili o'qitish metodikasi talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, ularning lug'at boyligini oshirish, o'zgalar nutqini tinglay va anglay olish, fikrni aniq, ixcham ifodalash, so'z tanlash va uni o'rinli qo'llash, og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg'unligiga, mantiqiy mukammallikka erishish, "talaba — ta'lim — o'qituvchi" munosabatlarini to'g'ri tashkil etish — ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi.*

*O'zbek tili o'qitish metodikasi fani egallangan bilimlarni pedagogik amaliyatga joriy qilish, ilg'or pedagogik texnologiyadan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. U ijodiy tafakkur sohibini shakllantirishning lingvoodidaktik (lisoniy-ta'limiy) asoslarini o'rganadi.*

*Ijodiy tafakkur sohibini, ya'ni, o'sayotgan, rivojlanayotgan va taraqqiyot sari yuz tutayotgan mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan, **ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni** tarbiyalab voyaga yetkazish ona tili ta'limi oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.*

*Yangi zamонавиyy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta'limning jahon andozalariga mos keladigan dastur va darsliklar yaratish — davr talabi. Aynan shu nuqtayi nazardan olganda, hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishining ilmiy talqinlari ham, lug'aviy — grammatic munosabatlar tizimi ham yangilandi va rivojlan Tirildi. Shu sabab, pedagogika institutlari hamda universitetlarini bitirib chiqayotgan yoshlar maxsus tayyorgartiksiz, ona tili mashg'ulotlarini talab darajasida o'tkazishga qiynaladilar. Mazkur o'quv qo'llanmada o'zbek tili o'qitishning yangilangan mazmuni, texnologiyasini — **ongli — verbal — kognitiv ta'lim** tizimiga tayanilgan holda izohlab berishga, bu haqida qisqacha tushuncha berishga harakat qilindi.*

*Uzlusiz konkurensiya (raqobatchilik)ka tayangan bozor iqtisodiyoti tezkor, tadbirkor, sharoitga ko'ra ish tuta biladigan, maqsadga erishish vositalarini jadallik bilan yangilay oladigan faol shaxslarga muhtoj bo'ladi. Shuning uchun G'arb davlatlarida tarbiya tizimida **bixevioristik** yondashuvdan **kognitiv** yondashuvga qarab siljish seziladi. Inson faoliyatini baholashda **kognitivizm** (ing. cognitive—ta'limiy, o'rganilgan,*

*o'zlashtirilgan) o'tgan asrning 60-yillarigacha pedagogika va psixologiyada hukmron bo'lgan bixevoiristik yondashuvdan quyidagicha farqlanadi:*

*a) bixevoiristik yondashuvda inson hatti-harakatlari tashqi muhit ta'siri bilan belgilanadigan, ko'p hollarda **ongsiz** reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladi;*

*b) kognitiiv yondashuvda bu hatti-harakatlarda **onglilik** — ta'lim asosida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar ustunligi tan olinadi.*

*Ko'rinib turibdiki, bixevoiristik yondashuvda inson va tarbiya **sust**, kognitiiv yondashuvda esa ular **faoldir**. Ma'lumki, bozor iqtisodiyotida yashash sharti insoniy faollikdir. Shuning uchun AQSh va G'arbda o'tgan asrning 60-yillaridayoq kognitivizm zudlik bilan pedagogika, didaktika tizimlariga kirib kela boshladi. Bu oqim o'sha davrda ancha ommalashgan ta'limning verbal (ya'ni kommunikativ muloqotda ta'lim oluvchining faolligi va o'zligini namoyon qilishga intilishi) usullari bilan birlashib, **ongli verbal — kognitiiv ta'lim** yo'nalishini shakllantiradi. Mashhur pedagog — metodist D.Ozbel bu yo'nalishga asos solib, ta'lim jarayonida yetakchi usul — **kashfiyat** (ing.discovery) ekanligini alohida ta'kidladi. **Kashfiyat ta'lim usulining** mohiyati shundaki, ta'lim oluvchi har bir topshiriqni bajarish jarayonida yangi-yangi materiallarni kashf etish yoki nimadir yaratish bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ta'lim jarayonida **onglilik** yetakchilik qiladi.*

*Sho'ro pedagogikasi ijodkor shaxsni emas, balki bilimdon **ijrochini** tarbiyalashga qaratilganligi sababli, ongli verbal — kognitiiv ta'lim **usuli** tarbiya tizimida ommalashtirilmadi. Istiqlol sharofati bilan bunday to'siqlar barham topdi va O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ...**ijodkor shaxsni tarbiyalash ta'lim tizimining bosh vazifasi...** — deb belgilandi. Jumladan, muhtaram Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Birinchi chaqiriq IX sessiyasida so'zlagan nutqida shunday ta'kidlagan edilar: "O'qituvchining bosh vazifasi — o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.*

*Shuning uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zini oqlagan va yuqorida sanab o'tilgan psixolingistik omillar bizning ta'lim tizimimizga ham shaxdam kirib kelmoqda".*

*Ta'lim jarayonida tafakkur mahsulini vogelantirishning bunday pedagogik — psixologik omillari, usul va vositalari juda ko'p va rang-barangdir. Ulardan asosiyлари sifatida, quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin.*

*— Talaba, har bir mashg'ulotda darslik talabi asosida unga berilgan, yetkazilgan bilimlarni takrorlash emas, balki uning yo'llanmasi bilan yangi bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishi, o'zi uchun biror yangilikni*

*kashf etishi lozim. Bu kognitivlikning bosh omilidir.*

— *Talaba passiv tinglovchi (ko'chiruvchi, takrorlovchi, bajaruvchi) emas, balki izlovchi, qiyoslovchi, kashfiyotchi bo'lishi kerak. Shuning uchun uning og'zidan (qalami ostidan) chiqqan har bir so'z, fikr, hukm, bayon uning o'ziniki (aytilgan, berilgan, eshitilganning takrori emas!) bo'lmog'i shart. Albatta, talabadan tug'ilgan bu fikr olamshumul kashfiyot yoki biror chigal muammoning yechimi emas, lekin o'qituvchi (darslik) bergen axborotning soddagina takrori ham emas. Bunday ta'lism usuli (verballik) talabada mustaqillik, mas'uliyat, o'z menligini anglash, ijod, bunyod qilish ruhini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda talaba bilan tinglovchilar (jumladan, o'qituvchi) orasidagi aloqa-munosabat (fikr almashish) juda ko'p hollarda jonli og'zaki munozara, qolaversa, bahs tusini oladi.*

— *O'qituvchi (darslik)ning ta'lism oluvchiga beradigan yo'llanmasi shunday tuzilmog'i lozimki, talabalarning izlanish va ijod mazmuni mohiyatan bir yo'nalishda, lekin ular shaklan va mazmunan rang-barang bo'lmog'i kerak. Shundagina har bir ta'lism oluvchi o'zligini, ilmiy iqtidorini mumkin qadar erkinroq ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Darsda musobaqa, bellashuv ruhi hukmronlik qiladi.*

— *Talaba, dars jarayoni (uy vazifasini bajarish va uni tahlil etish)da o'qituvchi yo'llanmasi (darslik topshirig'i) asosida izlanar, fikr qilar, muammoni topar, biror hukmga kelar ekan, o'z fikrini asoslash, isbotlash va himoya qilishga intilmog'i zarur. Mashg'ulotning tashkil etilishi va o'quv materiali bunga keng yo'l ochib bermog'i, o'r ganuvchining yosh psixologiyasi va aqliy fiziologik qobiliyatiga mos bo'lmog'i zarur. Ta'limganing onglilik omili mana shularda namoyon bo'ladi.*

*Endilikda amaliyotga joriy etilgan Davlat ta'lism standartlari asosida boshqa fanlar qatorida "Ona tili" o'quv dasturi va shu dastur asosida yangi ona tili darsliklarining tuzilishi, ko'rinishi, shakli, o'quv topshiriqlari va materiallarini yuqorida sanab o'tilgan omillar nuqtayi nazaridan psixolog va didakt sifatida ko'zdan kechirish, yangi avlod darsliklarida, asosan, ongli verbal — kognitiv ta'lism tamoyili ustuvor bo'lib borayotganligini ko'rsatmoqda.*

*Bunday omillar asosida ma'lum bir o'quv predmetini to'laligicha tizimli yo'nga qo'yish til o'qitish metodikasi uchun yangilikdir. Zeroiki, oldingi davrlarda bunday ta'lism usulining elementlari muammoli ta'lism sifatida ayrim mavzularni o'r ganish jarayonidagina qo'llanilardi. Hozirgi zamонавиy darsliklar esa ko'proq shunday ta'lism usuliga tayanadi. O'zo'zidan tushunarlik, bunday yondashuv til o'qitish metodikasi oldiga qator yangi vazifalarни qo'yadi.*

*Ma'lumki, so'z va tasavvurlar asosida mantiqiy fikrlash qobiliyati bolalarning 11-12, 15-16 yoshlarida ko'proq rivojlanadi. Bu davr V-IX sinflarga to'g'ri keladi. O'quv materiali va topshiriqlarning berilishida bosqichli ketma-ketlik hamda har bir mavzuni o'rghanish jarayonida talabaning ko'p turdag'i aqliy faoliyatini rivojlantirish, amaliyotning mavzudan-mavzuga, sinfdan-sinfga murakkablasha borish yo'llari ham, o'rghanish jarayonining faol kuzatishdan boshlanib, amaliy qo'llash bilan yakunlanishi ham ongli verbal kognitiv — psixodidaktik asoslarga to'la mosdir. Bunday ta'lim usulini amaliyotda izchil qo'llash, bu yo'nalishdagi ilk tajribalar bo'yicha ayrim mulohazalarni bayon etish mumkin:*

*I. Darsliklarda berilgan ma'rifiy materiallardagi uslubiy nuqsonlar, imloviy kamchiliklarni, topshiriqlar, matnlar, mashqlar shartidagi g'atizliklarni zudlik bilan bartaraf etish;*

*II. "Ona tili" mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashni o'rghanish va rivojlantirish. Buning uchun birinchi galadagi vazifalar sifatida quyidagilarni sanash mumkin:*

*1. Ona tili ta'limida zamонавиј, yangi pedagogik texnologiyalarni o'qituvchilar orasida keng оммалаштириш lozim. O'qituvchi zamонавиј kompyuter o'quv dasturlarini, interfaol faoliyatni, kashfiyotga asoslangan ta'lim usulidan amaliy foydalanishni o'rGANIB olmas ekan, ta'lim natijalarida katta samaradorlikka erisha olmaydi.*

*2. Yangi avlod darsliklari va zamонавиј pedagogik texnologiyalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish uchun talaba (o'quvchi) qo'shimcha axborot (izlanish, topish va saralash) manbalari bilan ta'minlangan bo'lishlari shart: hozircha bu manbalar darslikning o'zi, talabaning xotirasidagi, kundalik turmush, boshqa o'quv fanlaridan, atrofdagilardan so'rab-surishtirib olinadigan ma'lumotlardan iborat. Bu, albatta, yetarli emas. O'qituvchilar ona tili boyliklarini talabalarga yetkaza oладиган qomusiy ma'lumotnomasi (axborotnomalar), turli xildagi (izohli, uyadosh so'zlar, ma'nodosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, tarixiy so'zlar, yangi so'zlar, tasviriyl ifodalar, iboralar, turg'un birikmalar, so'zlarda ma'noviy darajalanish, olinma so'zlar, ters lug'atlar, asosdosh so'zlar lug'ati, ohangdosh so'zlar lug'ati, qo'shimchadosh so'zlar lug'ati, shakldosh so'zlar lug'ati v.h.) lug'atlar bilan ta'minlangan bo'lishlari (ular bosma (kitob) shaklida hamda disket shaklida berilishi mumkin) shart. Shunda darsliklarning hozirgi hajmi hamda moddiy xarakatlar keskin qisqarib, ular asosan, har bir mavzuni o'rghanish (har bir mavzu doirasida maqsadli va ijodiy fikrlash, hamda matn yaratish topshiriqlari) algoritmidan iborat bo'lar edi. Albatta, bu juda katta ish. Uzluksiz ta'limda bunday ta'lim usuliga qadam qo'yish, ijodkor shaxs tarbiyasini bosh maqsad qilib*

qo'yish demakdir.

*III. Mashq va topshiriq shartlari hamda ayrim ko'rsatmalar, ixcham ramziy belgilar bilan almashtirilsa, (chunonchi: "Bilib oling!" o'rniiga! (undov belgisi), muammo va savollar o'rniiga? (so'roq belgisi) kabi) talabalarda mustaqil va ijodiy fikrlash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.*

Bundan tashqari, darsliklar, elektron o'quv adabiyotlarida berilgan matnlar, testlar, mustaqil ishlarni ijodiylashtirish hamda takomillashtirish ustida o'ylash va izlanish lozim. Buning uchun darsliklarda o'z aksini topgan sharqona tesilar, topqirlar bellashuvi, quvnoqlar va zukkolar musobaqasi uchun zarur bo'lgan savol va topshiriqlar miqdorini oshirish maqsadga muvofiqdir.

— “O'zbek tili” mashg'ulotlarida o'quv materiallari muayyan izchillikda maqsadli yo'naltirilishi, mavzuiy — muammoli tizimda, ya'ni ma'lum bir mavzu (lug'aviy—grammatik maydon) doirasida tilimizning barcha imkoniyatlaridan, ifoda va tasviriy vositalaridan bir yo'la, o'zaro bog'lanishda o'rganishga o'tish (chunonchi, fonetika, (leksikologiya, morfologiya, sintaksis) bo'limini o'rganishda matn yaratish texnologiyalariga jiddiy e'tibor berish zarur.

## O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASI O'QUV PREDMETI, FAN HAMDA AMALIYOT SIFATIDA

"Metodika" atamasi qadimgi yunon tiliga xos bo'lib, pedagogika fanining sohalaridan birini anglatadi. U muayyan o'quv predmetiga o'qitishni bildiradi. Hozirgi paytda bu atamaning uch xil ma'no anglatishi kuzatiladi. Bular o'quv predmeti, fan hamda amaliyot sifatidagi ma'nolardir.

*O'zbek tili o'qitish metodikasi fani hozirgi kungacha boy tajriba to'pladi. U pedagogika fanlari tizimidagi mustaqil fan sifatida shakllandi, rivojlandi, hozir ham rivojlanishda davom etmoqda. Uning mazmuni ona tili ta'limining izchil tizimini ishlab chiqish, ona tili darslarini tashkil etishga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etishgina emas, balki metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o'rghanishning interfaol metodlarini o'zida aks ettirgan ilmiy asoslarini ishlab chiqishdir.*

### METODIKA O'QUV PREDMETI SIFATIDA

Metodika birinchi navbatda o'quv fanidir. U bo'lajak ona tili o'qituvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarliklarini ta'minlashga qaratilgan. Bu tayyorgarlikni ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminarlar shaklida amalga oshirish ko'zda tutiladi. Ularning mazmuni va hajmi tegishli DTS, o'quv dasturlari asosida belgilanadi.

O'zbek tilini o'rghanish metodikasi fani quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi:

- 1.O'zbek tili o'qitish fani taraqqiyotining asosiy bosqichlari.
- 2.Ta'limning lingvodidaktik asoslari. Mazkur bo'lim O'zbek tilini o'rgatish metodikasini o'quv hamda ilmiy-nazariy fan sifatida o'rghanishni, uning boshqa fanlar bilan aloqasini, tadqiqot metodlarini, ta'lim tizimini, ta'limni tashkil etishdagi maqsad vavazifalar, prinsiplar, metodlar, vositalar va shakllarni nazarda tutadi.
- 3.Ta'limning muloqot (fonetik, leksik, grammatic, uslubiy...) vositalarini o'rghanishning metodik asoslari.
- 4.Muloqot faoliyati (eshitish, gapirish, o'qish, yozish, yozma nutq) ga o'rgatishning metodik asoslari.
- 5.Ta'lim jarayoni (mashg'ulotlar, dars tiplari, til o'rghanish)ni nazorat qilish, baholash, auditoriyadan tashqari tashkil etiladigan ish shakllari, ta'limning zamonaviy texnologiyalarini rejalashtirish) ni tashkil etish

va ta'minlash.

6.Ona tili o'qituvchisining professogrammasining mazmuni hamda ona tili o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar.

7.Ona tiliga o'rgatishning bosqichlari, darajalari hamda yo'nalishlari.

O'zbek tili o'qitish metodikasi asoslarini o'quv predmeti sifatida puxta o'zlashtirish asosida bo'lajak til va adabiyot o'qituvchilari ona tili ta'limining maqsad va vazifalari (o'quv faoliyatining natijasi qanday bo'lishi kerak?) qanday ekanligini, ushbu ta'lim mazmuni (nimani o'rganish kerak?)ni, tegishli tarzda ajratilgan vaqt oralig'ida tilni egallashning qanday metod va usullar vositasida ta'minlanishi (qanday o'qitish?)ni, qo'yilgan maqsadga erishish va rejalahtirilgan ta'lim mazmunini amalga oshirishda qanday (nimaning vositasida) vositalardan foydalanish zarurligini bilib olishadi.

Qisqacha qilib aytganda, ona tili o'qitish metodikasi fani bo'lajak til va adabiyot o'qituvchilarida kasbiy layoqatlilik hamda kommunikativ layoqatlilikni shakllantirishdan iboratdir. Kasbiy layoqatlilik deganda tilni o'qitishga oid usul va metodlar bilan tanishish asosida tilni o'rgata olish qobiliyati nazarda tutiladi. Kommunikativ layoqatlilik deganda esa o'rgatilayotgan tilga nisbatan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini tatbiq eta olish qobiliyati ko'zda tutiladi.

Alovida ta'kidlash lozimki til o'qitish metodikasi fanining obyekti tildir. Xuddi shu narsa uning boshqa barcha o'quv predmetlaridan farqli jihatini tashkil etadi. Yaxshi ma'lumki, til belgilari tizimidan iborat. Bu belgilari yozuv yoki tovushlardan iborat bo'lishi mumkin. Ular vositasida kishilik jamiyati a'zolari o'zaro fikr almashish imkoniga ega bo'lishadi. Nemis faylasufi va tilshunos olimi V.Gumboldning obrazli tarzda ifodalaganidek, "til – xalq ruhidir, unda millatning "barcha xislatlari" muhrlangan bo'ladi". Fikr ifodasining quroli hamda kishilar orasida muloqot vositasi vazifasini ado etish tilning eng muhim xususiyatidir. Xuddi shuning uchun til ham ona tili, ham xorijiy til sifatida o'rganiladi.

Olimlarning ko'rsatishicha, bolalar ona tili xususiyatlarini o'rganishga besh yoshidayoq tayyor bo'ladi.

Metodika fanini o'quv predmeti sifatida uch turga ajratish mumkin:  
*umumiyy metodika, xususiy metodika, maxsus metodika.*

Umumiyy metodika ona tilini o'qitishning qonuniyatları va xususiyatları tavsifiga bag'ishlangan bo'lib, bunda o'qitishning ta'lim bosqichlari va yo'nalishlariga bog'liq bo'lgan aniq shart-sharoitlari e'tiborga olinadi. Jumladan, o'quvchilarning tarkibi rang-barang bo'lishiga qaramay, o'quv materiallarini tanlash, ularni o'quvchilarga yetkazish usullari, mashqlar tizimi, texnik vositalar bilan ishslash

usullari, ta'limgan turli sharoitlaridagi baholash tizimi bir xil bo'lishi mumkin.

Xususiy metodikalar ona tili o'qitishni alohida sharoit va talablar doirasida o'rganishni ko'zda tutadi. Ba'zan tilga o'rgatishning umumiyligi qonuniyatlarini bilishning o'zi kamlik qiladi. Hayotda til o'qitishning mutlaqo o'ziga xos, maxsus muammolariga duch kelib qolish mumkin. Bu ta'limgan turli bosqichlari, tiplari bilan, o'quvchilar kontingentining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Xuddi mana shu holatlar xususiy metodikaning obyekti bo'la oladi. Nofilologik yo'nalishlarda ona tilini o'rgatish metodikasi, lotin yozuvini asosidagi yangi o'zbek alifbosini imlosini o'rganish xususiyatlari va boshqalar ayni mana shu tipdagi o'rganish obyektlari sirasiga kiradi.

Maxsus metodika o'rganilayotgan tilning alohida olingen bir jihatini bilangina bog'liq bo'ladi. Bunga tilning alohida aspektlari, maxsus texnik vositalar yordamida til o'rganish, maxsus sharoitlar vositasida til o'rganish, mashg'ulotlarda nazorat qilishning alohida ko'rinishlaridan foydalanish, tilga oid auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan mustaqil ishlari va boshqalar kiritilishi mumkin. Badiiy asar tili vositasida ifodalari o'qishga o'rgatish, dialogik nutqni o'rganish xususiyatlari, adabiy talaffuz me'yorlarini o'rganish, sheva xatolarini bartaraf etishda badiiy asarlardan foydalanish va boshqa holatlarda maxsus metodikaga zarurat sezildi.

## METODIKA FAN SIFATIDA

Metodika pedagogika turkumiga kiraadigan fan sohasidir. Yuqorida aytganimizdek, metodika pedagogikaning xususiy didaktika tarmog'iga tegishlidir. U alohida olingen o'quv predmetining o'qitish nazariyasini tashkil etadi. O'zbek tili o'qitish metodikasi fan sifatida shu tilga o'rgatishning maqsadi, mazmuni, vositalari, metodlari, tashkiliy shakllarini o'rganadigan, shuningdek, uni o'rganish jarayonida shu til vositasida tarbiyalash hamda uni egallash haqidagi ta'limgotdir. Metodika atamasi ta'limgan, tilni egallash hamda undan foydalana olish tushunchalarini yaxlit holda ifodalaydi.

Ta'limgan o'qituvchi va o'quvchilarining hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Til darslarida o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlari vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa mazkur tajribani o'zlashtirib boradi, oxir-oqibatda esa shu tildan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lib borishadi. Bunda turli hayotiy vaziyatlarda tildan muloqot vositasini sifatida foydalanishlari nazarda tutiladi. Tilni bunday

tarzda o'zlashtirishdagi asos ta'lim jarayonida egallanadigan bilim, nutqiy ko'nikma va malakalar bo'lib, ular yaxlitlikda o'quvchilarning kommunikativ layoqatliligini tashkil etadi. Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning rang-barang ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etishda ular o'zlarigagina xos bo'lgan ayirma va tafovutlarga tayanishadi.

Metodika fani til o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish bilan shug'ullanadi. O'zbek tilini o'rganish metodikasining o'z predmeti bor. Bu o'zbek tilidir. O'zbek tili ona tili o'qitish metodikasi fanining ham maqsadi, ham vositasidir. Tilni o'rganish maqsadi o'quvchilar uchun til tizimi bilan tanishish hamda ulardan amaliyotda, hamda ilmiytadqiqot faoliyatida foydalanish imkonini beradi. Ta'lim vositasi sifatida esa til tegishli matnlardagi axborotlarni o'zlashtirish hamda tegishli shartsharoit hamda ehtiyojlarga mos va munosib bo'lgan matnlarni yaratish uchun asos bo'ladi.

O'zbek tilini o'qitish metodikasining tegishli tushunchalar tizimi ham mavjud. Ular o'ziga xos atamalar bilan ifodalanadi.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining tadqiqot obyekti tilga o'rgatish jarayoni bo'lib, uning asosiy mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga til haqidagi bilimlarni yetkazish hamda muloqot jarayonida tildan foydalanishga oid ko'nikma va malakalarning shakllanishi tashkil etadi. Ta'lim jarayonida ona tili vositasida o'qituvchi va o'quvchining dars paytidagi o'zaro hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlari, ular bilan auditoriyadan tashqari ishlar shaklida ta'lim, tarbiya, umumiy rivojlanishga oid masalalar hal etiladi.

## METODIKA AMALIYOT SIFATIDA

Metodika fanining yana bir qirrasi uning amaliy xarakteri bilan belgilanadi. Zero, u ta'lim jarayonida o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga erishishni ta'minlaydigan o'qituvchi mehnatining shakl hamda usullari majmui haqida tasavvur beradi. Atama anglatayotgan mazkur ma'no "o'qitish texnologiyasi" yoki "mehnatni ilmiy tashkil etish" tushunchalarida ham mujassamlashgan.

Til o'qitish metodikasini o'rganish — turli ta'lim bosqichlariga mos, qulay metodlarni izlash, tanlash, amaliyotda qo'llay bilishdir. U ilg'or tajribalarni umumlashtirish, o'qitishning zamонавиу texnologiyasini ishlab chiqish va undan samarali foydalanishga asoslanadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Metodika fani nimani o'rganadi?
2. Metodikaning o'quv predmeti sifatidagi o'ziga xosliklarini izohlab bering.
3. Uning fan sifatidagi xususiyatlarini tushuntiring.
4. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar (fonetika, grafika, hozirgi o'zbek adabiy tili, shevashunoslik, tilshunoslik asoslari) dan farqini tushuntirib bering.
5. Aniq misollarda umumiy, xususiy hamda maxsus metodikaning o'ziga xosliklarini izohlab bering.

## **O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI**

Biz ona tili o'qitish metodikasining mustaqil pedagogik fan ekanligini bilib oldik. Shu bilan birgalikda u bir qator boshqa fanlar bilan zinchaloqadorlikda yashaydi. Ularning eng asosiylari haqida to'xtab o'tish joiz ko'rindi. Bular qatorida falsafa, mantiq, lingvistika, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, jamiyatshunoslik va boshqalarni kiritish mumkin. Boshqa fanlarga oid ko'rsatkich va faktlar esa bilvosita aloqadorlikka ega.

### **Metodika va pedagogika**

Yuqorida metodikaning pedagogika fani alohida sohasi – didaktikaning tarkibiy qismlaridan biri ekanligini aytib o'tdik. Didaktika har qanday fanni o'qitishning umumiyligini qonuniyatlarini o'rganadi. Xususiy didaktika esa alohida olingen bitta predmetning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Demak, o'zbek tilini o'rganish metodikasi faqat shu tilni o'rganish xususiyatlariiga bag'ishlangani bilan ajralib turadi.

Metodika fanining ko'plab kategoriyalari, atamalari pedagogika fanidan o'zlashgan. Xususan, ta'limga prinsipleri, ta'limga jarayoni, unga oid qonuniyatlar, metodlar, ta'limning tashkiliy shakllari shular jumlasidandir. Ta'limga, o'qitish, amaliyot, tarbiya, bilim, rivojlanish, o'zlashtirish singari pedagogik kategoriyalar metodika sohasida ham faol qo'llanadi. Albatta, ularning shu sohaga oid mazmun bilan boyiganligini ham e'tirof etish kerak. Demak, metodika sohasida umumdidaktik qoida va tamoyillar bilan birgalikda, faqat shu sohaga, til o'qitish didaktikasiga xos bo'lganlari ham qo'llanadi. Masalan, ta'limning umumdidaktik prinsipleri hisoblangan ko'rgazmalilik, onglilik, tushunarilik, bolaning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish bilan bir qatorda metodikada ta'limning og'zaki shakli, kommunikativlik, nutqiy faoliyat shakllarining o'zaro aloqadorligi singari alohida tamoyillar ham o'rin olgan.

### **Metodika va psixologiya**

Psixologiya – “inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqeqlikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, xislatlar to'g'risidagi fan” (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 7-jild, Toshkent, 2004, 189-bet). Psixologiya fani metodika uchun tilni o'rganish xususiyatlari, o'quvchilarning individual-psixologik o'ziga xosliklari,

haqidagi ma'lumotlarni beradi. Bular ta'lim jarayonida, bilmlarni, nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida e'tiborga olinishi lozim. Psixologiya bo'lajak o'qituvchilarni tilni egallash motivlari, o'qish jarayonida xotiraning shakli va ahamiyati, o'quv faoliyatining xarakteriga ko'ra o'quvchilarning o'ziga xosliklari haqidagi tasavvurlar bilan qurollantiradi.

Motiv psixologiyadagi asosiy kategoriyalardan bo'lib, muayyan bir faoliyatga nisbatan intilishni anglatadi. Bu intilish esa insondagi muayyan bir (biologik, ilmiy, ma'rifiy, aqliy, axloqiy-ma'naviy, estetik) ehtiyojlarni qondirish bilan aloqadordir. Til darslaridagi motivlarni tabiatiga ko'ra ikkiga ajratish mumkin:

- a) anglangan motivlar;
- b) anglanmagan motivlar.

Anglangan motivlar sirasiga shaxsdagi qiziqish, e'tiqod, ishonch, intilishlar kiritiladi. Motivlar obyektiv (tildan xizmat faoliyatida foydalanish, uning ifoda imkoniyatlarini chuqurroq anglash) va subyektiv (yaxshi baho olish, rag'batlantirish) tiplarga ajratiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan motivlarni bilishi hamda imkoniyat doirasida ularni kengaytirib borishi shart. Buning asosiy omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: o'quv materialidagi yangiliklar, mashg'ulotlarga nisbatan qiziqish, o'qituvchining tegishli materiallarning amaliy faoliyat uchun muhimligini tushuntirishga oid malakasi.

O'rni kelganda alohida ta'kidlash lozimki, til o'rganish jarayonida o'quvchilardagi xotira tiplariga xos xususiyatlarini e'tiborga olish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologiyada qisqa muddatli va uzoq muddatli xotiralar, emotsional va obraz xotirasi, so'z-mantiq xotirasi, ixtiyor va ixtiyorsiz xotira kabi turlar tasnif qilinadi. Shuningdek, ko'rish xotirasi, eshitish xotirasi, aralash xotiralar, mantiqiy va obrazli, erkin (ongli) yoki erkin bo'limgan (intiutiv) xotira tiplari mavjud.

Kommunikativ xususiyatlarga ega yoki ega emasligiga ko'ra o'quvchilar ikkiga ajratiladi. Ularning bir tipini ekstravertlar, boshqasini intravertlar degan guruhlarga ajratishadi. Birinchi tipga mansub o'quvchilar muloqotga juda oson kirishadi, ular uchun guruhli mashg'ulotlar juda qiziqarli bo'ladi, rolli o'yinlarda zavq bilan ishtirok etishadi, til topqirligida ularning faolligi kuzatiladi. Ikkinci tipdagilar esa til materiallarning tahlilida, qoidalarni ongli tarzda o'zlashtirishda ajralib tursalar-da, muloqotga qiyin kirishadi, xato qilib qo'yishdan qo'rqqanlari uchun imkonи boricha kam gapirishga harakat qilishadi. Bunday o'quvchilar uchun nutqiy faoliyatdan ko'ra izohli mashg'ulotlar

afzal bo'ladi, ular uchun o'qish va yozma ishlarni bajarish asosiy ish shakllari bo'lgani ma'qul.

### **Metodika va psixolingvistika**

Psixolingvistika nisbatan yosh fanlardan biri bo'lib, nutqning hosil bo'lishi, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini til tizimi bilan o'zaro aloqadorlikda o'rghanadi. Unda psixologiya va lingvistika fanlari uyg'un holda sintezlashgan. U tekshirish manbaiga ko'ra lingvistikaga, ularni tekshirish metodiga ko'ra esa psixologiyaga yaqin turadi.

### **Metodika va tilshunoslik**

O'zbek tili o'qitish metodikasi birinchi navbatda umumiy tilshunoslik hamda tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog'liqidir. Tilshunoslik o'zbek tili o'qitish metodikasi uchun eng yaqin va muntazam aloqodorlikda bo'ladigan fandir. Tilshunoslik – tilning qurilishi va amaliyotiga oid umumiy qonuniyatlarini o'rghanuvchi fan. Tilni o'rghanish metodika fanining predmetini tashkil etadi. Ayni shu sohaning tilshunoslik uchun obyekt ekanligini esda tutish lozim.

Ta'limning lingvistik mazmuni til (fonetika, leksika, grammatika grafika, orfografiya) tilning funksional uslublari (ilmiy, publitsistik, rasmiy – idoraviy, so'zlashuv, badiiy) tarkibiga kiruvchi gap modellari, nutq tiplari (dialog, monolog, polilog) va janrlari yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Metodika uchun eng muhim bo'lgan asosiy lingvistik qoidalar esa quyidagilardan iboratdir:

**Til ilmi ta'llimi maqsadlarida til va nutq tushunchalarini farqlash.** Bunday farqlash dastlab shvetsariyalik mashhur tilshunos Ferdinand de Sossyur (1857-1913) tomonidan amalga oshirilgan edi. F.Sossyur "Hind-Ovrupa tillarida dastlabki unlilar tizimi haqida memuar", "Sanskrit tilida absolyut qaratqich kelishigining qo'llanishi haqida" singari tadqiqotlar muallifidir. Garchi u uzoq yillar davomida o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullangan bo'lsa-da, bu davrlarda uning birorta ham umumnazariy asarlari e'lon qilingan emas. "Umumiy tilshunoslik kursi" kitobini esa uning vafotidan so'ng talaba-shogirdlari Sharl Balli va Alber Seshe konspektlar asosida yig'ishgan. Garchi Balli 1895-1905, Seshe esa 1891-1893 yillar davomida bir qator fanlar bo'yicha F.Sossyurdan leksiylar eshitgan bo'lsa-da, ularning o'zлари "Umumiy tilshunoslik kursi" ni tinglashgan emas. Bu kursni 1910-1911 yillarda Seshening turmush o'rtog'i eshitib yozib olgan, Seshe ulardan foydalangan edi. Xuddi shuningdek, kitobni tayyorlashda A.Ridlinger yozuvlaridan ham foydalanishgan. Kitob juda tez shuhrat qozonadi. U tilshunoslikdagi

ko‘plab yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga yo‘l ochib berdi. Ayniqsa, struktur tilshunoslik F.Sossyur tufayli keng quloch yoydi. Psixologik hamda sotsiologik tilshunoslik g‘oyalari ham F.Sossyur tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

F.Sossyurning til va tafakur munosabatalariga oid kuzatishlari, ayniqsa, katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. F.Sossyur uchta tushunchani o‘zaro aloqadorlikda tekshiradi. Bular, nutqiy faoliyat, til va nutq. Uning talqinicha, nutqiy faoliyat rang-barang xarakterga ega. Til tushunchasi nutqiy faoliyat tushunchasi bilan umuman mos tushmaydi. Til – nutqiy faoliyatning faqat ma’lum qismi, uning ijtimoiy uzvi, xolos. Til – belgilar tizimi bo‘lib, nutqiy faoliyatning namoyon bo‘lishidagi barcha holatlar uchun asosdir. Nutqiy faoliyat – til imkoniyatlarining amalga oshish holatlaridir. U tilning individual tarzdagi qo‘llanishi, fikrning til yordamida shakllanishi va shakllantirilishiga oid usullar tizimidir. Tilga nutqiy faoliyat zid qo‘yiladi. Nutqiy faoliyat axborotning til tizimi vositasida hamda muloqot vaziyati bilan shartlangan tarzdagi qabul qilinishi va yetkazilish jarayonidir. Nutq – iroda va tushunchaning individual holat(akt)idir. F.Sossyurning ta’kidlashicha, “til taraqqiyoti aynan nutqiy hodisalar tufayligina amalga oshadi: bizning lisoniy malakalarimiz boshqalarni eshitish asosidagi tasavvurlar tufayli o‘zgaradi”<sup>1</sup>.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Metodika uchun qaysi fanlar asos vazifasini ado etadi? Fikringizni misollar bilan asoslang.
2. Metodika fanining qanday ahamiyati bor? Ularni ko‘rsatib bering.
3. Ona tili o‘qitish metodikasining tilshunoslik fanlari bilan bo‘lgan aloqalari haqida nima deya olasiz?
4. F.Sossyurning “til taraqqiyoti aynan nutqiy hodisalar tufayligina amalga oshadi: bizning lisoniy malakalarimiz boshqalarni eshitish asosidagi tasavvurlar tufayli o‘zgaradi”, – degan fikrlariga qo‘shilasizmi? Uni qanday izohlash mumkin?

1 Ushbu mavzuni yoritishda N. S. Sharofutdinovaning Теория и история лингвистической науки. – Москва, Восток-Запад, 2008. kitobidan foydalanildi

## O'ZBEK TILI O'QITISH MAZMUNI

Ta'lif mazmuni masalasi pedagogika tarixida eng qadimiy va ayni paytda eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Pedagog olimlar jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida "Nimani o'qitish kerak?" degan savolga javob izlash bilan shug'ullandilar va hali-hamon bu savolga to'liq, har tomonlama mukammal javobni topa olganlaricha yo'q. Ta'lif mazmuni bo'yicha berilgan va berilayotgan barcha ma'lumotlar jamiyat va taraqqiyot uchun nisbiyligicha qolaveradi. Chunki odamlar yashaydigan jamiyat doimiy rivojlanishda, takomillashishda davom etadi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida beto'xtov ilgarilab boradi.

Ta'lif mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko'ra, pedagogik texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi.

Ta'lif mazmunini shakllantirish zamonaviy pedagogikada 4 ta muhim tarkibiy qismlar hisobiga amalga oshiriladi:

I. **Talabalar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi** (til faktlari, tushunchalar, qoidalar, ta'riflar tizimi);

II. **Tanlangan ilmiy-nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi;**

**Ko'nikma** — egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati, **malaka** esa muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvidir.

III. **Talabalarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish;** faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va ilmiy-ijodiy darajada bo'lishi mumkin;

**Qayta xotirlash faoliyati** — o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyatidir. Bu esa o'rganuvchining faoliik darajasini chegaralaydi. U izlanishga, kashf qilishga ehtiyoj sezmaydi.

Qisman izlanuvchanlik faoliyatida talaba yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida til hodisalarining o'xhash va farqli tomonlari ustida o'yashi, uni topishi, avvalgi bilimlarni qisman noma'lum sharoitlarda qo'llashi lozim.


**Ilmiy-ijodiy faoliyatda** talaba hech qanday tashqi yordamsiz, olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda (masalan, kompyuterda) qo'llay olishi, faoliyat uchun zarur bo'lgan, lekin o'zida bo'Imagan bilimlar manbalarini bilishi, ulardan nutqiy vaziyat taqozosiga ko'ra unumli foydalanish usullarini egallashi talab qilinadi. Talabaning ijodiy faoliyat

tajribasiga qanchalik ko‘p asoslanilsa, ta’limning samaradorlik dárjası shunchalik yuqori bo‘ladi.

#### IV.Talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi (5-jadval).

Bu munosabatlar o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka asoslanmog‘i lozim.

1-jadval



**Ko‘nikma:** Egallangan tajribalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

**Malaka:** Muayyan harakatlarni bajarish va boshqarish jarayonlarining avtomatlashuvi.

Ongli verbal – kongnitiv ta’lim (OVKT) tizimi.  
Hakorlik tizimi.  
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning amaliy tatbiqi.


Ta’lim mazmunining bu tarkibiy qismlari chiziqsimon birin-ketinlikda joylashgan hodisalar emas, balki aylanasiomon yaxlitlik bo‘lib, bu aylananing boshlanish va tugallanish nuqtasi birinchi va to‘rtinchi qismlarni, aylana doirasi esa ijodiy-amaliy ko‘nikmalarni tashkil etadi.

**O'zbek tili o'qitish mazmuni** — fonetika, leksikologiya, grammatika (morphologiya va sintaksis), uslubiyat, to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z tanlash va gap tuzish; ijodiy fikrlash, fikmi to'g'ri, aniq ifodalash, ifodalni o'qish (qiroat), matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi.

**"Talaba — ta'lif — o'qituvchi"** tizimi yangilangan ta'lif mazmunida yetakchi omildir. Bo'lajak ona tili o'qituvchisi metodika fanini chuqur o'rganishi, kommunikativ savodxonlik me'yordi bo'yicha DTS talablarini yaxshi bilishi darkor. Shuningdek, o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitishning xilma-xil usullarini bilishi, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishni o'rganishi, egallangan nutqiy ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, rivojlantirish, takomillashtirish, ularni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan izchil ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

2-jadval

## Til imkoniyatlari



### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'zbek tilini o'qitish mazmuniga nimalar kiradi?
2. "O'qitish mazmuni" tushunchasi doimiy, o'zgarmas tushunchami?

Nima uchun?

3. Ta'limning turli bosqich va yo'nalishlarida tilni o'zlashtirish mazmuniga qo'yiladigan talablarda nimalarga e'tibor beriladi?
4. Kommunikativ layoqatlilik nima? Uning mazmuniga nimalar kiradi?
5. Ko'nikma nima? Malaka-chi?
6. "Talabaning ijodiy faoliyat tajribasiga qanchalik ko'p asoslanilsa, ta'limning samaradorlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi", — degan fikrga qanday qaraysiz? O'z mulohazalarinigizni bildiring.

## **O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASINING ASOSIY MAQSADI VA VAZIFALARI**

Eng avvalo til o'rganishning asosiy maqsadi nima? degan savolga javob berib ko'raylik. Metodist olimlar uni "tilni o'rganishda o'qitishning turli usullari, metodlari va vositalari yordamida oldindan rejalashtirilgan natijaga erishish" tarzida shakllantirishgan. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojlariga mutanosib holda shakllanadi. Demak, ta'lim va tarbiya maqsadi jamiyatning ijtimoiy buyurtmasiga mos va munosib bo'lishi, o'quvchilar uchun esa aniq o'qish sharoitida bu maqsadni amalga oshirish real bo'lishi lozim bo'ladi.

O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinali va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish; mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish; milliy istiqlol g'oyasini, sharqona tarbiyani shakllantirish; talaba shaxsini ma'naviy (balog'at va fasohat ilmi bilan) boyitishdan iborat. Til o'qitish metodikasining asosiy maqsadi quyidagi jadvalda aniq ko'rsatilgan.

*3-jadval*

O'zbek tili o'qitish metodikasi				
Amaliy maqsad	Tarbiyaviy maqsad	Ta'limiy maqsad	Rivojlantiruvchi maqsad	Yo'naltiruvchi maqsad

Jadvalda o'qitish maqsadi besh turda ko'rsatilgan:

**1. Amaliy maqsad:** til imkoniyatlaridan mustaqil va erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish. Bu maqsadni amalga oshirishda o'quvchilarining tilni muloqot vositasi sifatida o'zlashtirishlari nazarda tutiladi. Shu bilan bir qatorda ayrim umumo'quv malakalarining shakllantirilishi ham nazarga olinadi. Bular qatorida darslik, o'quv qo'llanmalari va badiiy adabiyot ustida ishlay olish, o'z fikr-mulohazalarini mantiqli va izchil tarzda ifodalay bilish, ayrim qaydlarni amalga oshirish, ta'limning zamonaviy texnologiyalaridan foydalana bilish va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Demak, amaliy maqsad faqat boshqalar bilan muloqotga kirisha olishni ta'minlashdangina iborat emas ekan. Til o'rganishdagi amaliy maqsadning bu tarzda kengroq tushunilishi uning chegarasizligini anglatmaydi. Har bir ta'lim bosqichi va aniq sharoitdan kelib chiqqan holda uning turlari ham boshqa-boshqa bo'lishi tabiiydir. Tilni amaliy jihatdan egallash darajalarini belgilash hamda bu jarayondagi oraliq va oxirgi maqsatlarni aniqlash zarurati ham mavjud. Bu mulohazalar nutqiy faoliyat turlariga ham tegishli.

**2. Ta'limiy maqsad:** talabalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini egallash, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni shakllantirish. Bu yerda o'quvchilarining umumiy madaniy savyasini yuksaltirishga asosiy urg'u tushadi. Asosiy maqsad til vositasida ularning dunyoqarashlarini kengaytirishdan iborat bo'ladi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda turli mavzu va hajmdagi matnlar, o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan suhbatlar, dolzarb hayotiy muammolarning muhokamasi, o'qilgan badiiy asarlar, ko'rilgan filmlar tahlili qo'l keladi. Ta'limiy maqsadlarga erishish o'quvchilarining mantiqiy tafakkurining rivojiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, o'quvchilar tilni egallash jarayonida reja va qisqa tezislardan tuzish, reja asosida hikoya qilish singari topshiriqlarni ham bajarib borishadi. Ular, ayni paytda, o'quvchilarining umumiy muloqot madaniyatining, aqliy mehnat usullarining takomillashib borishiga ham xizmat qiladi.

**3. Tarbiyaviy maqsad:** ma'naviy, g'oyaviy-estetik tarbiya berish. Til o'rganish jarayonida xalqning ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashish imkonini ko'payadi. Birgina maqollarni olib ko'raylik. Ularda xalqning asrlar davomida shakllangan baholovchi-emotsional qarashlari ham mujassamlashgandir: *Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar, yomonga yaqin yursang, balosi yuqar. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi.*

**4. Rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchi shaxsini aqliy jihatdan

rivojlantirish. Ona tilini o'rgatish jarayonida o'quvchining lisoniy qobiliyatları bilan birgalikda ona tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ham ortib boradi, ayni paytda uning irodaviy xususiyatlari, xotirasi baquvvatlashadi, til vositasida esa olam va odamga bog'liq bo'lgan turfa ma'lumotlarni o'zlashtiradi.

**5.Yo'naltiruvchi maqsad:** talaba tafakkurini kelajakni ko'zlagan holda maqsadli yo'naltirish. Fanda bu turga nisbatan global yoki strategik maqsad degan nom berilishi ham tasodifiy emas. Til vositasida o'quvchilarning dunyoqarashlari kengayadi, umummadaniy saviyalari ko'tariladi, badiiy-estetik didlari kamol topadi. Agar til darslarida o'quvchining kelajakdagagi maqsadlari ham uyg'unlashtirilsa (masalan, chuqurlashtirib o'rganiladigan fanlar esga olinishi mumkin), yanada katta samaralar kafolatlanadi.

**Til metodikasini o'qitishning asosiy vazifasi** talabalarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og'zaki va yozma shaklda, adabiy til me'yorlari asosida to'g'ri ifodalay oladigan, bir ma'noni turli holatlarda bera bilish ko'nikmasi shakllangan, adabiy nutq me'yorlarini egallagan, yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir.

O'zbek tili o'qitish metodikasini o'rganish jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi:

- o'quv mashg'ulotlarini til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash, qiyoslash, umumlashtirish asosida olib borib, talabaning mustaqil va ijodiy fikrashi uchun keng imkoniyat yaratib berish;

- o'quvchi faoliyatini so'zga ehtiyoj hosil qiladigan o'quv topshiriqlari orqali maqsadli boshqarib borish, so'z boyligini oshirishni, tafakkur doirasini kengaytirish, nutqiy salohiyatni (og'zaki va yozma matn yaratish) shakllantirish;

- o'quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini orttirishning shakl, yo'l, vosita va usullarini o'rganish.

Demak, o'zbek tili mashg'ulotlarida talabani ijodiy va mustaqil fikrashga yo'naltirish, so'z tanlash, gapda so'zni to'g'ri va o'rinni qo'llash, o'z fikrini aniq, ixcham, ravon ifodalashga o'rgatish til o'qitish metodikasining birlamchi vazifasi bo'lsa, "**talaba — talaba**", "**talaba — o'qituvchi**" tizimida o'zaro muloqotni, bahs-u munozarani to'g'ri tashkil qilish, talaba tafakkurini rivojlantirish jarayonlarini oqilona boshqarish, fikr ifodalash malakasini shakllantirishni o'rganish, talabalarni o'qituvchilik mahorati va ilg'or texnologiya bilan tanishtirib borish metodika fanining ikkinchi va bag'oyat muhim vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilingach, ta'lim tizimini yangilash va takomillashtirish haqidagi tarixiy qarorlar qabul

qilina boshladi. Ijtimoiy hayotda tub o'zgarishlar, jamiyat hayotida keskin burilishlar yuzaga keldi. Garchi, 1992-yildayoq "Ta'lism to'g'risida"gi Qonun qabul qilinganiga qaramay, ko'p o'tmasdan uning jamiyatdag'i rivojlanishning talab va ehtiyojlariga mos kelmasligi ma'lum bo'lib qoldi. Shuning uchun ham 1997-yilda yangi tahrirdagi "Ta'lism to'g'risida"gi Qonun yuzaga keldi. Ushbu Qonun ta'lism tizimida yuzaga kelgan yangiliklarning huquqiy asoslarini ko'rsatib berdi.

1997-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'qqizinchi sessiyasida "Ta'lism to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Yangi tahrirdagi "Ta'lism to'g'risida"gi Qonunning asosiy tamoyillari quyidagicha belgilangan:

- ta'lism va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterga ega ekanligi;
- ta'lismning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiyo'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming majburiyligi; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lism tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lism standartlari doirasida ta'lism olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lism dasturlarini tanlashga demokratik tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lism tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish"<sup>1</sup>.

Uzluksiz ta'liming yangi tizimi bo'yicha talabalar alohida kollejlarda kasb-hunar egallash bilan birga umumiyo'rta ma'lumotli bo'ladilar, akademik litseylarda esa, chuqurlashtirilgan umumiyo'rta'lism tayyorgarligi oladilar. Bunda asosiy e'tibor yoshlarda mustaqil va ijodiy fikrash ko'nikmalarini hosil qilish va uni amalda ifoda eta olishlariga qaratiladi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Respublikamizda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

"Ta'lism to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" Respublikamizda ta'lism tizimining tubdan isloh qilinishiga, ta'lism tizimining barcha bo'g'lnlari uchun Davlat ta'lism standartlari ishlab chiqilishiga asos bo'ldi (1999-yil).

Endilikda ta'liming barcha bosqichlariga oid o'quv dasturlari va darsliklari yangilangan va takomillashtirilgan, uzviylashtirilgan DTS talablari asosida yaratilmoqda.

<sup>1</sup> Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдеворидир. – Т.: «Шарқ», 1997, 20-бет

### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Ta'lim maqsadi deganda nimani tushunasiz?*
2. *Ta'limiy maqsad tushunchasini izohlab bering.*
3. *Tarbiyaviy maqsad deganda nimalarni tushunasiz?*
4. *Strategik maqsadga tavsif bering.*
5. *Ta'limning tarbiyaviy maqsadi qanday vositalar orqali amalga oshadi?*
6. *“Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonunning asosiy tamoyillari til ta'limida qay tarzda amalga oshiriladi? Misollar bilan tushuntirib bering.*

## **O‘ZBEK TILI METODIKASI FANINING ILMIY TADQIQOT USULLARI**

Pedagogika va psixologoya fanlari sirasiga kiradigan ona tili o‘qitish metodikasi fani ham o‘zining nazariy asoslariiga va ilmiy tadqiqot metodlariga ega. “Metod” so‘zi yunoncha “methodos” so‘zidan olingan bo‘lib, tadqiqot yoki bilish yo‘li degan ma’noni anglatadi. Istilohiy tarzda esa, u maqsadga erishish yo‘li, usuli; qo‘yilgan maqsadga erishish uchun mo‘ljallangan muayyan tarzda tartibga solingan faoliyat ma’nolarini anglatadi.

Metodika fanining tayanch kategoriyalaridan biri sifatida ta’lim metodlari o‘qitish tizimi komponentlaridan birini tashkil etadi. Tegishli metodlar bo‘lmas ekan qo‘yilgan maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

“Metod” tushunchasining xilma-xil talqinlarga ega ekanligini nazarda tutish lozim. Bular:

1) umumetodologik tushuncha – bunda metod bilish vositasi, borliqni, tabiat hodisalari va jamiyatni tadqiq etish usuli;

2) umumdidaktik tushuncha – o‘qituvchi va o‘quvchining ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga imkon beradigan o‘zaro aloqador harakatlar tizimi;

3) xususiy didaktik tushuncha – o‘qitishdagi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatidagi strategiyasini belgilab beruvchi yo‘nalish sifatidagi talqinlardir.

Har qanday izlanuvchan, ijodkor o‘qituvchi samarali ishslash uchun ilm-u fan yutuqlari va ilg‘or ish tajribalaridan erkin foydalanishi, o‘quv mashg‘uloti jarayonida – talabalarni mustaqil fikrlash va erkin fikr ifodalash metodlari, usul va vositalari bilan tanishtirib borishi zarur. Mustaqil tadqiqot ishi, quyidagi ilmiy-tekshirish metodlari yordamida amalga oshiriladi.

Nazariy metodlar	Amaliy metodlar
analiz (tahlil) – sintez (tavsif)	kuzatish, tajriba o'tkazish
ilmiy farazlar	guruhash, qiyoslash, tahlil qilish, farqlash, tanlash
modellashtirish	ilg'or o'qituvchilar tajribasini o'rganish, natijalarini tahlil etish va umumlashtirish

Til o'qitish metodikasi bo'yicha ona tili o'qituvchilari, metodist — olimlar o'z ilmiy tadqiqotlari yuzasidan erishilgan natijalar haqida ilmiy anjumanlarda, vaqtli matbuotlarda, radio va teleko'rsatuvlarda o'rtoqlashadilar, pedagogik o'qishlarda ilg'or, zamonaviy dars namunalarini kuzatadilar, tanlaydilar va ommalashtiradilar. Bunda yangi pedagogik texnologiyalarni darsga joriy etish bo'yicha nazariy-metodik xulosalarning to'g'riligi asosli va ishonchli mezonlarda tekshiruvdan o'tkaziladi, ta'lim muassasalarida ko'p yillik tajriba-sinov ishlari olib boriladi, natijalar tahlil qilinadi.

Mazkur faoliyatni tashkil etish usullari xilma-xildir. Jumladan:

- o'qituvchi va talabalar bilan yakkama-yakka suhbat;
- anketa va savol varaqalari tarqatish, mayjud holatni o'rganish;
- tajriba-sinov ishlari dasturini ishlab chiqish;
- metodik merosni o'rganish;
- yangiliklarni o'rganish;
- ilg'or pedagogik texnologiyani dars amaliyotiga joriy qilish...v.h.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining yangilangan tizimiyl tilshunoslik nazariyasiga asoslangan mazmuni, talabani til hodisalarini turkumlash va farqlash, nutqiy ehtiyoj uchun tanlash, gap tarkibida to'g'ri va o'rinni qo'llash kabi biluv faoliyatining quyidagi usullari bilan quollantirishni zarur va shart deb hisoblaydi:

- 1) kuzatish va izlanish faoliyati;
  - 2) alohidalikni sharhlash va ularni o'zaro qiyoslash;
  - 3) analiz va sintez;
  - 4) umumiylikni anglash va farqlarni sharhlash;
  - 5) tasnif etish va hukm chiqarish;
  - 6) o'zaro aloqadorlikni aniqlash va uni xususiy nutqda qo'llash... v.h.
- So'nggi yillarda o'quvchilarning kommunikativ savodxonligi, nutqiy (og'zaki va yozma) ko'nikma va malakalari darajasini aniqlaydigan test

Savollari keng tarqaldi. Testlarning tajriba-sinov oldidan va undan so'ng o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Eksperimentdagi ilmiy farazning tasdiqlanishi yoki tasdiqlanmasligida test katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u texnika vositalari va internet yordamida bajarilsa, yaxshi samara beradi. Ta'lif jarayonida o'qitish va o'qish tushunchalari ajratiladi. Bunga ko'ra ham metodlar rang-barangdir. Uni quyidagi chizmada ko'rshimiz mumkin:

## Ta'larning umumdidaktik metodlari

O'qitish metodlari:  
ko'rsatish,  
tushuntirish,  
mashq qilish,  
amalda qo'llash,  
korreksiya,  
baholash

O'rganish metodlari:  
tanishish,  
anglash,  
mashqlarda  
ishtirok etish,  
o'z-o'zini  
tuzatish, o'z-  
o'zini baholash

## O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASINING QISQACHA TARIXI

Ona tilini o'qitish tarixi ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Sharqda IX-XV asrlarda ijtimoiy-madaniy hayotda yuksalish, ilm-fanda taraqqiyot kuzatiladi. Bu davrda O'rta Osiyoda yashab, ijod qilgan, qomusiy olimlarimiz turli fanlar bo'yicha erishgan yutuqlari bilan jahon madaniyatni, ma'rifati, ilm-u fan rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Markaziy Osiyoni jahonga tanitgan Al-Xorazmiy, At-Termiziyy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ismoil Jurjoniy, Marg'iloni, Zamaxshariy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ulkan mutafakkirlar beba ho kashfiyotlari bilan o'z xalqlarining shuhratini olamga yoydilar. Ular ta'lim va tarbiya bobida ham o'chmas iz qoldirdilar.

Chunonchi, buyuk mutafakkir Al-Xorazmiy "Sezgi orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiylar bilish haqiqatdir", — deydi va bilim egallashda ijodiy faoliyatni asos qilib oladi.

Sharqda "ikkinchi muallim" deb tan olingen (Arastudan keyin) Abu Nasr Forobiyning "Ta'lim-tarbiya berish usullari" asaridagi "Bilim, ma'rifat, yaxshi axloq bilan bilimdon, ma'rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun ta'lim jarayoni o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilishi lozim", — degan fikri "O'zbek tili o'qitish metodikasi"da ham asosiy, bosh mezon vazifasini o'taydi.

**Abu Rayhon Beruniy** har bir ishning kishi ruhiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lishiga alohida e'tibor beradi: "Bizning maqsadimiz talabani toliqtirib qo'ymaslikdir. Agar talaba bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi. Har bir yangi narsa o'rganuvchiga rohat bag'ishlaydi", — deydi buyuk alloma. Bu xulosa til hodisalarini o'rganishda, lisoniy materiallarni joylashtirish va o'qitishda dasturulamal bo'lishi shubhasizdir.

**Abu Ali ibn Sino** — buyuk hakim, tib ilmining sultonii, ulug' mutafakkir, fanning ko'plab sohalari qatori tilshunoslik bilan ham maxsus shug'ullandi, "Lison ul-arab" (Arab tili) nomli kitob ham yozdi<sup>1</sup>.

Abu Ali ibn Sino yozadi: "sening fikrlaring bola yuragiga yetib borib, unga o'ylab, fikr yuritib ko'rishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki do'sting so'zlaringga va nasihatingga e'tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga ko'chir".

<sup>1</sup> Қарант: А. Ирисов. Ҳаким Ибн Сино. — Т.: Ўзбекистон, 1992. 56-бет.

**Mahmud Koshg'ariy** XI asrdagi buyuk tilshunos olimdir. Garchi uning asari “Devonu lug‘ot it-turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) o‘z davridagi turkiy so‘zlarni izohlashga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, u so‘z va uning ma’nolarini aniqlash, so‘zdan nutqiy amaliyotda foydalanish, nutq madaniyati borasida ham ko‘plab ilmiy mulohazalar bildiradi, ilmiy xulosalar aytdi.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tildagi fonetik, morfologik qonuniyatlarini, leksik-sintaktik xususiyatlarni, uslubiy o‘ziga xosliklarni nozik did bilan qiyoslaydi va tahlil qilib beradi.

Muhimi, buyuk alloma XI asrda xalq tilida iste’molda bo‘lgan so‘zlarning asl manbasi, ularning “yashash joyi” bo‘lgan badiiy matnlar bilan birgalikda saqlanib qolishiga erishdi. Keyingi avlod vakillarining qadimgi adabiy til va og‘zaki nutq namunalari bilan tanishish imkoniyatidan bahramand qildi.

Alloma ko‘plab xalq qo‘shiqlari, ertak va afsonalari, maqol va hikmatli so‘zlarini ham yozib olgan. Ular orasida bevosita til va nutq jarayonlariga oidlari ham mavjud:

Ardam bashi til — Til (barcha) san’at-hunarning boshidir.

So‘zga suchunsa bo‘lun barir — Odam so‘zning shirinligi bilan lazzatlansa, unga asir bo‘lib ketadi<sup>1</sup>.

Mahmud Koshg'ariy maqollarning qo‘llanish o‘rinlarini ham ko‘rsatadi. “Suf ko‘rmaguncha etuk tartma” — “Suv ko‘rmasdan oldin etik yechma”. Bu maqol ishlarda mulohazali bo‘lishga undalgan kishilarga nisbatan qo‘llaniladi.

“Keng to‘n o‘bramas, kengashlig bilig artamas” — “Keng to‘n to‘zimaydi, kengashli ish buzilmaydi”. Bu maqol bir ish boshlashdan oldin boshqalar bilan kengashish, o‘zboshimchalik qilmaslikka undab aytildi”.

**Yusuf Xos Hojib.** Sharqdagi so‘z va undan foydalanishga qo‘yiladigan talablarga misol tariqasida Yusuf Xos Hojibning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: “Ko‘p so‘zlik foydasiz mashg‘ulotdir. Tuman so‘z tugunini bir so‘zda yozish mumkin. Zero, kishi so‘z tufayli qadr topishi yoki aksincha, boshi egik bo‘lishi mumkin. Demak, so‘z ma’nolarini ilg‘ash, so‘z ishlatish uchun ham bilmidonlik talab etiladi.

**Alisher Navoiy** o‘zbek tili ravnaqi uchun astoydil kuyindi... Turkiy til ravnaqi uchun qat‘iy kurash olib bordi. Navoiy asarlari til omillaridan, o‘zbek tilining leksik-grammatik imkoniyatlaridan unumli va mahorat bilan foydalanishning oliy namunasidir. Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher

1 Маҳмуд Кошгариј. Туркий сўзлар девони (Девони луготит турк). Уч томлик. Таржимон ва нашрра тайёрловчи С. М. Муталибов. —Т.: «Фан», 1963, 431-бет.

Navoiyning adabiy tilga muvofiq ijod etganini maxsus ta'kidlaydi: “*Andijon elining lafzi qalam bila rostdur, oni uchun kim Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim, anda nash'u namo topibtur, bu til biladur*”.

Navoiy tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidlaydi, uni “guhari sharif” deya ta'riflaydi. So‘z insonni hayvondan ajratgan ulug‘ ne’mat deya ulug‘laydi:

“Tengriki, insonni qilib ganji roz,  
So‘z bila hayvondin anga imtiyoz”<sup>1</sup>.

Navoiy har doim shaklning mazmunga uyg‘un bo‘lishini talab etadi:

Nazmki ma’ni anga marg‘ub emas,  
Ahli ma’oniq qoshida xo‘b emas.  
Nazmki ham surat erur xush anga,  
Zimnida ma’ni dog‘i dilkash anga<sup>2</sup>.

Umar az-Zamaxshariy, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Hoja Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning ma’rifiy fikrlari, axloqiy-ta’limiy qarashlari ham yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

XVI–XIX asr oralig‘ida ham metodika fanining o‘ziga xos tarzdagi taraqqiyoti kuzatiladi. Munis, Ogahiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin, Uvaysiy singari mutafakkir adiblarning ta’lim-tarbiya masalalariga ham alohida e’tibor bilan qaraganlari yaxshi ma’lum.

XX asr boshlaridagi tarixiy sharoit Turkistonda didaktik g‘oyalarning tarqalishi va rivojlanishi, ta’lim prinsiplari hamda ta’lim metodlari haqida ilmiy asarlar, metodik qo‘llanma va maqolalarning dunyoga kelishiga, pedagogika, qisman metodika fanining rivojlanishi va taraqqiy etishiga zamin yaratdi. Bunga misol sifatida Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini keltirish mumkin. U mazkur kitobida: “Muallim shogirdlariga bergen darslarini amal ila chog‘ishtirib o‘rgatmklari lozimdir, ta’lim ila berilgan dars va ma’lumot shogirdlarning diliga tez ta’sir qilib, ular ilmli, odobli bo‘ladilar”, — deb yozadi.

XX asr boshlarida an‘anaviy o‘qitish usullari yoniga yangi — yevropacha o‘qitish usullari ham kelib qo‘sila boshlaydi.

Dastur va qo‘llanmalarni yaratishda mahalliy ziyyolilardan Fitrat, Munavvar qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Qori Niyozov, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, Murod Shams, Xalil Qayumov, Majid Qodiriy va boshqalar faol ishtirot etadilar.

1 Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Еттинчи том. Ҳамса, Ҳайрат ул-аббор. —Тошкент. Фан, 1991, 58-бет.

2 Ўша китоб, 62-бет.

1940-yillarda O'zbekistonda S. A. Fessalonitskiyning "Ona tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasi nashr qilindi. Bu o'z davri uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Qo'llanmaning ko'p qismi nutq o'stirish va insho masalalariga bag'ishlangan bo'lib, morfologiya va sintaksis o'qitish metodikasiga alohida e'tibor qaratilmaydi.

1944-yilda Murod Shams "Orfografiya o'qitish metodikasi", K.Xayrullayev "Tipik orfografik xatolar va ularni bartaraf etish" mavzusidagi tadqiqotlarni amalga oshirishdi. Keyinroq, 1950-yilda "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasi nashr qilindi (Murod Shams), 1952-yilda "O'zbek tili o'qitish metodikasi"ga oid darslikning 1-qismi (Faxri Kamol tahriri ostida) bosmadan chiqdi. Mazkur qo'llanma va kitoblarda ona tili darslarini uyushtirish va o'tkazish bo'yicha zaruriy ko'rsatmalar, ona tili o'qitishni yaxshilash bo'yicha maslahatlar, mashg'ulotlarda nutq o'stirishning usul va vositalari, jadvallar majmuasi, dars ishlanmalari berilgan. Lekin orfografiya va punktuatsiyaga, matn ustida ishlashga oid masalalarga to'xtalimagan.

1960-yilda "Sintaksis va punktuatsiya o'qitish metodikasi" (H.Rustamov), 1969-yilda "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (N.Abdurahmonov) kitoblari nashr etildi. Ular o'z davridagi ona tili o'qitish metodikasiga qo'shilgan tegishli hissa sifatida baholanishi mumkin. Lekin bu qo'llanmalarda nutq o'stirish va uslubiy mashqlar, insho yozish mazmuni va metodikasiga yetarli o'rinn berilmaganligini aytish joiz.

1975-yili "O'zbek tili o'qitish metodikasi" faniga oid nisbatan yangi tipdag'i o'quv qo'llanmasi (Y. G'ulomov, I. Rasulov, H. Rustamov, B.Mirzaahmedov) chop etildi.

1960-80 yillar davomida ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lami yanada kengaydi. Bu sohada tilshunos olimlarimiz qo'lga kiritgan yutuqlarning amaliyotga tatbiqi bir qadar tig'izlashganday ko'zga tashlanadi. Ona tili o'qituvchilarining talab va ehtiyojlari hisobga olinib, "O'qituvchilar gazetasi" (hozir "Ma'rifat")da ilg'or ish tajribalari, metodik tavsiyalar izchil yoritila boshlandi. Endilikda "Til va adabiyot ta'limi", "Xalq ta'limi", "Uzluksiz ta'lim", "Kasb-hunar ta'limi" singari maxsus ilmiy-metodik jurnallar ham serqirra ilmiy-ijodiy faoliyat olib bormoqda.

O'zbekistonning o'z istiqlolini qo'lga kiritishi milliy g'oyaning tug'ilishiga va shakllanishiga olib keldi. Ta'lim tizimini umumjahon andozalariga moslash, darsga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zaruriyati tug'ildi.

O'quv dasturi va darsliklar ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga muvofiq takomillashtirildi va yangilandi. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va

DTS talablarini ta'lim mazmuniga joriy etish, uni tobora takomillashtirib borish shu kunning dolzARB masalasi bo'lib qoldi.

Yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilayotgan o'zbek tilshunosligida tilni yaxlit tizim sifatida o'rganish masalalarini taniqli tilshunos olimlar H.G'. Ne'matov, A. Nurmonov, N. Mahmudovlar boshlab berishdi. Metodika sohasida esa bunday yangilik A. Q. G'ulomov, R. Safarovalarning tadqiqotlaridan boshlandi, deb aytish mumkin.

1989-yilda tilimizga "Davlat tili" maqomi berilgach, O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi vazirligi tomonidan O'zbek tili Doimiy anjumanining ta'sis etilishi til va adabiyot ta'limining mazmuminigina emas, balki uni o'qitishni ham yangi yo'nalishlarda davom etishiga imkon yaratdi. Anjuman ta'sis etilgandan buyon uning har bir yig'ilishida ta'lim oluvchi so'z boyligini oshirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, milliy ma'naviyat, nutq madaniyati me'yorlarini singdirish, matn yaratish malakasini shakllantirish kabi nihoyatda dolzARB masalalar muhokama etilmoqda.

Endilikda "Ona tili o'qitish konsepsiysi", "Davlat ta'lim standartlari", til o'qitishning namunaviy dasturlari yaratildi, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun darsliklarning yangi avlodni chop qilindi va ular tajriba-sinovlardan o'tkazilmoqda.

Ta'lim mazmunining yangilangani ta'lim jarayoni, shakli va usullaridagi zamonaviy yangilanishlarni, yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishini taqozo etishi o'z-o'zidan ma'lum.

Hozirgi o'zbek yozuvining shakllanishi. Har bir millatning o'z tili, o'z yozuvi bo'ladi. Yozuv tilning zohiriylifodasi, avlodlarning munosabat vositasidir. Ajqdodlarimiz, buyuk mutafakkirlarimizning ulkan merosi nodir qo'lyozma asarlar orqaligina bizgacha yetib kelgan. Yozuv avlodlarni, davrlarni bir-biri bilan bog'laydi, nutqni uzoq vaqt saqlaydi, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar abadiyligini ta'minlaydi.

Olimlarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, hozir insoniyat 200 xil yozuvga ega. Ulardan eng ko'p va keng tarqalgani lotin yozuvi bo'lib, bu yozuvdan yer yuzi aholisining 30 foizdan ziyodi foydalanadi.

Eramizdan oldingi V-IV asrlarda Markaziy Osiyoda mixxat ishlataligan. Hozirgi eramiz boshidan VI asrgacha so'g'd yozuvi ishlatildi. V-VIII asrlar davomida turkiy xalqlar turkiy run (O'rxun-Enasoy) yozuvidan foydalanishgan.

Qadimgi saklar va massagettarning ham o'z yozuvlari bo'lgan. Ana shu yozuvdan qadimgi xorazmiy va so'g'd yozuvlari yaratilgan. 1893-yili daniyalik olim V. Tomsen va rus olimi V. V. Radlov qadimgi turkiy yozuvni o'qishga muvaffaq bo'lganlar. Qadimgi turkiy xati

**ajodolarimizning buyuk kashfiyotidir.**

Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” (Haqiqatlar armug‘oni), Xorazmiyning “Muhabbatnama” asarlarining ayrim nusxalari uyg‘ur yozuvida bitilgan. Bu yozuvning X-XV asrlargacha ishlatalilib kelinganligi yaxshi ma’lum.

Arab yozuvi O‘rtta Osiyoda VII asrning birinchi yarmidan tarqala boshladi. M. Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ot it-turk” asari ham arab yozuvida bitilgan. Arab yozuvi bizda o‘tgan asrning 30-yillarigacha faol iste’molda edi.

1926-1930-yillarda Turkiston hukumati qarori bilan lotin yozuviga, 1940 yilga kelib rus grafikasiga asoslangan alifboga o‘tildi.

1993-yil 23-sentabrdagi Oliy Kengash sessiyasida o‘zbek yozuvini lotin alifbosiga o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi. 1995-yil (6-may)dagι Oliy Majlis yig‘ilishida bu alifboga ayrim o‘zgartirishlar kiritish va mazkur yozuvga to‘liq o‘tish belgilab qo‘yildi. Isloh qilingan hozirgi o‘zbek alifbosida 29 ta harf, bitta tutuq belgisi mavjud. Bulardan 3 ta tovush harfiy birikmalar (sh, ch, ng) bilan ifodalanadi:

Quyida isloh qilingan lotin alifbosidagi o‘zbek yozuvlari (harflari)ni ko‘rsatib o‘tish lozim deb topildi: Aa (1), Bb (2), Dd (3), Ee (4), Ff (5), Gg (6), Hh (7), Ii (8), Jj (9), Kk (10), Ll (11), Mm (12), Nn (13), Oo (14), Pp (15), Qq (16), Rr (17), Ss (18), Tt (19), Uu (20), Vv (21), Xx (22), Yy (23), Zz (24), O‘o (25), G‘g‘ (26), Sh sh (27), Ch ch (28), Ng ng (29).

## **O‘ZBEK TILI O‘QITISH PRINSIPLARI**

Nutqni egallay borish nihoyatda muhim jarayon bo‘lib o‘quvchi nutq organlarining jismoniy (tashqi) hamda intellektual-emotsional (ichki) faol harakatlari natijasida hosil bo‘ladi. O‘rganuvchining xatti-harakatlariga o‘rgatuvchi (ota-onा, tarbiyachi, o‘qituvchi)lar ta’sir ko‘rsatadi. Prinsip – insondagi ongli faoliyatning boshlang‘ich holatidir. M.N.Skatkinning ko‘rsatishicha, “prinsip – inson faoliyati yoki xulq-atvorini nazariy jihatdan ko‘rib chiqish, uning asosiy boshlanmasi yoki maqsadga muvofiq amaliy harakatidir”. Odatda, qonuniyat deganda borliq hodisalari orasidagi aloqalarning mavjudligi e’tiborga olinsa, prinsip deganda mazkur qonuniyatdan kelib chiqadigan qonuniy jarayonlarning nafaqat buzilmasligi, balki uning to‘g‘ri davom etishini ta’minlab beradigan amaliy harakatlarning mazmuni va mantiqi tushuniladi. Bevosita ona tili ta’limi jarayoniga tatbiq etiladigan bo‘lsa, u ona tili ta’limidagi boshlang‘ich nazariy holat bo‘lib, o‘qituvchi unga tayangan holda ta’lim vositalarini tanlash imkoniga ega bo‘ladi. Ta’lim vositalari esa didaktik til

(o'quv) materiali, uni o'rganishning metod va usullari, ta'larning tashkiliy jihatlarini qamrab oladi<sup>1</sup>. Ta'limgarayonida darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda talaba va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ta'limgarayonida prinsiplaridir. Ularning juda ko'plari umumdidaktik xarakterga ega, ya'ni ularni barcha fanlarga daxldor deb hisoblash mumkin. Shunga qaramay mazkur prinsiplar har bir o'quv predmetida o'ziga xos tatbiq etiladi. Bu har bir fanning o'zigagina xos bo'lgan jihatlari bilan izohlanadi.

**Ta'larning tarbiyaviyligi prinsipi.** Ta'larning tarbiyaviyligi prinsipi yosh avlodni har tomonlama kamolotga yetkazishni nazarda tutadi. Ona tili o'rganish jarayonida talabalarga milliy g'oya, ona Vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat, kishilarga hurmat, ehtirom, yaxshilik, odillik, yuksak insoniy fazilatlar egasi bo'lish kabi ijobjiy xususiyatlar singdiriladi. Ona tilining o'quv predmeti sifatidagi xususiyatidan foydalangan holda inson ma'naviyatidagi eng nodir va ezgu fazilatlarni bolalar ongi va ruhiyatiga yetkazish mumkin va zarur. Buning eng qulay va barqaror shakllaridan biri didaktik materiallar (tegishli mazmunga ega bo'lgan matnlar)ning tanlanishi, saralanishi hamda o'quvchilarga yetkazilishini ko'rsatish mumkin.

Ona tili darslarida yoshlarni ta'limi tarbiyalash yo'llari benihoya ko'p:

— har bir mavzu va bo'larning ta'limi imkoniyatlarini to'la ishga solish;

— tanlangan matnlarning o'rganilayotgan til hodisasiga va sharqona tarbiya yo'nalishlariga mos bo'lishini ta'minlash;

— darslikda berilayotgan ma'rifiy matnlardan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qo'shimcha matnlardan foydalanish shular jumlasidandir.

Har bir fan o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda tarbiyaviy muammolar bilan shug'ullanadi. Masalan tarix fani o'tmishdagi ajdodlarning jasorati, ularning fidoyiligi, qattol dushmanlar bilan olib borgan jang-u jadallari, ulardagi muzaffariyat yoki mag'lubiyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish orqali yosh avlod ongi va ruhiyatida barkamol insonning qanday bo'lishi lozimligini, uning o'z tug'ishganlari, yaqinlari, yurtdoshlari, vatandoshlari oldidagi burch va mas'uliyatlari qanday bo'lishini ko'rsatib beradi. Xuddi shu fikrni geografiya, adabiyot fanlari haqida ham aytish mumkin.

Darsliklarda keltirilgan topshiriqlar ham ta'limi, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi. Topshiriqlarni bajarish jarayonida talaba kuzatish, qiyoslash, ijodiy tafakkurni ishga solish, muammolar yechimini izlash, topish va xulosalash majburiyati bilan yuzma-yuz keladi. O'zi topgan

<sup>1</sup> Федоренко Л.П. Принципы обучения русскому языку. Москва, Просвещение, 1973, с. 13-18.

*yechimni* (fikrni) ifodalash (so‘z, gap, ko‘chirma va o‘zlashtirma gap... bolida), zaruriyatini, isbotlash mashaqqatini tuyadi, g‘oliblik lazzatidan **bahramand** bo‘ladi. Bu esa ta’limda tarbiyaviylik prinsipining amaliy **tamarasi**, natijasidir.

“Gapning uyushiq bo‘laklari” mavzusini o‘rganishda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ot it-turk” asaridan keltirilgan matndan foydalanish mumkin: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘izlar, chigillar, **yag‘molar**, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar **kezib** chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli so‘z xususiyatlarini o‘rganib, **aniqlab** chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki **bu** tillardagi har bir kichik fikrni ham aniqlash uchun qildim. Ularga shunchalik diqqat qildimki, bu tillar butunlay dilimga jo bo‘ldi. Ularni **har** tomonlama puxta, bir asosda tartibga soldim”.

### ***Topshiriq.***

1. *Matnni diqqat bilan o‘qing va sarlavha toping.*
2. “*Men bu ishlarni mazkur tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim*”, — degan gapni uyushiq bo‘lakli gapga aylantiring. **So‘ngra** mazmunini sharhlang.
3. *Matndagi uyushiq bo‘laklarni ma‘nosiga ko‘ra guruhlab, bir nechta uyushiq bo‘lakli gaplarga aylantiring.*

4. *Ularni ko‘chirma gapga aylantiring.*
5. *Gap shakllarini o‘zgartirib, o‘zlashtirma gaplar hosil qiling...* v.h.

Ona tili darsligi uchun tanlangan matnlar ta’limiy va tarbiyaviy **yo‘nalishda**, rang-barang mavzularda, shaklan va mazmunan mukammal, mantiqan to‘g‘ri, tili sodda va ravon, o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Ana shundagina matn, matn yaratish tizimi va matn tahlili o‘quvchi uchun zarur bo‘lgan natijani beradi — kommunikativ savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Alovida ta’kidlash lozimki, matematika, fizika, kimyo, biologiya, adabiyot, tarix va boshqa fanlarning tarbiyaviy imkoniyatlari nihoyatda **ko‘p**. Shunga qaramay, agar ona tili bo‘lmasa, ulardagi bu imkoniyatlarning reallikka aylanishi ham mumkin bo‘lmaydi. Ularning borchasi ona tili vositasidagina tegishli ifodaga ega bo‘ladi.

**Ilmiylik va tushunarlilik prinsiplari.** Metodikada ilmiylik prinsi pi — o‘quv predmetlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishni talab etsa, tushunarlilik prinsi pi o‘quv predmetlarini bolalarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni, ya’ni oddiydan murakkabga, xususiyidan umumiyyga borishni taqozo qiladi.

Ona tili o‘qitish metodikasida ilmiylik va tushunarlilik prinsiplariga

bir-birini to'ldiradigan va dars samaradorligini ta'minlaydigan yagona omil sifatida qaraladi. Bu ikki prinsipni parallel ravishda amalga oshirishda:

- til fanidagi tushuncha va atamalarning ma'nosini sharhlash, atroficha tahlil qilish, puxta o'zlashtirishni ta'minlash;
- til sathlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish;
- til va nutqni farqlab o'rganish usul va vositalarini topish va amaliyotda qo'llash;
- talabalarning yosh imkoniyatlarini, zehn-u iqtidorlarini hisobga olish, mustaqil ijodiy fikrlash, uning mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma tarzda to'g'ri, sodda, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan lingvopsixologik o'yin — topshiriqlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Masalan: **kecha** va **ko'cha** so'zlarining o'xshash va farqli tomonlarini aniqlang va sharhlang.

### 1. O'xshashligi:

- harflar sonining tengligi, ikki bo'g'indan iboratligi;
- bir xil undosh bilan boshlanishi, bir xil unli bilan tugashi;
- talaffuz va ohang uyg'unligi; oxirgi bo'g'inning -cha bilan tugallanishiga ko'ra bir-biriga yaqin talaffuz qilinishi, qofiyadoshligi.

### 2. Farqlari:

- birinchi bo'g'indagi unlining ikki xilligi;
- tovushdag'i farqning ma'noga ta'siri;
- lug'aviy ma'nosи: kecha-tun, oqshom; kecha — bir kun avval; ko'cha — aholi va transport qatnovi uchun moslashtirilgan joy, yo'l.

**Tizimlilik, izchillik prinsipi.** Ta'lim izchilligi uchun tizimlilik o'chov hisoblanadi. Y. A. Komenskiy bu haqida shunday deydi: "Mashg'ulotlarni shunday o'tkazish kerakki, unda keyin o'rganiladigan hodisa oldingi o'rganilganlarga assoslansin, hozirgisi keyingilarni o'rganishda mustahkamlansin".

Haqiqatan ham, o'quvchilarning nutqiy tayyorgarligiga tayanish, ularning oldingi sinflarda hosil qilgan bilimlarini hisobga olish, o'rganilgan va o'rganiladigan bilimlar o'rtasida aloqadorlikni ta'minlashga izchillik prinsipi orqaligina erishiladi.

Masalan: "Ot" uning ma'nosи, so'roqlari, birlik va ko'plikda, kelishik, egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi kabi boshlang'ich ma'lumotlarga tayangan holda, o'quvchilarning ot so'z turkumiga qarashli so'zlar vositasida so'z birikmalari va gaplar tuzishni o'rganishi tizimli va izchil bilim olishga zamin hozirlaydi.

**Mustaqillik va faollik prinsipi.** Mustaqillik va faollik orqaligina talaba

*ta'limning faol subyektiga aylanadi. Mustaqillik faollik uchun sharoit yaratса, faollik mustaqillikni tarbiyalashga asos bo'ladi. "Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylik", — deya ta'kidlaydi Prezidentimiz I. A. Karimov.*

Kishining mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishi mustaqil fikrlashi orqaligina amalga oshirilishi hech kimga sir emas. Mashhur metodist-pedagog A. Disterverg aytganidek: "*Mustaqil faoliyatga yetaklovchi ta'lim haqiqatga, go'zallikka, ezgulikka xizmat qiladi, xarakter va ishonchni tarbiyalaydi*".

Mashg'ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish, qo'yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, o'quv jarayonini boshqarish, yosh avlodda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi. Bu esa:

— o'zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi;

— talabada o'z kuchiga, o'z bilim va imkoniyatlariga ishonchni mustahkamlaydi;

— bilim, hissiy aniq tasavvur hosil qilish bilan birga ta'rif-u tasniflarning mohiyatini anglashga, tasavvurni tushuncha darajasida o'zlashtirishga olib boradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va kasb-hunar kollejlari tizimidagi ona tili mashg'ulotlarida asosiy e'tibor o'quvchilardagi ijodiy fikr mahsulini mustaqil va izchil bayon etishga, so'z boyligini oshirish va matn yaratish ko'nikmalarining shakllantirilishiga qaratilishi lozim.

O'quvchi har bir mashg'ulotda mustaqil va ijodiy ishlashi, tilning mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanishi, so'z boyligini oshirishi, so'zning ma'nosi, urg'usi, mohiyatiga qarab o'z nutqida qo'llashi, ravon va aniq so'zlash malakasini egallashi darkor.

Masalan fonetika bo'limini o'rganishda o'quvchilar so'z boyligini oshirishga qaratilgan mustaqil ishlardan namunalar keltiramiz:

**1-topshiriq.** ...il,...ul,...ol so'zlar oldiga bir undosh qo'shib, yangi so'zlar yasang.

**Bil**, dil, jil, zil, yil, nil, sil...

**Bul**, gul, kul, pul, tul, shul, qul...

**Bol**, lol, mol, tol, fol, pol, hol, qol, xol...

**2-topshiriq.** Hosil bo'lgan so'zlarning ma'nodoshi va uyadoshlarini toping va ular ma'nosining o'zaro o'xhash va farqli tomonlarini sharhlang.

Namuna: **bil** — o'rgan, izlan, top..; **bul** — shul, o'shal; **bol** — asal, **hol** — holat, ahvol, kayfiyat...v.h.

So‘zlarining ma’nolarini sharhlash — o‘quvchi nutqiy malakasining mustahkamlanishi va intensiv suratda rivojlanishiga olib keladi.

**3-topshiriq.** Talabalar o‘zlarini topgan so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari hosil qiladilar, gap tuzadilar, matn yaratadilar (qarang, 4-jadval, “MYBT”).

Til mashg‘ulotlarida bunday o‘yin — topshiriqlardan foydalanish yoshlarni mustaqil fikrlashga, darsda faol qatnashishga undasa, o‘qituvchiga o‘quv jarayoniga musobaqa ruhini kiritishda ko‘makchi bo‘ladi.

Mustaqillik va faoliylik prinsiplarini amalda qo‘llash ta’lim tizimini takomillashtirish, talabalarning bilish faoliyatini, ijodiy mustaqilligini tarbiyalashda yaxshi natija beradi.

**Ko‘rsatmalilik prinsipi.** Ta’limda ko‘rsatmalilikdan foydalanish — o‘tiladigan mavzuni zohiriy ifodalash, egallangan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash yuzasidan belgilanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘yinchoqlar, rasmlar, narsa-buyumlarni bevosita kuzatish, ushslash ularning mantiq-mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qilsa, ko‘rilganlarni og‘zaki ifodalash ehtiyoji esa o‘quvchida botiniy, mustaqil mushohada ko‘nikmasini rivojlantirishga, birlamchi nutqiy tadbirkorlik malakalarining hosil bo‘lishiga yordam beradi.

Yuqori sinflarda, xususan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ko‘rgazmalilikni yanada kengroq qamrovda tashkil qilish maqsadga muvofiq. Turli timsoliy belgilari, rangli jadvallar, lingofon, magnitofon, diktofon, radio va televideeniye ko‘rsatuvlari, o‘quv-o‘rgatuv texnikasining so‘nggi yutuqlari: kompyuter, multimedia, kodoskop, videooko singarilardan unumli va samarali foydalanish talabaning ijodiy va nutqiy barkamolligini ta’minalash, ma’naviy dunyoqarashini kengaytirishga shart-sharoit yaratadi.

Zamonaviy darslik va o‘quv qo‘llanmalari takrorlash, umumlashtirish, egallangan buyumlarni mustahkamlashga qaratilgan grammatic jadvallar, kompyuterda ishlashga yo‘naltirilgan dasturlar, fikrlash jarayonini jadallashtirishga qaratilgan o‘quv topshiriqlari, ijodiy tafakkur doirasini kengaytuvchi savol, topshiriq va boshqotirmalar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq.

Talaba shaxsida nutqiy tadbirkorlik, notiqlik san’ati kurtaklarini rivojlantirish, og‘zaki va yozma matn yaratish malakasini shakllantirish e’tibordan chetda qolib ketmasligi lozim.

Til hodisalarini o‘rganishda eng samarali va sinalgan grammatic vositalardan biri ko‘rgazmali kommunikativ jadvallardir.

Kommunikativ jadvallar ishlatilishi maqsadiga ko‘ra turlicha bo‘ladi:

1. Leksik jadvallar;
2. Fonetik jadvallar;
3. Grammatik jadvallar;
4. Imloviy (orfografik) jadvallar;
5. Stilistik-uslubiy jadvallar;

6. Aralash jadvallar (imlo va so‘z yasalishi, fonetika va so‘z tarkibi).

Jadvallar yasalgan materialiga ko‘ra ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi:

1. Bosma (grafik) jadvallar har xil hajmli oq qog‘oz yoki materialga ishlaniadi.

2. Slayd-jadvallar (rangsiz plyonkaga rangli tasvirda tushiriladi).

Bundan tashqari, hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda zamonaviy texnika vositalari bo‘lmish:

1. Lingofondan foydalanish, ya’ni eshituv a’zolari orqali to‘g‘ri talaffuzni, qiroat san’atini o‘rganish.

2. Video kurs: o‘zbek tilining talaffuz me’yorlarini egallash uchun audio-video muloqotini o‘rganish.

3. Kommunikativ savodxonlikni ta’minlashga qaratilgan kompyuter o‘quv dasturlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Bulardan:

— **Imlo savodi** (bunda o‘quvchining imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan o‘quv mashqlari disketlarga joylanadi);

— **Fonetik hodisalar** kompyuter o‘quv dasturi (bunda fonetika bo‘yicha o‘quv mashqlari disketlarda beriladi);

— **Leksikologiya** o‘quv dasturi;

— **Grammatika** elektron o‘quv dasturi (morphologiya va sintaksis yuzasidan o‘quv topshiriqlari tuzilib, disketlarga joylashtiriladi);

— **Stilistika** (uslubiyat) elektron o‘quv dasturi. Bunda o‘quvchining uslubiyat bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, so‘z tanlash, gapni kengaytirish va ixchamlashtirish, berilgan matnni davom ettirish va matn yaratishning bosqichli tizimi (4-jadval) ustida ishslash uchun mo‘ljallangan savol va topshiriqlar, mashqlar, ma’rifiy matnlar hamda topshiriqli rasmlar (mustaqil matn yaratish uchun) beriladi;

— **Audio-video o‘quv dasturlari**. Ularda muayyan bir sharoitda bo‘lib o‘tgan uchrashuvlar, ilmiy-amaliy kengash va anjumanlar, marosimlar (ybiley, to‘y, kelin salom, beshik to‘yi); bayramlar — Mustaqillik kuni, Navro‘z taronalari, Yangi yil oqshomi, bitiruvchilar kechasi (oqshom) tasvirlari videotasmalarga tushirilib, videokassetalarga tartib bilan joylashtiriladi.

Yuqorida keltirilgan o‘quv dasturlaridan birinchi, ikkinchi va uchinchisi so‘z boyligini oshirish, fonetika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya, morphologiya va sintaksis yuzasidan egallangan bilim, malaka

va ko'nikmalarini mustahkamlash uchun tavsiya etilgan bo'lsa, 4-va 5-dasturlar o'quvchining yozma va og'zaki nutqni shakllantirish, matn yaratish malakalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan.

Bundan tashqari, hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganish jarayonining kodoskop, multimedia, "Videooko" kabi zamонавија va zaruriy o'quv texnikasi bilan ta'minlanishi, ularning o'quv muassasalarida mavjud bo'lishi hamda amaliyatga tatbiq etilishi ona tili mashg'ulotlarining samaradorligi uchun muhim omil bo'la oladi. Hozirgi kunda o'zbek tili o'qitish metodikasi yangi yutuqlar bilan boyimoqda, yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda.

Uzluksiz ta'lif muassasalarida, ona tili darslarida kompyuter, kodoskop va videoglaz singari o'quv texnikasidan samarali foydalanish mumkin. Chunonchi, kodoskop yordamida slayd – jadvallarni maxsus ekranga tushirish mumkin bo'lsa, videoglaz barcha tasvir-u yozuvlarni, ko'zga ko'rindigan barcha jonzot-u mavjudotlarni, test topshiriqlaridan tortib insho matnlarigacha tele(multi) ekranga chiqarib berishi mumkin. "Videoglaz"ga nisbatan kodoskopning imkoniyatlari ancha chegaralangan. Kodoskop faqatgina shaffof pylonkadagi tasvirlarni ekranga chiqarishga moslashtirilgan. Oq qog'ozdag'i tasvir kodoskopda ko'rindmaydi. Shuning uchun ekranga tushirilishi lozim bo'lган har bir tasvir (test, yozuv, shakl) rangsiz (shaffof) pylonka varaqchalarga rangli flomasterlarda yozilishi maqsadga muvofiq.

Uyga berilgan topshiriqni pylonkada bajarib kelgan o'quvchi o'z ijodiy ishini ekranga tushirib, o'rtoqlari muhokamasiga tashlashi, o'z fikri va yaratgan yangiligini himoya qilishi, uning to'g'ri yoki noto'g'riliqi haqida (talabalar va o'qituvchi yordamida) aniq bir xulosa va yechimga kelishi mumkin.

Ta'lif texnologiyasida "portlash" effektini beradigan eng yangi texnika vositasi bu – Videooko. Uning ishlatalish ko'لامи, ichki imkoniyatlari benihoya keng bo'lib, o'qituvchidan fidoyilik, katta ijodiy tajriba va pedagogik mahorat talab qiladi.

"Videooko"ning qulayligi, benuqsonligi shundaki, u videokameraga o'xshash ko'z vazifasini o'taydi. Unda hamma narsa bevosita teleekran yoki ko'chma ekranga qayta tasvir uchun uzatilaveradi. Hatto o'zi tuzgan test topshirig'ini sharhlab berayotgan talaba o'z nutqidagi kamchiliklarni bevosita monitor (televizor) ekranida ko'rishi va o'zi bartaraf etishi mumkin. Bu o'quv texnik vosita ona tili ta'lifi jarayonini tafakkurning mutlaq tantanasiga, inson aql-u zakovatining turli qirralarini ochib beruvchi, bolaga o'z nutqiy madaniyati, suxandonlik iqtidorini namoyish qilish imkoniyatini yaratib beruvchi muhim sinov maydoniga aylantiradi.

# Matn yaratishning bosqichli tizimi

## MYTB-4 moduli

So'z tanlash faoliyati

So'z birikmalarini hosil qilish faoliyati

Gap tuzish faoliyati

Matn yaratish faoliyati

1 Berilgan so'zga tovushdoshlar: *don-din, dili, bil...* ma'nodoshlar: *odam-inson, shaxs...* ma'noli so'zlar: *bor-yo'q, qur-buz, tur-o'tir...* shakl o'shilarg'a manodoshlar: *o'maysa, ko'kat, pichan, xashak, o'yalo', otash, alanga...* uyadosh so'zlar: *tol, terak, qayin...* asosdoshlar: *bil, bil-im, bil-imdon...* qoshimchadoshlar: *beshlik, qumlik, yoshlik, rezlik, ozodlik...* muqobillar: *muhur, gerb, tamg'a...* qofiyadoshlar: *ochdi, sochdi, gochdi...* ters (galb) so'zlar: *mosh-shom, zum-muz, qish-shiq, kon-noq...* iboralar: *kayfi uchdi, tobi qochdi...* tasviriy ifodalar: *oqlitin.*

2 Berilgan: "ot+ot": *tosh lo...* "sifat+ot": *ting sap, bayuk zot, "ot+fe"*; *gil ochildi, tog' oshdi, "she'r qatorlar tuzish, ko'chirma va o'zslubitma gaplar tuzish, uslubitma mashqlari; ichham gaplarni kengayirish, qo'shma gaplarni ixchamlash, she'r qatorlarini oddiy gap (nastrlarga, oddiy gaplarni she'r qatorlariga ayanlitirib ko'rish; Gapda so'zlarning o'mini va o'zini almashitirib butunlik, rivoyo, mukammallik darajasi ko'rish. Uyshiq bo'lakli va airatigan bo'lakli gaplar tuzish; Bir gapni tuni ma'nodaxabar, so'roq, buyruq, undov) talaffuz qilish; Gapni tahlii va qiroat qilish...*

3. Tuzilgan so'z birikmlaridan: Sodda va qo'shma gaplar hosil qilish; she'r qatorlar tuzish, ramziy insholar, dialog, monologlar yozish; qizigishi iqtidori bor o'quvchilar she're iy to'rtiklar va sakkizliklar yozish, munkin. Usibuyat marshqlari: Yaratilgan matn qurilishi (xat, bosh) murakkab sintaktik h u t u n l i k , r i v o y a , mukammallik darajasi (kirish, asosiy qism va xulosalarning mavjudligi), tili, ustubini aniqlash... va h. Yaratilgan matnni tahrir va tahlii qilish, oqqako chirish.

4. Tuzilgan gaplar (va she'r qatorlar) dan foydalanih, kichik nasriy marinlar, rivoyo va badiy-ramziy insholar, dialog, monologlar yozish; qizigishi iqtidori bor o'quvchilar she're iy to'rtiklar va sakkizliklar yozish, munkin. Usibuyat marshqlari: Yaratilgan matn qurilishi (xat, bosh) murakkab sintaktik h u t u n l i k , r i v o y a , mukammallik darajasi (kirish, asosiy qism va xulosalarning mavjudligi), tili, ustubini aniqlash... va h. Yaratilgan matnni tahrir va tahlii qilish, oqqako chirish.

**Onglilik prinsipi.** Onglilik bilimlarni ongli o'zlashtirishga yo'naltirilgan prinsipdir. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- ta'limning asosiy maqsadi, hayot uchun zaruriyligini anglash;
- daliliy materiallarni ongli egallash va o'zaro farqlay olish;
- bilimlarni o'rganish, mustahkamlash, takrorlash; egallangan va o'zi erishgan natijalarni baholay bilish xususiyatlarini tarbiyalaydi.

Demak, ona-tili o'qitish metodikasida onglilik prinsipiiga asoslanish ma'no va mazmunni anglab, tushunib o'rganish, amaliy vazifalar – so'rash, tinglash, o'qish, yozish kabilarni bajarishda ongli o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarga suyanish, ijodiy tashabbuskorlik, mustaqil faoliyatni maqsadli rejalashtirishga imkon beradi.

Ona tili ta'limining onglilik prinsipi quyidagilarni nazarda tutadi:

1. O'rganilishi ko'zda tutiladigan til materiali va ta'lim oluvchilarning yosh psixologiyasi mutanosibligi;

2. Nutqiy malakalarni mustahkamlash va til sezgirligi (uslub)ni oshirish;

3. Fikr bildirishda mantiqiy izchillik, uslubiy me'yorga ahamiyat berish;

4. Pedagogikada eng yangi yo'nalish – ongli verbal-kognitiv ta'lim

– ya'ni, kashfiyot ta'lim tizimiga asoslanish;

5. Ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash:

- tilning ifoda imkoniyatlaridan to'g'ri va o'rinli, nutqiy vaziyatlarga mos ravishda foydalana olish;

- mustaqil va ijodiy mushohada malakalarini shakllantirish. Ijodiy tafakkur kurtaklarini rivojlantirish;

- kommunikativ savodxonlik, zamonaviy texnik vositalardan til o'rganish jarayonida unumli foydalanishning turli usul va vositalarini bilish;

- lingvopsixologik o'quv topshiriqlari tizimini ona tili ta'limiga joriy etish, o'quvchi ongida mustaqil mushohada yuritish, so'z tanlash va fikr bildirish ehtiyojini hosil qilishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, nutqiy faoliyat ko'lамини kengaytirishga xizmat qiladi. Eng muimi, bularning barchasi “ona tili mashg'ulotlarining maroqli va qiziqarli o'tishini ta'minlaydi”<sup>1</sup>.

**Matn yaratishga yo'naltiruvchi o'quv-topshiriqlar tizimi** (evristik yondashuv)

I. “Fonetika” mavzusini o'rganishda matn bilan ishlash.

**1-topshiriq.** Berilgan tovushdosh so'z ishtirokida matn yarating: Soz.

**1-ish.** Unlilarni o'zgartirib yangi (paronim) so'zlar yasang: Soz, so'z, siz, suz, sez...

<sup>1</sup> Мактабда тил сатҳларини ўзаро боғлаб ўрганиш, Тузувчилик: X. Нематов, А.Р. Фуломов, Тошкент, 1992, 8-бет.

**2-ish.** Yangi so‘zlardan so‘z birikmalari hosil qiling: Mening sozim, so‘zim; Sizning maktubingiz, so‘zlariningiz, tekis suzishingiz, sozingiz; “Oqimga qarshi suzmoq”, brass usulida suzmoq, daryodan suzib o‘tmoq, suvda suzish mahorati, suzish bo‘yicha sport musobaqlari, suzish bo‘yicha jahon championi...v.h.

**3-ish.** So‘z birikmalaridan sodda va qo‘shma gaplar, she’r qatorlar tuzing. N: Sizning brass usulida suzish mahoratingizga hamma tan berdi. Kelgusi yili Toshkent shahridagi JAR sport majmuasida suzish bo‘yicha jahon championatini o‘tkazish rejalashtirildi. Karimjon, oqimga qarshi suzishni bas qiling!

Tong haqida qo‘shiq kuylar mening sozim,  
Bulbullarning xonishiga jo‘r ovozim,  
Ozod elim, ming tasanno g‘ayratingga,  
Oltin tog‘lar qudratingga qilar ta’zim... v.h.

**4-ish.** Tuzilgan gaplardan foydalaniб, ijodiy matn yarating.

**2-topshiriq.** Berilgan so‘zga bir tovush qo‘sib, kamaytirib yoki o‘zgartirib yangi so‘zlar hosil qiling. Ularning ma’nosini sharhlang: Tosh...

**1-ish.** Tosh, tish, tush, tesh, to‘sh;

Tosh, toshi, toshir, tushir, tushim, tushum, tuzum, tuxum...

Tish so‘zi tosh so‘zidan i unlisini o unliси o‘rnida ishlatish orqali yasalgan. Tuxum so‘zi tuzum so‘zidan z undoshini almashtirish usulida yasalgan... v.h.

**2-ish.** Yasalgan so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari hosil qiling. Ularga ma’nodoshlar tanlang.

Yoqut tosh, tilla tish, qiziqarli tush, yog‘ochni tesh, zirakning toshi, sutni toshirmang, sovg‘alarni tushir, tushimning davomi, katta tushum...v.h.

**Ma’nodoshlar:** Yoqut tosh — yoqut ko‘z, tilla tish — oltin tish, toza tish, qiziqarli tush — hayratlanarli tush, qo‘rqinchli tush...v.h.

**3-ish.** So‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Bu yoqut toshli uzuk menga otamdan meros qolgan. Singlim tilla tish qo‘ydirish uchun tish doktoriga qatnay boshladi. Tongga yaqin ko‘rgan qiziqarli tushimni onamga so‘zlab berdim. Mix ishlatilmasdan yog‘ochni o‘yib (teshib) yasalgan mebel eng sifatli hisoblanadi. Bu zirakning toshi asl gavhardan.

**4-ish.** Tuzilgan gaplardan foydalaniб, kichik matn yarating.

Cinglim Salima tish qo‘ydirish uchun doktorga qatnay boshladi. Bir kuni qarasam, u nimanidir avaylab, qog‘ozga o‘rab sumkasiga soldi. Uning nimaligi bilan qiziqdym. Bilsam, singlim bobomizdan qolgan yoqut toshli uzukni tish doktoriga olib ketayotgan ekan. “Oyimning

xabarlari bor. Undan tilla tish yasattirmoqchiman!” – dedi u norizo ohangda.

Singlimga, bu uzuk bizga bobomdan meros bo‘lib qolganligi, bobomizga ham otasidan meros bo‘lib o‘tganligini gapirib berdim. Yoqt toshli uzuk saqlab qolindi. Bundan butun oilamiz, ayniqsa, onam xursand bo‘ldilar.

**3-topshiriq.** Berilgan qo‘sish unlili so‘zlar ishtirokida matn yarating: taajjub, matbaa, muazzam, shior, shoir, murojaat...

**4-topshiriq.** Berilgan qo‘sish undoshli so‘zlar ishtirokida matn yarating: Muammolar, gullar, qo‘llar, bitta, jizza, boqqa... v.h.

**5-topshiriq.** Berilgan tovushga bir tovush qo‘sib yangi so‘zlar hosil qiling. Ular asosida kichik matn yarating. O, ot, ol...

**6-topshiriq.** Qo‘sish undoshli so‘zlar hosil qiling. Matn yarating: Hakka, arra...

**II.** “ So‘z tarkibi” bo‘limini o‘rganishda matn bilan ishslash.

1. Berilgan qo‘sishchadosh so‘zlar ishtirokida matn yarating: Ishchi, boshchi, sutchi, taroqchi, o‘tinchi (modulning 2-, 3-, 4-ishlari).
2. Berilgan qo‘sishcha yordamida qo‘sishchadosh so‘zlar hosil qiling. Ular ishtirokida matn yarating: -lar.

3. Berilgan asos yordamida asosdosh so‘zlar hosil qiling, ularni kelishik qo‘sishchalari bilan turlang: qishloq...

**1-ish.** Hamqishloq, qishloqqosh, qishloqlik, Gul — qishloq—lik — lar — imiz — ning...

4. Berilgan qo‘sishchalar yordamida (-lik, -chilik, -gi) so‘zlar hosil qiling, ular asosida matn yarating.

**III.** Leksikologiyani o‘rganishda matn yaratish.

1. Berilgan so‘zga uyadoshlar tanlang. Ular ishtirokida matn yarating: Tabib...

2. Berilgan so‘zlarga ma’nodoshlar tanlang, ular ishtirokida matn yarating: Daraxt...

3. Berilgan so‘zga qarama-qarshi (zid) ma’noli so‘zlar tanlang. Ular ishtirokida matn yarating: To‘g‘ri-egri, qiyshiq, noto‘g‘ri...

4. Berilgan shakldosh so‘zning barcha ma’nolarini sharhlab, tasnifiy matn yarating: Ot...

5. Tarixiy so‘zlarni ro‘yxat qiling. Ular ishtirokida matn tuzing: Kofe, partiya, majlis, muzey...

6. Adabiyotga taalluqli so‘zlarni toping. Ulardan foydalaniib, matn yarating: She‘r, shoir, bahsli...

7. Huquqqa oid ilmiy atamalarni ro‘yxat qiling. Mazkur so‘zlar ishtirokida matn yarating: Sud, qaror, musodara...

8. Savdo-sotiq va ishlab chiqarishga oid so‘zlarni to‘plang. Ular yordamida

**matn tuzing:** mol, savdo, tadbirkor...

**9. Harbiy atamalar ishtirokida matn yarating:** Mudofaa, harbiy, sulh, askar...

**10. Nashr ishlariga oid so‘zlarni ro‘yxat qiling.** Ular vositasida matn yarating: Nashriyot, muharrir, muallif...

**11. Ta’lim va tarbiyaga oid so‘zlarni yozib chiqing.** Ular yordamida matn tuzing: Ta’lim, savod, intizom, o‘quvchi....

**12. Kasb tushunchalariga oid so‘zlarni tanlang.** Ular ishtirokida matn yarating: Qassob, etikdo‘z, temirchi...

**13. Inson va bashariyatga oid so‘zlar yozing,** ulardan foydalanib, matn yarating: Odam, sherik, nasab, millat...

**14. Qon-qarindoshlik so‘zlarini ro‘yxat qiling.** Ular yordamida matn yarating: Bobo, amma, tog‘a, xola...

**15. Bayram, to‘y va aza marosimlariga oid so‘zlar toping.** Ular ishtirokida matn yarating: Tavallud, to‘y, nikoh, marhum...

**16. Inson va hayvon tana a’zolariga mansub so‘zlarni tanlang.** Tana a’zolarini o‘rganadigan fan yo‘nalishida matn yarating.

**17. Turli kasalliklar va ular bilan bog‘liq tushunchalarni jamlang.** Ular ishtirokida tibbiyotga oid matn yarating. Kasal, shifo, jarroh ...

**18. Yashash joylari, turar joylarga aloqalar so‘z va atamalarni to‘plang hamda ular yordamida matn yarating:** Vatan, bino, ayvon, mahalla...

**19. Tabiat hodisalarini nomlovchi so‘z va tushunchalar (so‘z birikmlari)ni toping.** Ular ishtirokida kichik (geografik) matn yarating. Bo‘ron, havo, nur, zilzila...v.h.

**20. Zamon va vaqt tushunchasini nomlovchi so‘zlarni guruhlang.** Ular yordamida tarixiy matn yarating: Adabiy, ayyom, mavsum, muhlat, yil, fursat...v.h.

**21. Dunyoning geografik tomonlari va o‘rin-joylarni atovchi so‘zlarni guruhlang.** Ular ishtirokida matn yarating: G‘arb, Sharq, taraf...

**22. Astronomiyaga oid so‘zlarni jamlang va kichik ilmiy matn yarating:** Qit‘a, planeta, koinot, fazo...

**23. Qush va hayvon nomlarini atovchi so‘zlarni guruhlang.** Ular ishtirokida matn tuzing: Tovus, hasharot, saman, bulbul...

**24. O‘simlik va daraxt nomlarini atovchi so‘zlarni yozing.** Ulardan foydalanib matn yarating: Zaytun, limon, xina...v.h.

**25. Oziq-ovqat va ichimliklarni nomlovchi so‘zlarni ro‘yxat qiling:** Ular ishtirokida matn yarating: Taom, shakar, holva, qand, murabbo, palov, limonad...v.h.

**26. Kiyim-kechak va ziynat buyumlarini atovchi so‘zlarni guruhlang.** Ular ishtirokida matn yarating. Marvarid, uzuk, zirak, libos... v.h.

27. Aniq vazifalar bajarish uchun inson tomonidan yasalgan buyumlar nomlarini ro'yxat qiling. Bu so'zlardan foydalanib matn yarating:  
Qulf, soat, sandiq, sham, hovuz, xanjar, pichoq, qaychi... v.h.

28. Tovush va nutq tushunchalari bilan bog'liq so'zlarni toping. Shu so'zlar ishtirokida matn yarating: Tovush, ibora, gap, nutq, suhbat... v.h.

29. Yozma hujjatlar va ularga bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni jamlang va matn yarating: Maktub, ariza, imzo, e'lon, hujjat... v.h.

30. Tabiiy qazilma boyliklarini nomlovchi so'zlar ro'yxatini tuzing. MM asosida matn yarating: Oltin, neft, gaz...

31. Modal va kirish so'zlarni ro'yxat qiling. Ulardan foydalanib matn yarating: Tabiiy, mayli, shubhasiz, albatta, koshki, darvoqe, ehtimol...

#### IV. Sintaksis bo'limini o'rganishda matn bilan ishslash:

1. Berilgan so'z birikmalari ishtirokida kichik matn yarating: qizil olma, katta bog', mevali daraxt... v.h.

2. "Bizning oila" mavzusida matn tuzing. Unda quyidagi so'z birikmalari ishtirok etsin: Katta oila, dasturxon atrofida, opam bilan suhbat qurmoq, singlimga yordam bermoq... v.h.

3. Berilgan iboralar qatnashgan kichik matn yarating: Tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, xamirdan qil sug'urganday... v.h.

#### 4. Berilgan gaplarni davom ettiring:

O'lkamizga bahor kirib keldi-yu...

Men har kuni ertalab jismoniy tarbiya bilan shug'ullanaman... v.h.

#### 5. Berilgan matn asosida yangi matn yarating:

Men yoshligimdan adabiyot faniga qiziqaman, chunki bu fan menga olam-olam zavq bag'ishlaydi. Unda ajodolarimiz orzusi, xohish irodasi, qadim tarixning zalvorli, shonli sahifalari, qadriyatlarimiz jilosi voqe bo'ladi, jonlanadi.

## O'ZBEK TILI O'QITISHNING O'ZIGA XOS PRINSIPLARI

Tilshunoslik fanida o'rganiladigan bilimlarning asoslari, ularning o'ziga xos xususiyatlari batafsil bayon etiladi. Tilda **nimani**, **qanday**, **qancha**, o'rganish, **o'zlashtiriladigan bilimlar** hajmi va mazmuni kabi masalalar bilan metodika fani shug'ullanadi.

Demak, til o'qitishning metodik prinsiplari ham tilshunoslik, ham uslubshunoslikning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra belgilanadi.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish. Ijodiy tafakkur ijodiy izlanish, mustaqil fikrlash orqali rivojlanadi. Natijada:

— o'quvchidagi noma'lum bo'lgan til hodisalarini bilish jarayoni faollashadi;

- egallangan bilimlarning puxtaligi va qiziqarliligi ta'minlanadi;
- til materiallarini bilishga qiziqish ortadi. Ijobiy o'quv motivlari shakllanadi.

Demak, tafakkurni o'stirish — til mashg'ulotlarida til hodisalarini uzatish, taqqoslash, tasnif qilish, umumlashtirish, o'xshash vositalardan qulayini to'g'ri tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish asosida yuzaga keladi.

Til o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini (so'z usi va mantiqiy urg'u, pauza va ovoz tembri, nutq sur'ati, tovush, bo'g'in, so'z, gaplarni ravon aytish, gap mazmuniga ko'ra darak, so'roq, buyruq, undov ohangi bilan aytma olish) ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikma va malakalar ham ona tili mashg'ulotlarida shakllanadi.

Tilning barcha bo'limlari ham nutqiy mahoratni rivojlantirishda keng imkoniyatga ega.

Masalan: "Fonetika" ni o'rganishda so'zdagi ma'lum bir tovushni o'zgartirib, tovushdosh so'zlar hosil qilish, shuningdek, asosdosh, qo'shimchadan qofsiyadosh, ohangdosh so'zlar yasash, ularning lug'aviy ma'nolari hamda ma'no guruhlari ustida ishslash o'quvchi so'z boyligini oshiradi, nutqiy malakalarini shakllantiradi.

1-topshiriq. Berilgan so'zni zinapoya shaklida kengaytirib, yangi so'zlar yasang. Har bir so'z oldingisidan bir tovush bilan farqlansin.

O	L					
O	L	A				
O	L	A	M			
O	L	I	M			
O	L	I	M	A		
O	L	I	N	M	A	

1.2. Hosil qilingan so'z ma'nosini sharhlang.

1.3. Ulardan so'z birikmalari hosil qiling.

1.4. Mazkur birikmalar ishtirokida gap tuzing.

"Leksikologiya" ni o'rganishda so'zning o'z va ko'chma ma'nosini farqlash, ko'p ma'noli, ma'nodosh, uyadosh, shakldosh zid ma'noli, paronim so'zlar ustida ishslash — o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitishga, nutqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Yosh avlod qalbida o'z ona tili bilan faxrlanish, unga muhabbat hissini tarbiyalaydi. Namuna:

1-topshiriq. Quyida berilgan gaplarni o'qing. Bosh so'zi qaysi ma'noda

ekanligini aniqlang va sharhlang.

1.1. Oybekning boshi og'ridi. 1.2. Oybekning boshi yaxshi ishlaydi. 1.3. Urushda qancha bahodirlarning boshi ketdi. 1.4. Fermerga o'n bosh qora mol berildi.

2-topshiriq. Gaplarni o'qing. Qaysi gap o'z ma'nosida, qaysisi ko'chma ma'noda ishlatilganini aytin.

Navoiy asarlarini o'qiyanman – Navoiyni o'qiyanman.

Abdulla Ori pov she'rlaridan yod oldim – Abdulla Ori povni yod oldim.

Samovardagi suv qaynadi – Samovarda o'tirdik, choyxo'rlik qildik.

Ona tili darslarida lingvopsixologik topshiriqlar ustida ishlash aqliy faoliyatni rivojlantiradi, talabalarda diqqat, xotira, tafakkur kabi intellektual qobiliyatlarni o'stiradi, mustaqil va ijodiy izlanishga o'rgatadi.

## O'ZBEK TILI O'QITISH METODLARI

Ona tili ta'limining samaradorligi ta'lim prinsi plariga rioya qilish bilan birga ta'lim metodlari va usullarini to'g'ri tanlashga ham bog'liq.

Metod (yunoncha) – muayyan maqsadga erishish, aniq vazifani bajarish usuli, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish (bilish) usullari majmui<sup>1</sup>.

Metod tushunchasining falsafiy ma'nosini hodisalarini kuzatish va ularni ilmiy jihatdan tasnif qilish bo'lsa, uning didaktika o'rganadigan tomoni talabani bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish va ularni amaliyotda qo'llash demakdir.

Pedagogika fanlari doktori, metodist-olim A. Q. G'ulomov ta'lim metodlarini quyidagi turlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi:

### 1. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar:

- bilimlarni tayyor holda bayon etish metodi;
- bilimlarni suhbat vositasida bayon qilish metodi;
- bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish metodi.

### 2. Talaba faoliyati bilan (5-jadval) bog'liq metodlar:

- reproduktiv (tayyor o'quv materiali bilan ishlash) metod;
- qisman izlanuvchanlik;
- izlanishga asoslangan metodlarga bo'lish mumkin.

Ona tili o'qitish metodikasining ta'lim metodlari ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bilan bir qatorda kengayib, rivojlanib bormoqda.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda "Umumta'lim maktablari

1 Каранг: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 5-жилд, Конимех – Мирзоқуш. –Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 203, 613, 614-бетлар.

uchun Davlat ta'lif standartlarining qabul qilinishi ta'lif tizimiga muayyan inson shaxsini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan talablarni qo'ydi. Yangilangan ta'lif metodikasi umumjahon pedagogikasida samarali hisoblangan ongli verbal-kognitiv ta'lif tizimiga asoslangan holda rivojlantirilishi, interfaol metodlar asosida takomillashtirilishi zamon talabiga mos, milliy me'yorlarga uyg'un bo'lishi zarur.

Yuqorida sanab o'tilgan an'anaviy ta'lif metodlarini chuqr o'rganish, rivojlantirish va umumjahon ta'lif metodlariga yaqinlashtirishga urinish quyidagi natijalarni beradi:

### **1. Tayyor bilimlar bilan qurollantirish metodi:**

— darslik va o'quv qo'llanmalarga asoslanish;  
— ko'rgazmali didaktik vositalarga asoslanish (audio-video kassetalar, muayyan mavzudagi magnitofon yozuvlari, ona tilidan slayd-jadvallar, o'quv kompyuter disketlari, dars mavzularni yoritish uchun mo'ljallangan o'quv rasmlari, portret, peyzaj (rang-tasvir), tayyor badiiy-ramziy, ma'rifiy matnlar).

**2. Yo'naltiruvchi ta'lif metodi.** O'quvchi faoliyatini bosqichli, tizimli yo'naltiruvchi (yozma va og'zaki) topshiriqlar asosida jadallashtirish.

### **3. Muammoli ta'lif metodi.**

### **4. Ongli-verbal kognitiv ta'lif metodi.** (Kashfiyot ta'lif metodi).

Yuqoridagi ta'lif metodlariga asoslangan holda talaba faoliyatini quyidagicha ta'riflash mumkin:

1. Ongli kuzatish va xotirada saqlash metodi.
2. Yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida izlanish va xulosalar berish, bahs va munozara metodi.
3. Muammoni yechishga qaratilgan, maqsadli ijodiy faoliyat metodi.
4. Mustaqil va ijodiy izlanish orqali kashf qilish (matn yaratish) metodi.

Talabalar yuqoridagi metodlar yordamida o'zi egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi, amaliy-ijodiy tatbiq bilan shug'ullanadi.

Tayyor bilimlar bilan qurollantirish metodi ta'lif tizimida eng qadimiy va sinalgan usullardan biri.

Bu metod bilan ishlashda o'qituvchi ortiqcha toliqmaydi: oldindan tayyor, talaba uchun tushunarli holatga keltirilgan o'quv topshiriqlari va mashqlarni bajarishni tavsiya qiladi. O'quv-texnik vositalardan samarali foydalanadi.

O'qitish metodlarini tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak:

— ona tili izchil kursining ayrim mavzularini o'rganish reproduktiv (tayyor o'quv materiali bilan ishslash) va muammoli ta'lif

## Muammoli ta'limda o'qituvchi va talaba faoliyati

	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1	Mavzuga oid muammoni tanlash va tushuntirish.	Muammoni anglab yetish va yechimini topishga urinish.
2	Talabani muammoning yechimini to'g'ri tanlashga yo'naltirish:	Muammoning yechimini topishga oid tahlilda faol qatnashish. Alohidaliklarni ajratish, o'xhash va farqli tomonlarini aniqlash, sharhash, tanlash.
3	Muammoning yechimi asosida mavzu materialini izchil bayon qilish.	Yechim variantlari orasidan eng to'g'risi, eng ma'qulini tanlashni o'rganish; matnida mavjud bo'lgan nuqson va g'alizliklarni bartaraf etish.
4	Mavzu bo'yicha umumiy xulosalar chiqarish.	Xulosalarni o'rtoqlashish va hukm chiqarish.
5	Xulosa va natijalarni amaliyotga tatbiq etishga oid mashqlar va ko'rsatmalar	Egallangan bilim va malakalarni amaliy ishga tatbiq etishni o'rganish.
6	Egallangan bilim darajasini aniqlash va nazorat qilish.	O'z-o'zini va o'rtoqlari bilimini mustaqil nazorat qilish (test tuzish va yechish).

(izlanuvchanlikka asoslangan o'qitish) metodlarini birgalikda olib borish;

- til o'qitish metodlarini tanlashda o'quvchilarning tabiiy qobiliyati, o'zlashtirish darajasi, mustaqil ishslash imkoniyati, yosh xususiyatlarini ham bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni topish;

- berilgan matndagi notanish so'zlar ma'nosini izohlash;
- ularning ma'nodoshlari, zid ma'nolisi, shakldoshlari, uyadoshlari bilan ishslash;

- turli lug'atlar yoki qo'shimcha adabiyotlar bilan ishslashni o'rganish.

Demak, ta'lim metodini tanlashga darsning aniq maqsadi va vazifalaridan, material mazmunidan, o'quv imkoniyatidan kelib chiqilsagina, talabalarning o'zlashtirish darajasi, til hodisalariga qiziqishi ortadi, ularda og'zaki va yozma nutq malakalarining shakllanishi va takomillashuviga erishiladi.

## **ONA TILI TA'LIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov Respublika Oliy MajlisI IX sessiyasida so'zlagan nutqlarida jamiyatimizning yangilanishi, taraqqiyoti va istiqiboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz samarasi – zamon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bog'liqligini qayd etadi.

Ta'lidan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda ona tilini o'qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish talaba faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi.

Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o'z o'rni, o'z vazifasi bor. Yoshlar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo'lishlari, o'z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo'lgan so'z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo'llay bilishlari davr talabidir. Buning uchun ona tili o'qituvchisi o'z ixtisosligini puxta bilishi, ilg'or pedagogik texnologiya hamda zamонавиy o'quv-texnik vositalaridan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Shundagina ta'lim samarasi ham, o'qitish darajasi ham yuqori bo'ladi.

Ona tilidan dars beruvchi o'qituvchi haqiqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasrif qilishga yo'naltirilgan faoliyatini rag'batlantirishi, o'z fikri, g'oyalarni o'zgalarga yetkaza bilish ko'nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Shuningdek, u yoshlarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an'analarimizga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg'usi kabi zaruriy xislatlarni singdira bilishi lozim.

O'quv mashg'ulotlarini yangi zamонавиy shakl va usullarda tashkil qilish, talabalarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ayni kunda o'qituvchilik faoliyatining bosh mezoni deb qaralmoqda.

### **ZAMONAVIY DARS TURLARI VA SHAKLLARI**

An'anaviy yo'nalishdagi dars didaktik maqsadiga ko'ra: yangi bilimlarni o'zlashtirish; o'rganilgan bilimlarni amaliy tatbiq etish orqali mustahkamlash; o'tilganlarni takrorlash; bilim va malakalarni mustahkamlash; talaba bilimini nazorat qilish va baholash; ularni bir

tizimga keltirish kabi turlarga ega ekanligi pedagogika fanidan yaxshi ma'lum. Ammo bashariyatning iqtisodiy-ijtimoiy ravnaq, ilm-u fan sohalaridagi yangi-yangi yutuqlar ta'limning asosiy vositasi bo'lgan dars (mashg'ulot) va uning turlarining ko'payishiga, takomillashuviga olib keldi.

Endilikda darslarning yangi tiplari va shakllari haqida qator ilmiy-metodik ishlar<sup>1</sup> mavjudligini hisobga olib, biz ulardan ikkitasi haqida to'xtab o'tishni lozim ko'rdik.

**1. Ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo'llash**, talabaning ta'lim jarayonidagi o'rni, unga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni ta'minlash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir.

Quyida ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan dars turlarining o'ziga xos tomonlari haqida fikr yuritamiz.

### **Musobaqa darslari**

Ona tili ta'limida musobaqa darslarini o'tkazishdan maqsad o'quvchining til darsida olgan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara – muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana bilish, nutqiylar, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqa olish malakasini baholashdan iboratdir.

Musobaqa darslari o'quvchilarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy mushohada yuritishga odatlantiradi, zarur va foydali ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

Samarali dars shakllaridan biri bo'lgan musobaqa darsi til mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarining faol ishtirotini ta'minlovchi vositadir. Musobaqa darslari uchun mavzular: "Nutq tovushlarining siri", "So'z harfidan so'z yasang", "Tinish belgilari musobaqasi", "So'zshunoslar anjumani", "Zakovat" darslari... v.h.

**Bahs-munozara darslari** musobaqa darslarida yechib ulgurilmagan, biror to'xtamga kelinmagan masalalarini oydinlashtirish, to'g'ri, aniq hukm va muxtasar xulosalar chiqarish bilan farqlanadi.

Bahs-munozara o'quvchilardan hushyorlikni talab etadi. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to'g'ri yoki noto'g'riliqi haqida o'ylashga va o'z fikrini mantiqli va izchil isbotlashga o'rgatadi.

O'zaro tortishuv va bahs oqibatida eng to'g'ri va ma'qul yechimga kelinadi. O'quvchi bahs-munozara orqali qarshi tomonning ishonarli

<sup>1</sup> Қаранг: Розиков О. Ўзбек тилида дарс тиллари. Т.: Ўқитувчи, 1976; Ўзбек адабиётидан турлари. Тузувчилар: А. Р....в, Н. Фуломова, Р. Холдиёров. –Тошкент, 1999.

dalillarini tinglaydi, o‘z “men”ini anglab yetadi, o‘z dunyoqarashi, ilmiy-ijodiy tafakkuri ko‘lami, haq yoki nohaq ekanligi to‘g‘risida, o‘zi mustaqil xulosa chiqaradi. O‘z fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalarni ishga solish, ijodiy fikrlash, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

Bahs-munozara darsini samarali o‘tkazish uchun talabalar muhokama qilinadigan matn yoki mavzu bo‘yicha keng tushunchaga ega bo‘lishlari, uni yaxshi o‘qib, o‘rganib chiqqan bo‘lishlari darkor.

Mazkur darslarda, talaba – ishlovchi, fikrlovchi, izlanuvchidan tashqari, nazorat qiluvchi vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun o‘qituvchi talabalardan bahs – munozara darsining quyidagi talablarini benuqson bajarishini ta lab qilishi lozim:

- bahs-suhbatda faol ishtirot etish;
- so‘zlovchi fikrini diqqat bilan tinglash;
- o‘z fikrini shoshmasdan, batafsil ifodalash;
- munozara davomida suhbatdoshiga nisbatan hurmat saqlash;
- nutq odobi va madaniyatiga rioya qilish;
- mavzudan chetga chiqmaslik;
- o‘z fikrini isbotlashda aniq, ishonarli dalillar topish;
- bahslashayotganlarning haq ekanligi bilinsa, uni tan ola bilish... v.h.

Bahs-munozara darslari tavsiya qilinayotgan talablar asosida tashkil qilinsa, dars samarasi oshadi, talabada nutqiy madaniyat shakllanadi.

Ona tili metodikasida ilg‘or pedagogik texnologiyaga asoslangan dars turlari til ta’limi samaradorligini oshiribgina qolmay, uning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Dars mashg‘ulotlarini rang-barang zamonaviy texnik vositalar ishtirokida tashkil qila olgan o‘qituvchi qisqa vaqtida o‘quvchilarining egallagan bilimi, do‘sstlariga munosabati, muomala madaniyati, fikr doirasi, so‘z boyligi, nutqiy salohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. Ilg‘or texnologiyaga asoslangan darslar o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida teng, do’stona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. O‘quvchi darsda o‘zini erkin his qiladi, mashg‘ulotlarga qiziqishi, so‘z san’ati bilan shug‘ullanishga, ijodga rag‘bati ortadi.

Ilg‘or metodist o‘qituvchilarimiz dars samaradorligini oshirishning yangi-yangi vositalarini o‘ylab topmoqdalar. Ularni zamonaviy o‘quv texnika vositalariga tayanib, dars jarayoniga tatbiq etish usullarini ishlab chiqmoqdalar.

# TIL MASHG'ULOTLARI O'QUVCHI-TA'LIM-O'QITUVCHI TIZIMI

**Dars** — o'quvchi va o'qituvchi hamkorligida, dastur va darsliklar asosida, izchil tartib va oldindan belgilangan yo'sinda, doimiy o'quvchilar jamoasi bilan o'tkaziladigan ta'larning yetakchi shakli sanaladi. Qisqa qilib aytganda, dars — inson tafakkuri, mahsuli — bilimni yoshlarga singdirishning asosiy shakli.

"Iste'dod, iste'dod va yana bir marta iste'dod sohiblarini topish, tarbiyalash va ularning mehnatini taqdirlash eng asosiy vazifamizga aylanishi zarur"!. Bunda dars mashg'uloti muhim rol o'ynaydi. Shu sababli unga qo'yiladigan talab ham ijtimoiy taraqqiyotga mos ravishda doim o'sib boradi. Darslarda o'rganiladigan bilimlar tizimi fanning so'nggi yutuqlariga asoslanib, tanlangan kompyuter dasturlariga kiritilgan bo'lishi zarur. Aks holda ta'lim subyektlarida o'quv mashg'ulotlariga qiziqish susayadi.

Ona tili o'qitish metodikasida o'quv rejalarini loyihasini qanday tuzish masalasi doimiy dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ko'pgina rivojlangan mam'lakatlarda kompleks loyihalarga asoslangan o'quv rejalarini tuzilib, unda hayotning turli sohalariga oid bilimlar — o'quv mavzulari va o'quv predmetlari bir kompleksga birlashtiriladi, yaxlitlanadi.

Ona tilini o'rganishda **yillik reja, mavzuiy reja va kundalik dars rejasidan** foydalilanadi.

Yillik reja dastur va darslik asosida tuzilib, malaka oshirish institutlari orqali tarqatiladi. Mazkur reja asosida yarim yillik va choraklik rejalar o'qituvchilar metod birlashmasi tomonidan yoki alohida o'qituvchi tomonidan tuziladi. Ushbu rejalariga (til materiallaridan ba'zilarini olib tashlash yoki qo'shishdan tashqari) ijodiy metodik o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

Bir soatlik dars rejasini har bir o'qituvchi o'quvchilarning ichki va tashqi imkoniyatlari, nutqiy ko'nikma va malakalarini hisobga olgan holda tuzishi lozim. Dars rejasida ona tili mashg'ulotiga qo'yiladigan DTS talablari hisobga olinadi.

1995-yilda A. G'ulomov va H. Ne'matovlarning ta'kidlashlaricha:

- til sathlarini (bo'lim) o'zaro bog'liqlikda o'rganish;
- fonetika, leksika, grammatikani o'rganishda xususiylikdan umumiyligka, oddiydan murakkabga, tahlildan qoidaga tomon borish;

<sup>1</sup> Каримов, Н. Адабиётта эътибор — маънавиятга, келажакка эътибор. — Тошкент, «Ўзбекистон», 2009. 20-бет.

- leksikologiyaning boshqa til bo‘limlarini o‘rganishda asosiy, rivojlantiruvchi vazifani bajarishini ta’kidlash;
- leksikologiya til o‘qitish metodikasining tarkibiy qismi ekanligini amaliyotda isbotlash;
- shu bilimlarga oid ko‘nikma va malakalarni ilg‘or pedagogik texnologiyaga asoslangan holda mustahkamlash hamda amaliyotga joriy etish yaxshi samara beradi.<sup>1</sup>

Bundan xulosa shuki, o‘quv rejalar, til sathlarining uzviy aloqadorlikda o‘rganilishini ta’minlash<sup>10</sup>, bilim, ko‘nikma va malakalarni bosqichli, o‘zaro ketma-ketlikda va bo‘limlararo bog‘lanishda rivojlantirilishini hisobga olishi zarur.

O‘quv rejasи va dars bayonida o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchilar bajaradigan amaliyotlar, mashqlar va boshqa mustaqil ishlarning hajmi belgilanadi. Tayanch tushunchalar, texnik vositalar, ko‘rgazmali qurollar nomi va vazifasi ko‘rsatib o‘tiladi. O‘quvchilarning yoshi, qiziqishi, qobiliyati, tayyorgarlik darajasi, tinglash, anglash va fikr ifodalash imkoniyatlari hisobga olinadi.

O‘quv bo‘limlari va mavzulariga ajratilgan o‘quv soatlari dars mashg‘ulotlarini tashkil etish, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va nazorat qilishda me’yoriy hujjat sanaladi.

**Ta’lim jarayonida “o‘quvchi-o‘qituvchi” faoliyati.** DTS talabiga ko‘ra, o‘quvchi ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida o‘zi izlanishi, til hodisalarini kuzatishi, farqlashi, tahlil va tasnif qilishi, xulosalashi lozim. Shunday usullar bilan ishlash orqaligina biz ularda mustaqil va ijodiy tafakkurni shakllantirishimiz, rivojlantirishimiz mumkin.

Yangilangan ta’limning onglilik prinsipiiga asoslangan mazmun-mohiyati quydagicha belgilandi:

- dars jarayoniga kuzatish, anglash, bilish, amalda qo‘llash uchun zarur bo‘lgan til vositalari, imkoniyat va me’yorlarning izchil tizimini tatbiq etish;
- nutqiy faoliyatni jadal va to‘g‘ri shakllantirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar erishgan yutuqlarga tayanish;
- uzuksiz ta’limda kompyuterlashtirilgan yangi avlod o‘quv adabiyot lari (elektron darslik va ma’ruza matnlari, multimediali o‘quv dasturlari, elektron o‘quv qo‘llanmalar)dan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- nutqiy salohiyatni shakllantirishda og‘zaki va yozma nutq me’yorlariga amal qilish. Shundagina talaba fikr bildirishda shoshmaslikka, mustaqil mushohada yuritishga, so‘zlashdan oldin har bir so‘zni o‘ylab ko‘rishga,

<sup>1</sup> Фуломов. А. Нельматов Х. Ф. Она тили таълими мазмунни...

sharoitga mos so‘z tanlash va o‘z nutqida o‘rinli ishlatishga o‘rganadi.

Unda so‘zga mas’ullik hissi paydo bo‘ladi, ixcham, ravon va raso so‘zlashga odatlanadi.

Mustaqillik tufayli yuz berayotgan hozirgi yangilanishlar, ta’lim sohasidagi islohotlar umumjahon andozalariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayoni bilan chambarchas bog‘liq.

Shunday ekan, avvalo, o‘qituvchiga fanning so‘nggi yutuqlariga asoslangan zamona viy bilim berish, ularning ma’lumoti va malakasini oshirishda “...bir qoli pdagi ta’lim—tarbiya tizimiga xos sarqitlardan qutulish” zarur. Yoshlarning ilmiy ijodiy faoliyatini chegaralamaydigan, uni faol ijrochiga emas, balki faol ijodkorga aylantiradigan kashfiyot ta’lim usuli bilan ishslash, o‘quvchi-o‘qituvchi munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yadigan samarali imkoniyatlarni topish va ishga solish demak.

## **ONA TILI O‘QITUVCHISIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR**

O‘zbek tili mustaqil O‘zbekiston Respublikasining davlat tili deb qonunlashtirilgandan keyin xalq ta’limi oldiga Respublika taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan tadbirdor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi qo‘yildi.

Ona tili mashg‘ulotlarida yoshlarni erkin va mustaqil tafakkur egasi, ijodiy izlanuvchan, milliy g‘oya va ajdodlarimiz an‘analarini e‘zozlaydigan, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda ona tili o‘qituvchisining mas’uliyati katta.

Darsga tayyorlanish jarayoni o‘qituvchi pedagogik mahoratining shakl-lanishida muhim o‘rin tutadi.

Darsga tayyorlanish tartibi quyidagicha bo‘lishi maqsadga muvofiq:


— darsni zamona viy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilish, maqsad va vazifani to‘g‘ri belgilash;

— talabalarga milliy mafkura va istiqlol g‘oyalarini singdirish;

— dars mavzusini mukammal yoritishga xizmat qiladigan zamona viy o‘quv — texnika vositalaridan unumli foydalanish;

talabani til hodisalarini kuzatish, farqlash va sharhlashga yo‘naltiradigan kompyuter dasturlari, multimedia, kodoskop va “videoko” xizmatidan foydalanishga o‘rgatish;

**“O‘quvchi — ta’lim — o‘qituvchi” tizimida  
o‘zaro hamkorlik munosabatlari**



**Har bir topshiriqni bajarish jarayoni subyekt uchun yangi muammolarni yechish yoki nimadir (matn, she'r, bayon, insho v.h.) yaratish (o‘zida mavjud bilim, malaka va iqtidordan ongli ravishda ijodiy foydalanish) bilan yakunlanadi.**

- talabaning erkin, mustaqil va ijodiy fikrlashi uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratib berish;
- o‘quv dasturlari, DTS talablarini to‘liq va mukammal amalga oshirish;
- egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini muntazam kuzatib borish va talabani obyektiv baholash;
- o‘rganilgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirishga mo‘ljallangan kommunikativ jadvallardan muntazam foydalanish;
- har bir mashg‘ulot so‘ngida talaba imkoniyatiga qarab, uy vazifasi berish va uning to‘g‘ri bajarilganligini nazorat qilish;
- talaba nutqini yangi paydo bo‘lgan so‘zlar bilan boyitish;
- nutqiy madaniyat me’yorlarini singdirish;
- talabalarning qiyosiy tasnif, alohidalash va guruhash ko‘nikmalarini shakllantirish, matn tahlili va matn yaratish bilan muntazam shug‘ullantirish;
- muomala — muloqotning sharqona odob va axloqqa asoslangan an‘anaviy usullaridan samarali foydalanish.

Ayniqsa, yosh o‘qituvchilar ijodkor, izlanuvchan murabbiylar tajribasini o‘rganish va amaliyotga joriy etishda faqat taqlid qilmasdan, o‘z o‘quvchilarining yoshi, o‘zlashtirish darjasasi, sinf jamoasining tayyorgarligiga qarab darsni tashkil etishi; o‘qitish prinsiplari va vositalariga to‘g‘ri amal qilishi; ona tilidan bilimlar tizimining bosqichli ketma-ketlikda hamda bo‘limlararo va fanlararo bog‘lanishda bo‘lishiga e’tibor berishlari zarur.

## **ONA TILI DASTURI VA DARSLIKHLARI HAQIDA**

O‘quv dasturi tegishli DTS hamda o‘quv rejasiga tayanib yuzaga keladigan muhim davlat hujjatidir. U DTSni amalga oshirishda tayanch manba hisoblanadi. Butun o‘quv jarayoni ana shu davlat hujjatiga tayangan holda tashkil etiladi. Dastur o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilimlar hajmini, og‘zaki va yozma nutq malakalarining egallanishi lozim bo‘lgan darajasini belgilab beradi. U ona tili ta’limining maqsadi, vazifalari va mazmunini muayyanlashtiradi.

Akademik litseylarning o‘quv rejalariga muvofiq aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishida ona tili fanining miqdoriy ko‘rsatkichlari quyidagicha: “Davlat tilida ish yuritish” (40 soat), “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (176 soat), “Nutq madaniyati” (32 soat).

Ijtimoiy – gumanitar va xorijiy tillar yo‘nalishda “Davlat tilida ish

yuritish” (40 soat), “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (216 soat), “Eski o‘zbek tili” (72 soat), “Nutq madaniyati” (32 soat) predmetlari ko‘zda tutilgan. Ularga tegishli miqdordagi soatlar ajratilgan. Kasb-hunar kollejlarida ona tili darslari uchun 40 soat ajratilgan.

Dastur akademik litseylarning har bir bosqichi uchun alohida talablar tizimini ko‘zda tutadi. Unda ona tilining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishning hajmi, mazmuni va izchilligi ko‘rsatilgan.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” dasturida amaliyot va nazariyaning uzviy aloqadorligini hisobga olgan holda xorijiy tajribalarga asoslanib, N—nazariya hamda A—amaliyot rukni ostida tegishli materiallar berildi<sup>1</sup>.

Dasturda akademik litseylardagi ona tili o‘qitishning asosiy vazifalari quyidagicha ko‘rsatilgan:

- o‘quvchilarni erkin fikrashga o‘rgatish;
- fikrni og‘zaki va yozma shaklda ona tilining qonun-qoidalariiga muvosiq ravishda to‘g‘ri ifodalash;
- bir ma’noni turli shakllarda bera olish ko‘nikmasini shakllantirish;
- o‘zbek tilining ichki tuzilishi va tuzilish birliklari yuzasidan umumiy o‘rta ta’limda olgan bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish;
- orfografiya va punktuatsiya qoidalari singdirish;
- ish qog‘ozlarini yurita olish ko‘nikmasini shakllantirish;
- turli fanlarni o‘rganishda ona tilining ahamiyatini singdirish<sup>2</sup>.

Ona tili darsliklarida berilgan nazmiy va nasriy matnlarda milliy tafakkur, milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlar, sharqona odob-axloq namunalari aks etishi kerak.“Eski qolipda bo‘lgan darsliklardan, eski mafkuradan xalos bo‘lmasdan, bolalarimizni yangicha fikrashga o‘rgatolmaymiz”, deydi respublikamiz prezidenti I. A. Karimov o‘z nutqida.

Haqiqatan ham, shu kungacha amalda qo‘llanib kelingan ona tili ta’limi mazmuni 50-yillarning o‘rtalarida shakllangan. U tilning grammatik qurilishi va ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirishga qaratilib, o‘quvchi til hodisalarini tahlil qilish, ularni quruq yodlash bilan band bo‘ldi. Ma’lumotlarning o‘ta ilmiy lashuvi, amaliyotdan yiroq, murakkab nazariy bilimlarni o‘zlashtirishning qiyinligi...” o‘quvchilarni o‘qishdan bezdirdi, “... so‘z boyligini oshirish, nutqiy mahoratni shakllantirish, matn tuzishni o‘rganishdek foydali amaliy ishlar son-sanoqsiz grammatik talqinlar soyasida qolib ketdi”<sup>3</sup>.

Darslik va dasturlar, o‘quvchining tafakkur ko‘lamini kengaytirish, fikr ifodalash ko‘nikmasini shakllantirish masalasi chetda qolib,

1 Карапнг: Хозирги узбек адабий тили. Академик лицейлар учун ўкув дастури. Тузувчилар: А. Нурманов, А. Маҳмудов, А. Собиров, Н. Қосимова. — Тошкент, 2000, 5-бет

2 Ўша дастур. 7-бет

3 А. Гуломов, X. Незматов. Она тили таълими мазмуни.

tilshunoslikning ilmiy talqinlarini o'rganishga bag'ishlandi.

An'anaviy darsliklarda asosiy e'tibor imlo savodxonligini ta'minlashga qaratildi, shakl va mazmun uyg'unligiga kam e'tibor berildi.

Ona tili darslarida o'quvchi mustaqil izlanib, mustaqil hukm va xulosalar chiqarmas ekan, yodlab hosil qilingan bilimlar amaliyotga tatbiq etilmay qolaveradi. Aksincha, xususiylikdan umumiylikka qarab borilganda esa umumiylikning xususiy voqelanishi cheksiz bo'lganligi sababli, bunday faoliyat o'quvchini doimiy izlanishga, qiyoslash, ajratish va farqlashga undaydi.

1960-80 yillarda jahon tilshunoslige fani, shu jumladan, o'zbek tilshunoslida "til – me'yor – nutq" munosabatlari o'rnatilib, til va nutqni farqlab o'rganadigan, tizimi tilshunoslukka asoslangan yangi metodikaga asos solindi. Til metodikasidagi tizimi yaxlitlik ta'lim mazmunini yangilashga qulaylik tug'dirdi. Til, uning bo'limlari – fonetika, leksikologiya, grammatikaning tizimi yaxlitlikda amaliy qo'llanishi, bilim, ko'nikma, malakalarni yaxlit holda shakllantirish bilan birga olib borilishi, til o'qitish metodikasi fanida muhim rivojlantiruvchi ahamiyat kasb etdi.

Tilshunoslik fani yutuqlari darsliklarga bevosita kiritilmasdan, amaliyot nuqtayi nazaridan olimlar, metodistlar va o'qituvchilar sinovidan o'tkazilib, eng foydali deb topilgan usullargina maktab ta'limiga tatbiq etilishiga alohida e'tibor qaratish zarurligi qayd qilindi. Tizimi tilshunoslukka asoslangan metodikada asosiy e'tibor shakl va mazmun uyg'unligiga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni oshirishga qaratildi.

An'anaviy ta'limda imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi quyidagi uch maqsadga xizmat qildi:

- savodxonlik;
- to'g'ri va chiroyli yozish;
- yozma nutqni rivojlantirish.

Yangilangan ona tili ta'limi mazmuniga asoslangan, zamonaviy ona tili o'qitish metodikasi quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- so'z boyligini oshirish va boyitish;
- mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish;
- nutqiy mahoratni shakllantirish;
- mustaqil matn yaratish malakasiga ega bo'lish.

Ta'lim tizimida kuzatish, taqqoslash, til hodisalarini guruhlash, umumlashtirish, ular orasidan nutqiy vaziyatga mosini tanlash va o'z nutqida qo'llash kabi aqliy faoliyat usullari talabadagi diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy fikrlash kabi ruhiy xususiyatlarni shakllantiribgina qolmay, qiyinchiliklardan qo'rmaslik, uni mustaqil bartaraf etish,

madaniy muloqot kabi ijobjiy xislatlarning paydo bo‘lishida ham muhim ahamiyatga ega ekanligi e’tirof etildi.

Ona tili ta’limi mazmunining yangilanishi, til o‘qitish metodikasining oldiga ham dolzarb masalalarni qo‘ydi. Shuni hisobga olgan holda, Respublika xalq ta’limi vazirligi O‘zbek tili doimiy ilmiy-metodik anjumanining (O‘TDA) birinchi yig‘inini chaqirdi. Unda: “Ona tili mashg‘ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim...ligi ta’kidlab o‘tildi”<sup>1</sup>.

## **ONA TILI O‘QITISH METODIKASIDA TIL YAXLITLIGI VA FANLARARO ALOQA**

Til materiallarini o‘zlashtirishda ona tili metodikasining eng muhim talablaridan biri til sathlarining alohida-alohida emas, balki o‘zaro uyg‘unlikda, yaxlitlikda o‘rganilishidir. Buning uchun leksikologiya (so‘zshunoslik) har bir til sathining tarkibiy qismiga aylanishi, ya’ni fonetika, morfologiya, so‘z tarkibi hatto sintaksisni o‘rganishda ham so‘z boyligini oshiruvchi o‘quv-topshiriqlaridan foydalanishning bag‘oyat mahsulдорлиги, DTS talablarida qayd etilgan kommunikativ savodxonlikning, nutqiy salohiyatning shakllanuviga olib kelishi, zamonaviy til o‘qitish metodikasida tan olingan interfaol metodlardan kam emasligi barchaga ma’lum.

Shu bilan birga ona tilidan talaba lug‘atining boyib borishida yana bir ulkan xazina — uzlucksiz ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan boshqa o‘quv fanlarining ham ulkan hissasi borki, buni ba’zan oliy toifali, ilg‘or ona tili o‘qituvchilarimiz ham to‘liq anglab yetishlari mushkul. Chunki ular dastur va darslik talabini bajarish, nazorat va tashkiliy ishlar bilan nihoyatda band bo‘lib boshqa fanlar bilan qiziqishga vaqt topa olmasligi hammamizga ma’lum. Vaholanki, lug‘at zaxirasini boyitish, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish, uslubiy ravon, mantiqiy mukammal matnlar yaratishda fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish — ulkan muvaffaqiyatlar xazinasiga, bitmas-tuganmas terminologik manbalarga egalik qilish demak.

<sup>1</sup> «Ўзбек тилини ўрганиш ва ўқитишни қайта қуриш ҳамда тақомиллаштиришнинг долзарб масалалари», 1-йиғин. Самарқанд, 1991 йил, 12-14-б.

## **Til sathlarini o'zaro bog'lab o'rghanish – kommunikativ savodxonlik garovi**

Ona tili materiallarini o'zaro bog'lab o'rghanish, yiriklashtirish, til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga til hodisalari mohiyatini chuqurroq o'rghanishga, nutqda so'zni me'yorida va o'rnida ishlatish ko'nikmalarini mustahkamlashga ijobiyligi ta'sir etadi.

Ona tili o'qitishda oldingi o'rghanilganlarga tayanib, yangi tushunchalarni kuzatish, guruhlarga ajratish, qiyoslash, umumlashtirish orqali o'zi mustaqil qoida, ta'rif chiqarishga o'rgangan o'quvchi bir-biriga o'xshash va farqli hodisalar ustida ishlaydi, o'qituvchi yordamida xulosa va hukm chiqaradi.

Ona tilining izchil kursida fonetika, leksikologiya, morfologiya o'zaro bog'liq holda bir yaxlitlikni tashkil etadi. Boshlang'ich sinflarda o'rghanilganlarga suyangan holda so'zning umumiyligi tahlilini o'tkazish, o'quvchini so'z ustida ishlash bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlashga, mustaqil, ijodiy fikrlashga, ixcham, lo'nda va aniq xulosa chiqarishga, har bir tovush va so'zdan unumli foydalanishga o'rgatadi.

Erkin, jadal fikrlashni o'rghanishda so'z qoli plari ustida ishlashning imkoniyatlari ham bejniyoya keng (bu haqida keyinroq so'z yuritiladi).

Turg'un iboralar ma'nosini, so'zlar etimologiyasini bilish yoshlari uchun o'ta qiziqarli. O'zbek tili tarixi, uning til boyligi, unda ro'y berayotgan o'zgarishlar, lug'at tarkibida yangi so'zlarning paydo bo'lishi va ma'no nozikliklari hosil qilishi, grammatic qurilishning takomillashib borishi kabi hodisalarni o'zaro aloqadorlikda tahlil qilish yaxshi samara beradi. Iboralarni sharhlash bo'yicha namunalar:

"Qildan qiyiq axtarmoq" – yomon niyat bilan aybi yo'q inson faoliyatidan ayb topmoq; ma'nodoshi: "tirnoq orasidan kir izlamoq".

"Bag'ri tosh" – bemehr, iltifotsiz; ma'nodoshi: "tosh yurak", "ko'ngli qattiq". "Bahri-dili ochildi" – kayfiyati yaxshilandi; ma'nodoshi: "dimog'i chog' bo'ldi", "ko'ngli yozildi"... v. h.

**Fanlararo bog'lanish** turli ta'lim bosqichlaridagi ona tili darsliklarida (o'quv topshiriqlari tizimida) ko'proq o'z yechimini topishi darkor.

Aniq va ijtimoiy-gumanitar fanlardan matnlar tanlash, boshqa o'quv fanlariga oid atamalardan foydalanib, kichik matnlar yaratish, berilgan matndan tilga oid atamalar, o'z va ko'chma ma'noli so'z, so'z birikmasi, ibora va tasviriy ifoda kabilarni ajratish, ular ishtirotida gap va matnlar tuzish, so'z ma'nolarini kontekst ichida farqlash ko'nikmalarini singdirish – talabaning fikr doirasini kengaytiradi, kommunikativ savodxonlik darajasini oshiradi.

Quyida ona tili darslarida **fanlararo aloqadorlik tamoyillariga**

asoslanilgan bir saatlik dars namunasini keltiramiz.

( Xorazm, Bog'ot tumani, Rajabova Sanobar)

### **Mavzu: Adabiy til uslublari**

**Dars shiori:** “Fan nima bo‘lganini tushuntiradi, adabiyot qanday bo‘lganini tasvirlaydi”.

### **Dars maqsadi:**

**1. Ta’limiy:** O‘quvchilarga adabiy til uslublari va ularni bir biridan farqlovchi xususiyatlarini tushuntirish, mavzuni o‘rganish jarayonida fanlararo bog‘lanishni tashkil etish;

**2. Tarhiyaviy:** O‘quvchilarni vatanparvarlik, milliy istiqlol g‘oyalariga sodiqlik, ona tilimizga cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalash;

**3. Rivojlantiruvchi:** O‘quvchilarning nutq madaniyatini o‘stirish, mustaqil fikr yuritish, mantiqiy mushohada qilish va xulosa chiqarishga o‘rgatish.

**Dars turi:** Amaliy-ijodiy mashg‘ulot. Fanlararo integratsiya (Binar uslubi). Qiyoslash.

**Dars uslubi:** Noan'anaviy dars, “Tarmoqlar” (Klaster texnologiyasini qo‘llash). Kichik guruhlarda ishlash. Venn diagramma.

**Darsning ko‘rgazmaliligi:** J.Asranovning “Ona” asari, R.Mirzayevning “O‘zbek sanami” asari, “Bog‘ot sharbat” mahsulotlaridan namunalar, anketa savollari.

### **Darsning tarkibiy tuzilishi (rejasi):**

*1. Tashkiliy qism, 2 daqiqa.*

*2. O‘tilgan mavzuni takrorlash, Venn diagrammasi bilan ishlash, 10 daqiqa.*

*3. Kichik guruhlarda ishlash (tarmoqlar), 20 daqiqa.*


*4. Dars shiorini sharhlash: Aqliy hujum, 3 daqiqa.*

*5. O‘quvchilar bilimini baholash, 3 daqiqa.*

*6. Darsni xulosalash, 5 daqiqa.*

*7. Uyga vazifa, 2 daqiqa.*

O‘quvchilarga o‘tilgan mavzu eslatilib, uyga berilgan topshiriq (adabiy nutq uslublari haqidagi ma’lumotlarni to‘plib kelish) tahlil qilinadi. Ularning ma’lumotlaridan foydalangan holda uslublarning bir-biridan farqlanuvchi jihatlari Venn diagrammasida tasvirlanadi:



Darsning keyingi qismi “Tarmoqlar texnologiyasi” asosida tashkil etiladi.

“Suratlar tili” rukni ostida o‘quvchilar e’tiboriga tasviriy san’atning noyob namunalaridan havola etiladi. Bu yerda dars tasviriy san’at fani

bilan bog'lab olib boriladi.

Sinf jamoasi 5 guruhga bo'linib, har bir guruhga alohida mavzudagi rasmlar, shu mavzuda matn yaratish bo'yicha topshiriqlar beriladi:

1-guruh. J.Asranovning "Ona" asaridagi keksa ayolning ko'z qarashlari, nigohidan kelib chiqib, uning xayolidan kechayotgan o'y-fikrlarni suratdagi timsol tilidan hikoya qilib , matn yaratish;

2-guruh. R.Mirzayevning "O'zbek sanami" asaridagi yosh onaning o'z farzandiga bo'lgan cheksiz muhabbatini his qilgan holda uning tilidan onalik mehriga yo'g'rilgan his-tuyg'ularni bayon qilish va matn yaratish;

3-guruh. Bu guruhga ijodiy ish bilan band bo'lgan sinfdoshlarning ismi va familiyalari, nechanchi sinfda va qanday o'qishlari, katta bo'lganda kim bo'imoqchi ekanliklari, dars paytida o'zlarini tutishlari, ko'z qarashlari, shug'ullanayotgan ishlaridan ko'ngillari to'lgan-to'lmanligini tasvirlab, ijodiy matn yaratish topshiriladi. O'zgalar his-tuyg'usini tushunish — komil insонning asosiy xislati ekanligi ta'kidlanadi. Bu yerda ona tili fanining adabiyot bilan bog'lanishi aks etadi.

4-guruhga uy parrandalaridan xo'rozning rasm berilib, biologiya faniga oid matn yaratish (xo'rozning parrandalarning qaysi turiga kirishi, yashash joyi, qanday boqilishi, necha kilogrammgacha tosh bosishi, o'rtaча necha yil yashashi... v.h.) topshiriladi.

5-guruhga esa tabiat ko'rinishlari tasvirlangan rasm berilib, uni ijodiy tasvirlash asosida, kichik matn yaratish topshiriladi. Bu topshiriqda, ona tili fanining biologiya, tabiatshunoslik fanlari bilan aloqasi ko'rindi, yuzaga chiqariladi.

Sinf o'quvchilariga oldindan anketalar tarqatilib, to'ldirib olinadi:

#### Anketa

1. Ism va familiyasi, tug'ilgan yili.

2. O'qish va yashash joyi.

3. Kelajakda egallamoqchi bo'lgan kasbi.

4. Shu kasbdan ko'zlagan maqsadi va erishmoqchi bo'lgan yutuqlari.

Anketa 6-guruh o'quvchilariga tarqatiladi. Ularga "Bog'ot sharbat" mahsulotlaridan namunalar berilib, shu mahsulotlar haqida reklama matnlari yaratish topshiriladi.

7-guruh o'quvchilariga 6-guruhdagi o'rtoqlarining anketa javoblariga asoslanib, o'rtoqining kelajakdag'i ilmiy-ijodiy ish faoliyati, ishlab chiqarish korxonasi yoki tayyor mahsuloti haqida tavsifiy — biografik reklama matni yozish topshiriladi.

Guruhlarning bajargan ishlari, ilmiy-o'quv faoliyati birin-ketin namoyish qilinadi. Taqdimot tugagach, guruh bilan savol-javoblar vaqtida yutuq va kamchiliklar talabalar tomonidan tahlil qilinib, ularning

**oldini olish usullari haqida umumiy tavsiyalar beriladi.**

O'qituvchi tomonidan dars shiori, undan ko'zlangan maqsad sharhlanib, guruhi a'zolari erishgan natijalar — egallangan BKM (bilim, ko'nikma va malaka)larni amaliy qo'llash darajalari qayd qilinib, ishlar baholanadi.

Dars xulosalanadi:

Mana siz ona tilimizning cheksiz imkoniyatlaridan biri bo'lgan nutq uslublari bilan tanishdingiz. Ijtimoiy hayotda o'rni va ahamiyati beqiyos bo'lgan mazkur uslublardan o'rinli, nutq sharoitiga mos ravishda foydalanish uchun ularning biri-biridan farqli va o'xshash jihatlarini puxta bilishingiz zarur. Ana shundagina betakror tilimizning ifoda qudratlaridan, bebaaho gavharlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lasiz.

Uyga vazifa: Litsey hayoti haqida gazeta maqolasi tayyorlab kelish.

## **TIL O'QITISH METODIKASIDA QIROAT SAN'ATI**

O'zbek adabiy tilida og'zaki nutqqa xos bo'lgan, supersegment vositalardan biri intonatsiya — qiroatdir.

Qiroat — so'z va gapning vazni, xilqati, libosi. U og'zaki nutqqa xos go'zal bir hodisa bo'lib, inson ruhiyatiga, holatiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi alohida bir tizimni tashkil qiladi.

Nutqning ravonligi, ohangi va ritmi, nutq tezligi va tembri, logik urg'u, vazmin va tantanavor ovoz, nafis va jozibador talaffuz qiroat san'atining ajralmas, muhim qismidir.

Mazkur masalada "Devonu lug'ot it-turk" asari muallifi Mahmud Koshg'ariy mashhur muhaddis Imom al-Buxoriy, at-Termiziyy, "ikkinchi muallim" — Abu Nasr Forobiy, Ahmad Yassaviylar ulkan ilmiy-ijodiy meros qoldirganlar.

Mashhur metodist M.A.Ribnikova til o'qitishning maqsadini nutq o'stirishda deb hisoblagan. Bu olimaning o'sha davr til o'qitish metodikasi oldidagi xizmati shundaki, u alohida nutq o'stirish tizimini yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Bu tizimda og'zaki va yozma nutqning juda ko'p qirralari: talaffuz madaniyati, leksika va frazeologiya ustida ishlash, bog'lanishli nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. "Nutq tovushlarini o'rganish va faqat imlo savodxonligini oshirish, balki qiroat san'atini, chiroyli talaffuz va ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qilishi lozim". (M. Я. Рибникова).

Olima bog'lanishli nutqni rivojlantirish ishini bayonning turli ko'rinishlarini (matnga yaqin) o'rgatishdan boshlash lozimligi, ular

tilning ifoda vositalari bilan o‘quvchi lug‘atini boyitishga xizmat qilishi; qisqa bayonlar – bosh maqsadni qisqa ifodalashga, mukammal bayonlar insho yozishga tayyorlashga zaruriy vosita ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Nutq jarayonida qiroat, asosan, ikki vazifani bajaradi:

1. Gap urg‘usi tushayotgan, ta’kidlanayotgan so‘zni ajratish.
2. Eshituvchiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish.

Agar berilayotgan ma’lumot qiroat me’yorlariga moslab o‘qilmasa, gapdagi tinish belgilari, ayniqsa, nutqiy pauza o‘rnida keluvchi vergulgaga rioya qilinmasa, gapning ma’nosini butunlay o‘zgarib ketishi mumkin:

M: Odam bo‘l, otang kabi omi bo‘lma. — Mazmuni: otangga o‘xshama, savod o‘rgan...

Odam bo‘l otang kabi, omi bo‘lma. — Otangga o‘xshash savodli bo‘l, o‘qimay qolma.

Bu — dono, akasiga o‘xshamaydi. — Ukasi bilimdon...

Bu — dono akasiga o‘xshamaydi. — Akasi bilimdon....v.h.

Ajratilgan gap bo‘laklari, undalma, kirish so‘zlar og‘zaki nutqda alohida ohang bilan aytildi, yozma nutqda esa kerakli tinish belgilari bilan ajratib yozildi.

O‘quvchida qiroat san’atini shakkantirish uchun turli sharqona rivoyatlar, hadis va Qur‘on oyatlarini o‘qish, nazmiy asarlarni yod aytish yuzasidan ko‘rik tanlovlari, guruuhlararo musobaqalar o‘tkazish yaxshi natija beradi. Bunda Yusuf Xos Hojib, Atoiy, Sakkoki, Hofiz Xorazmiy, Gadoiy, Xorazmiy, Sayfi Saroyi, A. Navoij, Bobur, Munis, Ogahiy, Anbar Otin, Nodira, Muqimi, Furqat singari mumtoz adiblarimizning, Cho‘pon, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Oybek, Zulfiya, Usmon Nosir, E.Vohidov, A.Oripov, Omon Matjon, Muhammad Ali, Rauf Parfi, Sirojiddin Sayyid, Xurshid Davron, Muhammad Yusuf singari zamonaliviy shoirlar she’rlarini, folklor va jahon adabiyotining sara namunalarini ifodali o‘qishni o‘rgatish ham juda foydali.

## **ONA TILI DARSALARIDA MAQOLLAR, TOPISHMOQLAR, HIKMATLI SO‘ZLARDAN FOYDALANISH**

Maqollar turmushdagi turli hodisalarga bog‘lab, to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolarda qo‘llaniladi.

Xalq yaratgan g‘oyat ixcham, chuqur mazmunli gaplar – maqollardir. Ular ijtimoiy hayotning shart-sharoiti bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur sharoitda yashagan kishilarning fikrlari va qarashlarini ifoda qiladi.

Maqollarni o‘rganishda quyidagi amaliy ishlarni bajarish mumkin:  
— o‘qib o‘tilgan asar mazmuniga aloqador maqollar qiyoslanadi:

“Suv keltirgan xor-zor, ko‘za sindirgan aziz”, “Mehnatning tagi rohat”;

— maqollarni muayyan mavzular bo‘yicha guruhlash: “Vatan — vatanparvarlik”, “Do‘stlik va dushmanlik”, “To‘g‘rilik”, “Odob va axloq”, “Til va nutq”;

— rasmlar albomini tuzib, uning mazmuniga mos maqollar yozish;  
— adabiyot darsida o‘rganilgan asarga bog‘liq holda maqollar tanlash.

Keltirilgan har bir maqolning qanday fikr ifodalashi, ularning tarbiyaviy ahamiyati haqida suhbат uyushtiriladi. Talabalar ularni sharhlash jarayonida inson nutqiga ko‘rk beruvchi, nutq ta’sirchanligini oshiruvchi vositalardan biri maqollar ekanligiga ishonch hosil qiladilar va ularni nutqlarida qo‘llashga intiladilar. Jumladan, “Aytilgan so‘z — otilgan o‘q” maqolini sharhlash va mazkur maqolning muqobillarini topish so‘raladi. Namuna: Aytar so‘zni ayt, aytmash so‘zdan qayt; Og‘izdan chiqqan so‘z qaytmas; So‘z aytganda — o‘ylab ayt, oqibatin bilib ayt; So‘zga qulqoq os, o‘ylab qadam bos...

Uyga vazifa sifatida o‘rganilgan maqollardan ma’qulini tanlab, shu mavzuda matn yaratish topshirilishi mumkin.

**Topishmoqlar.** Yosh avlodning fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish, mustaqil faoliyatga o‘rgatishda topishmoqlar muhim ahamiyatga ega. Topishmoqda narsa-buyumlarning bir necha belgilari aks etadi, shunga qarab topishmoq javobi topiladi. Buning uchun narsa-buyumlarni qiyoslash, chuqur va atroflicha mushohada yuritilishi zarur. Topishmoqlar ham maqollar singari berilgan mavzularga bog‘lab o‘rganiladi. Bunda o‘quvchilar quyidagi topshiriqlarni bajarishlari maqsadga muvofiq.

1. Topishmoq javobini qanday belgilarga qarab topilganligini so‘zlab bering.

2. Berilgan topishmoqqa o‘xhash topishmoqlar aytинг:

1) Pak-pakana bo‘yi bor,

Yetti qavat to‘ni bor. (Piyoz)

2) To‘nlari qavat-qavat,

Bir donasi bir savat.

Dasturxonga kelganda,

Ham dimlama, ham salat. (Karam)

3. Yuqorida berilgan topishmoqlarni o‘xhash va farqli tomonlarini ajrating, ma’nosini sharhlang.

O‘quvchi nima uchun birinchi topishmoqning javobi piyoz, ikkinchisini karam ekanligini dalillarga tayanib, aniq va to‘liq isbotlab berishga urinishi ayni vaqtida nutqiy ko‘nikmalarining takomillashuvi, o‘z fikrini himoya qilish ko‘nikmalarining tarkib topishiga, ijodiy-mantiqiy tafakkur ko‘lamining kengayishi, fikrni to‘g‘ri va ravon ifodalash malakasining shakllanishiga ham olib keladi. Quyida berilgan

o‘yin — topshiriqlar ham o‘quvchini mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishi bilan, muammolarning yechimini topishga yo‘naltirishi bilan ahamiyatlidir.

Tilga oid topishmoq, maqollar hamda “Hazil savollar”dan o‘rinli foydalanish ham o‘qituvchining pedagogik mahoratidan, ilmiy iqtidoridan dalolat beradi.

“Harflar sultanati” (hazil savol-topishmoqlar):

1. Alfavitni bildiruvchi qanday so‘z 6 harfdan iborat. (Alifbo).
2. Qanday so‘zning boshi bor? bebosh, oqibosh, ishboshi, onaboshi, mingboshi, yurtboshi, boshliq, boshlov, boshla, boshqa, to‘yboshi, so‘zboshi...
3. Nima ikki so‘z bilan aytilib, bir belgi bilan ifodalanadi? (tutuq belgisi — ‘).
4. Aytilmay yoziladi, yozmasa buziladi (T harfi) — do‘s — do‘st.
5. Talaffuzda tutmaymiz, imloda unutmaymiz. (T harfi) (to‘rt, mush, go‘sht).

A — harflar boshpanasi (alifbo).

B — padarimiz padari (bobo).

V — hech to‘xtamaydigan narsa (vaqt).

G — sovg‘a uchun yaralgan, rang-tusiga qaralgan (gul).

D — boshga tushganda tashvish, kimligi bilinarmish (do‘st).

Y — topdim, tushdim-da ketdim, tugatdim — uyga yetdim (yo‘l).

O — qoq solsang bo‘lur choy, cho‘miltirar har kun soy (olma bilan oy)...v.h.

### Hikmatli so‘zlar

Hikmatli so‘zlar ham ixchamligi, chuqur ma’noliligi jihatidan maqollarga o‘xshaydi. Biror badiiy asar yoki matnni o‘qish davomida undagi hikmatli so‘zlarni ajratish, ma’nosini sharhlash bilan shug‘ullaniladi. Ular o‘quvchi so‘z boyligini oshirishda ham uning nutqiy ko‘nikmalarini faollashtirishda ham yaxshi natija beradi.

Xalq donishmandligining beباho mulki bo‘lmish hikmatli so‘zlarni o‘rganish, ularning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatini, g‘oyaviy mazmunini talaba ongiga singdirish orqali olib borish hikmatlar mazmuniga yashiringan mantiq, axloq, odob, komil inson falsafasini yanada go‘zalroq, nafisroq his qilishga olib keladi.

Talabada so‘z san‘atidan zavqlanish, go‘zal qiroatdan rohatlanish tuyg‘usi uyg‘onadi, ijod va badiiyatga mehr, ishtiyoq hosil bo‘ladi.

Ona tili mashg‘ulotlarida aksariyat maqol, topishmoq, hikmatli so‘zlarga maxsus soatlar ajratilmaydi. Ammo mavzu talabiga mos hikmatlar topib aytish, unga ma’nodosh hikmatli so‘z va maqollar

**topishni** talabalardan talab qilish ajoyib va kutilmagan natijalarga olib **kelishi**, talabalar orasida alohida intellektual qobiliyatga ega bo'lganlari **ko'zga** tashlanib qolishi, o'qituvchi o'zining shogirdlari ichidan alohida **iste'dod** egasini kashf qilishi mumkin. Bunda talabalarning ijodiy ishlarini **baholash** uchun konferensiya darslar o'tkazilib, maqol, topishmoq va **hikmatli** so'zlarning eng yaxshilari bir joyga to'planib, umumlashtiriladi, **guruhning** (fakultetning) qizil kitobiga yozib qo'yiladi. Bunday **topishmoq**, maqol va hikmatli so'zlar, albatta, talabalar tomonidan **yod** olinadi. Namuna:

### **So'z haqida hikmatlar**

*Agar biz so'z boyligini masalliqqa qiyos qilsak, nutq — dasturxonga tortilgan taom erur. Masalliq mo'l bo'lsa, osh mazali bo'lganidek, lug'at xazinasi bisyor odamning tili biyron, nutqi ravon, suhbat jonon bo'ladir. Zero, alar ila hamsuhbat bo'lmoglik rohati jon erur.*

*Chala pishgan oshning hazmi taomi qiyin kechgani kabi, g'aliz so'zli kishining suhbatini tinglamaklik ham azobi jondir.*

- Taomni yemakka, so'zni demakka shoshmang.
- Ezmalikdan hazar qil, so'zingni muxtasar qil.
- Ko'p so'zlasang so'zning qadri oz bo'lur.  
Xo'b so'zlasang izzat-obro' boz bo'lur.
- So'zi nochorning o'zi nochor,  
So'zi muxtasarning o'zi mo'tabardir.
- G'iybat qilma, g'urbatga qolasan.
- Ozroq yegil, oz uxlagil, oz so'zla,  
Ozroq degil, oz bo'lsa-da, soz so'zla.
- Shirin kalom shirin taomdan qimmatliroqdir.
- Husn zohiriyl go'zallik bo'lsa,  
Yetuk va ravon nutq botiniy go'zallikdir.
- Ustoz ziyyosidan bahramand bo'lgan inson, quyoshga intilgan maysadek, yorug'likka, ilmga, mangulikka intiladi.
- Tafakkur atalmish nurafshon qasrning  
qulfi — ilm, kaliti — so'zdir.

Yuqorida berilgan hikmatli so'zlardan MM ustida ishlash, sharhslash va qiroat san'atini o'rganish, og'zaki monologik va dialogik nutqni rivojlantirishda, milliy ma'naviyat, so'z ustalari bilan uchrashuvlar, adabiy kechalar o'tkazishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### ONA TILINING IZCHIL KURSINI O'RGANISH

So'zlash, eshitish, (ko'rish) o'qish, yozish vositasida fikr tushuniladi. Bularning barchasi nutq deyilib, u yozma va og'zaki ko'rinishlarda bo'ladi. Nutqning o'ziga xos vositalari, birliklari, ularni ishlatish qonun-qoidalari va me'yorlari bor.

Ona tilini o'rganishda nutqiy me'yorlarni tarbiyalash va ro'yobga chiqarish, "**til—me'yor—nutq**" tushunchalarini aniqlab olish zarur.

**Til** ma'lum bir so'zlar, qo'shimchalar, ularning o'zaro birika olish imkoniyatlari va birikish natijalari haqidagi qonun-qoidalalar majmui bo'lib, fikrni xilma-xil usul va vositalar yordamida yuzaga chiqarish omillarini o'rgatadi.

**Me'yor** — til imkoniyatlaridan foydalananish ko'rsatkichlari majmui. Uning oliv ko'rinishi milliy adabiy til uslublari, mezonlarida o'z aksini topadi. Milliy adabiy til muayyan bir uslubiy ko'rinishda yuzaga chiqadi.

**Nutq** — tafakkur mahsuli. Fikrni bayon qilish tafakkur va til orqali amalga oshadi. Tafakkur qancha rivojlansa, talabaning og'zaki va yozma fikr bayon qilish mahorati ham shuncha yuqori bo'ladi.

Ona tili mashg'ulotlari nutq san'atini egallash va undan samarali foydalananish bilim ko'nikma va malakalarini tarbiyalaydi. Shu jarayonda nutqiy madaniyat ham shakllanadi. Nutq madaniyati yoshlarga kundalik oddiy salomlashishdan tortib, kimga, nimaga, qachon, qayerda, qanday so'zlashgacha bo'lgan muomala — muloqot sirlarini o'rgatadi. Shuningdek, sharqona odob — andisha, go'zal qiroat san'ati qonuniyatlarini anglab borishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilining izchil kursi amaliyot va nazariyaning uzviy aloqadorligida o'rganiladi.

### FONETIKANI O'RGANISH METODIKASI

Fonetika (grekcha "phone" — tovush) nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, talaffuzi, imlosi, tasnifi, harf va yozuvning o'zaro munosabati, bo'g'in va bo'g'in ko'chirish, so'z urg'usi xususiyatlari haqidagi fan. Unda nutq tovushlari — so'zlarning, qo'shimchalarning eng kichik bo'lagi tovush va uning talaffuzi o'rganiladi.

5-sinfda bu bo'lim takrorlash bilan boshlanadi. Bunda berilgan so'zlardagi tovushlar talaffuzi qiyoslanadi, unli va undoshlarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Tovushlar talaffuzida ishtirok etadigan nutq

u'zolari belgilanadi. Berilgan so'zlarga tovushdosh (tosh, tish, tush, **to'sh** kabi), shakldosh (tosh – suvda erimaydigan qattiq tog' jismi, ot; sakkiz chaqirimga teng masofa, ot: bir toshdan ortiq yo'l bosdi kabi); **fe'l** – toshmoq, qirg'oqdan chiqib ketmoq; toshbag'ir – ko'ngilchan, ko'ngli bo'sh kabi zid ma'noli so'zlar topib, ma'nolarini sharhlaydilar va izohlaydilar.

"Alfavit"ni yod olish o'quvchilarda berilgan so'zlarni alifbo tartibida joylashtirish, turli lug'atlardan so'zlarni tez topish ko'nikmasini mustahkamlaydi, lug'at zaxirasini oshiradi.

Unli va undosh tovushlar ustida ishlashda o'quvchilar **u – o'**, **i – u**, **a – o**, **b – p**, **s – z**, **t – d**, **k – g**, **q – g'**, **x – h** kabi tovush juftlarining talaffuzi va imlosini bilib olib, shu tovushlar ishtirot etgan so'z ma'nolarini tushuntiradilar, qiyoslash orqali ma'no farqlarini izohlaydilar.

Chunonchi, birinchi bo'g'inda **u**, **o'**, ikkinchi bo'g'inda **u**, **i** yoziladigan, qisqa, **i**, **u** tovushlari tushib qoladigan (to'lqin, tutun, burun, tizim), jarangli tovushlarning **b - d**, **x, h, ng**, **h** kabilarning ishtirotida so'z birikmalarini gaplar tuzish, o'quvchi ongiga to'g'ri talaffuz hamda to'g'ri yozish ko'nikmalarini singdiradi.

### Fonetikani o'rghanishda kommunikativ savodxonlikni oshirish usullari

Fonetika bo'limida, asosan, nutq tovushlari, ularning paydo bo'lishida ishtirot etuvchi nutq a'zolarining xizmati, hosil bo'lgan o'rni va usuli, talaffuz va imlo, bo'g'in va bo'g'in ko'chirish, so'z urg'usi kabi mavzular ustida bahs yuritsa-da, uning so'z boyligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrni ravon, go'zal va ta'sirchan ifodalash imkoniyatlarini anglash va rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, talaffuz va imlo masalalariga e'tiborni qaratish zarur. Masalan: "Unlilar imlosi" o'rghanilayotganda: **o – a**, **o – i**, **i – u**, **u – o'**, **i – e**, **o – e** tovushlari ishtirot etgan so'zlardagi tovush va harf orasidagi munosabatlar izohlanadi: **bar – bir – ber – bor – bur – bo'r:** **oq – uq – o'q – yuq;** **qor – qar – qur – qo'r;** **tar – tor – tir – ter – tur – so'z** juftlarida ma'no farqlash vazifasidagi o'yin – topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Tovushdosh so'zlar qatori tuziladi, ma'nosi murakkab so'zlar izohlanadi:

qir – adir, tepalik, lalmi yer; qur – bunyod qilmoq, uyni qurmoq; **qo'r** – olov, o'tinning cho'g'idan hosil bo'lgan qoldiq. Ko'chma ma'no:

mol-dunyo, qo'r- qut...

2. Tovushdoshlar so'z turkumlariga ajratiladi:

uq - fe'l, o'q - ot, oq - sifat, qor - ot, tar- (yangi meva) sifat,tur-fe'l..v.h.

3. Tovushdoshlar ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuziladi:

Til - dil kaliti, uyga kir, o'nga botdi, o'tni o'r, markazga ur kabi; Qir-adirlarni oppoq qor qopladi. Tur, to'rga o't. Torga tor dunyo, kengga keng dunyo (Maqol)... v.h.

Jarangli undoshlar aksariyat so'z oxirida kelganda, talaffuzda jarangsizlanadi hamda boshqa ma'nodagi so'zlarni yuzaga keltiradi:

**bob** — bo'lim, qism ma'nosida;

**bop** — yarashiqli, loyiq ma'nosida;

**sud** — hukm, mahkama, lavozim v.h.

**sut** — mahsulot, sigir suti kabi so'zlarni qiyoslash va o'zaro farqlash, ular ma'nosini sharhlash topshiriqlari, o'quvchilarda imlo savodxonligini mustahkamlash bilan bir qatorda so'z boyligini, nutqiy mahoratni ham oshiradi, shakllantiradi.

Ayni paytda, mana shu so'zlar ishtirokida ixcham, ijodiy matn yaratish ham mumkin.

Talaffuzda bir-biriga o'xhash so'zlarni farqlashda, ularga ma'nodoshlar, uyadoshlar, zid ma'noli so'zlarni topishni talab qiluvchi topshiriqlar berish ham samarali usullardan hisoblanadi.

Masalan, shaxs va bahs so'zlarining o'zaro farqini tushuntiring, izohlashda ma'nodosh, uyadosh va zid ma'noli so'zlardan foydalaning. Namuna: Shaxs — ma'nodoshlar: shaxs — inson, odam, banda, kishi...

— uyadoshlar: kishi, erkak, ayol, ota, o'g'il, aka, uka ...

— zid ma'nolilar: erkak — ayol, o'g'il-qiz, aka-singil... v.h.

— bahs, konferensiya, majlis, yig'ilish..v.h.

— zid ma'no: bahs-himoya, o'rtoqlashuv, adabiy uchrashuv, qo'llab quvvatlamoq... v.h.

Talabalar topshiriq asosida so'zdagi nuqtalar o'rniغا i va u harflaridan birini qo'yib ko'chiradilar. Hosil bo'lgan so'zlarning ma'nolarini namunadagidek og'zaki sharhshlari va so'z ma'nolari farqini tushuntirishlari mumkin:

Namuna: urish — fe'l so'z turkumi, harakatni bildiradi. Musht urish, mushtlashish;

urush — ot so'z turkumi, jang, uyushgan qurolli olishuv. M: Ikkinchijiahon urushi 1939-yilda boshlandi;

yumish — fe'l, ko'z yumish, ko'rmaslikka olish; ko'zi yumildi; 1.Uxladi (o'z ma'no). 2. Ko'chma ma'no: Ko'z yumdi — chin dunyoga

ketdi, o'ldi... v.h. M: Bu dunyodan ko'z yumdi.

Yumush – ot so'z turkumi, ish, mehnat: Og'ir yumushni bajardi...

Unlilar imlosi va talaffuzi ustida ishlashni quyidagi ijodiy topshiriqlar orqali mustahkamlash mumkin.

1-topshiriq. Berilgan so'zlar ma'nosini sharhlang. So'zdagi undosh tovushni almashtirib, yangi so'zlar hosil qiling. Il, el, choy.

il-in, is, it, ip, ish...; el, ep, em, eshr, et, en, er, es, ez...;

choy, soy, toy, boy, moy, joy, loy, voy...;

2-topshiriq. A unliси bilan boshlanuvchi bir bo'g'inli so'zlar qatori tuzing. Adl, avj, azm, aql, ark ... Ma'nolarini sharhlang.

3-topshiriq. U - o' tovushi ishtirok etgan juftliklar tuzing: uz - o'z, uy - o'y, un - o'n, o'q - uq ... Ma'nolarini sharhlang.

### **Fonetikari o'r ganishda mavzulararo va fanlararo aloqadan foydalanish usullari**

**1-topshiriq** – “qochoq” so'zidagi ch undoshini boshqa undoshlar bilan almashtirib ko'ring. Hosil qilingan so'zлarning lug'aviy ma'nolarini farqlash, qiyoslash (leksikologiya) ustida ishlang. Ular yordamida so'z birikmalari hosil qiling (sintaksis).

Namuna: qochoq, qovoq, qozoq, qoloq...

Lug'aviy ma'noning o'zgarishida tovush o'zgarishining ahamiyatini sharhlash namunasi:

Qovoq, qochoq so'zidan ch undoshini v undoshiga almashtirish natijasida yasalgan bo'lib, undagi harflar va bo'g'inlar soni bir xilligi, so'z boshi va oxirida bir xil tovush bilan tugaganligiga qaramay, bir tovushning o'zgarishi natijasida so'z butunlay yangi ma'noga ega bo'ldi. Qovoq — o'simlik turkumiga kirsa, qochoq so'zi ongli mavjudotlar, ya'ni insonlar guruhiга kiritiladi. Ma'no o'zgarishining asl sababi har ikki undoshning so'z tarkibida ikki xil talaffuz qilinishidadir.

**1-ish.** Qovoq so'zining lug'aviy ma'nosini sharhlang.

Qovoq — (oshqovoq) qovunga o'xshash palak yozib o'suvchi bir yillik o'simlik, u poliz ekinlari turkumiga kiradi, yumaloq, anjirsimon, uzunchoq ko'rinishda bo'lib, iste'mol qilinadigan va dekorativ (chiroyli, tabiiy naqshinkor) turlari uchraydi. Turli vitaminlarga boy, shifobaxsh xususiyatlarga ega. Undan turli milliy, xamirli taomlar tayyorlanadi...v.h.

**2-ish.** Qovoq so'zi yordamida so'z birikmasi hosil qiling: shirin qovoq, katta oshqovoq, oshqovoqning foydasi, oshqovoq manti, dumbali oshqovoq xonim, tomoshaqovoqning naqshinkor bezaklari, qovoqning ta'mi...v.h.

**3-ish.** Hosil qilingan so‘z birikmalaridan badiiy bo‘yoqdar gaplar tuzing.

Tadbirkor fermer Isomiddin Ziyotovning dalasida yetishtirilgan katta —katta shirin oshqovoqlarning ta’mi og‘zingizda qoladi. Dumbali, oshqovoq mantilar, mazali oshqovoq xonim, achchiqqina qovoq somsalar shaharliklar dasturxonida eng sevib tanovul qilinadigan milliy taomlardan hisoblanadi.

**Amaliy ish. Savol va topshiriqlar:**

1. O‘zbek tilida so‘z oxiridagi qanday tovush o‘zgarishlari yuz berishi mumkin?

2. Qaysi tovushlar so‘z oxirida jarangsizlanadi?

3. Qaysi tovushlar talaffuzda so‘z oxirida tushib qoladi?

4. Talaffuz qilinmasa-da, imloda yoziladigan harflar ishtirok etgan so‘zlarga misollar keltiring. (pas(t), sus(t), juf(t)...v.h.)

5. Mazkur harflarning mavjudligini qanday aniqlaysiz? (Toshkentimiz jamoli, mol go‘shti kabi)

Yuqoridaqidek topshiriqlarni bajarishda talabalar til materiallarini kuzatadilar, so‘zlarni qiyoslaydilar, o‘xhash va farqli tomonlarini sharhlaydilar. Mazkur jarayon nafaqat imlo savodxonligining shakllanishi, balki, tovush va harflarni farqlash, so‘z ma’nosining o‘zgarishida to‘g‘ri talaffuzning o‘rni va ahamiyatini tushunib yetishga sabab bo‘ladi, talaba so‘z boyligining oshishiga, so‘zlarni nutqiy vaziyatga qarab to‘g‘ri tanlash, o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashga ham o‘rgatadi.

**Amaliy ish:** So‘zning umumiy (grammatik) tahlilidan namuna.

**Topshiriq.** “Viloyat” so‘zini grammatic tahlil qiling.

**1-ish.** Fonetik tahlil.

[V] — undosh, jarangli, sirg‘aluvchi, lab-lab;

[I] — unli, lablanmagan, old qator, tor;

[L] — undosh, jarangli, yon tovush, til oldi;

[O] — unli, lablangan, orqa qator, keng;

[Y] — undosh, jarangli, til o‘rta, sirg‘aluvchi;

[A] — unli, lablanmagan, old qator, keng;

[T] — undosh, jarangsiz, portlovchi, til oldi.

**1.1.** So‘z yetti harf, yetti tovushdan iborat.

**1.2.** Vi-lo-yat — 2 ochiq, 1 yopiq bo‘g‘in, 3 ta unli, 4 ta undosh tovushdan tarkib topgan.

**2-ish.** Morfemik tahlil: Viloyat — asos, tub so‘z.

**3-ish.** Morfologik tahlil: Viloyat — ot, turdosh, sodda, aniq, bosh kelishikda, birlikda, III shaxsda.

**4-ish.** Leksik tahlil: Viloyat — mamlakatdagi yirik ma’muriy-hududiy bo‘linma, muzofot, oblast: Xorazm viloyati, Sirdaryo viloyati...v.h.

**Mustaqil ish:** Yuqoridagi so'zga ma'nodosh va uyadoshlar topish.

Ma'nodoshlar: viloyat, muzofot, hudud, oblast...v.h.

Uyadoshlar: viloyat – davlat, mamlakat, o'lka, elat, yurt, hudud, tuman, mavze, daha, mahalla, depara, ko'cha, hovli... v. h.

**5-ish.** Topilgan so'zlar ishtirokida so'z birikmasi yoki gap hosil qilish:

Sirdaryo viloyati qadimgi Mirzacho'l hududida joylashgan...

Bizning mahalla katta anhor yoqasida joylashgan..v.h..

Berilgan topshiriqning birinchi ishi fonetik tahlilga bag'ishlangan bo'lib, unda so'zdagi tovush tasnifi, ochiq va yopiq bo'g'inlar, harf va tovushlar soni aniqlanadi, bo'g'inlarga ajratiladi va sanaladi.

Yuqoridagi ishlar bajarilgach, mazkur so'z morfologik tahlil qilinadi, so'ogra so'zning lug'aviy ma'nosini aniqlash maqsadida uning ma'nodoshlari va uyadoshlar topiladi, ular ishtirokida so'z birikmasi yoki gap hosil qilinadi. So'zning bunday umumiy tahlili talabaning ona tilidan egallangan bilimlarini takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish, qolaversa, bilim ko'nikma va malakalarning amaliy tatbiq darajasini nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Lekin grammatik tahlilning o'zi DTS da ko'rsatilgan barcha talablarni amalga oshirish uchun kifoya qilmaydi.

Grammatik tahlilni DTS talablariga xizmat qildirish uchun til bo'limlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish, uni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu jarayonda ona tili ta'limining bo'limlararo hamda fanlararo aloqasi natijasi yaqqol ko'zga tashlanadi, tilni tizimiyligi o'rganishning amaliyotga ijobjiy ta'siri samarasini sezildi.

Fonetikani o'rganish jarayonida adabiy til va shevalarning lug'atni boyituvchi xususiyatlariga e'tibor berish ham muhimdir. Shunda adabiy til me'yorlariga rioya qilishning ham nazariy, ham amaliy ahamiyati to'liq anglanadi. Ayni paytda fonetikani puxta va ongli o'rganish, tilning boshqa bo'limlarini ham yaxshi o'zlashtirish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

O'zbek alifbosini o'rganish ham shu bobga aloqador. Buning ahamiyati to'la anglansagina, kutilgan samaraga erishish mumkin.

## LEKSIKOLOGIYANI O'RGANISH METODIKASI

Leksikologiya (yunoncha lexis – so'z, logos – fan, ta'limot) so'z haqidagi fan bo'lib (uni o'zbek tilida so'zshunoslik deb ham atashadi), muayyan tilda ishlatiladigan barcha so'zlar shu tilning lug'at boyligini tashkil qiladi.

Tilshunoslikning bu bo'limi so'z va uning ma'nolarini o'rganish bilan

shug'ullanadi. Shu sababli, leksikologiya o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitishda katta imkoniyatlarga ega.

Leksikologiyani o'rganish jarayonida so'zning grammatik hamda lug'aviy, o'z va ko'chma ma'nolari, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, ma'no ko'chish usullari, ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli, shakldosh, talaffuzi yaqin, ma'nosи farq qiluvchi – paronim so'zlar, umumxalq ko'p ishlata digan va kam ishlata digan so'zlar, tarixiy, shevaga oid, yangi paydo bo'lgan va eskirgan, kasbhunarga oid so'zlar, atamalar, ibora va tasviriy ifodalar kabi hodisalar bilan tanishiladi.

Talabalar nutqning go'zalligi, izchilligi, ta'sirchanligi asosan ularning lug'at boyligi bilan bog'liq. Boshlang'ich sinflardan boshlab akademik litsey va kasb-hunar kollejlari gacha bo'lgan davrda o'quvchilar o'rganadigan so'zlar lug'ati kengaytirilib boriladi. Bunda bir qator xususiyatlar e'tiborga olinadi. Xususan:

— so'zlarning amaliy ahamiyati, ya'ni butun ta'lim jarayoni uchun ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar;

— so'zlarning amaliyotda qo'llanish darajasi, uning muntazam yoxud alohida holatlardagina qo'llanishi;

— so'z ma'nosining to'la tushunilishi, o'tinli va nutqiy vaziyatga mos ravishda ishlatalishi nazarda tutiladi.

So'zning o'z va ko'chma ma'nosini o'rganish usullari mavzusini o'rganish jarayonini tahlil qilib ko'ramiz: Topshiriq: quyidagi gaplarni o'qing. O'z va ko'chma ma'noda kelgan so'zлarni ajrating.

Me'mornikida bir yorqin  
yulduz o'syapti. U yulduz — Badia.

*(Mirmuhsin)*

Havo ochiq. Yulduzlar  
yorqin nur sochadi.

*(Mirmuhsin)*

Hovlimizda bir gul bor,  
Uning ismi — Zulxumor

*(A.Suyun)*

Har o'zbekning hovlisini  
Gilam kabi gul bezar.

**1-topshiriq.** Berilgan gaplardagi gul, yulduz so'zlarining ma'nolarini aniqlang.

Namuna: 1-ustunda berilgan gaplardagi yulduz, gul so'zları qiz, farzand ma'nosini beradigan ko'chma ma'noda qo'llanilgan. 2-ustundagi mazkur so'zlar esa o'z ma'nosida qo'llangan.

Demak, bir xil shakldagi so'zlar ikkinchi tur ma'noda ham qo'llaniladi va mazkur holatni so'zning ko'chma ma'nosи deb yuritiladi.

**2-topshiriq.** Gapdag'i gul va yulduz so'zlarining uyadoshlarini toping.  
Namuna: gul — atirgul, chinnigul, gulsafsar, bo'tako'z; gul-qiz,  
~~furzand~~, ona, ayol, singil; yulduz-sayyora, Yer, Oy, Quyosh, Mars,  
**Yupiter**, Neptun, yulduz-qiz, go'zal qiz. tarbiyalı, aqli, ilmli  
qliz...v.h.

Bu kabi o'yin-topshiriqlar o'quvchilardagi mantiqiy tafakkurni  
rivojlantiradi, mustaqil mushohada malakasini chuqurlashtirishga, so'z  
boyligini oshirish va boyitishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

"Izchil kurs"ni o'rganishda — o'z va ko'chma ma'noli so'zlar orasidagi  
~~ma'~~noviy munosabatlar, ma'no guruhlari (uyadosh, ma'nodosh, zid  
~~ma'~~noli so'zlar kabi)ning ko'chma ma'noda qo'llanishi ustida ishslash,  
til sathlarini bog'lab o'rganish orqali lug'at xazinasini oshirish va  
boyitishga imkon beradi.

Ona tili mashg'ulotlarida berilgan mashqlardagi so'zlarning o'z va  
ko'chma ma'nolari ustida ishlanadi.

*Bog'larga namozgar salqini tushdi,  
Gullar nam bargini qayirdi asta.  
Oftob ham suv ichar tog'lardan pastda,  
Loladek qip-qizil o't-shafaq o'chdi.* (U.Nosir)

Ushbu satrlarda yasama go'zallik yo'q, tun bilan kunning o'zaro  
almashish daqiqalariga xos belgilarni payqab, tuyib, ko'rib, kun botishi  
bilan salqin tushishini nozik badiiy bo'yoqlarda, ko'chma ma'noda  
tasvirlanadi: "Oftob ham suv ichar tog'lardan pastda...", "Loladek  
qip-qizil o't-shafaq o'chdi..." kabi.

Matn ustida ishslash mashqlaridan so'ng, o'quvchilarda mustaqil  
mushohada malakasini hosil qilish uchun quyidagi topshiriqlardan  
foydalanish mumkin.

**1-topshiriq.** Hayvon, qush va o'simlik nomlari ro'yxatini tuzing. Har  
bir so'zni o'z ma'nosida va ko'chma ma'noda qo'llab, so'z birikmasi va  
gaplar hosil qiling.

Namuna:  
1-ish. Burgut, arslon, qaldirg'och, sher, lochin, ohu, kiyik...v.h.

2-ish. Burgutning qanoti, arslon na'rasi, qaldirg'ochlar qo'shig'i,  
~~hurkak~~ kiyik, sherning yuragi...v.h.

3-ish. Bizning shirin uyqumizni arslonlarning na'rasi buzdi.  
Burgutning qanotlari parvoz paytida saltam ikki metrga boradi.

Arslon tongda ko'zini ochdi. Uni qaldirg'ochlar galasining vijir-vijiri  
hezovta qilgan edi.

**2-topshiriq.** Hosil qilingan so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llab, gap  
tuzing.

## **1-ish.**

arslon	kiyik
sher	qałdirg'och
Bobur	lochin
qarchig'ay	— dek bola Shoira oħu
burgut	gul
	to'ti

## **2-ish. Gaplarni kengaytiring.**

Namuna: Bobur — qarchig'aydekk yigit. Shoira — oħu ko'zli, kiyikdekk chaqqon qiz; Arslon va sherlar o'rmon va tog'larda yashaydilar. Lochinning ko'zлari nihoyatda o'tkir bo'ladi.

O'quvchilar hayvon va qush nomlari orqali insonga xos bo'lgan salbiy va ijobji xususiyatlarni tavsiflash bilan o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. Ular shaxsni qanday baholash va tavsiflashni so'z birikmasi yoki gap qurish orqali izohlaydilar.

Topshiriq javoblari baholangach, madaniy va yovvoyi o'simlik nomlari, poliz ekinlari, uy-ro'zg'or nomlari kabi uyadosh so'zlardan lug'atlar tuzish; ularni o'z va ko'chma ma'noda qo'llab, gaplar qurish, matn yaratish, so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilganda, qanday ma'noni anglatayotganini tushuntirish talab etilsa, bolaning ijobji tafakkur doirasi kengayadi, so'zlash mahorati rivojlanadi. Bunda, ayniqsa, badiiy asarlarga tayanish yaxshi samaralar beradi. O'quvchilar e'tiborini so'z ma'nolarining doimiy yashash joyi — nutq jarayoniga qaratish nihoyatda dolzarb va zaruriyidir.

## **SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATLARIGA KO'RA TURLARI**

Tilimizda ayrim so'zlar o'zlariga xos xususiyatlariga ko'ra ma'noviy, shakliy, ma'no jihatdan o'xhash yoki zidlanishni bildiradi. Shunga ko'ra ular shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli va paronim so'zlar kabi guruhlarga bo'linadi.

So'z ustida ishlash jarayoni murakkab va ko'p qirrali. Shunga erishish lozimki, o'quvchi yangi va notanish so'zga e'tiborsiz bo'lmasin. Uning ma'nosini anglashga, zatur paytlarda o'z nutqida qo'llashga harakat qiladigan bo'lsin.

### **Ma'nodosh so'zlar (sinonimlar) ustida ishlash usullari**

Hozirgi o'zbek adabiy tilida sinonimiya hodisalari va uning nutqiy amaliyotini o'rganish uchun mifik, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta'lim amaliyotida xilma-xil shakl va usullar mavjud.

Ularning orasida eng keng tarqalganlardan biri sinonim so‘zlar qatorini hosil qilishdir. Buni o‘quvchi va talabalar mustaqil ravishda bajarishadi. O‘quvchining dunyoqarashi, tasavvur doirasi, tayyorgarlik darajasiga qarab, bu qatorlar ancha mukammal yoki ixcham bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilar sinonimik qatorlarni tuzish jarayonida yangi so‘zlarni o‘z lug‘at boyliklari sirasiga kiritadilar. Shu bilan birga, hozirgacha nisbatan kam ishlataladigan so‘zlarning faollashishiga ham zamin yaratiladi.

Bu xildagi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va takomillashtirish uchun: berilgan so‘zlarga sinonimlarni tanlash; tegishli matndan, darslikdagi mashqlar yoki badiiy asarlardan sinonim so‘zlarni ajratib yozish; sinonim so‘zlar asosida saylanma diktant o‘tkazish; har bir sinonim so‘zning ma’no nozikliklarini izohlash kabi mashqlar bajarilishi mumkin.

Eng oxirgi turkumdagи vazifalar talabalarning yangi so‘zlarni o‘rganishlari va o‘zlashtirishlarida eng ko‘p darajada yordam beradi. Bu jarayondagi mashqlarning turlari juda rang-barang bo‘lishi mumkin. Ular orasida sinonimik qatordagi barcha so‘zlar uchun umumiyl bo‘lgan ma’noni topish asosiy o‘rin tutadi. Masalan, jahl, achchiq, g‘azab, qahr, zarda so‘zlarini ko‘raylik. Bularning hammasini birlashtirib turadigan bosh ma’no nojo‘ya xatti-harakat yoki hodisaga nisbatan qo‘zg‘algan kuchli darajadagi his tuyg‘u va uning ifodasidir.

Mazkur so‘zning ma’nolarini aniqlashda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan foydalanish mumkin:

achchiq — qahr, jahl; zarda.

zarda — ko‘chma: jahl, g‘azab, zug‘um.

qahr — qattiq achchiqlanish holati; g‘azab.

g‘azab — kuchli darajada nafratlanish, achchiqlanish hissi, qahr, jahl.

Keyingi bosqichda shu qatordan barcha so‘zlar uchun umumiyl bo‘lganlarini (jahl, achchiq), ulardan belgining darjasini nisbatan kuchli va yuqori bo‘lganlarini (g‘azab, qahr) ajratish mumkin bo‘ladi.

Ushbu qatordagi so‘zlarni ma’noning kuchayib borishi yoki pasayib borishi yo‘nalishida joylashtirib chiqish ham topshiriq sifatida yaxshi samara beradi. Bunda ham o‘quvchilar so‘z ma’nolari ustida bosh qotirishadi, natijada, mazkur so‘zlarning ular ongida mustahkamlanib, nutqlarida faollashib qolishiga imkon yaratiladi.

Sinonimlar ustidagi ish jarayonida o‘quvchilar so‘zlarning faol yoki passiv darajadagi iste’molini (“barvasta” oddiy nutqda juda kam ishlataladi, “gavdali” esa juda faol qo‘llanadi), ularning muayyan yo‘nalishdagi chegaralanishini (“norg‘ul” asosan yosh yigit kishilargagina

nisbatan qo'llanadi), ayrim hollarda ularning emotsional bo'yoqqa ega bo'lishini ("barzangi" asosan salbiy ma'no tashiydi) anglab yetishadi.

Bu sinonimlarni nutq jarayonida qo'llash orqali ham o'quvchilarning sinonim so'zlarga bog'liq bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish imkoniyatlari bor. Ular nutq jarayonida bir so'zning o'rniga boshqasini qo'llab bo'lmasligini, bordi-yu, qo'llanganda ham u yerdagи ma'noning boshqacha noziklik bilan yuzaga chiqishini amaliy jihatdan sezib olishadi, ko'rishadi.

Sinonimlar ustidagi ishlar o'quvchilar nutq boyligini oshiradi, ularning bitta ma'noni ifodalashdagi ortiqcha takroriylikdan qutulishlariga imkon beradi, fikrni nisbatan aniq, lo'nda va tiniq ifodalashga o'rgatadi. Shunig uchun ham bu jarayonda badiiy adabiyotlarga ko'proq murojaat etish, o'quvchilarning bevosita izohli lug'atlar ustida ishlashlarini rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

So'zlarining shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari ustida ishlashda ma'nodosh so'zlar guruuhlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'nodosh so'zlar — tilimizning leksik boyligi. Undan qancha o'rinli foydalanilsa, fikrni ravon, go'zal ifodalash imkoniyatlari shuncha kengayadi, so'zdan to'g'ri va samarali foydalanish malakaari shakllanadi.

Og'zaki hamda yozma nutqni ma'nodosh so'zlar bilan boyitishda so'zlarni quyidagi leksik ma'no guruuhlariga ajratish usullaridan foydalanish mumkin.

**1-topshiriq.** Istamoq, kengashmoq, so'ramoq, salomlashmoq, xohlamoq, maslahatlashmoq, fikrlashmoq, orzu qilmoq, sog'inmoq, ko'rishmoq, omonlashmoq, ahflashmoq, salom-alik qilmoq kabi ma'nodosh so'zlarni leksik ma'no guruuhlariga ajrating:

- istamoq, xohlamoq, orzu qilmoq, sog'inmoq;
- maslahatlashmoq, kengashmoq, fikrlashmoq, ahflashmoq;
- salomlashmoq, so'rashmoq, ko'rishmoq, omonlashmoq, salom-alik qilmoq...

**2-topshiriq.** Ma'nodosh so'zlarni ma'lum bir belgining oshib yoki kamayib borishi (so'zning ma'no darajalari) bo'yicha tartib bilan joylashtiring:

- hujra, xona, kulba, uy, koshona, saroy, qasr, qal'a;
- tuzuk, durust, yaxshi, ajoyib, a'lo...

Yoshlarni mustaqil fikrlashga, leksik ma'no belgilarini farqlashga yo'naltiradigan bunday topshiriqlarni bajarish gapda so'zning o'rnini aniqlashni osonlashtiradi, undan sharoitga mos ravishda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

**3-topshiriq.** Berilgan so'zlarga leksik ma'nosini yaqin so'zlardan qator

**hosil qiling:** gulzor, guman, sezgi... Ularni ma'no darajalanishiga qarab joylashtiring: gulzor, gulbog‘, guliston, gulshan, chaman, chamanzor, bog‘-u bo'ston... v.h. Har bir so'zga namunadagidek qatorlar hosil qilingach, so'zlarning oshib borayotgan ma'no ko'lami quyidagicha tasnif qilinadi:

— “gulzor” so‘zining ma’no darajasi gulbog‘ so‘zining ma’nosidan (**ko'lami**) torroq, chunki “gulzor” deganda, gul ekilgan joy ma’nosini anglashilsa, gulbog‘ deganda, gul va manzarali butalar ekilgan joy tushuniladi. “Gulbog“ so‘zida ma’no kengayishi hodisasi ko‘rinadi;

— “guliston” so‘zining ma’no ko'lami gulzor va gulbog‘dan ko‘ra **kengroq**, ya’ni unda gullar vatani (diyori, mamlakati) ma’nosini bor. Lekin mazkur so‘z umumiste’moldagi so‘z bo‘lib, “guliston”da “chaman” so‘zida anglashiladigan badiiy ko‘tarinkilik, bo‘yoq dorlik ko‘rimaydi.

Shuning uchun guliston so‘zi gulshan, chaman so‘zlaridan pastroqda turadi.

**4-topshiriq.** Gapdag'i ma'lum bir so‘zni uning ma'nodoshi bilan almashtiring. Namuna: O'zbekistonimiz (Respublikamiz, yurtimiz, o'l kamiz, diyorimiz, mamlakatimiz...) kun sayin chiroyli (ko'r kam, obod, go'zal, suluv...) bo‘lib bormoqda.

**5-topshiriq.** Berilgan gap yoki matndagi ajratilgan so‘zlarga ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli so‘zlar topib, ularni o‘zgartiring.

Kulgi-yu tabassum **hamrohing** bo'lsin,

Sen kulsang, **qalbing** ham qo'shilib kulsin,

Yaratgan **riyodan** uzoqroq qilsin,

Tabassum **botiniy** nurdan dalolat. (T.Z.)

Namuna: **hamrohing, qalbing, riyodan, botiniy nur...**

1. Ma'nodoshlar — hamrohing, yaqining, sheringing, yo'ldoshing, mahraming...v.h.

Uyadoshlar: hamrohing — sheringing, qo'shning, hamdarding, homiying, tanishing, ulfating...v.h.

Zid ma'no: hamrohing — raqibing, dushmaning, yoving...v.h.

2. Ma'nodoshlar: qalbing, ko'ngling, yuraging...v.h.

Matn ustida ishslash: Matndan ma'nodosh so‘zlarni ajrating, guruhlang, ularga zid ma'noli so‘zlar tanlang. Topgan so‘zlar izingizdan foydalanib, so‘z birikmasi hosil qiling.

“...Kulgi-yu tabassum Ollohning insonga bergen betakror marhamatidir-ki, bu xislat na hayvonot dunyosida, na parranda-yu darrandalarda uchraydi. Inson qiyofasidagi shodmonlik belgisi faqat insongagina xos.

Kulgi-yu tabassum bebaho gavhardir, inson qalbining yuzdag'i in 'ikosidir,

*u yurak sog'inchlarini izhor etib turadi..." (Mirmuhsin).*

### **1-ish.**

kulgi — yig'i	marhamat — malomat, la'nat
tabassum — jahl	xislat — fe'l, badfe'l
xursandlik — xafalik	fazilat — xulq-atvor
shodlik — g'am	ne'mat — falokat, balo-qazo

O'quvchilarning bu sohadagi bilim va malakalarini yanada kengaytirish uchun quyidagi o'quv-topshiriqlardan foydalanish mumkin:

— Matndagi yangi yoki sizga tanish bo'lmagan so'zni belgilang, uning ma'nosini izohlang;

— matnda ajratilgan o'z va ko'chma ma'nodagi so'zlarning uyadosh va ma'nodoshlarini toping;

— ma'nodosh so'zlarning hammasi uchun umumiyl bo'lgan ma'noni belgilang.

— ma'nodosh so'zlarning ma'no nozikliklarini aniqlang.

— ulardan foydalanib, matn yarating. Ma'nodosh (sinonim) so'zlar qatorini tuzing.

Bunda darslikdagi muayyan mashqda berilgan so'zga o'quvchilar ma'nodosh (sinonim) so'z izlashadi. Bunday mashqlar uchun o'quv materiali sifatida adabiyot darsligiga murojaat etish mumkin.

Ma'nodosh so'zlarni o'rghanish yuzasidan bajariladigan ijodiy — nazorat ishlaringning yana bir turi saylanma diktant tarzida o'tkazilishi mumkin. Bunda matn o'qiladi, undan faqat (sinonim) ma'nodosh so'zlargina ko'chirib yoziladi, agar o'qituvchi lozim topsa, eshitib yozilgan ma'nodoshlarga shakldoshlar, zid ma'noli so'zlar, uyadoshlar tanlash, ular vositasida so'z birikmasi hosil qilishga qaratilgan qo'shimcha mustaqil ishlardan biri topshirilishi mumkin.

Ma'nodosh so'zlar ustida ishlashning shakl va usullari nihoyatda xilma-xil. Ularning eng keng tarqalganlarini talabalarga eslatish, mavzuga oid ijodiy va mustaqil ishlar bajarish, nazorat testlari tuzish va ularni guruhi oldida himoya qilish o'ta foydali o'quv topshiriqlaridan hisoblanadi.

Bunday ijodiy-amaliy ishlar, og'zaki nutqni ma'nodosh va uyadosh so'zlar bilan boyitishda muhim o'rin egallaydi.

### **Zid ma'noli so'zlar ustida ishslash**

O'quvchilar so'z boyligini oshirishda zid ma'noli so'zlar ustida ishslash ham katta ahamiyatga ega. Ular nutqqa alohida aniqlik, ifodalilik, ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Ulardan foydalanish usullari xilma-xil:

— Berilgan so'zlarga zid ma'noli so'zlar tanlash: katta - ..., xursand

- ... , tez - ... , xunuk - ... , oq - ... , olmoq - ... , kelmoq - ... kabi.
- zid ma'noli so'zlarning ma'nosini sharhlash;
- kecha-kunduz, oq-qora, yosh-qari, katta-kichik kabi juftliklar ma'nosini aniqlash, ular ishtirokida gap tuzish va matn yaratish kabi amaliy ishlar bilan shug'ullanish, o'quvchilar so'z boyligini oshirishga samarali yordam beradi.

Nutqni zid ma'noli so'zlar bilan boyitishda xalq maqollarining o'ziga xos o'rni, vazifasi bor. O'quvchilar "O'zbek xalq maqollari", "Aql aqldan quvvat oladi", "So'z ko'rki – maqol" kitoblaridan zid ma'noli so'zlar ishtirok etgan maqollarni ajratadilar va ma'nosini sharhlaydilar.

Masalan: "Yaxshidan yetar sharofat, yomondan yetar kasofat", "Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib", "Yaxshilardan hargiz chiqmas yomonlik, asli yomon bo'lsa, kutma omonlik", "Yomonga bosh bo'lguncha, yaxshiga yo'l dosh bo'l", "Yomondan qoch, yaxshiga quloch och" kabi maqollar ma'nosini sharhlash, ma'lum bir mavzuga oid maqollar topish va yozish ham qiziqarli, ham samarali usullardan biridir.

Berilgan ma'nodoshlarga zid munosabatda bo'ladigan qator hosil qilish ham so'z boyligini oshirish, gap tuzish malakasini mustahkamlashda, nutqda gap ma'nodoshligi hodisalaridan foydalanishda yaxshi samara beradi.

Namuna: Bu ertakni barcha o'qishi kerak. — Bu ertakni katta-kichik o'qishi kerak. Turmush g'avg'olaridan xabardor. — Turmushning issiq - sovug'ini bilgan kabi.

Zid ma'noli so'zlar ko'proq sifat va ravish so'z turkumlaridan hosil bo'ladi. Ular so'z birikmasi tarkibida: baland bino – past bino; oq marmar – qora marmar kabi;

— butun bir birikmada: baland bo'yli, semiz, keksa ayol – past bo'yli, oriq, yosh ayol; qalin muqovali (jildli) katta kitob – yupqa muqovali (jildli) kichik kitob kabi;

— ba'zi birikmada zid ma'noga ega bo'lgan so'z boshqa birikmada aynan shu ma'noni bildirmasligi ham mumkin. Solishtiring: qalin daftar – yupqa daftar, ammo qalin soch – yupqa soch emas, siyrak soch; issiq havo – salqin havo, ammo issiq suv – salqin ichimlik emas, sovuq yo muzdek ichimlik kabi; — so'z zid ma'noli juftiga ega bo'l maganda, yasovchi qo'shimchani qo'shish bilan zid ma'noli tushunchalarni ifodalash usulidan foydalanish orqali so'z boyligini oshirish mumkin: ma'noli-ma'nosiz, bema'ni-bama'ni kabi.

Zid ma'noli so'zlarning ma'nosini, tuzilishini bilish – narsa va hodisalar orasidagi farqni to'g'ri ajrata olish imkonini beradi. So'zning shakl va

ma'nolarini belgilashda ayni bir so'zning ma'nodoshlari va zid ma'nolilarini kontekstda qiyoslash ham talabada ijodiy tafakkurni rivojlantirishga katta yordam beradi. Sovuq, issiq so'zlar ham o'ziga xos shakldoshlari va zid ma'nolilariga ega:

— issiq havo — sovuq havo, qaynoq suv — muzdek suv, qaynoq hayot — sokin hayot, tinch mamlakat — notinch mamlakat, xush xabar — noxush xabar ...v.h.

Shoir va yozuvchilar voqelikni, narsa-hodisalarning xususiyatlari, sifatini bir-biriga qarama-qarshi qo'yib tasvirlashda zid ma'noli so'zlardan unumli foydalanadilar.

Bor ekan dunyoda **issiq** va **sovuj**,  
Bor ekan dunyoda **saxiy** ila **suq**,  
Bor ekan dunyoda **nur** va **ko'lanka**,  
Shoирга muhtojdir el-elat, o'lka! (Shuhrat)

(Bunday zid qo'yish usuli mumtoz adabiyotda tazod san'ati deb yuritiladi).

**Nazmiy matnlarning lisoniy tahlili ustida ishlash** ham talabaning mustaqil ilmiy mushohada yuritish, fikrni mantiqli, to'g'ri va ravon ifodalash, aytilgan fikr yuzasidan hukm va xulosalar chiqarish malakalarini mustahkamlaydi, mumtoz adabiyot javohirotlarini anglash, undan sharqona ma'naviyat va axloq tariqatlarini tuyish, adabiy til sehridan zavqlanish, fikr ifodasida she'riy san'atlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi:

Quyida berilgan she'rni she'r san'ati yuzasidan tahlil qiling. She'r vazni, qofiyasi, qaysi san'atga xosligi, unda yashirilgan ismni aniqlang.

Komil-u, kamtar, sabrni **ahli ziyodin** o'rgangan,  
Aql ila axloqni Kaykoyus bobodin o'rgangan.  
**Rag'bati** bisyor, tasavvufdan kelib **so'z aytadur**,  
Ilm ila andishani ustoz Omndonin o'rgangan.  
Mas'ul ul aytqon so'zig'a, do'st-u, ayol-u ahlig'a,  
Jism-u jon, dunyo tavakkal ota-onha mahrig'a.  
Otani e'zoz etib, tuzdi devon **farzandi xush**,  
Ne ajab, qo'l ursa ul **ilm-u lison** tahririg'a.

## **Nazmiy matn ustida ishslash uchun topshiriqlar:**

1-topshiriq. Berilgan nazmiy matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nodoshlarini toping. Ular bilan so'z birikmalari hosil qiling.

2-topshiriq. Matndagi zid ma'noli so'zlarning ma'nosini sharhlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

3-topshiriq. Ko'chma ma'noda ishlataligan so'zlarni o'z ma'nosida qo'llab, gaplar tuzing. Kichik matn yarating.

Ko'rindiki, zid ma'noli so'zlarni so'zlovchi nutqqa kontrast – ekspressiv bo'yoq beruvchi vosita sifatida o'rganish o'zbek tili o'qitish metodikasida muhim ahamiyat kasb etadi.

## **Shakldosh so'zlar ustida ishslash**

Har bir til lug'atida tovush(harf)lar tarkibi va yozilishi jihatdan bir xil, ammo ma'nesi har xil so'zlar – shakldoshlar mavjud. Ular ma'nolariga ko'ra turli buyum, voqeа-hodisa, tushunchalarni anglatadi. Ko'pincha, tovush tarkibiga ko'ra shakldoshlar bilan ko'p ma'noli so'zlarni ajrata olmaslik hollari uchraydi.

Ayrim so'zlar o'zlarining asl ma'nolaridan boshqa ma'nolarga ham ega bo'ladi. Chunonchi, inson organizmidagi a'zo nomlari: *bosh, ko'z, qosh, yuz, burun, og'iz, til, qo'l, oyoq, qulog..* v.h. lar o'zining asosiy leksik ma'nosidan tashqari ko'chma ma'nolarda ham ishlataladi; ularda ichki ma'no "ip" lari saqlanadi.

Masalan: *bosh* – organizmning bosh qismi – boshqaruvchi ma'nosini anglatadi va xuddi shu ma'no *boshliq, boshqarma, bosh maqola, so'z boshi, yo'l boshi, suv boshi, ish boshi, bir bosh uzum* kabi so'z birikmasi va qo'shma so'zlarda saqlanadi.

Natijada, lug'atimiz tarkibida shakli bir, ma'nesi turlicha so'zlar paydo bo'ladi. Shakldoshlik va ko'p ma'nolilik orasida farq ham mavjud: shakldoshlarda so'z ma'nolari bir-biriga o'xshamaydi.

**ko'k** – o'simlik, rang, osmon, motam libosi;

**olma** – daraxt, meva, buyruq fe'li kabi.

Keldi bahor, pishdi **tut** (meva),

Tut yesang, shunday ish tut (qil),

Chug'urchiq kelishin kut,

Bekorga sinmasin **tut** (daraxt).

Ushbu tuyuqda **tut** – meva, ish tut – ish qil – buyruq fe'li, tut – mevali daraxt turi ma'nolarida ishlataligan va mazkur so'zlar nutqning ravon, qiziqarli, ta'sirli bo'lishiga xizmat qilgan.

– ko'p ma'noli so'zlarda so'z ma'nolari bir-biriga yaqin va aloqador

bo'ladi: *ko'z* – ko'rish a'zosi, uzukning ko'zi, derazaning ko'zi, taxtaning ko'zi, ishning ko'zi kabi;

— shakldoshlarning uslubiy jihatdan nutqda ikki xil anglanishi tushuncha doirasini kengaytiradi: yuragiga o't tushdi — yuragi yondi.

Nutqda bir o'rinda so'z, ikkinchisida so'z birikmasini qo'llash bilan so'z o'yini yuzaga kelishi shakldoshlarda ham mavjud:

1. Sotuvchi do'konda *qirq ishni* o'ylar,  
Savdoda bo'y — endan *qirqishni* o'ylar.  
“Qing‘irlik qilmagin!” — degan kishining  
Darhol qadamini qirqishni o'ylar. (Gazetadan).

Yoki 2. Deydilarki, kungaboqar umr bo'yi kunga boqar.

Yuqoridagi birinchi to'rtlik — tuyuqda, qirq ish — “son ot”, miqdor; qirqish — fe'l, kesish, qisqartirish; qadamini qirqish — haydash ma'nolarida ishlatilgan.

Ikkinci matnda kungaboqar — ot, o'simlik, hamda ot+fe'l+ar” birikmasi — kunga boqar — shakldoshlardir.

Shakldoshlarning o'ziga xos xususiyatlaridan xalq og'zaki ijodida, badiiy adabiyotda poetik janr — tuyuq tuzishda keng foydalaniladi. U mumtoz adabiyotda tajnis san'ati deb ataladi.

Ko'z yoshim tuproq ila gar *qotila*, (aralashsa, qorishsa)

Kelmagaymen javridin *haqqa*, *tila*, (tilga)

G'amzası o'ltirdi-yu, ul bexabar,

Men agar o'lsam, ne kam *ul qotila*. (qotilga) (Lutfiy)

Shakldosh so'zlarni chuqur o'rganish talabalar so'z boyligini oshirish va nutqiy mahoratini yuksaltirishda nozik qochirimlardan foydalanish, ijodiy tafakkur, mustaqil fikrni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

### Paronim so'zlar ustida ishlash

Tovushlar soni va turi jihatdan teng bo'lmasa-da, talaffuzda o'xshash bo'lgan paronimlar shakldoshlarga ko'p jihatdan yaqin turadi. Paronimlarni shakliy, ma'noviy hamda qo'llanish doirasida quyidagi ma'no guruhlariga ajratish, o'rganish yaxshi natija beradi:

— bir-ikki ba'zan undan ortiq tovushga ko'ra qisman farqlanuvchi shakliy umumiylilikning mavjudligi: *tahlil* — *tahrir*, *matbuot* — *matlubot*, *taqlid* — *taxlit* kabi.

— paronim juftliklar o'rtasidagi tovush almashtirish va ma'no munosabatining turli xilligi: arosat — asorat, arg'uvon — armug'on kabi;

— leksik ma'nolarida umumiyl semantik qirralar mavjudligi: *tanglay*

- *manglay, kift – kaft, jiyron – jayron* kabi;
- leksik ma'nolari nisbatan yaqinligi, o'xshashligi: mahrum – marhum, mahram kabi;
- ma'lum tomonlari bilan ma'nodosh munosabatda bo'lishlik: **bekinmoq – biqinmoq, nihon – pinhon, kurtak – murtak** kabi.
- zidlanishdagi ma'lum umumiylilik hollari: *e'tiroz – e'tirof, bema'ni – bama'ni, import – eksport* kabi.

Paronimlarni nutqda xato qo'llash, juftliklarni qorishtirish so'z ma'nolarini yaxshi bilmaslikdan kelib chiqadi. O'qituvchi bunday xatoning oldini olish uchun mashg'ulot jarayonida shakliy, ma'noviy **bir-biriga** o'xhash yoki yaqin bo'lgan paronimlar ma'nosini sharplash, ularni so'z birikmasi va gap ichida qo'llash kabi amaliy ishlardan foydalanishi nihoyatda zarur.

Namuna: *Matbuotda (gazeta, jurnal) e'lon qilindi. Matlubot – iste'mol hamkorligi, keng iste'mol mollari; asorat – qoldiq, shamollash asorati, yomon asorat, arosat – ikkilanmoq, ikki yo'l orasida (arosatda) qolmoq; bog'cha – kichik bog'; bog'cha – maktabgacha tarbiya maskani; o'qituvchi mehnatiga tahsin aytmoq* — Alisher Hirot va Mashhadda tahsil ko'rdi.

Xullas, talabaning nutqiy taraqqiyotida shakldosh, paronim so'zlarining har biriga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlash, ular ishtirokida so'z birikmasi va gap tuzish, so'z o'yinlari tashkil qilish, tuyuqlar va hikmatli so'zlar, maqol va matallar ustida ishlash; turli izohli Jug'atlardan foydalanib, so'z ma'nolarini sharplash, xilma-xil iboralar, matal va hikmatli so'zlardan foydalanib matnlar yaratish kabi amaliy ishlarni bajarishi keyingi pedagoglik faoliyatida o'ta foydalidir.

### Kam ishlatiladigan so'zlar

Kam ishlatiladigan so'zlar ustida ishlashda berilgan so'zlarni *fanlarga oid, kasb-hunarga oid, shevaga oid, tarixiy so'zlar* kabi guruhlarga ajratish, **guruhlarni mustaqil** davom ettirish, shunday so'zlar ishtirokida matnlar yaratish, asosiy e'tiborni kam ishlatiladigan so'zlar ma'nosи va ularning nutqda qo'llanishiga qaratilishi darkor. **Atamalar** (terminologiya) shunday so'zlar jumlasiga kiradi.

Atamalarning qaysi fanga mansubligiga ko'ra guruhlarga ajratish, so'z **va** atamalar orasidagi munosabatni aniqlash (*til* — anatomiya atamasи; *til* — muloqot vositasi, ona tili faniga oid atama; izg'irindek dilni tilgan (*sifatdosh*) o'ylar ... kabi); uyadosh va shakldosh atamalar yordamida **matn** tuzish kabi topshiriqlarni bajarish — talaba lug'at zaxirasini atamalar bilan boyitishga yordam beradi.

1. Ma'lum bir fan sohasida tor, xususiy ma'noga ega bo'lib, ko'pchilik boshqa ma'noda keng qo'llaydigan so'zlar toping. Tor va keng qo'llanish ma'nolari doirasida gaplar tuzing.

Namuna: *Quyosh sistemasining to'rtinchi sayyorasi* — Yer. Osmon uzoq, yer qattiq (M.), Sen yerni boqsang — yer seni boqadi. Dehqon rizqni yerdan topadi.

2. "Geografiya", "Matematika", "Tabiatshunoslik" darsliklarining ma'lum bir betini sinchiklab o'qing. Ularda xususiy, tor ma'noda qo'llanilgan va keng qo'llanishda boshqa ma'nolarga ega bo'lgan so'zlar ro'yxatini tuzing. Ularning ma'nosini tushuntiring.

Har bir fan uning o'zigagina xos bo'lgan, muayyan atamalar tizimiga ega. Shunday ekan, ularni bilish, tushunish, keng va tor ma'nolarini farqlay olish, to'g'ri ishlatish bilan birga fan, kasb-kor uchun xos bo'lgan atamalar sirasini o'zlashtirishlariga erishish mashg'ulotlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerak.

Atamalarni o'rganishda talabalarga tanish va yaqin bo'lgan kasb-hunarga oid so'zlar lug'atini tuzish, ularni izohlash va shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzish va matnlar yaratishga oid topshiriqlarni bajarish samarali natija beradi.

### Olinma so'zlar ustida ishlash

Boshqa tillardan kirib, o'zbek tiliga o'zlashib qolgan so'zlar — olinma so'zlar hisoblanadi. Ularni og'zaki va yozma nutqda bemalol ishlatish uchun ular anglatgan ma'no talabalar ongiga singdirilishi zarur. Ayniqsa, ilmiy atamalar borasida olinma so'zlar muhim mavqega ega. *Aniqfanlarga xos "kvadrat", "kub", tilshunoslikdagi "morfologiya", "sintaksis", "leksikologiya", kundalik turmushda ishlatiladigan EHM, kompyuter, disket, kasseta kabi atamalarni almashtirish o'zbek xalqini jahon madaniyatidan uzishga olib kelmasligi lozim.*

Tilimizda mifik, maorif, mashq, tolib (talaba) kabi arabcha; barg, daraxt, shirin kabi *forscha-tojikcha*; lag'mon, shiypon kabi *xitoycha* so'zlar mavjud; *rus tili* va u orqali boshqa xorij tillaridan kirgan stol, stul, ruchka, buxgalteriya, soldat (*nemischa*), palto, triko (*fransuzcha*), klub, futbol, biznes, kompyuter (*inglizcha*), tomat, limon (*ispancha*) kabi atamalar ham o'zbek tilida keng iste'mol qilinadigan va o'zlashgan so'zlar qatoriga kiritiladi.

Bunday so'zlarning ma'nosini sharhlash, imlosi va ma'nosini ustida ishlash, ular ishtirokida gaplar tuzish va turli matnlar yaratish kabi amaliy ishlardan dars jarayonida unumli foydalanish mumkin. Turli

sohalar bo'yicha olinma so'zlarning ro'yxatini olish, ularning lug'aviy ma'nolari ustida ishlash, olinma so'zlardan so'z birikmalari va gaplar tuzish kabi amaliy ishlari izchillik va o'zaro uyg'unlikda olib borilsagina, bunday so'zlar talabalar so'z boyligini oshirish, ularning nutqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish, matn yaratish mahoratining oshishiga xizmat qiladi.

Nutqimizda kvadrat, kub, grammatika, leksika, stol, stul, shkaf, palto, kostum, tuqli, botinka, traktor, kombayn, rektor, universitet, professor, kompyuter, multimedia, kodoskop kabi ko'pgina so'z va atamalar borki, ularni boshqa so'zlar bilan almashtirishga hech qanday ehtiyoj ham, zururat ham yo'q.

## Ibora va tasviriy ifodalar ustida ishlash

Talaba lug'at boyligining muhim qismini ibora va tasviriy ifodalar tashkil qiladi. Ma'nosи va qo'llanishi jihatdan bir so'zga teng keladigan, ko'chma ma'no ifodalaydigan so'zlar qo'shilmasi iboralardir. U nutqmizni boyitadigan, go'zallashtiradigan va ta'sirchanligini oshiradigan vositadir. O'zbek tilini o'qitish metodikasida berilgan so'zlarni iboralar bilan (yoki aksincha) almashtirish, ular ma'nosini sharhlash ma'no darajalarini oshib yoki kamayib borishini taqqoslash kabi amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

- |   |   |
|---|---|
| <i>1. Tadbirkor o'z ishini biladi.</i>              | <i>1. Tadbirkor <b>ishning ko'zini</b> biladi.</i>              |
| <i>2. Onamning jahli chiqdi.</i>                    | <i>2. Onamning <b>sabr kosasi</b> to'ldi.</i>                   |
| <i>3. U ishni yaxshi bajardi.</i>                   | <i>3. U ishni <b>xamirdan qil</b> sug'urganday bajardi.</i>     |
| <i>4. Masalani yechishda Shahlo juda qiyndaldi.</i> | <i>4. Masalani yechishda Shahloning ona suti og'ziga keldi.</i> |

Bundan tashqari, o'quvchilarga ona tili mashg'ulotlarida iboralar lug'atini tuzdirish, iboralarga zid ma'noli, muqobil ibora yoki so'z birikmalari tanlash kabi mashqlardan foydalanishni o'rgatish ham so'z boyligini oshirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida iboralar ustida ishslash yuzasidan bajariladigan mashqlardan namunalar beramiz. 1. Ibolar mazmunini sharhlang, ularni avval ma'nodoshlari, so'ngra oddiy so'zlar bilan almashtiring.

- 1. Gapi bir joydan chiqdi, og'iz-burun o'pishdi – kelishdi.*
- 2. Dimog'i chog' bo'ldi, vaqt chog', chehrasi ochildi, og'zi qulog'iga yetdi, boshi osmonga yetdi... – xursand bo'ldi.*
- Yeng shimarib, ishga tushdi, boshi bilan sho'ng'idi, g'ayrat qildi – astoydil ishga tushdi.*

— *Oq-qorani tanidi, do'st-dushmanni ajratdi — hayot tajribasiga ega bo'ldi.*

— *Terisiga sig'madi og'zining tanobi qochdi, boshi ko'kka yetdi — suyundi.*

— *Tili qichidi — gapirgisi keldi.*

2. Iboralarni zid ma'nodagi muqobilari bilan almashtiring.

— *Dimog'i chog' — kayfiyatni buzuq.*

— *Yeng shimarib — qo'l uchida, naridan-beri.*

— *Terisiga sig'madi — tarvuzi qo'ltig'idan tushdi.*

— *Tili qichidi — toyushi o'chdi, dami chiqmadi...*

Shu bilan birga, talabalar tomonidan to'plangan iboralarni guruh ishtirokida eshitish, to'g'rilash, tahlil qilish, to'ldirish mashqlari o'tkazilishi ularda til sezgirligi, so'z tantash mahoratini, matn yaratish madaniyatining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Matn ustida ishslash uchun topshiriqlar.

**1-topshiriq.** Gap juftlarida ajratilgan qismlar orasida qanday ma'no munosabatlari borligini aniqlang.

**2-topshiriq.** Berilgan so'zlarni iboralar bilan almashtiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Yuvosh, qo'rqi, chaqqon, toza, ko'p gapirdi, gapirildi, quvondi.*

Namuna: *yuvosh — qo'y og'zidan cho'p olmagan, qo'rqi — kapalagi uchdi* kabi.

Iboralar o'rtasida o'zaro shakldoshlik va ma'nodoshlik ham bo'lishi mumkin: *boshga ko'tarmoq* (*e'zozlamoq*), *boshga ko'tarmoq* (*shovqinsuron solmoq*) — shakldosh iboralar:

*tegirmonga tushsa butun chiqadi — suvdan quruq chiqadi* — ma'nodosh iboralar.

O'quvchilar badiiy asarni o'qiyotganda uchraydigan shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli iboralar ma'nosи sharhlangan izohli lug'at daftari tutsalar, mazkur so'zlar ishtirok etgan gaplar tuzsalar, so'z boyligini oshirish va nutqiy mahoratni shakllantirishda yaxshi natijalarni qo'liga kiritadilar.

**Tasviriy ifodalar** — (po'lat ot chavandozi, zangori kema kapitani (mekanik — haydovchi o'mida); zangori ekran, oynayi jahon (televizor); qanotli do'stlar (qushlar); oq oltin (paxta)dan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlovchi asosiy usullardan biri hisoblanadi).

Bunda narsa yoki shaxs nomlarini tasviriy ifoda orqali berish yoki tasviriy ifodani predmet nomi bilan almashtirish, ularning ma'nolarini sharhlash, ular ishtirokida gap va matnlar tuzish foydalidir.

Leksikologiyani o'rganishda bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va umumlashtirishda so'zning botiniy, lug'aviy ma'nosini tafsiflash shu jarayonda to'g'ri va o'rinni so'zlash mahoratini egallash uchun leksik tahlildan foydalanish yaxshi natija beradi.

Leksik tahlildan namunalar:

**1-topshiriq.** Viloyat so'zining lug'aviy ma'nosini sharhlang.

Viloyat – mam'lakatning muayyan bir millat vakillari istiqomat qiladigan qismi, bo'lagi, yashash joyi; Samarqand viloyati, Farg'ona viloyati...

2. Ma'nodoshlari: hudud, vodiy, depara, manzil... v.h.

3. Bugun respublikamizning Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarda havo issiq bo'ladi.

O'quvchi leksik tahlil jarayonida so'zning lug'aviy ma'nolari haqida o'zi mustaqil fikr yuritadi. Shu so'zga ma'nodoshlarni o'zi izlaydi, iloji bo'lsa, boshqa tildagi tarjimasini topadi. Shu so'z ishtirot etgan gaplar quradi va matn yaratadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ravon, aniq, ta'sirchan uslub tuyg'usi tilning barcha sohalarini o'rganish jarayonida, til birliklarida (tovush, no'z, qo'shimcha, so'z birikmasi, gap kabi sintaktik qurilmalarda), no'zlarining ma'no va shakl munosabatlari asosidagi bog'lanishlarni taqqoslash zaminidagina shakllanadi. O'quvchi ongida ana shu xususiyatni tarkib toptirish, barcha ona tili o'qituvchilarining diqqat markazida bo'lishi lozim. Shuning uchun o'zbek tili mashg'ulotlarining bosh maqsadi o'quvchi so'z boyligini oshirish, uni nutqda to'g'ri va o'rinni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, til bo'limlarini uslubiyat bilan bog'liq holda o'rganish hisoblanadi.

### Grammatikani o'rganish usullari

Pedagogik ta'limda eng zamonaviy texnologiya hisoblangan OVKT – ongli verbal kognitiv ta'lim asosida tashkil qilingan ona tili mashg'ulotlari o'quvchida og'zaki va yozma nutqni mukammal egallash, til imkoniyatlaridan to'g'ri va unumli foydalanish madaniyatini tarbiyalaydi. Nutq madaniyati oddiy salom-alikdan tortib, kimga, nimaga, qachon, qayerda, qanday so'zlashgacha bo'lgan sharqona odob va muloqot sirlarini o'rgatadi. Mazkur xususiyat o'quvchilarga fonetik hodisalar va til qonuniyatlarini o'rgatish jarayonida singdirib boriladi.

Adabiy til me'yorlari, grammatik bilim ko'nikma va malakalar tizimi, ularni amaliyotda qo'llash asosida egallanadi. Bu esa mustaqil fikrlash, fikr mahsulini to'g'ri, ravon, izchil, aniq, tushunarli ifodalash imkonini

beradi. “Grammatika hamma va har qanday bilimga o’tiladigan bir ostona...” (A. M. Peshkovskiy) ekan, uni o’rganishning amaliy tomoniga ko’proq e’tibor berish nihoyatda foydali. Shundagina, “... grammatica insonni o’zini o’ziga tanitishdek o’ta zarur tarbiyalash vazifasini to’la-to’kis bajaradi”.

Grammatika til haqidagi fanning bir qismi, u morfologiya va sintaksidan iborat. Morfologiya bo’limida so’z tarkibi va so’z turkumlari, sintaksis bo’limida so’z birikmasi va gap turlari o’rganiladi.

Grammatika atamasi grekcha “grammatike” so’zidan olinib, “o’qish va yozish haqidagi bilim” degan ma’noni bildiradi. Grammatik bilimlar o’quvchilar so’z boyligini oshirishga, kommunikativ savodxonlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

## **Morfologiyani o’rganish metodikasi**

Talabalar “Morfologiya” bo’limini o’rganish jarayonida tilning adabiy me’yorlari, so’zning shu me’yorlar doirasida o’zgarishi va yasalishi (grammatik xususiyatlari); so’zni nutqda to’g’ri va o’rinli ishlatish prinsiplari bilan tanishadilar.

So’z turkumlari mavzusini o’rganishda so’zning tarkibi, yasalish jarayoni bilan tanishuv orqali o’quvchilar so’zning lug’aviy va grammatic xususiyatlarini kuzatish, farqlash, o’zaro qiyoslash, ularni nutq vaziyatiga mos ravishda to’g’ri tanlash va to’g’ri qo’llash malakalarini egallaydilar, lug’at xazinasini boyitadilar. Hozirgi o’zbek orfografiyasidagi qoidalarning ko’pchiligi morfologik prinsiplarga asoslanganini hisobga olgan holda morfologik hodisalarни o’rganishda imlo masalasiga alohida ahamiyat berish lozimligini o’quvchilar ongiga yetkazish lozim bo’ladi.

Morfologiyani o’rganish o’quvchining mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi, so’zning turli shakllarini o’rganish va yangi so’z hosil qilish, ularni o’zaro qiyoslash va tanlash, tanlab olingen so’zni gap tarkibida hamda bog’lanishli nutqda o’rinli ishlatish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Ularda muayyan nutqiy madaniyat shakllanadi, qiroat san’ati ko’nikmalari taraqqiy etadi.

O’zbek tilida so’z turkumlarini o’rganish boshlang’ich sinflarda o’rganilgan bilimlarga asoslangan holda olib borilishi, egallangan BKM (bilim, ko’nikma va malakalar)lardan foydalaniib, mustaqil ijodiy fikr ifodalash mahorati shakllantirilishi lozim. O’tilgan mavzularni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish uchun quyidagi savollardan foydalinish mumkin.

*1. O’zbek tilida so’z turkumlari qanday guruhlarga ajratiladi?*

- Mustaqil so'z turkumlari qaysilar?*
- Fe'l shakllarini tasrif qiling.*
- Yordamchi so'z turkumlariga ta'rif bering.*
- Yordamchi so'z turkumlari mustaqil so'z turkumlaridan qanday farqlanadi?*
- So'zlarni turkumlarga ajratishda qaysi xususiyatlar e'tiborga olinadi?*

Bu savollarga javob izlash jarayonida o'quvchilar so'zlarning talaffuz va ma'no jihatidan o'zgarishi, so'z yasalishidagi morfologik va sintaktik usullar, so'z tarkibi, ma'lum belgi va xususiyatlari bilan farqlanuvchi so'z turkumlari, so'zning turlanishi va tuslanishi, grammatik shakl va grammatik ma'nolar ustida ishlaydilar, so'z turkumlari hamda ularning har biriga xos yasalish usullari bilan tanishadilar, egallangan BKMLar asosida gap qurish va matn yaratish ko'nikmalarini egallaydilar.

## **MORFOLOGIYANI O'RGANISHDA UYADOSHLIK HODISASI VA UNING AHAMIYATI**

So'zning grammatik shakllari tizimi paradigmada deyiladi. Paradigma morfologiya bo'limida o'rganiladi. Morfologiyada turkumlanish hodisasi, uyadosh so'zlarni o'rganishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu hodisani morfologiyada uyadoshlik paradigmatiskasi deb atash mumkin.

Grammatik shakl so'zning u yoki bu grammatik vosita yordamida o'zgarishidir. Turli grammatik shakllar hosil qilish so'zning paradigmatisk o'zgarishi bo'lib, u leksik ma'no hamda kategorial grammatik ma'nolar birligiga asoslanadi. So'zning grammatik shakllari tizimi morfologik paradigmatiska (turlanish, tuslanish tartibi, o'zgarishlar yig'indisi) analadidi. Ma'lumki, "Mustaqil so'zlar obyektiv borliqdagi ma'lum bir predmet, belgi, harakat kabilarni anglatadi. Bu so'zning leksik ma'nosini o'zgartirmaydi, leksik ma'noga qo'shimcha tarzda ma'no orttirish, so'zni ko'zga, gapni gapga bog'lash, biriktirish vazifasini bajaradi hamda maxsus vositalar (masalan, qo'shimchalar) orqali ifodalanadi. Grammatik ma'no va grammatik shakl (so'z shakli) deganda, mustaqil so'zlarga nazarda tutiladi".

Grammatik ma'no quydagicha ifodalanadi:

— asosga grammatik ma'no bildiruvchi qo'shimcha qo'shish bilan: **kitob-im, kitob-ni, o'qidi-ng, yaxshi-roq;**

<sup>1</sup>Хожиев. А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. Тошкент, Ўқитувчи, 1979, 5-бет.

— yordamchi so‘zlar bilan: siz uchun, radio orqali, keldi-yu gapirmadi;

— so‘zlarni takrorlash bilan: burro-burro gapirdi, katta-katta qurilishlar.

So‘zlar leksik-semantik ma’nosи, grammatik belgilariga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi. Ular so‘z turkumlaridir.

O‘qituvchi o‘quvchilarga so‘z turkumlari haqida o‘rganilgan bilimlarni takrorlash va tekshirish uchun lug‘at diktanti yozdirishi, berilgan matn ustida ishlash, so‘z turkumlarini ajratish, guruhash, ular bilan SBlar hosil qilish, gap tuzish — “MYBT” moduli asosida matn yaratish kabi o‘quv topshiriqlarini berishlari mumkin.

## LUG‘AT USTIDA ISHLASH

Ona tili o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarga ona tilidagi so‘zlarning ma’no va mohiyatini o‘rgatishdan, so‘zni his etishga yo‘llashdan iborat. Bunda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish va uni nutqda to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash malakasining hosil qilinishi alohida o‘rin tutadi. Buning uchun ona tili darslarida lug‘at ustida ishlashga alohida e’tibor beriladi. Lug‘at ustida ishlash ona tili darslaridagi oddiy mashg‘ulot emas. Mazkur jarayonda:

- bolalarining aqliy va nutqiy jihatdan rivojlanishi ko‘zda tutiladi;
- dasturda belgilangan ilmiy-nazariy hamda metodik vazifalar bajariladi;
- o‘quvchilarning aqliy, axloqiy-ma’naviy, badiiy-estetik tarbiyasi amalga oshiriladi;
- ularning ona tili zamiriga yashiringan sir-u sinoatlar, fayz-u go‘zalliklarni ilg‘ab olishiga imkon beriladi.

Shuning uchun ham lug‘at ustidagi ish oddiy va tasodifiy mashg‘ulotlar bo‘lib qolmasligi, balki muntazam va qat’iy rejaga tayanadigan, uzoq va oliy maqsadlarga xizmat qiladigan, uzlusiz tizim tarzida amalga oshishi kerak.

Lug‘at ustida ishlaganda har bir so‘zning amaliy jihatlariga, amaliy ahamiyatiga alohida e’tibor berish zarur bo‘ladi. Har bir so‘zning o‘quvchi shaxsining dunyonи bilish va o‘zlashtirishdagi, uning nutqiy faoliyatidagi muayyan bir xizmatlari bo‘lishini ta’minlash shart. Masalan, “elig” degan so‘zning qadimda turkiy xalqlar tilida mamlakat hukmdori ma’nosida qo‘llangani, uning oddiy so‘zlashuv tilida ham, o‘z davridagi adabiy tilda ham faol iste’molda bo‘lganligini bilish, o‘quvchiga faqat ona tili darslari uchun emas, balki tarix, adabiyot fanlaridagi tegishli

**Atama va tushunchalar mohiyatini o'zlashtirishlari uchun ham amaliy  
hatdan kerak bo'ladi.**

So'zlarni tanlashda ularning qo'llanish darajasi ham e'tiborda turishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, kam qo'llanadigan, o'quvchining amaliy faoliyatida deyarli qo'llanmaydigan so'z emas, balki uning amaliyotida tez-tez uchrab turadigan so'zlarga ko'proq murojaat qilish, o'quvchi nutqiy faoliyatining silliqlashishiga, boyishiga, bu jarayonning tasodifiy kamchiliklardan xoli bo'lishiga kafolat bo'ladi.

Albatta, bu jarayonda talabalarning "yuk ko'tarish qobiliyatları" hech qachon nazardan chetda qolmasligi kerak. Buning uchun faqat ona tili u'limidagi uzviylik va uzuksizlik kifoya qilmaydi, balki imkoniyat doirasida boshqa fanlar bilan aloqadorlik nazarda tutilgani ham ishning yutug'iga moydevor bo'la oladi.

Har bir matn, tushuncha, atama ustida ishslashdan tashqari, o'quvchilarga turli-tuman lug'atlardan foydalanishni o'rgatish ham tilzimli tarzda yo'lga qo'yilishiga erishish muhim. O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan so'zlarning umumiyligi miqdori va hajmi belgilangan bo'lishi, buning uchun lug'at minimumdan tortib, tegishli so'zlarning alfavitli tilzimi ishlab chiqilishi ish muvaffaqiyatini ta'minlaydigan dastlabki omillardir. O'quvchilar uzviylik va uzuksizlik prinsiplari asosida nonimlar lug'ati, antonimlar lug'ati, o'zbek tilining izohli lug'ati bilan tanishtirilib borilishi kerak. Tilshunoslikning, ona tilining turli ho'limlarini o'rghanishda bu ishning o'ziga xos imkoniyatlaridan foydalanish o'rinni bo'ladi. Bu jarayondagi eng muhim bosqich esa so'z ma'nolarini o'zlashtirish bilan aloqador.

So'z ma'nolari ustidagi ish murakkab va qiyindir. Bolalarda yangi, myniqsa, ma'nosи xiraroq so'zlarga alohida va jiddiy e'tibor qaratish hissini tarbiyalashga erishish oson kechmaydi. Ammo muntazam va barqaror mashqlar tizimi bu vazifani bajarishni osonlashtiradi. Shunga ko'ra har doim matn ustida ishlaganda yangi so'zlarga va so'zlarning yangi ma'nolarda qo'llanganiga e'tiborni tortish, o'quvchilarning bu sohadagi ko'nikma va malakalarining shakllanishi va takomillashishiga imkon beradi. Buning uchun amaliyotda qo'llanadigan ayrim shakl va usullarni eslatish mumkin:

1. Yangi so'zning ma'nosini izohli lug'at vositasida oydinlashtirish.
2. Berilgan so'zning ma'nodoshlarini topish.
3. Matndagi so'zning ma'nosiga zid bo'lgan boshqa so'zlarni keltirish.
4. So'z yasalishiga oid tahlilni amalga oshirish.
5. So'zning kelib chiqishiga oid tahlil bilan shug'ullanish, ya'ni so'zning etimologiyasini aniqlash.
6. So'zning o'z va ko'chma ma'nolarini, ular orasidagi bog'lanishlarni

aniqlash.

7. So‘z ma’nosini izohlash va imkoniyatga qarab, boshqa tillarga tarjima qilish.

### Lug‘at diktanti

Uy, to‘y, tosh, chaqmoq, momaqaldiroq, daraxt, majlis, odob, azob, do‘slik, kitob, ishchi, go‘zal, kichik, shirin, bilimli, oq, o‘q, yoz, chop, kel, o‘yla, ishladi, uxladi, suhbatlashdi, so‘zladi.

Diktant yozib bo‘lingach, o‘quvchilar har bir so‘zning lug‘aviy ma’nosini sharhlashlari va uning qaysi so‘z turkumlariga qarashli ekanligini aytishlari lozim bo‘ladi.

**1-topshiriq.** So‘zlarning lug‘aviy ma’nosini sharhlang, qaysi so‘z turkumiga qarashli ekanligini aniqlang.

1. Uy – odamlar yashashi uchun mo‘ljallangan deraza, eshik, tomi bor bino; uy – nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, ot – so‘z turkumiga kiradi.

2. To‘y – bazm, nikoh to‘yi, beshik to‘yi, xatna to‘yi, oltin to‘y kabi tantanali marosim; to‘y – nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, ot so‘z turkumiga kiradi.

3. Ishchi – biror foydali mehnat bilan shug‘ullanuvchi shaxs; kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, ot.

4. Go‘zal – belgi-xususiyatni anglatadi, ma’nodoshlari: chiroqli, ko‘rkam, jozibali; qanday? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, sifat.

5. O‘qidi, ishladi – tugallangan harakat ma’nosini bildiradi: qiziqib o‘qidi, tinmasdan ishladi, fe’l.

**2-topshiriq.** Mazkur so‘zlar bilan so‘z birikmalari hosil qiling, gaplar tuzing. Kim? nima? qanday? nima qildi? nima qiladi? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarning tagiga chizing. Ularning qanday so‘z turkumiga qarashli ekanligini aytib bering.

**3-topshiriq.** Gaplardan ot, sifat, fe’l turkumlariga oid so‘zlarni ajratib guruhlang.

Shu tariqa lug‘at diktanti tarkibidagi so‘zlar og‘zaki sharhlansa o‘quvchilarda:

- mantiqiy tafakkur doirasi kengayadi va rivojlanadi;
- fikr ifodalash ko‘nikmasi shakllanadi va rivojlanadi;
- nutqda so‘z qo‘llash malakasi shakllanadi;
- so‘z turkumlari yuzasidan egallangan bilimlar aniqlanadi, umumlashtiriladi, mustahkamlanadi.

## SO‘Z TURKUMLARINI O‘RGANISH

So‘zlarning muayyan til doirasidagi umumiy grammatik ma’nolari hamda o‘ziga xos xususiyatlarga ko‘ra ma’lum guruhlarga ajratilishi so‘z turkumlari deb yuritiladi (Qarang: 8-jadval “So‘z turkumlari”).

### 1. Mustaqil so‘z turkumlarini o‘rganish

Mustaqil so‘z turkumlari lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib, gapda ma’lum sintaktik vazifa bajaradigan o‘ziga xos so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlardir. Ularga ot, sifat, son, fe'l, ravish, olmosh va taqlid so‘zlar kiritiladi.

#### Ot so‘z turkumini o‘rganish.

Ot so‘z turkumiga mansub so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, to‘g‘ri yozish, lug‘aviy ma’nolarini bilish hamda nutqda to‘g‘ri va o‘z o‘rnida qo‘llay olishni o‘rgatish – mazkur mavzuning asosiy maqsadi bo‘lishi lozim.

Otlarning lug‘aviy ma’nolari, ularda uyadoshlik paradigmatisasi (guruhash, turkumash, qatorni davom ettirish) ustida ishlash “Umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlari” talablariga ko‘ra talabaning kommunikativ savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Otlarda uyadoshlik hodisalarini o‘rganish — talaba so‘z boyligini oshirishning asosiy shartidir. Chunonchi, shaxs, kasb-kor, o‘simplik, hayvon, idish-tovoq, taom, olam, parranda... v.h. nomlarini guruhlarga ajratish, uyadoshlarini topib yozish mashqlari shular jumlasiga kiradi.

Berilgan daraxt va o‘simpliklar nomlari: chinor, terak, tol; olma, olcha, bodom, kashnich, shivit, rayhon; ra’no, nargiz, gunafsha kabilarni guruhlarga ajratish va uyalarni davom ettirish kabi topshiriqlar talabalarning tabiiyot fanidan olgan bilimlarini mustahkamlaydi, atamalarni qayta esga olishga, nutqda to‘g‘ri va o‘z o‘rnida qo‘llashga o‘rgatadi.

Ot so‘z turkumi haqida o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash, ularni uslubiyat bilan bog‘lab rivojlantirish uchun turli mavzulardagi ma’rifiy matnlardan foydalansa bo‘ladi.

Ta’limiy diktant

#### Istiqlol

*Mustaqilligimizni qo‘lga kiritganimizga ham o‘n besh yildan oshdi. Qisqa muddatda O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi. Bu yo‘l mamlakatimizning iqtisodiy imkoniyatlaridan to‘laroq, samaraliroq foydalanishni, xalqmizning milliy qadriyatlari, qadimiy an‘analari, boy ma‘naviyatini tiklash bilan qo‘shib olib borishni ko‘zda tutadi.*

*Milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz qayta jonlandi. Ma'naviyatimiz tiklandi. Tarix va kelajagimizga o'z ko'zimiz bilan boqib, o'z aqlimiz bilan baho bera boshladik.*

*Darhaqiqat, istiqlol — moddiy-ma'naviy sohadagi bugungi yuksalishimizning, dunyo bilan erkin, tengma-teng munosabatlarimizning tamal toshidir.*

Matnni tahlil qilishda ta'limning oldingi bosqichlarida o'rganilgan ot so'z turkumi haqidagi ma'lumotlarga tayaniladi. Bunda quyidagi amaliy topshiriqlarni bajarish mumkin:

**1-topshiriq.** Matnda uchragan otlarning lug'aviy ma'nosini sharhlang. Qanday so'roqqa javob bo'lishini aiting.

**2-topshiriq.** Ajratilgan so'zlarga, ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlang.

**3-topshiriq.** Kim? Nima? Qayer? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar qaysi so'z turkumiga qarashli ekanligini aiting. Ular bilan ot+ot, sifat+ot, son+ot qolipli so'z birikmalarini tuzing.

**4-topshiriq.** Hosil qilingan so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

**5-topshiriq.** Muayyan mavzuga xos gaplar ishtirokida matn yaratting.

Diktant (bayon, insho, matn) tarkibidagi so'zlar doimiy ravishda yuqoridagidek og'zaki sharhlansa, talabaning

- ijodiy tafakkur doirasi kengayadi;
- nutqiy mahorat, fikr ifodalash ko'nikmasi rivojlanadi;
- nutqda so'z tanlash malakasi shakllanadi;
- to'g'ri, benuqson matn yaratish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

Ona tili mashg'ulotlarini ana shunday rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari, mustahkamlash mashqlari va matn tahlillari vositasida olib borish tizimli va izchil bilim olishga zamin hozirlaydi, ta'lim mazmunini takomillashtiradi, o'quv-biluv faoliyatini jadallashtiradi. Nazariyani amaliyot zaminida o'rganish, mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatni o'stirishga yordam beradi.

Amaliyot orqali nazariyani egallashning eng ishonchli vositalaridan biri til hodisalarini kuzatish, analiz va sintez qilish, anglash, farqlash va tahlil qilishdir. (Tahlilga tayanib, umumiy xulosalar chiqarish, ona tili mashg'ulotlarida so'zga ehtiyoj hosil qiluvchi o'quv topshiriqlari orqali tovushdoshlar, ma'nodoshlar, uyadoshlar, zid ma'noli so'zlar, shakldoshlar ustida ishslash; ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarish; gap qurish va matn yaratish shular jumlasidandir).

Morfologik tahlil namunasi:

**1-topshiriq.** "Diyorimizni" so'zini morfologik tahlil qiling.

1. Diyorimizni – ot, turdosh ot, aniq, sodda, tub, I shaxs ko‘plikda, tushum kelishigida.

**2-topshiriq.** Birinchi topshiriqda berilgan so‘zning lug‘aviy ma’nosini sharhlash: so‘z ma’nodoshlari (diyor-yurt, vatan, o‘lka, viloyat, manzil); uyadoshlari (diyor, viloyat, jumhuriyat, shahar, tuman, mahalla, ko‘cha, guzar, manzil, qishloq, ovul) hamda zid ma’noli (ona diyor - xorij; ona yurt – begona yurt... v.h.) so‘zlar topilib, ular ishtirokida gaplar tuziladi:

Ona diyorimizga tashrif buyurayotgan xorijiy mehmonlarning keti uzilmayapti.

### **Mustaqil ish**

1. Topshiriq, mavzuga oid matn yarating (jadvalga qarang 34-bet).

**1-ish.** Ma’nodosh so‘zlarga yasovchi qo‘srimchalar qo’shib, yasama otlar hosil qilish: Yurt + dosh, vatan + parvar, o‘lka + shunos, manzil + goh, Sho‘r + qishloq, shahar + lik, mahalla + dosh, yurt + chilik, el + chilik... v. h.

**2-ish.** Tuzilgan yasama so‘zlardan so‘z birikmalari hosil qiling: bizning mahalla, tug‘ilgan manzilim, ona yurt sarhadlari, vatanim chegarasi, mamlakat ichkarisi, ona diyor ko‘rinishi... v. h.

**3-ish.** Tuzilgan so‘z birikmalari ishtirokida gaplar qurish:

1. Bu yil paxta terimiga shaharlik yurtdoshlarimiz ham faol qatnashishdi.

2. Mustaqil respublikamiz taraqqiyotini ijodiy barkamol farzandlar belgilaydi.

3. Yaylovlari ipak, barqut ona yurtim sarhadlari...v.h.

**4-ish.** Qurilgan gaplardan eng ma’qulini tanlab, shu mavzuda matn yarating. Matnda ishtirok etgan otlarni ajratib, ma’no farqlariga ko‘ra guruhlang.

Namuna: Mening jahonda tengi yo‘q ona diyorum, bag‘rikeng, mehmonnavoz, ko‘ngli oq , yurtdoshlarim...

(Matnni davom ettiring va xulosa qiling).

Topshiriqlarni bajarish natijasida egallangan bilimlar nazorat qilinadi; so‘zning shakli, qurilishi, ko‘rinishi tavsiyelarni. Leksik tahlil esa talaba nutq boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqda so‘z tanlash, uni o‘rinli qo‘llash malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan ona tili mashg‘ulotlarida “So‘zning umumiy tahlili” nomli jadvaldan foydalanish yaxshi samara beradi.

Bunda barcha tahlil turlari o‘zaro aloqadorlikda o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

## Aniq va mavhum otlarni o'rganish

Talabalar nutqni otlar bilan boyitishda so'zlarni aniq va mavhumlarga ajratish, istagan matndan ushslash, ko'rish, o'lchash mumkin bo'lgan otlarning aniqligi yoki aksincha, mavhumligi asosida ikki guruhga bo'lish, ularni tub va yasamalarga ajratish kabi ijodiy-amaliy ishlarni bajarish so'z boyligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Aniq otlar	Mavhum otlar
Ushslash, ko'rish, o'lchash mumkin bo'lgan narsa-buyum, shaxs nomlari:	Ushslash, ko'rish, o'lchash mumkin bo'lmasan narsa buyum nomlari:
Mahsulot, suv, bino; tikuvchi g'azalxon, sinfdosh, bog'bon; qatlama.	Tuyg'u, sevgi, qalb; yaxshilik, tikuvchilik, qo'rquv, aqlilik, quvonch.

Guruhlarni mustaqil davom ettirish, aniq otlardan mavhum otlar hosil qilish (bola – bolalik, sho'x – sho'xlik, loy – loygarchilik) kabi amaliy ishlarni bajarish o'quvchilar so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. So'z boyligini oshirish esa nutqiy malakani shakllantirish bilan qo'shib, o'zaro aloqadorlikda olib borilmog'i maqsadga muvofiqdir.

### Atoqli va turdosh otlar

Atoqli va turdosh otlar mavzusi o'rganilganda, ular ifodalab keladigan shaxs nomlari, kasb-hunar, o'rin-joy, qurol-vosita, qarindoshlik otlari kabi ma'no guruhlari ustida ish olib borishga to'g'ri keladi.

Bu guruhlар (uyalar)ning, chunonchi, kasb-hunar otlarini, tarbiyachilik, shifokorlik, dehqonchilik, hunarmandchilik va shu kabilarning uyadoshlari ustida to'xtalish ham juda foydalii.

O'quvchilarga berilgan matnlardan shaxs otlarini ajratish, tub va yasamalarini aniqlash, ularga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlash, qo'shimchalar (-chi, -u, -vchi, -dosh, -kor, -gar, -shunos kabi) yordamida shaxs otlari yasash, just shaxs otlari (metodist – o'qituvchi, terapevt – shifokor, muhandis – texnolog kabi) tuzish, ularning imlosini o'rganish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlar ustida ishslash yaxshi samara beradi.

Kasb-hunar, o'rin-joy, qurol-vosita otlari ustida ishslashda ham yuqoridaq usullardan foydalansa bo'ladi.

Atoqli otlar ustida ishslashda quyidagi ma'no guruhlari ustida to'xtalish

**maqsadga muvofiq:**

- shaxs nomi, familiyasi, otasining ismi, taxallusi, laqabini ifodalovchi otlar: Shohida, Shahzod, Xo'jayev, Yashin, Sakson ota;
- jug'rofij nomlar: O'zbekiston, Samarqand, Pomir, Sirdaryo, Orol, Yangiyer, Balxash;
- tashkilot, korxona, muassasa nomlari: Vazirlar Mahkamasi, "Bahor" ansambli, Navoiy teatri, "Adabiyot" muzeyi, "Kamolot" jamg'armasi;
- sayyora va yulduzlar nomi: Yer, Quyosh, Mars, Mushtariy, Zuhra, Hulkar, Yupiter, Venera;
- tarixiy hodisalar, gazeta, jurnal, asar, ilmiy muassasalar: Mustaqillik kuni, "O'zbekiston ovozi" gazetasi, O'zbekiston Milliy universiteti;
- hayvonlarga maxsus qo'yilgan nomlar: G'irko'k, Boychibor, Qoplon, Mosh, Govmish, Targ'il;
- "belgi nomi+turdosh ot" qolipli joy nomlari: Yangiyo'l, Yangiobod, Oqtepa;
- "belgi nomi+atoqli ot" qolipli jug'rofij nomlar: Markaziy Osiyo, Janubiy Koreya, Shimoliy Qozog'iston;

Qisqartma so'zlar orasida ham atoqli otlar ko'p uchraydi. Ularning to'liq nomlari bilan (yoki aksincha) almashtirish (BAR – Birlashgan Arab Respublikasi, O'zMU – O'zbekiston Milliy universiteti), qisqartma so'zlar lug'ati tuzish, ularni sharhlash, nutqiy mahoratning shakllanishida, talabalarning muomala-muloqot madaniyatini egallashlarida ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur mavzuni o'rganish jarayonida ijodiy-amaliy ishlar ("MYBT" ustida ishslash)ni imlo bilan bog'lab olib borish masalalariga ko'proq ahamiyat berish foydali.

### **Turdosh otlar va ularning imlosi**

Hozirgi o'zbek adabiy tilida otlarning asosiy qismini turdosh otlar tashkil qiladi. Ular bir turdag'i predmetlarni boshqa turdan ajratish uchun xizmat qiladi: talaba, kaptar, daraxt, o'simlik ...

Turdosh otlar ifodalagan ma'nosiga ko'ra shaxs, narsa-buyum, kasb-hunar, o'rinn-joy, qurol-vosita otlari kabilarni bildiradi. Bu guruhlar yana bir necha uyadoshlarga bo'linadi. Masalan: shaxs otlarining o'qituvchi, shifokor, muhandis, hunarmand, dehqon, bog'bon, cho'pon kabi umumiste'mol so'zlarining uyadoshlari; shifokor – terapevt, kardiolog, urolog, endokrinolog, ginekolog, venerolog... v. h. kabi uyadoshlari mavjud.

Ona tili mashg'ulotlarida turdosh otning ma'no guruhlari ustida ishlashda mazkur uyalarning har biri ustida to'xtalishga to'g'ri keladi.

Berilgan matn bo'yicha talabalar nutqni shaxs otlari bilan boyitish yuzasidan topshiriqlar berish:

- shaxs otlarini ajratish, tub va yasamaligiga ko'ra guruhlash;
- ajratilgan so'zlarga ma'nodosh va uyadosh so'zlar tanlab, guruhlarni kengaytirish;
- chi, -uvchi (-vchi), -dosh, -xon, -kor, -gar, -shunos kabi so'/ yasovchi qo'shimchalar yordamida shaxs otlari hosil qilish;

juft shaxs otlari (metodist — olim, metodist — o'qituvchi, muhandis — texnolog) ishtirokida esa so'z birikmalari va gaplar hosil qilish kabi amaliy-ijodiy topshiriqlarni bajarish maqsadga muvofiq.

Otning boshqa ma'no guruhlari ustida ishlashda ham shunday ish usullaridan foydalaniш mumkin.

### Otlarda son

Otlarning morfologik belgilaridan biri birlik va ko'plikda qo'llanishi sanaladi. Boshlang'ich sinflarda olingan bilimlarga suyanib, o'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

- otlarning morfologik belgilarini sanang.
- faqat birlikda qo'llanadigan otlar qaysilar?
- ko'plikdagi otlar qaysi qo'shimchalar bilan hosil qilinadi?..

O'quvchilar savollarga to'liq javob beradilar, keyin berilgan nazmiy matndagi otlarni aniqlaydilar:

*Go'zal dunyo, baxmal bog'lar, ulug' shaharlar,  
Zo'r gigantlar, shu kengliklar, shu oliv bino,  
Sho'x to'lqinli, tiniq suvli, katta daryolar,  
Ulug' Vatan — bari mening qanot ostimda.*

(G'. G'ulom)

O'quvchilar matndagi dunyo, bog'lar, shaharlar, gigantlar, kengliklar, Vatan, qanot kabi so'zlarning birlik va ko'plikda kelganligini, dunyo, Vatan, qanot kabi so'zlar ko'plik qo'shimchasi olganda, anglatadigan xilma-xil ma'nolarni sharhlaydilar. Bunda bolalarning -lar shakl yasovchi qo'shimchali otlarning ma'nolari haqidagi bilimlarini kengaytirish ko'zda tutiladi:

- hurmat (onamlar, buvimlar, bobomlar...);
- noaniqlik, kuchaytirish, takror, taxmin (yoz oylari, kuz kunlari...);
- kinoya, piching (endi xursandmilar, durustlar-ku...);
- narsa-buyum navi (sutlar, tuzlar, yog'lar...);

— jamlik (Mirzacho'llar, Sanamlar...);  
— ta'kid (quvonchlari cheksiz, yuzlari qizidi ...) kabi so'z ma'nolarini modalash singari uslubiy xususiyatlari bilan ham ajralib turishlarini bilib oladilar.

Ko'plik qo'shimchasi -lar bilan kelgan so'zlarni qiyoslash orqali ko'plik yoki hurmat, kuchaytirish yoki ta'kidlash kabi ma'nolar anglatishini turli tipdagi mashqlar vositasida, so'z birikmasi, gap, "MYBT" tizimi bilan ishslash, matn yaratish va undan ta'kid, jamlik ma'nolari berilgan so'zlarni ajratish hamda sharhslash o'quvchi bilimini mustahkamlaydi, og'zaki nutq malakasini shakllantiradi.

### Otlarda egalik qo'shimchasi

Umumiy o'rtalim maktablari ona tili ta'limi jarayonida otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, narsa-buyumning uch shaxsdan biriga tegishli ekanini bildirishi, yozilishi, qo'shimcha qo'shilganda, otlarning asosida tovush o'zgarishi (tilak — tilagi, qirg'oq — qirg'og'i...), ikkinchi bo'g'indagi a, i yoki u tushib qolishi (shahar — shahrim, qorin — qorni, burun — burni...) hodisalari haqidagi bilimlar mashqlar yordamida mustahkamlanadi.

Obro', mavqe kabi so'zlarga egalik qo'shimchalari (obro'yim, mavqeing...) qo'shilgach, javoblar umumlashtiriladi va xulosalanadi; egalik qo'shimchalari narsa-buyumlarning uch shaxsdan biriga tegishli ekanini bildiradi: ular oxiri unli bilan tugagan so'zlarga -m, -ng, -si; ko'plikda -miz, -ngiz, -lari shaklida; undosh bilan tugagan so'zlarga --im, -ing, -l, ko'plikda -imiz, -ingiz, -lari shaklida; tole, obro', manba kabi so'zlarda esa oxiri unli bilan tugagan bo'lsa-da, -im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -lari tarzida qo'shilib yozilishi amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlanadi.

Egalik qo'shimchasinini olgan ot, qaratqch kelishigidagi ot yoki otlashgan so'z, olmoshga qarashli ekani anglashiladi: asarning mazmuni, yaxshining sharofati, bizning quvonchimiz...

Amaliy mashg'ulot davomida k va q bilan tugagan tuk, tok, xalq kabi bir bo'g'inli, shuningdek, ishtirok, ittifoq kabi ko'p bo'g'inli otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, oxirgi undosh aslicha yozilishi, tovush o'zgarmasligi holatlari ham eslatib o'tiladi.

**Kelishik qo'shimchalari.** Mazkur mavzuni o'rganishda ta'limning quyi bosqichlarida o'rganilgan kelishik qo'shimchalari va ularning imlosi haqidagi ma'lumotlarni xotiraga olish va qo'shimcha topshiriqli ijodiy diktant o'tkazish maqsadga muvofiqdir:

**Ijodiy ish.** Gulchehra, kitob, A. Qodiriy, roman; Zulkumor, ko'rdi; kutubxona, bordi; o'qituvchi, so'radi... so'zlarini kelishik qo'shimchalari

yordamida o'zaro bog'lab so'z birikmalari hosil qiling.

Qaratqich kelishigi qo'shimchasi -ning gapda asosan aniqlovchi vazifasidagi otlarga qo'shib kelishi, qolgan kelishik qo'shimchalari esa (-ni, -ga, -da, -dan) ko'proq to'ldiruvchi vazifasini bajaruvchi otlarga qo'shib ishlatilishi alohida ta'kidlab o'tiladi.

Kelishik qo'shimchalarini ko'makchilar bilan almashtirish (ukamga oldim — ukam uchun oldim) holatlari nutq uchun muhim til me'yorlaridan ekanligini eslatib o'tish ham juda muhim.

Berilgan so'zlar ishtirokida so'z birikmalari (ma'nodosh ko'makchili birikmalar ham) hosil qilish, ergash va bosh so'zlarni bir-biriga bog'laydigan qo'shimcha (ko'makchi)larni aniqlash, mazkur birikmalarni qatnashtirib, gap qurish yoki matn yaratish darsni DTS talablariga mos tashkil qilish borasida qo'yilgan ilk qadamdir.

Kelishik qo'shimchalarining ishlatilishi va talaffuziga oid bilimlarni mustahkamlash o'quvchi kommunikativ savodxonligini, nutqiy madaniyatini ta'minlaydi, so'zni to'g'ri va o'z o'rnila ishlatish yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qiladi.

Morfologiyani o'rganishda so'z tarkibi, asos, so'zlarning yasalishi, so'z turkumlari haqida olingan ma'lumotlar mustahkamlanadi, ularni tizimli va izchil o'rganish bosqlanadi.

Hozirgi o'zbek orfografiyasidagi qoidalarning ko'philigi morfologik prinsipga asoslangan. Shuning uchun o'quvchi morfologik hodisalarini o'rganishda ularning imlosi, lug'aviy ma'no guruhlari hamda yasalishiga alohida ahamiyat berishi zarur.

### **Otlarning yasalishi mavzusi ustida ishlash** (ilovaga qarang)

So'zlarning grammatik xususiyatlariga ko'ra ma'noli qismlarga bo'linishi talabalarning so'z tarkibini o'rganishi va imlo qoidalalarini to'la egallashiga yordam beradi.

Otning morfologik tuzilishini yaxshi bilmagan talaba so'z turkumlari mohiyatini ham angloyolmaydi; orfografiyadagi morfologik prinsip bo'yicha yoziladigan so'zlarning imlosini ham puxta egallay olmaydi.

O'zbek tilida o'zak va negizlarga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilganda (ong+la — ang+la, tara+oq — tar+oq, o'q+uv — o'q+uv ...) o ? a, a ? o, i ?u ga almashib, tovush o'zgaradi, so'zlar bir turkumdan ikkinchi bir so'z turkumiga o'tadi: ong (ot) + la (fe'l yasovchi qo'shimcha) — angla — fe'l, ya'ni ot fe'lga aylanadi. — og'iz — og'zi, mag'iz — mag'zi, burun — burni kabi egalik qo'shimchalari qo'shilganda bo'g'indagi unli tovush tushadi.

So'z tarkibini aniqlashda amaliy-ijodiy mashqlardan foydalanish

**Maqsadga muvofiq.**

1. Quyidagi so‘zlarning tarkibini aniqlang. Shakldosh asoslarni ajratib, bo‘lang.

O‘qi — o‘quv, o‘quvchi, o‘qituvchi; ish — ishchi, ishchan, ishli; maza — mazali, mazasiz, bemaza; tinch — tinchlik, notinch, bog‘ — bog‘bon, bog‘lam, bog‘lovchi, bog‘dor, bog‘lama.

2. Asosdosh, shakldosh so‘zlarni ajrating. Yasovchi qo‘srimchalarining o‘zakka qo‘silib, yangi ma’nodagi so‘z hosil qilganligini sharhlang.

Namuna: o‘qi — fe‘l; talaba, o‘qituvchi — ot, shaxs oti; o‘qituvchilik — kasb oti; bog‘ — mevali daraxtlar ekilgan joy, bog‘bon — bog‘ni parvarish qiluvchi, shaxs oti, bog‘dorchilik — bog‘ ishlarini yurituvchi soha nomi v.h...

— Berilgan so‘zlardan asosdosh va qo‘srimchadosh so‘z qatorlari hosil qiling. (Paxtakor, lolazor, suvoqchi, bilim, zargar, do‘stlik ...)

### **Asosdoshlar**

**paxtakor** (shaxs oti)  
**paxtazor** (joy oti)  
**paxtachilik** (kasb oti)  
**paxtasiz** (sifat)  
**paxtali** (sifat)  
**paxtadek** (ravish)

### **Qo‘srimchadoshlar**

**ishchi** (shaxs oti)  
**suvchi** (shaxs oti)  
**zardo‘z** (shaxs oti)  
**mahsido‘z** (shaxs oti)  
**bog‘bon** (shaxs oti)  
**saroybon** (shaxs oti)

— Asosdosh va qo‘srimchadosh otlar yordamida so‘z birikmalari hosil qiling va gaplar tuzing.

Shuningdek, ma’lum bir kasb-hunarga oid so‘zlarning uyadoshlarini topish, berilgan matndagi ma’nodoshlarni topib, ularning ma’no nozikliklarini farqlash, tuyuqlardagi shakldosh so‘zlarning ma’nolarini aniqlash, ular ishtirokida gaplar tuzish va matn yaratish, o‘quvchini mustaqil va ijodiy fikrlashga, tafakkur doirasini kengaytirishga, o‘z flkrini ifodalash jarayonida til imkoniyatlaridan unumli foydalanish usul va vositalarini o‘rganishga xizmat qiladi.

### **Otlarning tuzilishi va imlosi ustida ishlash**

Yozma nutqda o‘quvchilar qo‘shma otlar va ularning imlosi masalasida ko‘p qiynaladilar. Shuning uchun ona tili mashg‘ulotlarida so‘z birikmalaridan qo‘shma joy nomlari hosil qilish va aksincha, qo‘shma so‘zlarni so‘z birikmalariga aylantirish, ular yordamida tegishli gaplar tuzish, o‘quv mashqlarini bajarish, so‘zlarni nuqsonsiz yozishda yaxshi samara beradi:

<b>So‘z birikmasi</b>	<b>Qo‘shma ot</b>
issiq ko‘l	Issiqko‘l
yangi yer	Yangiyer
yangi yo‘l	Yangiyo‘l
katta qo‘rg‘on	Kattaqo‘rg‘on
oq qush	Oqqush
kuygan yor	Kuganyor

<b>Qo‘shma ot</b>	<b>So‘z birikmasi</b>
Toshko‘prik	tosh ko‘prik
Qumqishloq	qumli qishloq
Oqdaryo	oq daryo
Ko‘korol	ko‘k orol
Mingbuloq	ming buloq

Jadvalda berilgan qo‘shma joy nomlarini “ot + ot”, “sifat + ot”, “ot + fe‘l”, “sifatdosh + fe‘l” qoliplari asosida yasalganligini va o‘zbek tilida bunday qolipli so‘zlar ko‘p uchrashini anglash ham muhim.

O‘quvchilarning mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlash uchun turli topshiriqli tarqatmalardan (TT) ham foydalanish mumkin:

### TT-1

**Birinchi qismi oq, qora, yuqori, o‘rta, quyi so‘zlaridan hosil bo‘lgan qo‘shma otli joy nomlariga misollar keltiring.**

### TT-2

**Ikkinci qismi daryo, soy, ko‘l, dengiz so‘zlari bilan tuzilgan qo‘shma joy nomlariga misollar topib yozing.**

### TT-3

**So‘zlarning yozilishiga qarab ma’nosini ayting. Bosh va kichik harflarda, ajratib va qo‘shib yozilish sabablarini tushuntiring.**

Darsdan tashqari vaqtarda o‘tkaziladigan turli kechalarda, to‘garak mashg‘ulotlarida joy nomlarini o‘rganish, ular ishtirokida tasviriy matnlar yaratish orqali talabalar ijodiy tafakkurini o‘stirish mumkin. Bunda badiiy tasviriy vositalar, adabiyot va san‘at namunalari (badiiy kitob, surat, kino va videofilm)ga murojaat etish ham yaxshi samaralar beradi.

### **Juft otlar va ularning imlosi**

Juft otlar va ularning yasalishi mavzusini o‘rganish jarayonida quyidagi amaliy ishlarni bajarsa bo‘ladi:

1.Uy-joy, kuch-quvvat, baxt-saodat kabi just ma’nodosh so‘zlardan so‘z birikmalari hosil qilish va gap tuzish;

2. Ota-on, amma-xola, og'iz-burun kabi juft uyadosh so'zlardan gap tuzish va matn yaratish;

3. Kecha-kunduz, achchiq-chuchuk, oq-qora kabi zid ma'noli so'zlardan foydalanib, matn yaratish ustida ishlash;

Bug'doy-mug'doy, choy-poy, osh-posh kabi birinchi so'zning ikkinchi qismidagi bosh harfni p, m kabi harflar bilan almashtirish natijasida ma'nosini noaniq so'zlar hosil qilish va ularning ma'nosini sharhlash kabi amaliy ishlarni bajarish, o'quvchi nutqiy malakasini oshirishda muhim omil sanaladi.

Ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli so'zlardan hosil bo'lgan juft so'zlar orasida ba'zan chiziqcha (-) o'rnida -u (-yu) yuklamasi ishlatilishi haqida o'quvchilarga ma'lumot beriladi (ota-yu ona).

### **Takror otlar ustida ishlash**

Otlarning yasalishi mavzusiga bog'liq bo'lgan takror so'zlar ustida ishlashda talabalar yuqorida ko'rsatib o'tilgan "Otlarning yasalishi" nomli jadvaldan samarali foydalanishlari mumkin.

— Ko'plik ma'nosini (etak-etak paxta, qop-qop bug'doy, chelak-chelak suv...);

— Davomiylig ma'nosini (chopa-chopa yetib oldi, yura-yura toliqdi...)ni bildiruvchi takror otlar ishtirotkida gaplar qurish orqali o'quvchining nutqiy faoliyatini takomillashtirish, so'zlash mahoratini rivojlantirish, o'quvchi uchun nihoyatda foydali bo'lgan badiiy bo'yoqdor gaplar tuzish va matn yaratish malakasini shakllantirish mumkin.

— Takror ma'nosini (shirin-shirin uzum, milt-milt chiroq)ni anglatuvchi so'z birikmalarini hosil qilish va nutqda qo'llashni o'rgatish ham nutqni ravonlashtirishda yaxshi samara beradi.

Juft so'zlar ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli so'zlardan hosil bo'lsa, takror so'zlarda grammatik ma'no bir so'zning yonma-yon kelishidan anglashiladi: yurishini qara, yurishini; gapingni bil, gapingni; ahvolini ko'r, ahvolini kabi.

Xullas, ma'noni kuchaytirish uchun ketma-ket keltirilgan so'zlar takrorga (uslubiy nuqson) kiritilmaydi. Takror so'zlar nutqda ta'kid, ta'na, nasihat kabi qo'shimcha ma'nolarni bildiradi.

### **Qisqartma otlarning yasalish usuli va imlosi**

Qisqartma so'zlar hosil qilish o'zbek tilida ham so'z yasash usullaridan biri hisoblanadi. AQS H, BMT, TDPU, DTS... v.h.

O'quvchilarning qisqartma so'zlar haqida olgan bilimlarini mustahkamlash, takrorlash uchun izohli diktant o'tkazish mumkin.

Topshiriq. Qisqartma so‘zlarni yozing, ularni kengaytirib izohlang.

Izohli diktant

BAR, DTS, O‘zMU, SamDU, BuxDU, TDPU, Toshdavpeduniversitet, filfak. (Mustaqil ravishda qisqartma otlarga misollar topish, ular ishtirokida so‘z birikmasi hosil qilish va gaplar qurish “MYBT” moduli bilan ishlash o‘ta foydalidir).

Izohli diktant uchun qo‘srimcha savollar:

1-topshiriq. Qisqartma otlarni o‘qib, yasalish holatlarini izohlab bering.

2-topshiriq. Birinchi so‘zning bosh qismi, boshqa so‘zlarining birinchi harfi va aralash yo‘l bilan hosil qilingan qisqartma otlarga misollar keltiring, o‘qilishi va yozilishini tushuntiring.

3-topshiriq. So‘zlarining birinchi harfidan yasalgan qisqartma otlarga misol keltiring. Ularning yozilishi va o‘qilishini tushuntiring.

4-topshiriq. Qisqartma otlar qatnashgan beshta gap tuzing.

Talabalar izohli diktant tarkibidagi qisqartma otlarning to‘la shaklini yozib chiqadilar: BAR – Birlashgan Arab Respublikasi, DTS – Davlat ta’lim standarti, O‘zMU – O‘zbekiston Milliy universiteti, filfak – filologiya fakulteti v.h.

Qisqartma otlar orasiga hech qanday tinish belgilari qo‘yilmaydi. Agar shartli qisqartma bo‘lsa, orada nuqta qo‘yiladi; G‘. G‘ulom (G‘afur G‘ulom), H. Olimjon (Hamid Olimjon) kabi. Qisqartma so‘zlar imlo, talaffuz, orfografiya bilan aloqadorlikda o‘rganiladi. Ular uslubiyatda takrordan saqlanish, yozuvda ixcham ko‘rinishi bilan katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

“Ot” mavzusini o‘rganishda sathlararo aloqadorlik prinsi piga asoslanib, otli birikmalar tuzish, tavsiya etilgan so‘zlardan foydalanib turli qoli pli so‘z birikmalari hosil qilish kabi amaliy ishlar so‘z boyligini oshirish va nutq madaniyatini shakllantirishning muhim omilidir. Ayniqsa, berilgan tobe yoki bosh so‘zga muvofiq keladigan so‘zlar guruhini kengaytirish ham samarali ish usullaridan biri hisoblanadi.

	jamoli	charos
	dovrug‘i	chillaki
	muzeylari	daroyi
	xiyobonlari	kishmish
	bozorlari	husayni
shahrimiz	atrofi	hasayni uzumi
	hokimi	sulton
	qizlari	buvaki

Ba'zan tobe so'zga ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli so'zlarni tanlash ham foydalidir.

keng (tor)	go'zal (oddiy)
to'g'ri (egri)	chiroyli (xunuk)
yorug' (qorong'i)	ko'r kam (ko'rimsiz) qiz
tekis (notekis)	nozik (polvon)
serqatnov (kamqatnov)	barkamol (nuqsonli)
toza (chang)...v.h.	ko'hlik (paxmoq)...v.h.

Berilgan jadvallar asosida so'z birikmalarini hosil qilish, birikmalar ma'nosini izohlash, qiyoslash, ular ishtirokida gaplar tuzish, matnlari yaratish — so'z boyligini oshirish va boyitish bilan bir qatorda so'zlash mahoratini shakllantirish, o'z fikrini ixcham, ravon, nutq sharoitiga mos ravishda ifodalash jarayonini tezlashtiradi, til imkoniyatlaridan unumli foydalanish ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

### Sifat so'z turkumini o'rganish

O'quvchilar so'z boyligini oshirishda sifat so'z turkumining imkoniyatlari cheksiz.

Avvaldan ma'lum bo'lgan rang-tus, maza-ta'm, shaxs, narsa-buyumning xususiyatlari, shakl, hajm, o'lchov bildiruvchi so'zlar, ularning qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlariga javob bo'lishi, belgining darajasini bildirishi kabilarga suyangan holda sifat ma'nolari ajratiladi.

Talabalar sifat haqida tizimi va izchil ma'lumot olish natijasida, so'roqlar so'z turkumlarini farqlash uchun yordamchi vosita ekanligini tushunib yetadilar. Sifat narsa-buyum belgisini ko'rsatuvchi mustaqil so'zgina bo'lib qolmay, gapdag'i vazifasiga ko'ra ot, otlashgan so'z, son kabilarning xususiyatlarini aniqlaydi. Nutqning aniqligi, go'zalligi, rang-barangligi, ta'sirchanligi, ravonligi ko'proq shu turkumdag'i so'zlarni bilish, ularni to'g'ri, o'rinli qo'llash bilan bog'liq.

### Sifatning ma'no guruhlari va darajalarini o'rganish

Sifatlar tizimiyl Tilshunoslik nuqtayi nazaridan yetti turdag'i ma'no guruhlariga bo'linadi.

Ularni o'rganishda:

- shakl, hajm, o'lchov sifatlari: katta, baland, keng, chuqur, uzoq, yaqin...;
- rang-tus sifatlari: oq, qizil, yashil, ko'k...;
- belgi-xususiyat sifatlari: sho'x, og'ir, sodda, mehribon...;
- holat sifatlari: issiq, tinch, osuda, uyatchan...;

- maza-ta'm sifatlari: achchiq, nordon, taxir...;
- hid sifatlari: yoqimli, xushbo'y, badbo'y...;
- vaqt sifatlari: tushki, yozgi, ertagi...

kabi ma'no guruhlari ustida alohida to'xtalish, sifatning ma'no guruhlari ustida ishslash, ularning asliy va nisbiyligini aniqlash, ularga ma'nodosh va zid ma'noli so'zlar tanlash, sifatlarning darajalanish lug'atini tuzish, mazkur sifat turlariga ma'nodosh, uyadosh va zid ma'noli so'zlar tanlash, o'xshatishlar topish, ular ishtirokida so'z birikmalari hosil qilish, gaplar qurish va matn yaratish kabi amaliy ishlarni doimiy suratda bajarish talaba so'z boyligini oshirish va so'zlash mahoratini shakllantirish, nutqiy zaxirani boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sifatlarning ma'noviy guruhlarini o'rganishda o'xshatma so'zlar (qorday oq, suvday tiniq), sifat iboralar, ularga zid ma'noli so'zlar (iboralar) topish, ular orasidagi ma'no nozikligini, mayda farqlarini aniqlash, bir uyaga guruhslash, ro'yxatni davom ettirish singari mustaqil ish turlaridan foydalanish samarali bo'ladi. Bunday ishlarni o'zaro musobaqa yo'nalishida o'tkazish mumkin: o'quvchilar ikki guruhg'a bo'linadi. 1-guruh insondagi ijobiy fazilatlarni, 2-guruh shu so'zlarning zid ma'nolari — salbiy fazilatlarni topadilar.

1-guruh: odobli, aqli, mehribon, kamtar, tirishqoq, epchil, chaqqon, rostgo'y, tarbiyali ...

2-guruh: odobsiz, aqlsiz, bemehr, manman, yalqov, yolg'onchi, tarbiyasiz, dangasa, tanbal ...

Mazkur so'zlar, so'z birikmalari hosil qilish, gaplar qurish, matnlar yaratishga zamin bo'ladi. Ushbu ish jarayoni talabalar so'z boyligini oshiradi, ijodiy tafakkurni kengaytiradi, nutqning sayqallanishiga yordam beradi.

Yangilangan ta'lim mazmuni xususiydan umumiyya qarab borishni, til haqidagi qoidalarni emas, tilning o'zini, uning lug'at boyliklarini o'rganishni, nazarda tutmoqda. Ushbu boylikni o'z nutqida to'g'ri va o'rinci qo'llash usullarini o'rganish, o'zining mustaqil, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, fikr mahsulini o'z iste'dodi, fikr doirasi, tilning ichki imkoniyatlaridan foydalaniib, matn yoki she'riy ifoda sifatida yuzaga chiqara olish shu kunning talabidir. Bunday ko'nikma va malakalarni izchillik bilan rivojlantirish hamda yosh avlodni nutqiy taraqqiyot sari yo'naltirish DTSning bosh talabidir.

Sifat so'z turkumini o'rganishda "ot (sifat, ravish)+fe'l+ar qoli pli, "sifat+ot" so'z qoli pli hosilalar (tinchliksevar, ertapishar, tezpishar, xalqparvar, tezyurar v.h.) ustida ishslash o'quvchilar lug'atini yangi

so'zlar bilan boyitishda "MYBT" modulidan foydalanib, so'z birikmalari hosil qilish, gap tuzish va matn yaratishiga yo'naltirishda ancha qo'l keladi.

Masalan: 1-topshiriq. "Orzular" so'zi bilan "sifat+ot" so'z qoli plari yordamida so'z birikmalari hosil qiling:

yangi	muqaddas,	gard yuqmagan
musaffo	so'ngsiz	fusunkor
munis	nihoyasiz	bebosh
shirin	bitmas-tuganmas	jilosiz
pok	lahzalik	oniy
cheksiz	nurafshon	o'tkinchi
yuksak	munavvar	aldoqchi
samoviy	qanotli	beqaror
nafis	jilvakor	nozik
nurli	ma'yus	g'amgin

Ajratilgan so'z bilan ma'nodoshlik qatorlari hosil qiling.

a. Musaffo – toza, pok, gard yuqmagan, beg'ubor v.h.

b. Nurli – nurafshon, munavvar, samoviy... v.h.

Shunday qilib, ona tili mashg'ulotlarida o'quvchiga beriladigan har bir topshiriq ularda so'zga ehtiyoj hissini hosil qilishi, so'z va gaplarni o'zaro bog'lash va kengaytirish, berilgan matn ustida ishslash va matn yaratish malakasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Yuqorida bajarilayotgan topshiriqlar o'quvchini izlanishga, nimalarnidir topishga, kashf qilishga undaydi, yo'naltiradi. So'z sehri, uning butun jozibasi, go'zalligidan ilhomlanishga sabab bo'ladi.

**2-topshiriq.** Hosil qilingan so'z birikmalari ishtirokida badiiy matn yaratting.

**2.1-ish.** Badiiy matn

Endigina akademik litseyni tugatib pedagogika universitetiga o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan Zulkumor bir uyum kitoblarga ko'milib o'tirardi.

Qizginaning ko'zi kitob sahifalarida bo'lsa-da, xayoli uzoqlarda... U beg'ubor, ma'sum yoshlikning qanotli orzulariga mahliyo, ro'parasida turgan qadrdon dugonasi Gulchehrani ham payqamas, ko'rmas edi...

2.2. Matnni davom ettirib, xulosa qiling.

2.3. Yaratgan matningizga sarlavha tanlang. Undagi gaplar, so'z birikmalarini ajratib sanang. "Orzular" so'ziga ma'nodosh va

uyadoshlar tanlang.

2.4. Hosil qilingan so‘z birikmalari, gaplar yordamida nazmiy matn yarating...

*Samo sarhadining munis bekasi  
Fusunkor orzular bahridan o‘tib,  
Oymoma mo‘ralar harir tuyrukdan  
Muhabbat sehridan umidvor bo‘lib.*

**3-topshiriq.** She’rni ifodali o‘qing. Ma’nosini sharhlang. Qofiyadosh so‘zlarni ajratib guruhlang. “Sifat+ot” qolipidagi sifatlarni boshqa ma’nodosh va uyadoshlari, o‘xhatmalar bilan almashtirib ko‘ring.

Yuqorida birin-ketin berilayotgan ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchining quyidagi bilimlar yuzasidan egallagan nutqiy ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash mumkin bo‘ladi (reyting asosida):

- So‘z boyligi darajasi;
  - So‘z birikmalari hosil qila olish malakasi;
  - “So‘z qoliplari” yordamida birikmalar yasash;
  - Nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va o‘rinli jumla qurish;
  - O‘z nutqida tasviriy ifoda va iboralarni qo‘llay olish;
  - So‘zlarni ko‘chma ma’noda ishlata bilish;
  - Sifat mavzusi yuzasidan test topshiriqlari tuza olish;
  - O‘z fikrini she’riy usulda ifodalay olish;
  - She’rdagi qofiyadosh so‘z va so‘z birikmalarining o‘rnini va o‘zini almashtira olish;
  - Qofiyadosh so‘zlarga ma’nodosh, uyadosh va zid ma’noli so‘zlar tanlay olish;
  - Shakldosh so‘zlarga ma’nodoshlar tanlash;
  - Yangi matn yaratma olish... v.h.
- “Sifat” mavzusini o‘rganishda dars mashg‘ulotlari ana shunday bosqichli ketma-ketlik prinsipiiga asoslanib olib borilsa, talaba xususiydan umumiyya (matn yaratish), umumiyyadan xususiyga (matnni tahlil qilish) qarab borish, mustaqil, ijodiy mushohada yuritishning eng muhim vositalari bilan tanishtirib borilsa, o‘quvchining nutqiy faoliyati shakllanadi, rivojlanadi va taraqqiy etadi.

### Sifat darajalarini o‘rganish

Belgi bildiradigan so‘zlarning ma’nolari turli xil bo‘ladi. Sifatlar asosan rang-tus, hajm-shakl, maza-ta’m, xil-xususiyat ma’nolarini bildiradi. Lekin narsa-buyum, voqeа-hodisalardagi belgilar ortiq yo kamroq bo‘lishi mumkin: “... O‘zgalarni ayblashdan oldin ularni tushunishga urinib

*ko'raylik: bu tanqid qilishga nisbatan foydaliroq, muruvvatliroq, atrof-muhitga xayrixoh, g'oyat bardoshli va o'ta muruvvatli bo'lishni tarbiyalaydi...”* (Deyl Karnegi. “Qanday qilib do'st orttirish mumkin?”).

Sifat darajalarini o'rganishda va o'rganilgan mavzuni mustahkamlashda berilgan matndagi sifatlarni ajratish, qiyoslash va o'zaro farqlash, ularning ma'nosini izohlash sifat darajalari yuzasidan egallangan bilimlarni mustahkamlaydi, o'quvchining nutqiy ko'nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi.

### Kuchaytirma va ozaytirma sifatlar

Kuchaytirma va ozaytirma sifatlarni o'rganish va o'rganilgan mavzuni mustahkamlashda lug'at diktanti yozish, undagi kuchaytirma va ozaytirma sifatlarni ajratish, ularni o'zaro qiyoslash, farqlash, ularning shakl va lug'aviy ma'nosini sharhlash kuchaytirma hamda ozaytirma sifatlar yuzasidan egallangan bilimlarni mustahkamlaydi, fikr ifodalash jarayonida sifatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, nutq madaniyatini oshiradi.

#### Amaliy ish. Lug'at diktanti

Qizil, qizg'imir, qip-qizil; qora, qoramir, qop-qora, tim qora; butun, butungina, but-butun; xom, xomroq, g'irt xom; ho'l, ho'lroq, jiqqa ho'l; dumaloq, dumaloqqina, dum-dumaloq...v.h.

O'quvchilarda og'zaki nutqni rivojlantirish, mustaqil mushohada malakasini hosil qilish uchun kuchaytirma va ozaytirma sifatlar o'zaro qiyoslanadi, yozilishi hamda ma'nesi izohlanadi.

Lug'at diktantlar o'tkazish, lug'aviy va uslubiy nozikklarni anglash, kuchaytirma-ozaytirma sifatlarni talabaning og'zaki va yozma nutqlarida o'rinni qo'llash imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi, matn yaratish ko'nikmasini shakllantiradi.

### Sifatlarning yasalishini o'rganish

Talabaning belgiga oid bilimlarini shakllantirish va boyitishda yasama sifatlarni ma'nani va mazmunan qiyoslash ta'limiy, mantiqiy va uslubiy jihatdan o'ziga xos ahamiyatga ega.

Bunda sifatning morfologik yoki sintaktik usulda yasalishiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. **Morfologik usul** — ot va fe'l so'z turkumlariga oid so'zlarga yasovchi qo'shimchalar qo'shish orqali sifatlar yasash;

“ot+sifat yasovchi qo'shimcha” qolipida: dardchil, qalbaki, oilaviy, odamsimon, ko'yakchan, gapdon;

“fe'l+sifat yasovchi qo'shimcha” qolipida:

horg‘in, kuyunchak, belanchak, erinchoq, hurkovich, topqir, bilag‘on, tirishqoq, yetuk sifatlari yasaladi.

**2. Sintaktik usul** — so‘zga so‘z qo‘sish shish orqali qo‘shma sifatlar hosil qilinadi. Ular, ko‘pincha, qo‘sib yoziladi.

Qaysi so‘z turkumlaridan yasalishiga qarab qo‘shma sifatlar 6 turga bo‘lib o‘rganiladi.

1. Sifat+sifat: olachipor, nim pushti ...,
2. Sifat+ot: shirinso‘z, qimmatbaho, qora ko‘z ...,
3. Ravish+fe’l: ertapishar, kechpishar ...,
4. Ot+ot: shakarpalak, kampirchopon ...,
5. Ot+fe’l: molboqar, ertapishar...,
6. Son+fe’l: beshotar, birotar...

**Juft sifatlar** ham sintaktik usul bilan — so‘zga so‘z qo‘sish shish orqali hosil qilinadi. Bunday sifatlar o‘rtasiga chiziqcha qo‘yilib yoziladi:

1.Zid ma’noli sifatlar: yosh-qari, past-balad, yo‘g‘on-ingichka, katta-kichik...

2. Ma’nosi yaqin sifatlar: qing‘ir-qiyshiq, yakka-dukka...,
3. Sifat+ohangdosh so‘z: ola-bula, oq-oq, qora-qura...,
4. Qo‘shma va juft sifatlar -u (-yu) yuklamasi bilan yozilganda, ikki so‘z o‘rtasiga chiziqcha qo‘yilmaydi: oq-u qora, baland-u past, katta-yu kichik kabi.

Xulosa qilib aytganda, “Sifat so‘z turkumi”ni o‘rganish, uning ichki ma’no guruhlari ustida ishslash, sifatlar ishtirok etgan so‘z birikmalari hosil qilish, unga oid materiallarni semantika va uslubiyat (gap tuzish), bilan o‘zaro uyg‘unlikda o‘rganish, shakldosh va zid ma’noli sifatlar ustida ishslash, nutqiy mahoratni shakllantiruvchi har xil o‘yin-topshiriqlardan foydalanish — talabalar so‘z boyligini oshirish va nutqiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

### Son so‘z turkumini o‘rganish

Son ham sifat kabi otga bog‘lanib, shaxs, narsa-buyumlarning miqdorini, tartibini bildiradigan mustaqil ma’noli so‘zlardir.

Sonlar qancha? necha? nechanchi? kabi so‘roqlarga javob bo‘lishi, ular harf bilan (bir, ikki, o‘n to‘rt, uchinchi, beshinchi...v.h.) yozilishi yoki arab (5, 10, 100, 1000, 2 -, 3 - v. h.) va rim raqami (II, V, XIV, XXI ) bilan ko‘rsatilishini talabalar oldin egallangan bilimlar asosida xotirlaydilar. Shu bilan birga sonning ichki ma’no guruhlari, qo‘shma, juft va takror sonlar, ularning imlosiga oid zarur ma'lumotlarni egallaydilar.

## Sonning ma’no guruhlari

“Son” mavzusini o’rganish jarayonida turli jadvallardan foydalanish yaxshi natija beradi.

O’quvchilar sonlarning ikki guruhga: sanoq va tartib sonlarga ajratilishi, sanoq sonlar o’z navbatida taqsim, kasr, chama, dona, jamlovchi son kabi turlarga bo’linishi ustida alohida-alohida to’xtalish kerak bo’ladi.

Son so’z turkumining mazkur guruhlarni o’rganish jarayonida talabalar berilgan o’quv jadvalini tasnif qiladilar, sanoq son va tartib sonlar o’rtasidagi o’xshashlik va farqlarini tushuntirib beradilar. Bu jarayonda talabalar nafaqat son yuzasidan egallangan bilimlarni mustahkamlaydilar, balki sonlar qo’llaniladigan og‘zaki nutq madaniyatini ham shakllantiradilar.

Berilgan sonlarga sanoq so’zlar (o’nta bola — o’n nafar bola, yuzta qo’y — yuz bosh qo’y, uchta kitob — uch dona kitob, bitta olma — bir tup olma ...) topish ham lug’at zaxirasini oshirishning muhim choralaridan biridir.

O’zbek tilida qadimdan qo’llangan lak, tuman, botmon, chaqirim, farsax, tanob, misqol, qrot; baynalmilal: fut, dyum, funt, mil kabi so’zlarning lug’aviy ma’nosini ustida ishlash; millimetrik (ml.) santimetr (sm), sentner (s.), kilogramm (kg), million (mln), milliard (mlrd) kabi so’zlar ma’nosini sharhlash ham o’quvchilar lug’atini zarur tartib va sanoq so’zlar bilan boyitadi va kengaytiradi.

Sonlarning ko’chma ma’noda ishlatilishi (uch, yetti, qirq...), sonlar ishtirop etgan xalq maqollaridan (yetti o’lchab bir kes, bir qo’y ortidan ming qo’y to’yadi kabi) misollar keltirish, ularning ma’nosini sharhlash ham o’quvchilar so’z boyligini oshirish, nutqiy taraqqiyotini ta’minlashda o’ta muhimdir. Sonlarga oid o’yin-topshiriqlar, sonlarda ma’no ko’chishi, son mavzusiga oid test topshiriqlari tuzish, berilgan sonlar ishtiropkida so’z birikmalari hosil qilish, gaplar tuzish va matn yaratish o’quvchilarning son mavzusi yuzasidan egallangan bilim, ko’nikma va malakalari darajasini yuksaltirish uchun xizmat qiladi.

### Ravish so’z turkumini o’rganish (ilovaga qarang)

Ravish mavzusini o’rganishda, bu so’z turkumining morfologik jihatdan o’zgarmasligi, ko’proq fe’llarga bog’lanib, harakat, holat, ba’zan belgining belgisini bildiruvchi mustaqil so’z ekanligi haqida ma’lumot beriladi:

1. Vodiylarni yayov kezganda,

Bir ajib his bor edi menda... (H.O.) Shahzod bolalar suhbatini

nihoyatda diqqat bilan eshitdi. U ko'pgina shaharlarda bo'ldi. Yigitchasiga ishlab, mo'maygina pul topa boshladi. Ichkarini ayollar uchun hozirladi.

Ravish kelishiklar bilan turlanmaydi, shaxs-sonda tuslanmaydi, ko'pincha, fe'lga bog'lanib, gapda hol vazifasida keladi. Maxsus so'z yasovchi qo'shimchalarga (-cha, -ona, -larcha, -lab) ega, shakl yasovchi qo'shimchalarni qabul qilish ham uning grammatik belgisidir: yigitchasiga ishlab, mo'maygina pul topa boshladi.

"U ancha shaharlarda bo'ldi, hech birini o'z diyoriga o'xshatmadi". — gapida ravish otga bog'lanib sifatlovchi vazifasini bajarsa, ba'zan otlashib (ichkarini ayollar uchun hozirladi), otga xos sintaktik vazifalarini bajarib kelishini talabalar ongiga yetkazish, ularning shunday til hodisalarini amaliyotda qo'llay olishlariga erishish til o'qitish metodikasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'z semantik va grammatik xususiyatlariga ko'ra ravish sanaluvchi (hozir, doim, darrov, erta, zo'rg'a, sal kabi) so'zlar, shuningdek, qo'shimcha orqali boshqa so'z turkumlaridan yasalgan ravishlarni (yigitchasiga, botirlarcha, ataylab ...) talabalar oson ajratadilar. Ammo boshqa so'z turkumlaridan ravishga ko'chgan so'zlarni aniqlashda ba'zan xatolikka yo'l qo'yilishini hisobga olib, bunday ravishlar izohi ko'proq amaliy mashg'ulotlarda berilgani ma'qul<sup>1</sup>.

1. Bolta tushguncha, kunda dam oladi.
2. Vazifani kunda takrorla.
3. Ichkaridan hazin kuy eshitildi.
4. Hovli ichkarisidan bolalar yugurib chiqди.

Talabalar 1-gapdag'i kunda so'zi ot, 4-gapdag'i hovli ichkarisidan "ot+ko'makchi", 2-gapdag'i kunda so'zi ravish, 3-gapdag'i ichkaridan so'zi ravish ekanligi haqida ma'lumot oladilar.

### **Ravishlarning ma'no guruhlari ustida ishlash**

Jadvalda berilgan ravishlarning ma'no guruhlari ustida ishlash ham talabalar lug'atini boyitishning asosiy manbai hisoblanadi. Xususan, berilgan holat ravishlari (sekin, zo'rg'a, qo'qqisdan); unda-bunda, quyida, uzoqda kabi o'rın ravishlari; bugun, hozir, tunda, hamisha kabi payt ravishlari; ataylab, qasddan, noiloj kabi sabab va maqsad ravishlari; oz, qisman, juda, g'oyat kabi miqdor-daraja ravishlariga ma'nodosh va uyadoshlar tanlash, har bir guruhdagi so'zlarning ma'no nozikligi ustida ishlash, bu so'zlar yordamida gap tuzish va matn yaratish kabi amaliy ishlardan foydalanish mumkin.

1 Қаранг: Ё. Фуломов, И. Расулов, Х. Рустамов, Б. Мирзаахмедов. Ўзбек тили ўқитиши методикаси. —Тошкент, Ўқитувчи, 1975, 161-бет.

Ravishlarning yasalishi ustida ishlash

Ravishlarning yasalishini o'rganish jarayonida ularning yasovchi qo'shimchalar va so'zlarni qo'shish orqali hosil bo'lishiga e'tibor paratiladi.

Birinchi yasalish, morfologik usul bo'lib, -lay (-layin), butunlay, -dek (-day) qushday, oydek, -ona(fidokorona), - siz(to'xtovsiz), - ligicha (xomligicha), - lab (yaxshilab), - cha (yangicha), - larcha (alplarcha), - n,(- in) yashirin, - ligicha (butunligicha), - an (asosan), - chang (sarpoychang), - incha (ko'pincha) kabi qo'shimchalar yordamida ravishlar hosil qilinadi.

Ikkinci yasalish, sintaktik usul, bunda asosan, qo'shma va juft ravishlar yasaladi: u, bu, shu, olmoshlari bilan ishlatiladigan ravishlar: u yoqqa, bu yerga, shu yerda; -har, hech, hamma olmoshlari bilan ishlatiladigan ravishlar: har vaqt, hech qachon, bir talay; allaqachon, allavaqt, unda-bunda kabi, alla + so'roq olmoshi (allakim) alla + ot (allavaqt) kabi.

**Juft ravishlar:** yaqin ma'noli so'zlardan: ochiq-sochiq, eson-omon; zid ma'noli so'zlardan, takroriy ravishlardan hosil bo'ladi: erta-kech, yurtma-yurt, tez-tez , kula-kula..,

Ravishlar sifat so'z turkumi kabi darajalanishi mumkin.Masalan: tez, tezroq, juda tez, bag'oyat tez, jadal ishladi...v.h.

Tez yurib kelayotgan yigitcha bizni ko'rib, qadamini yanada jadallatdi.

1. Ravish ma'no guruhini o'rganish jarayonida talabalar so'z boyligini oshirish quyidagi uch yo'nalishda olib borilishi mumkin.

1. **O'rinn-payt, holat, tarz** ma'no guruhlariga xos ravishlardan namunalar berish va mazkur ro'yxatni mustaqil davom ettirish.

Namuna: endi, orqa, ancha, keskin, avval, o'ng, picha, bosiq.

2. Berilgan ravishlarga ma'nodoshlar, uyadoshlar va zid ma'noli so'zlar topish. Ulardan so'z birikmalari hosil qilish:

Namuna:	arang-zo'rg'a	tez-sekin	zo'rg'a odimladi
	bosiq-vazmin	o'ng-chap	sekin tushuntirdi
	yuqori-past	orqa-old	tez bajardi
			bosiq gapplashdi...

3. Qo'shma va juft ravishlar hosil qilish.

benihoya qiyin	mo'l-ko'l
har dam	ko'p-ko'p
har doim	ancha-muncha
hamisha bahor	baland-past

4. "sifat + ligicha", "son + lab", "sifat + larcha" so'z qoli plari asosida ravishlar hosil qilish va ular ma'nosini sharhlash ham nutq mahoratini shakkantirishda katta ahamiyatga ega. Hosil qilingan yasama ravishlar yordamida so'z birikmasi, gaplar qurish, matn yaratish singari ijodiy amaliy ishlar talaba lug'atini boyitishga, nutqiy mahoratni oshirishga yordam beradi.

5. Berilgan ravishlar asosida matn tuzish ustida ishlash ham yaxshi samara beradi.

Ravishlarning yasalishini o'rganish jarayonida -larcha, -lab, -ona, -an, -chasiga, -ligicha, -lay, -incha qo'shimchalari yordamida so'zlar hosil qilish, berilgan so'zlardan qo'shma va juft ravishlar (biroz, hardam, ochiq-oydin, yalab-yulqab) yasab, ular yordamida so'z birikmalari hosil qilish (soddaligicha qolmoq, yigitchasiga gapirmoq, biroz kechikmoq, yalab-yulqab ko'rishmoq...), badiiy bo'yoq dor gaplar qurish singari amaliy-ijodiy ishlar o'quvchi nutqini ravishlar bilan boyitishga yordam beradi.

Mazkur mavzuni o'rganishda ajratib va qo'shib yoziladigan qo'shma ravishlar, juft va takror ravishlar imlosiga e'tibor berish, ularni alohida-alohida guruhlarga ajratish, har bir guruohni mustaqil davom ettirish kabi amaliy-ijodiy ishlar talabalarning imlo savodxonligini oshirish va nutqiy rivojlanishini ta'minlash uchun muhimdir.

Xulosa shuki, ravish so'z turkumini o'rganishda talabalar so'z boyligini oshirish imkoniyatlari benihoya ko'p. O'rganilayotgan o'quv materialining o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, mavjud intellektual hamda stilistik imkoniyatlarni hisobga olgan holda ulardan o'rinni va unumli foydalana olish lozim.

### **Fe'l so'z turkumini o'rganish (ilovaga qarang)**

Fe'l haqida dastlabki ma'lumot boshlang'ich va umumiyl o'rta ta'limda olinadi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari mazkur bilimlar kengaytiriladi. Oliy ta'limda ular kengaytiriladi va yangi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi.

O'quvchilar bordi, yugurdi, yozdi kabi fe'llarning harakat bildirishini yaxshi tushungani holda, uxladi, tingladi, mudradi so'zlarining holat bildirishini izohlashda qiynaladilar. Shuning uchun ular kengaytiriladi va yangi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi.

Fe'lning semantik va grammatik belgilarini izohlashda ularni boshqa so'z turkumlari bilan qiyoslash maqsadga muvofiq. Chunonchi, ot predmetning nomini, sifat uning belgisini bildirsa, fe'l predmetning harakati yoki holatini bildiradi, shaxs bildiruvchi har bir fe'l o'zi bog'langan so'zning gapda bo'lish-bo'lmasligidan qat'iy nazar yaxlit

**bir** gapni hosil qila oladi; otda va sifatda bunday xususiyat yo‘q; ot turlanadi, fe‘l tuslanadi. Fe‘l boshqa so‘z turkumlaridan grammatik belgilar bilan ham farq qiladi.

Fe‘lning xarakterli belgilaridan biri zamonni ko‘rsatishi va shaxs-son qo‘shimchalari bilan o‘zgarishidir.

Fe‘llar ifodalab keladigan ma’nolariga ko‘ra harakat-yurish (yurmoq, yugurmoq, chopmoq); natijali faoliyat (tuzmoq, yasamoq, qurmoq); nutq (so‘ramoq, qutlamoq, tabriklamоq); holat (qizdirmоq, uyalmoq, uxlamoq) fe‘llari kabi guruhlarga bo‘linadi.

### Fe‘llarda grammatik belgilarning qiyosiy izohи

Fe‘lning eng muhim va asosiy grammatik belgilalaridan biri maxsus qo‘shimchalar bilan tuslanishidir. Mazkur tuslanish, asosan, uch turda bo‘ladi.

**1-tuslanish** o‘zbek tilida keng tarqalgan:

#### Birlik

- 1-shaxs: *kutyapman*
- 2-shaxs: *kutyapsan*
- 3-shaxs: *kutyapti*

#### Ko‘plik

- kutyapmiz*
- kutyapsiz*
- kutyapti (kutyaptilar)*

### 2-tuslanish

Birlik: ko‘rdim, ko‘rding, ko‘rdi

Ko‘plik: ko‘ryapmiz, ko‘ryapsiz, ko‘ryapti (-lar)

Birinchi va ikkinchi tuslanish, asosan, aniqlik maylida bo‘ladi.

**3-tuslanish** shart va buyruq-istak maylida bo‘lib, -sa va -ay qo‘shimchalari bilan ishlataladi:

Birlik: boray, borgin, borsin; ko‘rsam, ko‘rsang, ko‘rsin

Ko‘plik: boraylik, boring (-lar), borsin (-lar) ko‘rsak, ko‘rsangiz, ko‘rsinlar — ko‘rsaydi (-lar)

**Amaliy ish.** 1. Jadvalni og‘zaki sharhlash, fe‘lli so‘z birikmalari hosil qilish. 2. So‘z birikmalarini qatnashtirib, gap qurish va matn yaratish.

### Fe‘llarning ma‘noviy guruuhlarini o‘rganish

Fe‘l so‘z turkumini o‘rganishda so‘z xazinasini boyitish nutqiy salohiyatni yuksaltirish imkoniyatlari benihoya katta.

O‘quv mashg‘ulotlariga ajratilgan vaqtning asosiy qismini amaliy ishlar egallashi lozim. O‘quvchidagi nutq zaxirasini boyitish; og‘zaki va yozma nutqni, ijodiy tafakkurni rivojlantirish; fikrni to‘g‘ri va muxtasar ifodalash malakalarini shakllantirish til ta‘limida eng muhim va zaruriy masala hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishishning yagona yo‘li — fe‘lning

grammatik ma'nolarini o'rganish bilan bir qatorda ularni ma'noviy guruhlarga ajratish, o'zaro qiyoslash, farqlash, ular ishtirokida so'z birikmalari va gaplar qurish, mustaqil va mukammal matn yaratish yo'llarini o'rganishdan iborat bo'lmos'i lozim.

Umuman, fe'llar to'rtta katta guruhga ajratib o'rganiladi.

**1. Harakat fe'llari:** qimirladi, siljidi, turdi, yurdi, yugurdi, chopdi...,

**2. Natijali faoliyat fe'llari:** tuzmoq, yasamoq, qurmoq, tiklamoq, bunyod etmoq...; buzmoq, sindirmoq, yo'q qilmoq ...,

**3. Nutq fe'llari:** guvranmoq, shivirlamoq, aytmoq, demoq, so'zlamoq, g'uldiramoq ...

**4. Holat fe'llari:** uxlamoq, uyqusiramoq, qizarmoq, oqarmoq, sezmoq, anglamoq, tovlanmoq ...

Zebo kelinlarning nim tabassumi

Gulg'un yonog'ida tovlanar orzu,

Ona allasidan sarkush go'dakning

Chuchuk tillari-la guvranar orzu.

**Iboralar:** "mum tishladi", "og'ziga tolqon soldi", "miq etmadi", "lom -mim demadi" — indamadi; "yer tishladi", "chin dunyoga safar qildi", "narigi dunyoga jo'nadi" — vafot qildi, o'ldi. ...v.h., kabi ibora — so'zlar ro'yxatini tuzish, ularga ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli so'zlar tanlash, mazkur so'zlar ishtirokida so'z birikmalari va gaplar qurish, qurilgan gaplarning uslubiyat jihatdan to'g'ri va noto'g'ri tuzilganligini aniqlash, fikr ifodalash jarayonida so'zlar va iboralarning o'rinni yoki noto'g'ri qo'llanganligini tahlil qilish, gapdagi ayrim ibora va tasviriy vositalar ma'nosini sharhlash, o'quvchi nutqini iboralar bilan boyitishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, tilimizdag'i ma'nodoshlarning anchagini qismini fe'llar tashkil etadi. Taniqli tilshunos olim Azim Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da 217 ta fe'lning ma'nodoshlik uyasi berilgan.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlariда fe'l mavzusini o'rganishda mazkur uyalar ustida ishslashni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarning fe'l so'z turkumi ustida ishslash va lug'at zaxiralarni boyitishga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlaridan namunalar beramiz.

1. Berilgan fe'llarga ma'nodoshlar topish: ajablanmoq, taajjublanmoq, hayron bo'lmoq, hayratga tushmoq; ajratmoq, ayirmoq, yolg'iz qoldirmoq, yakkalatmoq, judo qilmoq, mahrum qilmoq, tanho qoldirmoq... v.h.

2. Ma'nodoshlarning ma'no darajasini izohlash, sharhlash va ularni

o‘zaro farqlash — so‘z boyligini oshirishning, nutqiy salohiyatni shakllantirishning ishonchli vositasi hisoblanadi. Masalan: ajratmoq umumiy ma’noli so‘z, unda salbiy yoki ijobiliy bo‘yog‘i sezilmaydi: kerakli kitoblarni ajrating; judo qilmoq so‘zida salbiy ma’no ko‘rinib, bo‘rtib turibdi: La’nati urush minglab odamlarni hayotdan mahrum, o‘z tug‘ilib o‘sgan yurtidan judo qildi.

3. Berilgan ma’nodoshlar qatoridagi har bir so‘z bilan so‘z birikmalari va gaplar tuzish.

Masalan: so‘z birikmasi hosil qilish: so‘z sehridan hayratlanmoq, ko‘zlariga ishonmay hayron bo‘ldi, hayot so‘qmoqlarida yolg‘iz qolmoq, mehribonlardan ayirmoq;

Gap tuzish: Shafqatsiz turmush yosh Jamilani hayotning mashaqqatli so‘qmoqlarida tanho qoldirdi, barcha mehribonlardan ayirdi... v.h. kabi ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish yaxshi samaralar beradi.

O‘quvchining nutqiy taraqqiyotini ta’minlashda:

— berilgan gapdagisi tuslangan fe’llarni tuslanmagan fe’llar bilan almashtirish:

— qo‘shma gaplarni sodda gaplarga aylantirish: Jahongir keldi va muzokara boshlandi. — Jahongir kelgandan keyin muzokara boshlandi.

— tuslangan fe'l asoslaridan harakat nomlari hosil qilish: yoz — yozuv, yozish, yozmoq; bor — borish, boruv, bormoq... Ular yordamida gaplar tuzish va ma’no farqlarini tushuntirish: chiroyli yoz (undash ma’nos), lotin yozuvi (yozuv turi), xatosiz yozish (savodxonlik darajasi), kitob yozmoq (maqsad, niyat ma’nosida) birikmalarini gaplarga aylantirish (yozdi — yozmad) kabi zid ma’nolarini hosil qilish kabi ijodiy-amaliy ish turlari hozirgi o‘zbek tilini mukammal o‘rganishda samarali natijalar beradi.

### **Fe'l zamonlarini o‘rganish**

O‘quvchi kommunikativ savodxonligini ta’minlashda fe'lning uslubiy imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Fe'l zamonlari o‘rganilayotganda, zamon shakllarini hosil qiluvchi vositalar shakldoshligiga e’tibor qilish lozim. Chunki zamon shakldoshlarini hosil qilishga oid amaliy mashqlar nutqiy taraqqiyot uchun ham o‘ta muhim. Talabalar fe'l zamonlari bilan tanishayotganda, zamon qo‘sishchalarining almashinib ishlatalishiga oid ijodiy-amaliy ishlarni bajarishlari ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Fe'l zamonlarini o‘rganish yuzasidan qilinadigan ishlarni, “O‘tgan zamon fe’llari”ni o‘rganish misolida ko‘rib o‘tamiz.

## O'tgan zamon fe'lini o'rganish

Mazkur fe'llar, asosan, to'rt turga bo'lib o'rganiladi.

O'tgan zamon fe'llari o'tmishda bajarilgan ish-harakatning, nutqdan oldingi paytning ham turlichay bo'lishi mumkinligi bilan farqlanadi.

O'tgan zamon fe'llari aniq o'tgan zamon, uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon hikoya va o'tgan zamon davom fe'llariga bo'linadi.

**1. Aniq o'tgan zamon fe'li** -di shakl yasovchisini va shaxs-son qo'shimchasini fe'l o'zagiga qo'shish bilan yasaladi: o'yaldi, bilmadi kabi.

Bu shakl ish-harakatning so'zlovchi so'zlayotgan paytgacha bajarilgan yoki bajarilmaganini aniq ifodalaydi. Uyga keldi, imtihondan o'tdi...

**2. O'tgan zamon hikoya fe'li** -b (-ib) va edi to'liqsiz fe'li (-b, -ib + edi) bilan hosil qilinadi.

Bu shakl nutq paytidan ancha ilgari bajarilgan harakatni hikoya qilish yo'li bilan bildiradi: Bozorga xarid uchun borib edi.

**3. Uzoq o'tgan zamon fe'li** “-gan” va “-gan+edi” qolipi bilan hosil qilinadi, to'liqsiz fe'l yoki -gan shaklli sifatdoshga shaxs-son qo'shimchasi qo'shiladi: kelgandim, kelgan eding ...

Bu shaklda bajaruvchi o'zining ilgari bajargan harakati bilan tasvirlanadi. Shuning uchun u tasviriy nutqda ko'proq uchraydi. Bizning suyagimiz mehnatda qotgan. Bu hikoyani men oldin o'qigan edim.

**4. O'tgan zamon davom fe'li** -r (-ar) + edi qolipda hosil qilinadi: Muzaffar yurist bo'lishni orzu qilar edi. U Toshkent davlat yuridik institutiga borar ekan.

### Amaliy ish

1. “O'tgan zamon fe'llari” jadvali og'zaki sharhlanadi. Mazkur jadvaldan foydalanish, egallangan bilimlarni mustahkamlash, kerakli ko'nikma va malakani hosil qilishga yordam beradi. Jadvaldan foydalanib, test topshiriqlari tuzish, ularni o'z guruhdoshlariga namoyish qilish, o'z fikrini, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish o'quvchida mustaqillik hissini tarbiyalaydi. Unda o'z bilimiga, o'z iqtidoriga ishonch, til boyliklarini egallahsga ishtiyoq paydo bo'ladi.

2. O'tgan zamon fe'llarining to'rt xil ko'rinishiga moslab gap tuzing.

3. Matn yaratishning bosqichli tizimi bo'yicha ishtlash orqali so'z boyligini oshirish, so'z birikmalari hosil qilish, gap tuzish, matn yaratish malakalarini shakllantirish.

## **Fe'l mayllarini o'rganish**

Hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l mayllari uch turga ajratib o'rganiladi:

1. **Aniqlik mayli** ish-harakatni bajarilish payti bilan uyg'unlashtirib ifodalaydi. Ular bo'lishli-bo'lishsiz shakllarga ega: bordim, boarding, bordi (bormadi); boryapman, boryapsan, boryapti (bormayapti); boraman, borasan, boradi (bormaydi).

2. **Buyruq-istik mayli** so'zlovchining xohishi, istagi, buyrug'i bilan bog'liq holda nimagadir ishontirish, buyurish, undash, yo'naltirish ma'nosini ifodalaydi: boray, o'qiy, yozay ...

o'qgin, aytgin, kelgin ...

olgin, olaqol, boraqol ...

yarashsin, aytsin, ko'tishsin ...

So'zlashuv nutqda buyruq-istik maylidagi fe'llardan, asosan, sodda yig'iq gaplar hosil qilinadi.

3. **Shart mayli** so'zda-sa qo'shimchasi mavjudligi bilan aniqlanadi:

Birlik	Ko'plik
bilsam	bilsak
bilsang	bilsangiz (bilsalaring)
bilsa	bilsalar

Men kelishingizni bilsam, ishdan ertaroq qaytgan, oshni boshlab yuborgan bo'lar edim. Agar bilsangiz, men bugun judayam xursandman.

### **Amaliy topshiriqlar**

1-topshiriq. Matn yaratish:

1.1. Aniqlik maylidagi fe'llarga misol keltiring: oldi, o'qidim, ketdik.

1.2. Shu mayldagi fe'llar bilan "ot+fe'lli" birikmalar tuzing: yo'l oldi, yaxshi o'qidim, uyga ketdik ...

1.3. Hosil qilingan so'z birikmalari ishtirokida gap tuzing, matn yarating. Namuna: Ilhom tong sahardan mакtabga yo'l oldi... (matnni davom ettiring).

2. Buyruq-istik maylidagi fe'llarga muqobillar toping (borsangiz, kechirsangiz, kelsangiz).

a) "ot + fe'l" qolipida so'z birikmalari hosil qiling;

b) shu birikmalar yordamida gap tuzing;

d) matn yarating;

e) "Fe'l mayllari" jadvalini og'zaki sharhlang. Mavzu yuzasidan o'quv-sinov testlari tuzing. Testlarni guruh oldida himoya qiling.

## **Fe'llarning tuslanishi**

Fe'lllar shaxs-son va zamon bo'yicha uch turda tuslanadi. Bunda harakatning bajaruvchisi so'zlovchi, tinglovchi va nutq jarayonida qatnashmagan o'zga shaxs bo'ladi. Shaxs ma'nolari va bajaruvchining soni ayni bir qo'shimcha orqali ifodalanadi. Fe'lning shaxs-sonda o'zgarishi tuslanish deyiladi.

### **I tuslanish**

	<b>Birlik</b>	<b>Ko'plik</b>
I shaxs	boraman	boramiz
II shaxs	borasan	borasiz
III shaxs	boradi	boradi (-lar)

### **II tuslanish**

I shaxs	o'tdim	o'tdik
II shaxs	o'tding	o'tdingiz
III shaxs	o'tdi	o'tdi (-lar)

### **III tuslanish**

I shaxs	so'ray	so'rayin	so'raylik
II shaxs	so'ragin	so'rang	so'rangiz (-lar)
III shaxs	so'rasin	so'rasin	(-lar)

### **Amaliy ish**

1. Matn yaratish ustida ishslash.

1-ish. Berilgan fe'lga ma'nodoshlar tanlang: so'ray, ruxsat olay, rozilik so'ray, oldidan o'tay, oq fotihasini olay...

2-ish. Topilgan sodda va qo'shma fe'lllar ishtirokida so'z birikmalari hosil qiling: dadamdan so'ray, onamdan ruxsat olay, ota-onamning roziligini olay, qarindoshlarning oldidan o'tay, padari buzrukvorimning oq fotihasini olay... v.h.

3-ish. Hosil qilingan so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: Men bu ishga bosh qo'shishdan avval onamdan ruxsat olay... v.h.

4-ish. Tuzilgan gaplardan foydalanib, 8-12 gapdan iborat kichik matn yarating.

## **Fe'l nisbatlarini o'rganish**

Fe'l nisbatlarida ish-harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabat anglashiladi. Ular besh turda:

1. Aniqlik nisbati: o'qidi, kelyapti, bormoqchi kabi ma'lum shaxs yoki narsa-buyum tomonidan bajarilib, maxsus nisbat qo'shimchalari

olmaydi.

2. O'zlik nisbati -n (-in), -l (-il), qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil bo'lib, ish-harakat bajaruvchining o'zida qolganini anglatadi: bezandi, quvondi, sevindi; berildi, sudraldi, yorildi.

3. Majhul nisbatdagi fe'llar ish-harakatning aniq bajaruvchisini ko'rsatmaydi, ammo -n (-in), -l (-il) kabi shakldosh qo'shimchalar bilan yasaladi: olindi, to'plandi, yuvildi, to'kildi.

O'zlik va majhul nisbatdagi fe'llar bir xil shakldosh qo'shimchalar bilan hosil qilinganda, ularning nisbatlari gap mazmunidan aniqlanadi. Buning uchun qiyoslash metodidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Masalan: Mukofot berildi (kim tomonidan?), O'qishga berildi (kim?), Qishga o'tin tayyorlandi (kim tomonidan?) Darsga tayyorlandi (kim?).

4. Birgalik nisbati -sh (-ish) qo'shimchasi bilan yasalib, bir necha shaxs tomonidan bajarilgan ish-harakatni bildiradi: o'qishdi, bajarishdi, yordamlashdi... M: Uy yumushlarini birgalikda bajarishdi.

5. Orttirma nisbati -t, -tir, -dir, -giz, -qiz, -kiz, -qiz; -ir, -ar; -iz, -kaz qo'shimchalari bilan hosil qilinib, harakatni bajarishda yana boshqa shaxsning ishtirok etganligi anglatiladi: o'qit, aytir, bildir, yurgiz, ko'rgaz, ketkaz, chiqar, ichir...; Ba'zan orttirma nisbat qo'shimchasi ketma-ket qo'shiladi: ichirtir.

Shuningdek, bir fe'l negiziga turli nisbat qo'shimchalari qo'shilib kela oladi: sevin+tir, yoz+dir+il+di... Bunda fe'l nisbati oxirgi qo'shimchaga qarab belgilanadi.

### Amaliy ish

1. Berilgan fe'llarning qaysi nisbatga qarashli ekanligini toping: dardlashdi, yegizdir, ko'rildi, ma'qullandi, quvondi, faxrlandi, bormoqchi.

2. Orttirma nisbatdagi fe'llar mavzusida test topshiriqlari tuzing.

Qaysi qatordagi fe'llar faqat orttirma nisbatda?

A. To'kildi, quvondi, bormoqchi, toshir.

B. Olindi, orttirdi, gapirdi, chopdi.

D. Yozishdi, ko'rsatdi, suhbatlash, gapir.

E. Keltir, so'rattir, tashittir, yozdir.

F. Javoblar noto'g'ri berilgan.

3. Orttirma nisbatdagi fe'llar ishtirokida "MYBT" kommunikativ moduli bo'yicha matn yaratish.

1-ish. So'z tanlash. Berilgan fe'llarni orttirma nisbatdagi fe'lga aylantiring. Bordi, yozdi, uchrashdi, so'zladi.

Namuna: Bordi — borgizdi, borgizdirdi, bordirdi, yozdi — yozdirdi, yozgizdi, yozgizdirdi, yozdirtirdi; uchrashdi — uchrashtirdi,

uchrashtirgizdi, uchrashtirgizmadi; so'zlatdi — so'zlattirdi, so'zlattirishdi, so'zlashtirishdi, so'zlashtirishmadi...v.h.

2-ish. So'z birikmalari hosil qiling. Xat yozdirtirdi, konvertga solib jo'nattirdi, erta bahorda uchrashtirgizdi, bir-biri bilan so'zlashtirishdi, rasmga tushirtirdi, yo'lga pul jo'nattirdi...v.h.

3-ish. Gap tuzish.

1. Buvijonim menga harbiyda xizmat qiladigan to'ng'ich nabiralariga xat yozdirgizdilar.

2. Konvertga xat bilan birga tog'amning Ziyoda ismli qizining rasmini ham soldirgizib yubortirdilar.

3. Bahorda xizmatdan ta'tilga qaytgan akajonimga Ziyoda opamni ko'rsattirib, unashtirgizib qo'ydilar.

4. Yaqinda akamiz xizmatdan qaytsalar, bizlar katta to'y qilamiz.

4-ish. Matn yaratish.

Mening buvim bosh nabiralari — Omon akamni juda yaxshi ko'radilar. Bizlar yaqinda akamni harbiy xizmatga jo'natdik... (matnni davom ettiring).

Matn ustida ishlang: 1. Yaratilgan matndan orttirma nisbatdagi fe'l-larni toping. Ularga uyadoshlar tanlang, ular ma'nosini sharhlang.

4. Matndagi fe'l so'z turkumiga oid so'zlarini ajrating, mayllarini aniqlang. Ularni uch xil zamonga moslab guruhlang va ro'yxatni davom ettiring: yozgin, borsam, kelyapti, o'qimoqchi ...

5. Lug'at diktanti yozing. Har bir fe'lning bo'lishli-bo'lishsizligini aniqlang.

6. Kodoskop yordamida "Fe'llarning tuslanishi" jadvali ustida ishlang. Ikki guruhga bo'linib, "Zakovat" o'yinini tashkil qiling (o'yin ilova qilingan).

Umuman, OVKT — kashfiyat ta'lim usulida fe'l nisbatlarini o'rganish talabani mustaqil va ijodiy fikrlashga, fikrni to'g'ri, ravon ifodalashga, so'zlash mahoratini rivojlantirishga olib keladi.

### **Fe'llarning vazifadosh shakllari**

Harakat nomi. Fe'l shakllaridan biri sanalmish "Harakat nomlari" fe'l kabi tuslanmaydi, balki ot kabi turlanadi. Gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi bo'lib keladi: o'qish boshlandi; o'qishga ketdi; o'qishning foydasi ko'p v.h.

Fe'l o'zak-negiziga -sh, -ish, -v, -uv, -moq qo'shimchalaridan birini qo'shib, harakat nomlari yasang: ishlang, yozish, biluv, ishlov, o'qimoq, sezmoq, kelmoq, kulmoq...

Harakat nomining -sh, -ish, -v, -uv qo'shimchalilari otga teng bo'lsa,

-moq qo'shimchasi bilan yasalgani fe'lga yaqin turadi.

Harakat nomini o'rganishda quyidagi amaliy ishlar bajariladi:

1. Aniq narsa-buyum nomini va aniq ma'lumotni bildirgan harakat nomlariga misollar keltiring. Keltirgan misollaringizga shakldoshlar toping.

Namuna: ilmoq (harakat nomi), ilmoq (ot, ilgak), qo'shuv(ot, matematik belgi), qo'shuv (harakat nomi)...

2. Harakatning aniq vaqtini, maylini, shaxsini bildirmay, uning nominigina ataydigan harakat nomlariga misollar keltiring.

Namuna: o'qishim yaxshi, o'qishimdan qoniqaman, o'qishimni yoqtiraman...

3. Harakat nomlarini qatnashtirib so'z birikmalari, gaplar tuzing, matn yarating.

### Sifatdoshni o'rganish

Hozirgi o'zbek adabiy tilida "Sifatdosh" fe'l shakllari qatorida o'rganiladi. U fe'llik va sifatlik ma'nolarini o'zida jamlaydi: fe'l singari nima qilgan? nima qilayotgan?, sifat kabi qanday? qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladı. Sifatdosh yasovchi -gan (-kan, -qan) qo'shimchalari fe'llarga qo'shilib:

1. O'tgan zamon fe'lini hosil qiladi: so'zlagan, bilgan, ishlagan, o'qigan. Sifatdosh birikmasi hosil qiladi; ko'pni ko'rgan, muomalani bilgan, bilganini aytdi. Gapda kesim vazifasida keladi: borganman, borgansan, borgan...v.h.

Shuningdek sifatdoshlar:

— fe'lning hozirgi zamon shaklini olib, ayni paytdagi harakatni bildiradi: o'rganayotgan, so'roqlayotgan, fikrlayotgan bola;

— predmetning doimiy belgisini bildiradi: tinglaydigan, tushunadigan, so'roqlaydigan, fikrlaydigan bola; yordam qiladigan odam;

— kelgusida maqsad bilan qilingan harakatni ifodalab keladi: rasmiy vizit bilan kelgan elchi.

Sifatdoshlar bo'lishsiz shaklga ham ega: kelmagan odam, topilmagan xazina. Jism yo shaxsning doimiy harakatini bildiradi: shug'ullanayotgan ishi, gapirgan gapi, yozayotgan dissertatsiyasi...

Sifatdosh gapda ega, kesim va hol vazifasida keladi.

BKMlarni mustahkamlash uchun savollar.

1. Harakat nomi qaysi so'z turkumi tarkibida o'rganiladi?

2. Fe'lga yaqin turuvchi harakat nomi qo'shimchalarini aytинг.

3. -sh, -ish, -v, -uv qo'shimchalarini qaysi fe'l shakllariga tegishli?

4. O'qimoq so'zi gapda ega vazifasida kela oladimi?

5. Sifatdoshlar shaxs-son, zamon xususiyatlariga egami?

## 6. Sifatdoshlarning gapdagi vazifalarini sanab bering.

### Amaliy ish:

Sifatdoshlar ishtirokida so‘z birikmalari va ularga muqobil turg‘un iboralar topish. MM moduli bilan ishlash.

Ravishdoshni o‘rganish. Ravishdosh o‘zida fe’llik va ravishlik xususiyatlarini mujassamlashtirgan fe’l shakli. Masalan: yayrab kului, allalab uxlatdi. O‘qiy-o‘qiy o‘rgandi, bora-bora ko‘nikdi, tabriklagani keldim; u ko‘chaga chiqqach, yugurib ketdi;

Ravishdosh gapda kesim tarkibida bo‘ladi va kesimga tobe so‘zlardan iborat bo‘ladi; Biroz suhbatlashgach, uyiga burilib ketdi.

Momaqaldiroqni eshitib, seskanib tushdi.

Tuslanadigan ravishdoshlar **-b**, **-ib**, **-a**, **-y**, **-gan** qo‘srimchalni bo‘lib, boribman, kelaman, ishlayman, ko‘rgansan, kelmagansan shaklida keladi. Tuslanmaydigan ravishdoshlar **-gani** (**-kani**, **-qani**), **-gach**, (**-kach**, **-qach**), **-guncha** (**-kuncha**, **-quncha**) qo‘srimchalari qo‘sish bilan yasaladi.

Nasriy va nazmiy asarlarda -gali shaklida ham uchraydi: taklif qilgali keldim... v.h. Tuslanmaydigan ravishdoshlar shaxs-son va zamon shakllarini olmaydi.

### Amaliy ish.

1. Jadvalda berilgan ravishdoshlarni izohlab, sharhlang.
2. Ravishdoshlar ishtirokida so‘z birikmalari hosil qiling, gaplar tuzing va matn yarating.
3. Gapda bajargan sintaktik vazifalarini aniqlang.
4. Ayni bir fe’l asosidan harakat nomi, ravishdosh, sifatdosh hosil qilish, ulardan gap tuzish va matn yaratish fe’l shakllari haqidagi bilimlarni nafaqat mustahkamlash va umumlashtirish, balki, ularni nutqda to‘g‘ri va ravon qo‘llash malakalarini singdiradi.

### Fe’llarning yasalishi

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida fe’l so‘z turkumi, fe’l zamonlari, tuslanish, tub va yasamaligi, mayli, nisbati, fe’l shakllari kabi guruh va mavzularga bo‘lib o‘rganiladi.

Fe’l ish-harakatning bajarilishini anglatib, nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Fe’llar uch xil zamonni bildiradi, shaxs-sonda tuslanadi:

O‘tgan zamon: bordim, borgansan, borgan ekan.

Hozirgi zamon: boryapman, boryapsan, borayotir.

Kelasi zamon: boraman, bormoqchisan, boradi.

Fe'lllar gapda, asosan, kesim bo'lib keladi. Fe'lllar tuzilishiga ko'ra tub va yasama (o'qiyman, keltir, kelsa, oldik v.h.), sodda (gulla, oqla, ikkala, sizla, ulg'ay, ko'kar, xavfsira kabi) va qo'shma fe'llarga (uyquga ketdi — uxladi — tushib qoldi — tushdi), o'tadi — ketadi... v.h.) ajraladi.

"Fe'llarning yasalishi" jadvali ustida ishlash jarayonida, o'quvchilarning uch-to'rttasi jadvalni og'zaki sharhlashi, sodda va qo'shma fe'llarga misollar keltirishi mumkin.

O'qituvchining o'zi o'quvchilar nutqiga alohida e'tibor qilishi, o'quvchining o'zidan ham shuni talab qilishi juda zarur, o'qituvchi yo'l qo'yilayctgan kamchiliklarni darhol aniqlashi va xatolarning guruh a'zolari tomonidan to'g'rilanishini ta'minlashi lozim bo'ladi.

Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari bo'yicha test savollari tuziladi, so'z birkmalari, gaplar quriladi. Quyida o'quvchi nutqni tezkor va mazmundor qilishga yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlaridan namunalar berildi:

### **"Sen davom ettir"** o'yini.

Bu o'yinda o'quvchi o'z diqqatini bir joyga toplash, eshitganlarini yashin tezligida analiz va sintez qilish, nutqiy vaziyatga mos ravishda, tezkor va mantiqli fikrlash, fikr mahsulini to'g'ri, raxon, qiziqarli ifodalash ko'nikmalarini egallaydi, o'zgalar fikriga tanqidiy yondashish, tahlil qilish va xulosa chiqarishni, o'z fikrini himoya qilishni o'rganadi.

O'yinni boshlovchi boshqaradi. Ijodiy matnning boshlanmasini tugatgach, boshlovchi istagan o'quvchiga estafeta tayoqchasini (shartli) uzatishi va matnni davom ettirishni taklif qilishi mumkin. O'zini yo'qtgan, matnni davom ettira olmagan bola yutqazadi va o'yindan chiqishi kerak. O'yin oxirigacha yetib kelgan ikki talaba o'rtasida final o'yini o'tkazilib, g'olib aniqlanadi va rag'batlantiriladi. O'yin namunasi:

Boshlovchi so'zi: Men akademik litseyda o'qiyman.

O'qish jarayonida so'zga usta, bilimdon guruhdoshlarim, mehri daryo ustozlarimning aytganlarini tinglashga, anglashga harakat qilaman. Chunki vaqt qarab turmaydi: u tezda o'tadi-ketadi. Undan har doim unumli foydalana bilish kerak...

Ikkinci o'quvchi: Mazkur masalaning yechimini biz boshqacharoq hal qilishga erishdik. Litseyimizda turli sport to'garaklari, ijodiy ustaxona, kimiya, matematika, adabiyot to'garaklari ishlab turibdi.

Men darsdan so'ng adabiyot to'garagiga qatnashaman...v.h.

Shu tariqa talabalar bir-birlarining fikrlarini davom ettiradilar, ijodiy izlanadilar, xulosa va hukm chiqaradilar, nutqiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Yuqoridagi og‘zaki mashqlar bajarilgach, o‘quvchilarga yo‘naltiruvchi savollar beriladi.

1. Fe’llarning gapdagi vazifalarini misollar yordamida tushuntiring.
2. Fe’llarning ma’noviy guruhlarini aytинг. Misollar keltiring.
3. Fe’l shakllariga misollar keltirish va o‘zaro qiyoslash orqali ularning farqli va o‘xhash tomonlarini aniqlang.
4. Fe’llarning yasalishi haqida, yasovchi qo‘srimchalar to‘g‘risida ma’lumotlarni esga tushirib, fikringizni misollar bilan isbotlang.
5. Qo‘shma fe’llar, ularning tuzilishiga ko‘ra turlarini aytинг. Misollar keltiring.
6. Fe’llar ishtirokida test topshiriqlari tuzishni o‘rganing.

Bunda o‘qituvchi fe’llarning ma’noviy guruhlarini aniqlashga xizmat qiladigan test savollari tuzishni o‘quvchilarga tavsiya qilishi, ularning o‘xhash va farqli tomonlarini aniqlash va sharhlashni talab qilishi mumkin. Namuna: 1. Fe’llarning ma’noviy guruhlari berilgan qatorni toping.

- A. Harakat fe’llari, nutq fe’llari.
- B. Natijali faoliyat fe’llari, holat fe’llari.
- D. O‘tgan zamon va hozirgi zamon fe’llari.
- E. A, B javoblar to‘g‘ri.
- F. Hamma javoblar to‘g‘ri.

So‘ngra o‘quvchilar tomonidan tuzilgan testlar himoya qilinadi. Har bir o‘quvchi bittadan beshtagacha test savollari tuzadi va multimedia yoki kodoskop ekraniga tushirib, o‘rtoqlari muhokamasiga havola qiladi. Shu jarayonda ijodiy va mustaqil fikr mahsuli bo‘lmish testlar tanqidiy nazar bilan ko‘zdan kechirilib, kamchilik va nuqsonlari tuzatiladi. Bahs va munozara, savol-javoblar jarayonida o‘quvchi o‘z bilimi, dunyoqarashi, yaratgan matni, bajargan ishining to‘g‘riligini isbot qilishga urinadi, ilmiy, madaniy muloqot sirlarini kashf qiladi.

### **Fe’l so‘z turkumi mavzusida MM ustida ishlash.**

**1-ish.** So‘radi, qayg‘urdi so‘zlaridan ma’nodoshlik qatori hosil qiling: so‘radi — so‘rab ko‘rdi, so‘rashdi, ruxsat oldi, oldidan o‘tdi, fotihasini oldi; qayg‘urdi — xafa bo‘ldi, ko‘z yoshi to‘kdi, g‘amga botdi, boshi egildi, qaddi bukildi...

**2-ish.** Topgan so‘zlarining ishtirokida birikmalar tuzing: ustozidan so‘rab ko‘rdi, otasidan ruxsat oldi; bekorga xafa bo‘ldi; tinimsiz yosh to‘kdi, qattiq g‘amga botdi...

**3-ish.** Hosil bo‘lgan so‘z va birikmalardan gaplar tuzing. Bobur tushunmaganlarini ustozidan so‘rab ko‘rdi...

#### **4-ish.** Tuzilgan gaplardan foydalanib matn yarating.

Fe'llarning cheksiz uslubiy imkoniyatlarini hisobga olib, uning ma'nodoshlari, uyadoshlari va zid ma'nolilarini alohida ro'yxat qilish, ("lug'at" kitoblaridan) sodda, qo'shma, juft va takror fe'llar ishtirotida gaplar hosil qilish, dars jarayonida o'quv-texnika vositalari, hamda muammoli ta'lif imkoniyatlaridan, intellektual o'yin – topshiriqlardan foydalanish talaba so'z boyligini oshiradi, so'zni to'g'ri tanlashga, uni o'z o'rnida qo'llay bilishga o'rgatadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda fe'l so'z turkumini, ixcham gaplarni bilish, ularni nutq sharoitiga mos ravishda erkin va mustaqil qo'llashni o'rganish, didaktikaning ongli verbal-kognitiv ta'lif yo'nalishiga asoslangan "kashfiyot ta'lif usuli"da fikrlash va fikr ifodalashga olib keladi. O'quvchi iqtidorini, matn yaratish BKMLarini shakllantirishga yo'naltirish, "MYBT" kommunikativ moduli bilan ishlash-ta'lif jarayonini "Milliy dastur" hamda DTS talablari asosida tashkil qilishga, uzlusiz ta'limda yuqori natija — ijodiy tafakkur sohibini yetishtirishga, milliy qahramonni, vatanparvarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### **Olmosh so'z turkumini o'rganish**

Ot, sifat, son, ravish, fe'l shakllari, taqlid so'zlar o'rnida qo'llanadigan so'z turkumlari olmoshlardir. Ular kelishiklar bilan turlanadi, gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, kesim vazifalarida keladi: Kim so'zlaydi? O'sha maktab, allakimni so'radi. Bu ishni qilgan odam — siz!

Har bir fanning o'qitilishi, ijobiy samarasini undan olingen so'nggi natija bilan baholanadi. Ona tili ta'lidian olingen so'nggi natija esa nutqni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, aniq, ravon, qisqa ifodalash ko'nikmalarining to'liq shakllanganligi va rivojlanganligida ko'rindi.

"Olmosh" so'z turkumini o'rganishda talabalar nutqni rivojlantirish imkoniyatlarining biri — so'zning nutqiy ma'nodoshlaridan o'rinli foydalanish malakasidir.

Olmosh yetti turga ajratilib o'rganiladigan mustaqil so'z turkumiga kiradi. Olmoshning eng asosiy xususiyatlaridan biri shuki, u o'tgan zamон fe'llaridan tashqari barcha mustaqil so'z turkumlarini, butun boshli gapni, matnni qolaversa yaxlit bir asarni ham almashtirib kelaveradi.

M: A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani o'zbek roman chiligining oltin merosidir. U o'zbek tilining butun salmog'i-yu tarovatini, ranginligi-yu jozibasini o'zida aks ettirib turadi.

Yuqoridagi matnda u olmoshi butun boshli “O’tkan kunlar” romanini ko’rsata va o’rnini bosa olgan. Shu sababli olmosh mavzusi keyingi o’quv darsliklarida barcha mustaqil so’z turkumlaridan keyin o’rganishga kelishib olindi.

**1. Kishilik olmoshi:** men, sen, u; biz, siz, ular. Shaxs haqidagi gaplarning egasini almashtirib keladi: Cho’lpot — buyuk shoir. U o’zbek xalqining asrlar bo’yi qilgan orzusi — ozodlik haqida kuylaydi.

Fikrni aniq ifodalash uchun oldingi gaplarda avval ot, so’ng kishilik olmoshi qo’llanadi: Venera Quyoshga yaqin planetalardan biri. U bizga yorug‘ yulduz bo’lib ko’rinadi.

Mazkur olmoshlar barcha so’z turkumları o’rnida qo’llanib, ular bilan so’z birikmalari va turg‘un iboralar hosil qilishi mumkin: biz keldik, sening sinfing.

**2. O’zlik olmoshi** “o’z” so’zi orqali ifodalanadi va muallifning o’zi haqidagi, o’ziga qarashli narsa haqidagi fikrni aniqlash, ta’kidlash uchun xizmat qiladi: Har insonning o’z istagi, hamma gapning o’z vaqt, hamma ishning o’z o’rni bor...

*Axir bu dunyoda teng emas besh qo’l,  
Bariga bir yumush berib yaratgan.  
Har inson axtarar o’z-o’ziga yo’l,  
Fe’li-atvorin ham bilib yaratgan. (Shukrullo)*

**3. Ko’rsatish olmoshi** hozirgi o’zbek adabiy tilida keng qo’llanadi: u, bu, shu, o’sha, mana, ana, ana shu, mana shu, anavi.

Sinonimlari: mazkur, yuqoridagi, quyidagi... Fan cho’qqisi — marramiz, unga dadil chiqamiz (P. M). Non hidi — bundan yoqimli narsa bormi!? Misollardagi olmoshlarga jo’nalish, o’rin-payt, chiqish kelishigi, shuningdek, -cha, -day, -dek (shuncha, o’shanday...) qo’shimchalari qo’shilganda, n tovushi orttirilgani aniqlanadi. U olmoshi ham kishilik, ham ko’rsatish olmoshi vazifasida kelishi mumkin, bu hodisa esa kontekstda aniqlanib, qiyoslanadi va farqlanadi:

M: U qo’shiq aytadi — Qo’shiq u tomondan eshitildi.

Birinchi gapdagi u kishilik olmoshi bo’lib, shaxsni — qo’shiqchini bildiradi. Ikkinci gapdagi u esa ko’rsatish olmoshi bo’lib, ovoz kelayotgan tomonni aniqlab, ko’rsatmoqda. Ko’rsatish olmoshlari gapda, asosan, ega, aniqlovchi, kesim bo’lib keladi.

Berilgan misollar asosida uning egalik, son, kelishik qo’shimchalari bilan turlanishi o’qituvchi tomonidan isbotlanishi, o’quvchi tomonidan anglanishi kerak.

**4. So’roq olmoshlari** o’zbek tilida mavjud bo’lgan barcha so’roq

**so‘zlarni qamrab oladi:** kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi? qancha?  
**necha?** nega? nechanchi? nima qildi? va boshqalar. Ular shaxs, narsa-buyum, belgi, miqdor, harakat yoki holat haqidagi so‘roqlarni bildirib, shaxs, o‘rin, payt, mavjudlik, sabab, maqsad kabilarni aniqlashda qo‘llaniladi: — Kim keldi? — Qanday kitoblar o‘qiding? — Yoshing nechada? — Qayerda ko‘rding? — Nechanchi sinfda o‘qiysan? v.h...

So‘roq olmoshlari ot o‘rnida kelganida otlar kabi son, egalik va kelishik qo‘sishchalari bilan turlanishi mumkin. Bu xususiyatga kim? va nima? so‘roq olmoshlari egadir.

So‘roq olmoshlari gapda ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifasida keladi.

**5. Belgilash olmoshlari** har, har kim, barcha, har qanday, har nima, har qaysi, hamma, bari, butun, jami, yalpi singari farqlash, aniqlash ma’nosidagi so‘zlar bilan ifodalanadi. Ularning ba’zilari shaxs va narsa-buyumni, belgini biror xususiyati bo‘yicha ajratish, jamlash, umumlashtirish ma’nosini bildirsa, ba’zilari ta’kid, guruhlash, birgalik ma’nolarini ko‘rsatadi. Ulardan ayrimlari ko‘plik qo‘sishchasini ham olishi mumkin.

Masalan: Yulduz Usmonovaning qo‘ng‘iroqday ovozi butun jozibasi, sehri ohangi bilan barcha tinglovchilarni rom qildi. Xalqimiz mustaqilligimizni asrash yo‘lida har qanday to‘sinqi ag‘darib tashlashga tayyor. Har kim bu masalada o‘z fikrini aytisin.

O‘quvchilar gaplardagi olmoshlarni belgilaydilar, ma’nosini sharhlaydilar, tuzilish jihatdan sodda va qo‘shma ekanligini aniqlaydilar. Gapda ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi vazifalarida kelishini misollar orqali isbotlaydilar.

Xuddi shu tarzda belgilash, bo‘lishsizlik, gumon olmoshlari ham o‘rganiladi. Bunda olmoshning qaysi so‘z turkumlari o‘rnida kelayotgani, uning o‘ziga xos leksik-grammatik, ayniqsa, morfologik xususiyatlariga o‘quvchi e’tiborini tortish maqsadga muvofiqdir.

Olmosh mavzusini o‘rganishda berilgan matnni tahlil qilish, olmosh — so‘z, olmosh so‘z birikmalari ustida ishlashda quyidagi tartibga riosa qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Olmoshni belgilash.
2. Uning ma’no turini aniqlash.
3. Qanday so‘z turkumi o‘rnida kelishini izohlash.
4. Qanday so‘roq olishini oydinlashtirish.
5. Qaysi kelishikdaligini ko‘rsatish.
6. Shaxs-sonini aniqlash
7. Gapdagisi vazifasini topish.

## YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARI

So'z tarkumlari umumiy grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi.

**1. Ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, taqliddan** iborat, lug'aviy ma'noga ega, muayyan so'roqlarga javob bo'ladigan, morfologik jihatdan o'zgaradigan, gapda ma'lum sintaktik vazifani bajaradigan mustaqil so'zlar.

**2. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar** — mustaqil so'z, so'z birikmalari, sodda va qo'shma gaplar orasidagi munosabatlarni tiklaydigan, so'z va uning mazmuniga qo'shimcha ma'no berishdek grammatik ma'no ifodalaydigan, ammo yakka holda ma'no anglatmaydigan, so'roqlarga javob bo'la olmaydigan hamda gap bo'lagi bo'la olmaydigan **yordamchi so'zlar**<sup>1</sup>.

**3. Modal, undov, taqlid** singari lug'aviy ma'no bildirmaydigan, ammo, ba'zan gap bo'lagi vazifasida kela oladigan alohida guruh so'zlar.

Yordamchi so'z tarkumlarini o'rganishda quyidagi bilim, ko'nikma va malakalar o'quvchi ongiga singdirilishi lozim:

- har bir yordamchi so'zning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- yordamchi so'zlarning bir-biridan va mustaqil so'zlardan farqini ajrata bilish;
- ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri, uslubiy jihatdan o'rini qo'llay bilish.

### Ko'makchi

Mustaqil so'z tarkumlaridan keyin kelib, ularni boshqa so'zlarga tobelanish yo'li bilan bog'laydigan yordamchi so'zlar ko'makchilaridir. Ko'makchilar qaysi so'zdan keyin kelsa, o'sha so'z bilan birlgilikda bir savolga javob bo'lib, bir xil gap bo'lagi vazifasida keladi. O'rganilgan bilimlarga asoslanish, ularni mustahkamlash maqsadida quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Ko'makchilar mustaqil so'zlardan qanday farqlanadi?
2. Ko'makchi gapda qanday vazifani bajaradi?

Savollarga javob olingach, quyidagi gaplar yozdiriladi:

1. Qush parvoz uchun, inson baxt uchun yaralgan.
2. Ona o'rgatgan til ham hamisha biz uchun ona kabi ardoqlidir.
3. Tabiat quyosh bilan, inson xulqi bilan go'zal.
4. Jasorat iste'dod singari maqsad sari boradigan

<sup>1</sup> Мирзаахмедов. Б. Ёрдамчи сўзларни ўрганиши. —Т.: Ўқитувчи, 1973.

yo'ini osonlashtiradi.

1-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan ko'makchilar qanday sintaktik munosabatlarni ifodalayotganini aniqlang.

2-topshiriq. Ularning mustaqil so'zlardan farqini aytинг:

Matn tarkibidagi ko'makchilar parvoz uchun, baxt uchun, biz uchun; quyosh bilan, xulq bilan; iste'dod singari, maqsad sari kabi o'zi bog'lanib kelgan so'zdan keyin kelib, gapda so'zlar orasidagi birgalik, maqsad, sabab, o'xshatish, yo'nalganlik, davomiylik kabi turli-tuman sintaktik munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Sof ko'makchilar vazifa jihatidan ketishik qo'shimchalariga yaqin turadi; Xatni pochta orqali jo'natdi — pochtada jo'natdi; kitobni sen uchun oldim — senga oldim...v.h. Sof ko'makchilarning qisqargan shakllari (-la, -chun) chiziqcha orqali yoziladi: mehnat-la yaralur shoh asarlar ham... Mehringni o'qishga berganing-chun xursandman.

Aslida boshqa so'z turkumlari (ot, fe'l, ravish)dan bo'lgan, lekin ko'pincha ko'makchi vazifasida qo'llanadigan so'zlar (old, orqa, yon, o'rta, ost, ust, ora...) ham mavjud:

Qiyoslang:

- |                                  |  |
|----------------------------------|--|
| 1. Usti ochiq mashina.           | 1. Shahar <b>ustidan</b> samolyot uchib o'tdi. |
| 2. Keyin keladi.                 | 2. Darsdan <b>keyin</b> keladi.                |
| 3. Muzeyda <b>oldin</b> bo'lgan. | 3. Mendan <b>oldin</b> so'zлади.               |
| 4. Orqada qoldi.                 | 4. Hammadan <b>orqada</b> qoldi.               |

Misollarni qiyoslashdan maqsad ust, keyin, oldin, orqada kabi so'zlar qayer? qachon? qayerda? so'roqlariga javob bo'lishi, gapda hol vazifasida kelganligini aniqlashdir.

So'ngra shahar ustidan, darsdan keyin, mendan oldin, hammadan orqada ko'makchili birikmalar o'zidan oldin kelgan so'z bilan birgalikda qayerdan? qachon? so'roqlariga javob bo'lib, gapda o'rin va payt holi vazifasini bajarayotgani aytildi.

Ko'makchilar haqida o'rganilgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash maqsadida quyidagi yozma nazorat ishi, matn ustida ishlash kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Izohli diktant matni aytib yozdiriladi:

1. Toshkent Mustaqillikdan keyin tanib bo'lmaydigan darajada o'zgarib, ko'r kamlashib ketdi. 2. Xalqimizning tinchligi uchun, baxt-saodati uchun g'ayrat bilan bilim olamiz. 3. Oybek hayajonini bosish maqsadida o'zini mahkam tutib turar, bosiqlik bilan so'zlardi. 4. Sayohatchilar qirg'oq bo'ylab sekin borardilar.

- a) matndagi ko'makchili birikmalarni ajrating;  
b) ular ishtirokida gaplar tuzing. Ko'makchili birikma ma'nosini

tushuntiring.

### **Mustaqil ish**

1-topshiriq. **Ilgari, burun, oldin, avval, beri, buyon** kabi ko'makchilar ishtirokida avval so'z birikmasi, so'ngra ular ishtirokida gap tuzing. Ko'makchili birikma ma'nosini sharhlang.

2-topshiriq. **Sari, kabi, burun, keyin, haqida, ostida** ko'makchilarining ma'nodoshlarini toping. Ulardan so'z birikmalari hosil qiling. Mazkur birikmalarni qatnashadirib, gaplar quring, so'ngra matn yarating. Yaratilgan matndan ko'makchili birikmalarni ajratib, ularning lug'aviy ma'nosini sharhlash o'quvchi nutqiy mahoratini shakllantiradi. Og'zaki sharh jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikr ifodalash ko'nikmasi rivojlanadi, o'z nutqida ko'makchi so'zlarni qo'llash malakasi shakllanadi.

Amaliy mashg'ulotlarda quyidagi ishlardan foydalanish mumkin:

- bosh kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar (bilan, uchun, sari, tufayli, chamasi v.h.);
- jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar (qadar, qarshi, qarab, yarasha, muvosiq v.h.)
- chiqish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar (boshqa, tortib, boshlab, beri, nari v.h.) ro'yxatini tuzish, ularni ma'nodoshlari bilan almashtirish, kelishik qo'shimchalarini ko'makchi bilan yoki aksincha, ko'makchini kelishik qo'shimchalari bilan almashtirishni o'ylab ko'ring.

"Ko'makchi"lar mavzusini o'rganishda matn yaratishdan foydalanish:

1. Sof ko'makchilarini ro'yxat qilish.
2. Ko'makchili so'z birikmalari hosil qilish.
3. Mazkur birikmalardan gaplar tuzish.
4. Gaplardan birini tanlab, shu mavzuda ko'makchili birikmalar ishtirok etgan kichik matn yaratish.

Ko'makchilarning o'z vazifasi jihatidan kelishik qo'shimchalariga o'xhashligi, ko'pincha, ularning o'rnnini almashtirib ishlatish mumkinligi haqida (-ga, uchun) umumiy xulosaga kelinadi. Ammo ularni har doim o'zaro muqobil deb bo'lmaydi.

Berilgan gaplarga e'tibor qiling.

1. Vatan mustaqilligi va yo'qotishlarga qarshi olib borilgan kurashlar haqida aql-u farosat bilan o'ylash ham kerak.
2. Shundagina mustaqillikning mohiyatini teran hamda to'g'ri anglash mumkin.

O'quvchilardan biri birinchi gapni o'qib, uchun, haqida, bilan ko'makchi ekani, bu holatda kelishik qo'shimchasi bilan almashtirib

**bo'lmasligi**, o'zicha ma'no bildirmasligi, o'zidan oldin kelgan **mustaqillik**, yo'qotish, aql-u farosat so'zlari bilan birqalikda nima uchun? **nima haqida?** nima bilan? so'roqlariga javob bo'lib, o'yash kerak fe'liga **bog'lanishda** vosita vazifasini bajarishini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi.

So'ngra ikkinchi talaba har ikki gapni o'qib, va, hamda bog'lovchilar **ikki** bir xil grammatic ma'noli so'zlarni o'zaro bog'layotganini, uyushiq **bo'laklar** hosil qilayotganini aytadi. Shu asosda bog'lovchilar ham yolg'iz **holda** gap bo'lagi bo'la olmasligi va o'zicha so'roqqa javob bermasligi bilan ko'makchilarga o'xshashligi aniqlanadi.

### Bog'lovchi

Bog'lovchilar quyidagi grammatic xususiyatlari bilan ko'makchilardan **farq** qiladi:

— ko'makchi gap tuzishda faol ishtirok etadi, u gapdan tushib qolsa, fikr anglashilmaydi. Bog'lovchi tushirib qoldirilsa ham, gap ohangida o'zgarish bo'lsa ham, fikr anglashilaveradi;

— ko'makchi ot, olmosh, otlashgan so'zlardan keyin ishlatiladi, **bog'lovchi** esa barcha mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, fe'l, ravishlardan **keyin** kelaveradi;

— ko'makchilar o'zi bog'langan so'zning bosh, jo'naliш, o'rinpaysat, chiqish kelishiklarining birida bo'lishini ko'rish mumkin. **Bog'lovchilar** kelishik qo'shimchalari olmaydi, o'zi bog'layotgan so'zlarni qaysi kelishikda bo'lishidan qat'iy nazar, o'zaro bog'layveradi.

**Gapning uyushiq bo'laklari va qo'shma gapdagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar bog'lovchi deb ataladi.**

Bog'lovchilar yakka va takrorlangan holda qo'llaniladi.

Va, ammo, chunki kabi yakka, yo-yo, goh-goh, ba'zan-ba'zan singari takror qo'llanadigan bog'lovchilar ustida ishslash; gapning uyushiq **bo'laklari** hamda qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashda teng **bog'lovchilar** (biriktiruv, zidlov, ayiruv) va ergashtiruvchi bog'lovchilar (chunki, toki) ishtirok etgan gaplar hosil qilib, bog'lanish yo'llarini tushuntirish maqsadga muvofiq.

Mustaqil ish: Matnni o'qing. Bog'lovchilarni topib, ularning **bajarayotgan** vazifasini tushuntiring. Ajratilgan bog'lovchilar yordamida **lo'z** birikmasi, gaplar tuzing, ijodiy matn yaratting.

Namuna: *Gul ekish uchun yer yumshoq hamda yaxshi ishlangan bo'lishi, lekin tuproq kukundek mayda bo'magani ma'qul. Shunday qilinsa, yomg'ir yog'ganda, yer qatqaloq bo'lib qolmaydi...*

Ko'chatlar o'tqazilgach, goh suv quyib, goh atrofini yumshatib,

*yaxshi parvarish qilganimiz uchun, ular tezda yuqoriga bo'y cho'zib, baquvvat hamda sershox bo'lib ketishdi... (matnni davom ettirin).*

Matndagi bog'lovchilarni muqobillari bilan almashtirib aytish (*va, ham, hamda, bilan*), ular ishtirokida gaplar tuzish:

*Zulxumor bilan Gulchehra*

*Zulxumor va Gulchehra mevalarni terishdi.*

*Zulxumor hamda Gulchehra*

— biriktiruv bog'lovchilari (*va, ham, bilan*) gap bo'laklarini va gaplarni bog'laydi: Ishda g'ayrat va chidam kishiga yo'ldosh bo'lsin;

— zidlov (lekin, biroq, ammo) bog'lovchilari keyingi gapga qarama-qarshi ma'noda beriladi: Yomg'ir tingan, ammo ko'cha shamol va sovuq edi.

— ayiruv bog'lovchilari (*yo, yoki, goh, dam, ba'zan*) voqeahodisalarning biri yo galma-gal bo'lishi izohlab beriladi: Goh bo'ron ko'tariladi, goh kuchli jala quyadi.

### **Yuklama**

Yuklamalar mustaqil so'z va gaplarga yoki uning biror bo'lagiga qo'shimcha ma'no beradigan yordamchi so'zlardir. Ular tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

**1. So'z yuklamalar** (*faqat, ham, axir, hatto...*)

**2. Qo'shimcha ko'rinishidagi yuklamalar** -ku, -a, -oq, -ya, -mi, -gina... v.h.

Yuklamaning gap yoki uning biror bo'lagiga qo'shimcha ma'no berishi haqida talabalar bilimini mustahkamlash maqsadida qiyoslash usulidan foydalanish yaxshi samara beradi:

1. Siz biznikiga kelasiz.

2. Tog'larda, yoz oylarida yomg'ir yog'adi.

3. Sen kelishing bilan biz

yo'liga tushamiz.

1. Siz biznikiga kelasizmi?

2. Tog'larda hatto yoz oylarida ham yomg'ir yog'adi.

3. Sen kelishing bilanoq biz

yo'liga tushamiz.

1-topshiriq. Ikkala ustundagi sodda darak va so'roq gaplarni qiyoslab o'qing. Ularning mazmun jihatidan turini aniqlang. So'z yuklamalar va qo'shimcha ko'rinishidagi yuklamalarni ajratib ko'rsating.

2-topshiriq. -mi yuklamasi gapga qanday qo'shimcha ma'no berayotganini aytin. O'quvchilar birinchi darak gapga -mi yuklamasi qo'shilib, qo'shimcha so'roq ma'nosini hosil qilayotganligi, ikkinchi gapdagisi hatto yuklamasi kuchaytiruv ma'nosini berishi, uchinchi

gapdag'i -oq yuklamasi ta'kidlash kabi qo'shimcha ma'no kiritayotganligi haqida tushuncha hosil qiladilar.

### **Yuklamalarning ma'no turlari**

Hozirgi o'zbek adabiy tilida yuklamalar anglatayotgan ma'nosiga ko'ra bo'rt turga bo'linadi:

**1. So'roq va taajjub yuklamalari:** -mi, -chi, -a, (-ya), nahot, nahotki...

Tezroq o'qisang-chi. Juda go'zal ekan-a? Nahotki, shunday degan bo'lsa-ya...

**2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari:** -da, -u (-yu), -oq (-yoq), -ku, axir, hatto, hoziroq... Senga gap tegmasa deyman-da. Bu ona-ku, bu zo'r inson-ku! (U.) U yoshligidanoq kitobga mehr qo'ydi. Axir sizlar dostsiz-ku. (O.Y.)

**3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari:** -gina (kina, -qina), faqat, ham...

Faqat sengina tadbirga qatnasha olmading. Bir onasigma qizidan ko'z uzolmasdi. Sen ham qalbingdagini ochib gapirgin-da.

**4. Aniqlov, guman, inkor yuklamalari:** xuddi, -dir, -naq, na... na... Xuddi otasining o'zginasi. Omon kimdir, bormi Vatani... (H.O.) Naq mo'ljalga urdi. Na usfq o'ramay yoqut, zar, na bulut silkitmay oltin par (U.)

Yuklamalarning imlosini o'rganishda talabalar yuqorida berilgan misollar hamda "Imlo lug'ati"dan kelib chiqib, yuklamalarning ajratib, qo'shib yoki chiziqcha orqali yozilishini aniqlaydilar.

Yuqorida berilgan yuklamalarning ma'nosи, gapdag'i vazifalarini aniqlash, ularni nutqda qiyinchiliksiz qo'llash ko'nikmalarini egallash uchun o'quvchilarga "MYBT" moduli asosida so'z birikmalari, gaplar tuzish va matn yaratish kabi ijodiy ishlar topshiriladi.

Yordamchi so'zlarni o'rganish avvalgi bilimlarga asoslangan holda olib borilishi, o'tilganlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish uchun quyidagi savollardan foydalanish maqsadga muvofiq.

1. Yordamchi so'z turkumlari qanday guruhlarga ajratiladi?
2. Yordamchi so'z turkumlariga ta'rif bering.
3. Yordamchi so'zlar mustaqil so'z turkumlaridan qanday farqlanadi?
4. Yordamchi so'z turkumlariga kiruvchi so'z guruhlarining farqli va o'xshash tomonlarini aytинг.

Yuqoridagi savollarga javob izlash jarayonida o'quvchilar ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarning o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda anglatgan ma'nolari ustida ishlaydilar, ularning har biriga xos xususiyatlari

bilan tanishadilar, gap qurish va matn yaratish ko'nikma va malakalarini egallaydilar.

Yordamchi so'zlar mavzusini o'rganishda egallangan, ko'nikma va malakaarni mustahkamlash, ularni amaliyotga tatbiq qilish borasidagi bilimlarni nazorat qilish va baholash uchun izohli yoki saylanma diktantlar o'tkazish, shu jarayonda biriktiruv, ayiruv, zidlov bog'lovchilarining vazifasi va ma'nosini izohlash, yuklamalar, ularning ma'no turlari, imlosini amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlari ustida ishslash nihoyatda foydali bo'lib, bunda yordamchi so'zlardan og'zaki nutqda to'g'ri va o'rini foydalanish malakalari shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

### Alovida so'z turkumlari

So'zlovchining o'z fikriga bo'lgan munosabatini, his-hayajon, haydash-chaqirishni, tovushga va holatga taqlidni bildirgan so'zlar alovida so'z turkumlaridir. Ular modal, undov, taqlid so'zlar deyiladi. Mazkur so'z turkumlari alovida lug'aviy ma'no bildirmaydi, ammo ba'zan gap bo'lagi vazifasini bajarishi mumkin.

### Modal so'zlar

Modallik har bir gapning muhim konstruktiv belgilardan biri. Ayrim ot, ravish, fe'l mayllari orqali xohish, istak, buyruq, zaruriyat; yuklamalar orqali ta'kid, gumon, taxmin, faraz kabi modal ma'nolar ifodalanadi.

Modal so'zlar lotincha "modus" — usul, o'Ichov ma'nolarini bildirib, gapda anglatilgan fikrga, voqeа-hodisalarga mualliflarning munosabatini, fikrning aniqligi-yu noaniqligini, aytileyotgan xabarning so'zlovchi tomonidan qanday baholanishini bildiradi.

Modal so'zlar gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi, shu sababdan ular gap bo'lagi bo'la olmaydi; so'zlovchi tomonidan aytileyotgan fikrga bildirilgan munosabatni ko'rsatadi:

*Haqiqatan ham, yuragining gursillab urayotgani sezilib turardi. Zokir ota, shubhasiz, qo'li gul odam. Ishimiz ma'qul bo'ldi, shekilli, boshligi mayin kulimsirab qo'ydi. Ajabo, shu gapni Shohida aytdimi?! Demak, rasm sizga yoqdi??*

**Matn ustida ishslash.** Berilgan gaplarni o'qing. Har bir gapdagи modal so'zlarni aniqlang. Ot, sifat, fe'l, yordamchi so'zlardan o'tgan modal so'zlar ishtirotkida gaplar tuzing.

Modal so'zlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

**1. Ishonch:** albatta, shubhasiz, so'zsiz, tabiiy, to'g'ri, haqiqatan.

rostdan.. v.h.

**2. Guman:** ehtimol, shekilli, menimcha, aftidan, ajabmas, har holda, balki v.h.

**3. Xulosa:** xullasi kalom, demak, nihoyat v.h.

**4. Achinish:** afsus, attang, essiz, afsuski, nahotki v.h.

**5. Faraz:** o'ylashimcha, sezishimcha, fikrimcha v.h.

**6. Zaruriyat:** kerak, lozim, shart, zarur, darkor v.h.

Bulardan tashqari *bor*, *yo'q*, *binobarin*, *zero*, *birinchidan*, *avvalam bor* kabi modal so'zlar o'zbek tilida mavjud bo'lib, ular asosan so'zlashuv, ilmiy, badiiy nutqda ishlatiladi.

Modal so'zlarning ko'pi mustaqil so'zlardan o'sib chiqqanligi ko'rini turadi: *aftidan*, *haqiqatan*, *ehtimol* – ot so'z turkumidan; *so'zsiz*, *shubhasiz*, *tabiiy* – sifatdan; *birinchidan*, *ikkilamchi* – sondan; *balki*, *holbuki* – yordamchi so'zdan o'tganligi sezilib turibdi.

Modal so'zlar ham boshqa so'z guruhlari kabi morfologik, sintaktik va semantik belgilarga ega. Ularning o'zgarmasligi morfologik belgisi sanalsa, kirish so'z vazifasida kelishi sintaktik vazifasidir. Modal so'zlarning semantik belgisi aniqlik, taxmin kabi modal ma'nolarni anglatishidir.

Modal so'zlar quyidagicha sintaktik vazifalarni bajaradi.

Dialoglarda aytilgan fikrga munosabatni bildiradigan so'z-gaplar bo'lib keladi:

— Yaxshi she'r yozish og'ir ish, shundaymi?

— Albatta!

Kirish so'z vazifasida keladi: Talaba jim o'tirar, aftidan, imtihonga tayyor emasdi.

Kirish so'z vazifasida kelgan modal so'zlar og'zaki nutqda ohang bilan, yozuvda alohida tinish belgilari bilan ajratiladi: Taklifim dugonamga ma'qul bo'ldi, shekilli, jilmayib tasdiqlidi.

Kirish so'z vazifasida qo'llanadigan modal so'zlar qanday so'z turkumiga oid bo'lsa, o'sha so'z turkumiga xos ma'no va grammatik belgilarni saqlaydi.

Modal so'zlar, ularning individual nutqni shakllantirishdagi ahamiyati yuzasidan egallangan bilimlarni mustahkamlash va takrorlash maqsadida badiiy adabiyotlardan modal so'zlar ishtirot etgan gaplarni ajratib yozish, ularning ma'no turlari va sintaktik vazifalarini aniqlash, tinish belgilaring qo'yilishi haqidagi o'quv topshiriqlarini bajarish, modallarning kontekstdagi ma'nosini izohlash va sharplash talab etiladi.

Amaliy ish sifatida ot, sifat, fe'l, ravish, son kabi so'z turkumlaridan o'tgan modal so'zlar ishtirotida gap tuzish, matn yaratish, hamda

tinish belgilarining qo'yilishini izohlash mashqlari talabalarning o'z fikrlarini to'g'ri, ravon, tushunarli ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishida muhim o'rinni tutadi.

### Undov so'zlar

Nutqimizda tuyg'u, his-hayajon, ma'qullash, maqtash, haydash-chaqirishni bevosita ifodalaydigan, mustaqil leksik ma'noga ega bo'lмаган со'злар undovlardir. Undovlar ma'lum bir ohang bilan aytilmasa, u his-tuyg'uni ifodalay olmaydi. Ohangning turlicha bo'lishiga ko'ra undovlar turli his-tuyg'ularni bildiradi.

Undovlar yakka hamda juft holda va takrorlanib qo'llanadi: a, ah, eh, ohho, oh-voh, balli, dod-voy, bay-bay, hay-hay...

Juft va takrorlangan undovlar chiziqcha bilan yoziladi. Ma'nosiga ko'ra undovlar ikki turli bo'ladi.

**1. His-hayajon undovlari:** o, oh, voy, ura, xayr, obbo, hayf, a, ah, i, iye v.h. M: O, quyosh parchasi, berib xushxabar.

Hayot rubobini yangratuvchisan. (A. Umariy)

Eh! Shahrimiz naqadar go'zal. Obbo, juda oshirib yubording. Bay-bay, tiling juda achchiq. Be, shunga ham xafa bo'ldingmi?

Undovlar mavzusi yuzasidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, umumlashtirish, takrorlash uchun talabalar quyidagi savollarga javob berishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. His-hayajon undovlari qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?
2. His-hayajon undovlari gap bo'lagi vazifasida qo'llanadimi?
3. Mustaqil so'zlardan undovlarga ko'chgan so'zlarga misollar keltiring.

Marhamat, yuqoriga o'ting. Rahmat, sizdan minnatdormiz. Bu gaplardagi marhamat, rahmat so'zlari ot emas, undov bo'lib, gap bo'laklaridan vergul bilan ajraladi. Agar his-hayajon kuchli bo'lsa, undov belgisi qo'yiladi.

2. Haydash-chaqirish undovlari ham o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini boyitishda o'ziga xos o'rinni tutadi.

Mazkur undovlar kishilarning diqqatini tortish, qushlar, hayvonlar va boshqa jonivorlarni biror ishni bajarishga undash uchun ishlatalidi: hoy, allo, ey, ma, jim, marsh; kisht, chuh, chu, tu-tu, cho'k, tek, beh-beh, mah-mah. M: Otliqlar gaplashmas, har zamon-har zamon otga bir qamchi bosib, chu deb qo'yildi. Atrofdan beh-beh, tu-tu degan tovushlar eshitilardi.

Bunday undovlar nutqda ko'proq deb, degan so'zlari bilan qo'llanadi va gapda aniqlovchi, hol vazifasida keladi.

Undov so'zlarni to'g'ri va ifodali o'qishda tinish belgilarining roli

katta. Og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishda ham undov so‘zlar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Undov so‘zlarning uslubiy roli, undov so‘zli gap ohangi, gapni qiroat bilan o‘qishga o‘rganish bo‘yicha quyidagi amaliy ishlarni bajarish foydali:

— undov so‘zlar ishtirokida gap tuzish va undagi undov so‘zlarni izohlash;

— undov so‘zlarning boshqa so‘z turkumiga ko‘chishi (bemorlarning oh-vohlari), mustaqil so‘zlarning undov so‘z o‘rnida ishlatilishi — (kel, bir gaplashaylik)ga misollar tanlash, matnni ifodali o‘qish, undov so‘zli gaplardagi tinish belgilarini izohlash dars samaradorligini oshiradi.

### **Taqlid so‘zlarni o‘rganish**

Alovida so‘z turkumlariga kiruvchi taqlid so‘zlar tovushga va holatga taqlidni bildirib, ma’no jihatidan ikki turga bo‘linadi:

**1. Tovushga taqlid:** gumbur-gumbur, duk-duk, qiy-chuv, qult-qult, uv, vov, va-a, me-ye, qah-qah, pit-pildiq, taraq-turuq...

Ko‘chadan gumbur-gumbur ovoz eshitildi. Ba’zan bedazordan bedanalarning pit-pildig‘i qulqoqqa chalinadi.

**2. Holatga taqlid:** yarq-yurq, g‘uj-g‘uj, mo‘lt-mo‘lt, lak-lak, g‘ivir-g‘ivir, g‘ir-g‘ir, milt-milt, hang-mang... v.h:

Egatlardagi g‘o‘zalarda g‘uj-g‘uj hosil. Shohida qo‘rqanidan dir-dir titrardi. Uzoqdan milt-milt chiroqlar ko‘rindi. Shabada g‘ir-g‘ir esmoqda.

Egallangan bilimlarni takrorlash mustahkamlash, umumlashtirish maqsadida quyidagi topshiriqlar berilishi mumkin:

1-topshiriq. Taqlidiy so‘zlarning undovlardan farqi va o‘xhash tomonlarini aniqlang.

2-topshiriq. Taqlidiy so‘zlaridan ot, fe’l va boshqa turkum so‘zları yasang (qarsak, qo‘ng‘iroq, taqa, qah-qah (ot); pichirla, chiqilla, jarangla, gurkira, yarqira (fe’l); shildirama, yaltiroq, mildiroq(sifat)... v.h.

3-topshiriq. Taqlid so‘zlardan “taqlid so‘z + fe’l” qolipli so‘z birikmlari hosil qiling.

Namuna: g‘ovur-g‘uvur eshitildi, dag‘-dag‘ titrardi, piq-piq yig‘ladi, mo‘lt-mo‘lt qaradi, milt-milt oqdi.

Mustaqil ish: Mazkur so‘z qoli plari ishtirokida gap tuzing va matn yaratting. Juft va takror holda qo‘llangan taqlid so‘zlar orasiga chiziqcha o‘yishni unutmang.

4-topshiriq. Matndan taqlid so‘zlarni ajratib, guruhlang.

## SINTAKSIS VA PUNKTUATSIYA O'QITISH METODIKASI

Grammatika – morfologiya va sintaksis bo‘limlaridan tashkil topadi. Til fanining katta bir qismi bo‘lgan **sintaksis – so‘z, so‘z birikmasi va gaplarning o‘zaro aloqasini, so‘z birikmasi va gaplarni tashkil etgan bo‘laklarning xususiyatlarini o‘rganadi**. Sintaksis shu jihatdan morfologiyadan farqlanadi.

Morfologiya so‘zlarning grammatik xususiyatlarini; tuzilishi, yasalishi, turlanishi, tuslanishini tekshiradi. Bu shakliy tekshirish albatta lug‘aviy ma’no asosida bo‘ladi. Sintaksis ana shu so‘z shakllar dinamikasini, o‘zaro bog‘lanishini ularning gapdagi vazifasini, ma’lum fikrni ifodalashdagi o‘rnini o‘rganadi<sup>1</sup>.

Punktuatsiya – tinish belgilari haqidagi fan. U matndagi gaplarning urg‘usini topishga, so‘zlarni gap mazmuniga mos ohangda, to‘g‘ri va aniq talaffuz qilishga yordam beradi. Shu bois, punktuatsion qoidalar sintaksisga bog‘lab o‘rganiladi.

Punktuatsiya (lotincha “punktum” – nuqta)ning ma’nosи nuqtalar ilmi demakdir, ushbu atama uch ma’noda qo‘llanadi: a) tinish belgilari tizimi va qo‘llanish qonun-qoidalarini o‘rganuvchi bo‘lim; b) punktuatsion qonun-qoidalar – me’yorlar yig‘indisi, to‘plami; v) tinish belgilari<sup>2</sup>. v.h.

### So‘z birikmasi va gap

Til jamiyatning eng muhim aloqa vositasi sifatida fikrni shakllantiradi, ifodalarydi, bayon qiladi. Fikr – gap orqali yuzaga chiqadi.

Gap haqida egallangan bilimlarni mustahkamlash, kengaytirishda, so‘z birikmasining ahamiyati beqiyos. So‘z birikmasi – gapda aniq bir yo‘nalishga ega bo‘lish, maqsadli fikrlash, qolaversa, gapning badiiy bo‘yog‘ini quyuqlashtirish, uni qiziqarli hamda mukammal holatga keltirish vazifasini bajaradigan hodisa. Shuning uchun so‘z birikmasidan gapning qurilish materiali sifatida foydalanish maqsadga muvofikdir. Bu esa o‘z navbatida talabaning fikrlash qobiliyatini faollashtiradi, fikr ifodasini tezlashtiradi. Buni aniq bir misol yordamida kuzatish mumkin.

Quyida sizga “So‘z birikmalari hosil qilish va ular yordamida gap tuzish” o‘quv topshirig‘ining an‘anaviy “berilgan so‘zlar ishtirotida gap tuzish” topshirig‘idan ijobjiy farq: leksik-semantik maydonning kengayishi, badiiy bo‘yoqdorlik darajasining ortib borishi, saralash va

1 Абдураҳмонов. Ҳ. Ўзбек тили грамматикаси (синтаксис) – Т.:Ўқитувчи, 1996, 4-бет.

2 Назаров. К. Ўзбек тили пунктуацияси – Т.: Ўқитувчи, 1976, 5-бет.

tanlash imkoniyatlarining ko‘pligi, talabaga “kashfiyotchilik huquqining” berib qo‘ylganligi, bu narsa DTSning asosiy talablaridan biri bo‘lgan “Ijodiy tafakkur sohibini”, nutqiy barkamol shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazishdek muhim va dolzarb masalaning lisoniy yechimi ekanini aniq ko‘rsatib beradigan o‘quv jadvali tavsiya qilindi. Bunday usulning ona tili metodikasida yangilik sifatida qabul qilinib, uzlusiz ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi foydadan xoli emas deb o‘ylaymiz.

### **So‘z birikmalari**

ertalabki quyosh, ko‘m-ko‘k barglar, nafis barglar, mayin shabbodada hilpirayotgan yam-yashil barglar, quyosh nurida, to‘lin oy nurida, ming bir rangda tovlanadi, jilvalanadi

### **Gap**

1. Barglar jilvalanadi
2. Bahorning mayin shabbodasida raqs tushayotgan ko‘m-ko‘k barglar quyosh nurida jilvalanadi.
3. Bahorning mayin shabbodasida raqs tushayotgan ko‘m-ko‘k barglar, ertalabki quyosh nurida erkalanib, ming bir rangda tovlanadi, jilvalanadi...v.h.

Jadval bo‘yicha dastlab so‘z birikmalarining qanday hosil qilinishini izohlash talab etiladi. So‘z birikmasi — hokim va tobe so‘zlardan iborat bo‘lib, predmet, belgi, ish-harakatni yanada aniqiroq tasavvur qilishga, gapni aniq bir yo‘nalishda maqsadli rivojlantirishga xizmat qiladi. Tizimli tilshunoslik fani til o‘qitish metodikasi uchun tavsiya qilayotgan, talaba (o‘quvchi) lug‘at zaxirasini boyitishga xizmat qiladigan “Leksikologiyada uyadoshlik hodisalari”, so‘z birikmasining gap mazmunini ochib berishdagи ahamiyati kabi ko‘rsatmalari o‘zbek tili metodikasi rivoji uchun nihoyatda qimmatlidir.

Jadvalda “Barglar jilvalanadi” yig‘iq gapi bilan “Ko‘m-ko‘k barglar quyosh nurida jilvalanadi” yoyiq gapini taqqoslash imkoniyati mavjud:

birinchi gapdagi nisbiy mavhumlik (qanday barg? nimaning bargi? nimada jilvalanadi?) ikkinchi gapda bartaraf etilgandek, gapning mazmuniy tugalligi, jozibasi oshgandek tuyuladi. Ammo bu narsa ham nisbiylik nazariyasiga asoslangan bo‘lib, ikkinchi gap, birinchisiga nisbatan, so‘z birikmalarini o‘rinli ishlatish hisobiga ancha mukammallahsgan. Chunonchi uchinchi gapdagi, badiiy bo‘yoqdorlik, nafislik, jozibadorlik darajasi, birinchi gapga, qolaversa, ikkinchi gapga nisbatan ham anchagina yuqori. Demak, uzlusiz ta’limda so‘z birikmalari hosil qilish ustida ishlash, o‘quvchini jadal fikrlash, ravon va bo‘yoqdor fikr ifodalashga yo‘naltiradi. O‘rinli, nutqiy vaziyatga mos holda tanlangan

so‘z birikmasi gap mazmunini ochib beradi. So‘z birikmasi ifodalananayotgan umumiy fikrni xususiylashtirishga, dalillarni aniqlashtirishga gap qurilishini jadallashtirishga xizmat qiladi.

2. “Gap bo‘laklari yuzasidan tahlil o‘tkazilganda, o‘quvchilar so‘zlarning o‘z ma’nosida va ko‘chma ma’noda ishlatilganligini fahmlay oladilar”<sup>1</sup>. So‘zlarning o‘z ma’nosini va ko‘chma ma’noda ishlatilganligi so‘z birikmasida aniqlanadi. U ham so‘z kabi predmet, ish-harakat va ularning belgisini ifodalash uchun xizmat qiladi, ham shu xildagi boshqa narsa, buyum, shaxs, belgi, ish-harakatlardan ajratib, fikrni so‘zga nisbatan aniqroq ifodalaydi:

nimani o‘qimoq?	xatni she’rni hikoyani uyda	o‘qimoq
qayerda o‘qimoq?	maktabda kutubxonada astoydil	o‘qimoq
qanday o‘qimoq?	ifodali to‘g’ri shoshilib sekin	o‘qimoq

O‘quvchilarning so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari haqidagi tasavvurlarini boyitish uchun ayrim ijodiy o‘quv-topshiriqlaridan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. Berilgan so‘z birikmalaridan otli, sifatli, ravishli, ravishdoshli birikmalarni ajrating.

2-topshiriq. Yuqoridagi so‘z birikmalari ishtiroy etgan gaplar tuzing. So‘z birikmalarining gapdan farqiga diqqat qiling.

3-topshiriq. So‘z birikmasini kelishikli birikmalar, ko‘makchili birikmalar qo‘srimchasisiz birikmalarga ajratish. Quyida so‘z birikmalari mavzusini takrorlash, egallangan bilim, ko‘nikma va małakałarni mustahkamlash, talabada og‘zaki nutq mahoratini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlardan namunalar berildi:

### Savol va topshiriqlar.

— So‘z birikmalarining nutqdagi o‘rnini va bajaradigan vazifasini tushuntiring.

<sup>1</sup> Омилхонова М. Мактабда содда тап синтаксисини ўрганиш. –Т.: Ўқитувчи, 1977.

- so‘z birikmasi bilan so‘zning o‘xshash tomonlarini aytинг.
- so‘z birikmasi bilan so‘z o‘rtasidagi farqni tushuntiring.
- so‘z birikmasi nimalardan tashkil topadi?
- so‘z birikmasidagi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini ta’riflang.
- so‘z birikmasida grammatik aloqa nima orqali ifodalanadi?
- so‘z birikmasida mazmuniy aloqa qayerda ko‘rinadi?.. v.h.

O‘qituvchining qat’iy, atroflicha o‘ylab va o‘quvchi bilim saviyasiga moslab tuzgan savollar tizimi, o‘quvchining faol va ongli faoliyat yuritishiga, javobni mustaqil , ilmiy uslubda tashkil qilishiga sabab bo‘ladi.

### **Gap. Gapning asosiy belgilari**

Gap axborot, xabar, so‘roq, buyruq va his-tuyg‘uni ifodalash uchun xizmat qiladigan sintaktik birlikdir.

Tilning ifoda vositalarini (so‘z, so‘z birikmasi va gap) o‘zaro qiyoslash, gapning asosiy belgilaridan biri tugallangan fikr ifodasini bildirishini uqib oladilar va xulosalaydilar.

“Gap grammatik, intonatsion va fikriy jihatdan bir butunlikka, nisbiy tugallikka ega bo‘ladi”<sup>1</sup>.

1. Gap tugallangan ohang ifodalashi haqidagi bilimni mustahkamlashda quyidagi matndan foydalansa bo‘ladi:

*Ro‘zaning hazm qilish sistemasiga ta’siri haqida to’xtalaylik: hazm qilish tizimining eng og ‘ir vazifalaridan biri — jigar faoliyati bilan bog‘liq, bunda jigar o‘n olti xil vazifani ado etadi...v.h.*

Gaplarni qiroat bilan o‘qing. Ularning chegarasini aniqlang. Zarur tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring... kabi topshiriqlarni to‘g‘ri bajarish orqali o‘quvchilar narsa va hodisalarni ularning belgilari, ular orasidagi o‘zaro bog‘lanishni tasavvur qiladilar, nisbiy tugallangan fikr nimaligini anglab yetadilar.

2. Gap nisbiy tugallangan fikr ifodalashini asoslash uchun gapning so‘z birikmasidan farqini ko‘rsatib o‘tish foydali.

<b>So‘z birikmasi</b>
Yoqimli musiqa
Mazali qovun
Ko‘p kitob

<b>Gap</b>
Musiqa yoqimli
Qovun mazali
Kitob ko‘p

1 Ўша китоб, 34-бет.

Birinchi ustundagi so‘z birikmalarida ohang ham, fikr ham mantiqan davom ettirilishi talab qilinadi.

Masalan: Yoqimli musiqa (dillarga halovat baxsh etardi). Ko‘p kitob (o‘qish foydali).

Ikkinci ustundagi gaplar – Musiqa yoqimli, Qovun mazali. Kitob ko‘p – mantiqan tugallangan fikr bo‘lib, so‘zlovchining musiqa, qovun, kitob haqidagi xulosasi aytildi. Fikrni davom ettirishga hojat yo‘qligi aniq ko‘rinib turibdi.

3. Gapning grammatic jihatdan shakllangan bo‘lishini bilishda so‘z birikmasidan so‘zlarning va gap bo‘laklarning o‘zaro bog‘lanishini – gapdagi so‘zlar qo‘shilmasini tushunish muhim o‘rin egallaydi. Talabalarning so‘z birikmasiga oid bilimlarini puxta egallab olishlari, gap, gap bo‘laklariga oid ma’lumotlarni mustahkam o‘zlashtirishlariga, mazkur bilim va ko‘nikmalarni o‘z nutqida to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash malakasini hosil qilishlariga zamin bo‘ladi.

4. “Gap – fikr bayon qilishning eng sodda shakli. Nutqdagi bundan keyingi bo‘linishlar undagi tugallangan ohang va tugal fikr ifodalash, aniqlik va xususiylikning yo‘qolishiga olib keladi”!

Yuqoridagi fikrlar va ilmiy tahlilga asoslanib, quyidagi xulosaga kelinadi:

Gap – aloqa aralashuvning muhim vositasi; u nisbiy tugallangan fikr bildiradi; grammatic jihatdan shakllangan bo‘ladi; tugallangan ohang bilan aytildi. Ammo bu xulosa tayyor holida berilmassdan, uni o‘quvchilarning o‘zi misollar tahlili orqali “kashf qilishsa”, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### **Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari**

Mazkur mavzuni o‘rganish jarayonida darak, so‘roq, buyruq, his-hayajon gaplar haqidagi bilimlar takrorlanadi, mustahkamlanadi; ularni gaplar oxiriga qo‘yiladigan tinish belgilariga asoslanib, ifodali o‘qish mashq qilinadi, “qiroat san’ati” haqida ma’lum tushunchalar beriladi.

Har bir gap o‘ziga xos va mos ohang bilan aytildi, yozuvda bunday gaplar oxiriga qo‘yiladigan tinish belgilari orqali farqlanadi.

Gapda so‘zlarni bir-biri bilan bog‘lashga xizmat qiladigan vositalar ustida ishslash uchun quyidagi gaplardan foydalanish mumkin:

1. Badiiy asar o‘qish (bilan) hordiq chiqaramiz. 2. Topshiriq o‘z vaqt (da) bajarildi. 3. Shahnoza shahar (ning) qurilishi (ni), u (ning) havosi (ni) maqtadi.

1 А. Фуломов, М. Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1965, 27-6.

## **Tahlil uchun topshiriq**

1. So‘zlarning bir-biri bilan qanday bog‘langanini aniqlang.

a) birinchi gapdagi yordamchi so‘z – bilan ko‘makchisi;

b) ikkinchi gap o‘rin payt kelishigi qo‘shimchasi yordamida bog‘langan;

v) uchinchi gap esa qaratqich va tushum kelishigi qo‘shimchalari vositasida bog‘langanligi aytildi.

Bu xildagi mashqlar o‘quvchini gap tuzishda kelishik, egalik qo‘shimchalari va yordamchi so‘zlarning rolini anglab olishga, so‘z birikmalari mohiyatini to‘g‘ri tushunishga, so‘z birikmasini so‘z qo‘shilmalari va gaplardan ajratishga o‘rgatadi.

Gaplar orqali xabar, biror ishni bajarishga undash, iltimos, fikrni aytishga da‘vat kabi ma’nolarni anglab olishda ohangning roli katta. Nutqni fonetik jihatdan shakllantiradigan, tashkil qiladigan melodika, urg‘u, pauza kabi ohang vositalari alohida sintaktik vazifani bajaradi. Ma’lumki, darak gap, so‘roq gap, buyruq gap va his-hayajon gapni hosil qilishda ularning mazmunigina emas, balki aytish ohangi ham muhim rol o‘ynaydi.

“Darak gaplar tinch, gap oxiriga tomon pasayib boruvchi ohang bilan aytildi, talaffuz, tezlik o‘rtacha bo‘ladi”<sup>1</sup>.

Birinchi sentabr. Mustaqillik bayramiga yig‘ilgan xalq, qiziqish va hayajon bilan tadbir boshlanishini kutmoqda. Mana, nihoyat, bayram namoyishi boshlandi: turli viloyat vakillari o‘z san’atlari bilan bayram qatnashchilarini xushnud qildilar.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq. Gaplarning ifoda maqsadi va tuzilishiga ko‘ra turini aytинг.

Ularning o‘qilish ohangiga diqqat qiling.

2-topshiriq. Yoyiq darak gaplardagi ega va kesim guruhlari orasida sintagma (qisqa to‘xtalish)ning o‘rnida tinish belgisi qo‘yilmasligi sababini aytинг.

Darak gaplar matnda ko‘p qo‘llaniladi. U bosiq ohang bilan o‘qilib, bosh qismida biroz ko‘tariladi, keyingi qismida pasayadi. Yoyiq darak gaplarda ega guruhi va kesim guruhi orasida qisqa pauza (to‘xtalish) bo‘lib, tovush pasayadi, ammo tinish belgisi qo‘yilmaydi.

So‘roqning mazmuni va ma’no tashish xarakteriga ko‘ra **sof so‘roq gaplar, ritorik so‘roq gaplar va so‘roq-buyruq gaplar** farqlanadi.

**Sof so‘roq gaplar** so‘roq bilan bir qatorda taajjub, gumon, shubha

<sup>1</sup> М. Омилхонова. Мактабда соддга gap синтаксиси. 47-48-бетлар.

bildiradi. Shu bilan bir qatorda tinglovchidan ma'lum javobni talab qiladi. Ritorik so'roq gaplar javob talab qilmaydigan gaplardir. Gap ichida uning javobi ham anglashilib turadi: Xalq orzusini to'la amalga oshirishda nimalarga ko'proq ahamiyat berish kerak? Xalq orzusini amalga oshirishdan katta baxt bormi? (O.) v.h. So'roq-buyruq gaplar buyruq ma'nosini ham o'z ichiga oladi: Bu kitobni, albatta, o'qib chiqish kerakdir-a? -a taajjub, so'roq yuklamasi yordamida ifodalanadi. O'quvchilar so'roq gaplarning so'roq olmoshlari, so'roq yuklamalari, so'roq ohangi yordamida hosil bo'lishini, ular ko'proq dialogik nutqda qo'llanishini tushunib olishlari zarur.

Mustaqil ish jarayonida sof so'roq gaplar, ritorik so'roq gaplar, so'roq-buyruq gaplarni tuzish, ularni ifodali o'qish, so'roq gaplarni o'zaro qiyoslash va farqlash, ular ishtirokida matn yaratish kabi ijodiy-amaliy ishlarni bajarish o'quvchilarni darak va so'roq gaplarni o'z nutqida to'g'ri va o'rinni qo'llay olish malakasini hosil qilishlarida samarali natija beradi.

**Buyruq gaplar** buyruq, maslahat, iltimos, ogohlantirish, chaqiriq, taklif, ruxsat etish, yalinish kabi ma'nolarga ega bo'lib, ularning ohangi darak gap ohangiga yaqin bo'ladi, qo'yiladigan tinish belgisi ham bir xil. Ayrim buyruq gaplar sof buyruq ma'nosini anglatmay, buyruq-iltimos, buyruq-yalinish, buyruq-istik, buyruq-maslahat, buyruq-nashihat, buyruq-ogohlantirish, buyruq-da'vat (undash), buyruq-ruxsat (yoki taklif) kabi emotsional ma'nolarni ifodalaydi<sup>1</sup>. Buyruq gapning kesimi, asosan, II shaxs buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanadi: O'tinni yor, kitobingni o'qigin... kabi.

Rasmiy nutqda buyruq gaplar majhullik nisbatidagi fe'l bilan ifodalanadi: Farmon bajarilsin.

Boshqa vositalar bo'lmaganda, buyruq gaplar faqat buyruq ohangi yordamida hosil bo'ladi, buyruq mazmuni II shaxsga qaratiladi: "...Darsingni tayyorla!" v.h.

**His-hayajon gaplar** shodlik, quvonch, sevinch, qo'rquiv, tantana, taajjub, qayg'u, afsuslanish kabi his-tuyg'ularni ifodalaydi, ko'tarinki ohangda aytildi, ayni shu xislati bilan u gapning maqsadga ko'ra boshqa turlaridan farq qiladi. 1. Eh, havo qanday musaffo! 2. Shahrimiz naqadar go'zal... 3. Milliy bog' – go'zal oromgoh!..

Darak va so'roq gaplarni his-hayajon bilan aytish orqali ham his-hayajon gap hosil qilinishi mumkin. G'oliblar keldi. G'oliblar keldi? G'oliblar keldi! Ushbu gaplarda xabar, so'roq, his-hayajon, sevinch

1 Қаранг: Назаров К. Тиниш белгилари ва ёзма нутқ, – Т.: Фан, 1974, 31-бет.

mazmuni, ohang yordamida o'zgaradi va bu o'zgarish yozuvda tinish belgilari vositasida ko'rsatiladi.

O'quvchilar amaliy ish jarayonida gapning maqsadga ko'ra turlari yuzasidan ijodiy-amaliy mashqlar, rivojlantiruvchi topshiriqlar bo'yicha mustaqil ishlar bajaradilar. Shu tariqa gaplardagi ma'no nozikliklarini to'g'ri anglash, talaffuz va yozuvda to'g'ri ifodalash borasida ko'nikma va malakalar hosil qiladilar.

Gap turlarini o'rganish jarayonida "Kesim gapning markazi" mavzusidan foydalanish yaxshi natija beradi. Gapning markazi(kesim)-zamon, shaxs-son, tasdiq-inkor ma'nolari bilan birikib kelgan so'z birikmasi ekanligi, sodda gap bir markazli qo'shma gap ikki va undan ortiq markazli gaplarga kiritilishini o'quvchilarga tushuntirish lozim bo'ladi. Mazkur mavzuni o'rganishda quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishga alohida ahamiyat beriladi<sup>1</sup>.

### **1. Zaruriy bilimlar:**

- Kesim gap markazi ekanligi;
- ega va qolgan bo'laklarning kesim atrofida birlashishi;
- faqat kesimdan iborat gaplarning ixcham gap ekanligi.

### **2. Zaruriy ko'nikma va malakalar:**

- gapning kesimi — markazini topish;
- kesimning gap qurilishidagi ahamiyati haqida xulosa chiqarish;
- ixcham (faqat kesimdan iborat) gaplarning egasini tiklash;
- sodda yig'iq gaplar (men keldim)ni sodda yoyiq gap (men bugun uya keldim)larga aylantirish;
- kesimdan so'roq berib gapni kengaytirish;
- sodda yoyiq gaplardan iborat kichik matn hosil qila olish v.h.

Gap turlarini o'rganishda berilgan ixcham gaplardan sodda yig'iq gap, sodda yoyiq gap, boshlanish qismi berilgan gaplarni davom ettirish, ularni teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida qo'shma gaplarga aylantirish, qo'shma gaplarni sodda gaplarga aylantirish, qo'shma gapli matnni sodda gapli matnga aylantirish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Kesimning qaysi so'z turkumiga mansubligi, uning tarkibidagi zamon, tasdiq-inkor, shaxs-son ma'nolarini ifodalovchi vositalar mavjudligini aniqlash, kesim haqidagi bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi va shakllantiradi.

<sup>1</sup> Тошев И. М. Умумталим мактабларида қўшима таҳнининг янтича талқини. дисс. авторефарати.  
— Т.: 1999, 10-бет.

## Gap bo'laklari

Ega mavzusini o'rganishda kesimning gapda markaziy bo'lak bo'lib kelishi izohlanadi. Bu borada qator mashqlarni bajarish mumkin. Xususan:

- bajarilgan harakatning egasi (bajaruvchisi, belgi sohibi)ni tiklash: Keldim, men keldim;

- uning qaysi so'z turkumiga mansubligini aniqlash; (men — olmosh);
- berilgan gaplarda gapning kesimi va egasini topish: Bolalar maktab hovlisida o'ynaydilar. Mazkur gapda ega ot so'z turkumi orqali ifodalan-gan bo'lib, turdosh, aniq, III shaxs ko'plik, bosh kelishikda kelgan.

Bundan tashqari, eganing so'z birikmasi, kengaytirilgan birikmalar orqali ham ifodalanishi misollar vositasida ko'rsatilishi zarur: Oq oltin o'z vaqtida yig'ib-terib olindi. Yosh bolali ayollar, keksalar ham paxta terimiga chiqdilar. Bu gaplardagi "oq oltin" — (paxta ma'nosida) so'z birikmasi "Yosh bolali ayol" — kengaytirilgan birikma holida ega vazifasida keladi.

Kesim mavzusini o'rganish jarayonida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalar mustahkamlanadi, takrorlanadi va quyidagi mashq va ijodiy topshiriqlar bilan rivojlantiriladi:

- kesimning fe'l, sifat, oddan tashqari son, olmosh, ravish, ibora, ajralmas birikma bilan ifodalanishi: Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarma;

- fe'l kesim, sodda va murakkab ot kesim va ularning ifodalanishi; Dadam bizdan g'oyatda xursand bo'ldilar.

- sodda ot kesim tarkibida bog'lamaning qo'llanishi: Bu mening Vatanimdir;

- nutqda kesimning turlaridan o'z o'rnida foydalana olish (egallangan bilimlarni mustahkamlash maqsadida berilgan misollar qiyoslanadi).

Kesim mavzusini o'rganishda sodda fe'l-kesim bilan murakkab fe'l-kesimni qiyosiy tasnif qilish, shakli va mazmunini farqlash, o'quvchilar kommunikativ savodxonlik darajasining oshishiga, chiroyli va ravon so'zlash va matn yaratish mahoratining yuksalishiga sabab bo'ladi.

Quyida sodda va murakkab kesimlarni ajratish va tasnif qilish yuzasidan misollar berildi:

1. Inson ilmi va odobi bilan sharaflanadi.

2. Inson ilmi va odobi bilan sharaflanishi darkor.

Birinchi gapdagi kesim sharaflanadi — sodda kesim hisoblanadi; ikkinchi gapdagi sharaflanishi darkor — ikki mustaqil komponentdan iborat. Demak sodda va murakkab kesimlarni so'zlar miqdoriga qarab osongina aniqlash mumkin. Fe'l kesimning tuzilishini bayon qilishda murakkab fe'l kesim yetakchi va ko'makehi fe'l bilan ham ifodalanishiga e'tibor qaratilishi mumkin.

**Murakkab ot-kesim:** murakkab ot-kesimning qanday so'z bilan

ifodalanishi, uning tarkibida bog'lamaning qo'llanishi; shuningdek, bunday ifodadagi bog'lama tushirilganda, ega va kesim orasida tirening ishlatilishiga urg'u berish maqsadga muvofiqdir. Bu borada qator ijodiy-amaliy topshiriqlarni amalga oshirish mumkin:

1. Sabr tagi – **sariq oltin**. 2. Muzaffar **va'dasiga vafo qildi**. 3 Dildora **eshikni ochib kirdi**. 4. Poyonsiz dalalar **oq libos kiydi**. 5. Samimiylaytilgan so'z **yurakka borib yetadi**.

Ushbu gaplardan kesimlar aniqlanib, ularning sodda va murakkabligi (**ochib kirdi**, **vafo qildi**, **sariq oltin**), shuningdek, ibora orqali (oq libos kiydi, yurakka borib yetadi) ifodalanishi haqida xulosa chiqariladi. Shu bilan birga kesim ot bilan ifodalanganda, bog'lama yo kesimlik qo'shimchasi bo'lmasa, yozuvda egadan so'ng tire (—) qo'yilishi, kishilik olmoshi bilan ifodalangan egani alohida ta'kidlab ko'rsatish, kerak bo'lsa, egadan keyin tire (—) qo'yilishi (**Sen — yetim emassan!**) ta'kidlanadi.

Murakkab kesim tarkibida bog'lamining qo'llanishi va uning tushirilishiga doir mustaqil ijodiy-amaliy mashg'ulotlar o'tkazish ham sintaksis va punktuatsiyaga oid bilimlarni mustahkamlash bilan birga nutqiy malakani shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili ta'limi — o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, erkin va ijodiy fikrlash darajasini yuksaltirishni bosh maqsad qilib qo'ygan ekan, bu murakkab ishni gap sinonimiyasi ustida ishlaymay turib, amalga oshirib bo'lmaydi. Shu sababli sodda va qo'shma gaplarning ma'nodosh qatorini tuzish, uning tarkibidagi bog'lovchi vositalarni muqobilari bilan almashtirish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish juda foydali.

Gap bo'laklari mavzusini o'rganishda ega va kesim munosabatlari ustida alohida to'xtalish maqsadga muvofiqli.

Bunday ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarning ega va kesim haqidagi bilimlari mustahkamlanadi, kengayadi, fikrlash faoliyati rivojlanadi, nutqi shakllanadi.

### **Ikkinci darajali bo'laklarni o'rganish**

Ikkinci darajali bo'laklarni o'rganish talabalarning muayyan grammatik bilimga ega bo'lislilarini talab qiladi. Ikkinci darajali bo'laktarga oid mavzular talabalarning so'z birikmasi, tobe so'zlarning bosh so'zga bog'lanishi haqidagi bilimlarini takrorlash va mustahkamlash bilan boshlanishi mumkin. So'ng to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol haqidagi bilimlar tizimiga o'tiladi. **To'ldiruvchi** mavzusi yuzasidan quyidagi ishlar bajarilishi maqsadga muvofiqli:

— berilgan gaplardan to'ldiruvchilarni ajratish;

— to'ldiruvchi va uning ifodalanishini izohlash, uning so'roqlari ustida ishslash; so'z, so'z birikmasi, kengaytirilgan birikma va gap bilan ifodalanishi ustida amaliy ishlar;

— so'z birikmasi bilan ifodalangan to'ldiruvchili gaplarda yordamchi so'zlar, ularda tinish belgilarning ishlatilishi, ularni kengaytirilgan birikmalar bilan almashtirish ustida ishslash:

To'ldiruvchi o'zi tobe bo'lgan gap bo'lagiga boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi. To'ldiruvchi haqidagi bilimlar, fe'l kesimga bog'langan to'ldiruvchili va to'ldiruvchisiz gaplarni o'zaro qiyoslash orqali qulayroq izohlanishi mumkin<sup>1</sup>.

1. Litsey direktori tabrikladi.

2. Litsey atrofi tozalandi.

3. Daraxt taglari yumshatildi.

1. Litsey direktori o'quvchilarini tabrikladi.

2. Litsey atroflari chiqindilardan tozalandi.

3. Daraxt taglari *bel va ketmonlar bilan* yumshatildi.

Chap va o'ng tomondagi gaplar qiyoslangach, talabalar fikrni to'laroq ifodalash uchun yordam berayotgan o'quvchilarini, chiqindilardan, *bel va ketmonlar bilan* so'zlarini fe'l kesimga bog'lanib, kimlarni? nimalardan? nimalar bilan? so'roqlariga javob berayotganini aniqlaydilar: *Qarorni yozish Gulchehraga topshirildi*.

Demak, to'ldiruvchi — kesim, hol va boshqa gap bo'laklariga boshqaruv usuli bilan bog'lanib, uni to'ldirib keluvchi bo'lak, deb xulosa chiqariladi. To'ldiruvchilar harakat bilan predmet orasidagi munosabat xarakteriga ko'ra ikki turli bo'ladi: **vositali va vositasiz to'ldiruvchi**.

Gaplarni tahlil qilish orqali harakat bevosita o'ziga o'tgan predmetni bildirib, o'timli fe'l bilan bog'lanadigan, tushum kelishigidagi so'z bilan ifodalangan gap bo'lagi vositasiz to'ldiruvchi sanaladi. Vositasiz to'ldiruvchilar kimni? nimani? qayerni? so'roqlariga javob beradi: *To'g'ri so'z toshni yoradi, egri so'z boshni yoradi. Ekinni erta ekkan, hosilni erta o'rар*.

O'quvchilar mazkur gaplarda *toshni*, *boshni*, *ekinni*, *hosilni* so'zlarini o'timli fe'llar bilan bog'langani, nimani? so'rog'iga javob bo'lishini aniqlaydilar.

Vositasiz to'ldiruvchi so'zlovchi va tinglovchiga avvaldan ma'lum bo'lgan narsa-buyumni anglatganda, tushum kelishigidagi so'z belgisiz, umuman ifodalanganda, bosh kelishik shaklida qo'llanadi: 1. Elbek

<sup>1</sup> Қарант: А. Фуломов, Х. Нематов. Она тили таълими мазмуни.

qiziqlarli **kitob** o'qidi. 2. Shahzod ariq bo'yiga **charxpalak** o'rnatdi. 3. Otabek məktəb hovlisiga **ko'chatlar** o'tqazdi. 4. Tinglamasa o'zgalar agar, O'z-o'zimga **she'r** o'qiyman men. (*A. Oripov*)

Mazkur gaplardagi kitob, charxpalak, ko'chatlar, she'r so'zleri tushum kelishigi qo'shimchasisiz, bosh kelishik shaklida qo'llangan. Tushum kelishigi qo'shimchasi ba'zan she'riyatda -n shaklida uchrashi mumkinligi quyidagi to'rtlik bilan eslatiladi:

Kapalakning uchishin uzoq

Kuzatdim ham yurdim ortidan.

To'rtlikda to'ldiruvchi "uchishin" holatida berilib, -ni qo'shimchasi -n shaklida yozilgan. Bu o'zgarish she'riyat, bo'g'inlar sonining oshib ketmasligi talabi bilan bo'lgan.

Harakat o'ziga o'tgan predmetni emas, balki harakatga boshqa biror yo'l bilan bog'langan predmetni bildirib, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi so'z yoki ko'makchili birikma bilan ifodalaydigan bo'lak vositali to'ldiruvchi ekanini, kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kimda? nimada? kim bilan? nima bilan? so'roqlari vositali to'ldiruvchiga tegishli bo'lishini aniqlash o'quvchilar uchun qiyin bo'lmaydi.

Darsni mustahkamlash uchun beriladigan ijodiy-amaliy ishlari bilan bir qatorda o'quvchilarga bayon yoki o'qilgan kitobga taqriz, ilmiy-ijodiy matnlari yaratishni tavsiya qilish yaxshi natija beradi.

**Aniqlovchi** haqida avvaldan o'rganilgan bilimlarni xotirlash, takrorlash va mustahkamlash maqsadida quyidagi so'roqlarga javob olinadi:

— Aniqlovchi deb nimaga aytamiz?

— Aniqlovchi necha turga bo'linadi?

— Aniqlovchi qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

1. Gapdag'i biror bo'lakning belgisini yoki bir narsa-buyumning boshqasiga qarashli ekanligini bildirgan ikkinchi darajali bo'laklardan biri aniqlovchidir.

Masalan: 1. *Halol* ish — *lazzatli* yemish. 2. *Odamning* husni mehnatda.

Mazkur misollarda *halol*, *lazzatli*, *odamning* aniqlovchi vazifasida kelib, ish, yemish, husni so'zlariga tobelanish yo'li bilan bog'langani aniqlanadi. Birinchi gapdag'i *halol*, *lazzatli* — sifatlovchi aniqlovchi, keyingi gapdag'i *odamning* qaratqich aniqlovchi bo'lib keladi.

"Aniqlovchi" mavzusini o'rganishda quyidagi amaliy-ijodiy topshiriqlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

**1-topshiriq.** So'z birikmalarida tobe va hokim so'zni aniqlash ("halol ish" -halol-tobe so'z, ish — hokim so'z), hokim so'zdan tobe so'zga so'roq berish orqali aniqlovchili birikmalar hosil qilish, ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalananayotganini aniqlash.

**2-topshiriq.** Gapdan qaratqichli va ifodalovchili birikmalarni ajratib, izohlang.

**3-topshiriq.** Sifatlovchi aniqlovchining sifat, son, olmosh, ravish, sifatdosh, ot (narsa-buyum materialini bildiruvchi ot) bilan ifodalanishi yuzasidan amaliy-ijodiy mashg'ulotlarni tashkil qiling va bajaring.

**4-topshiriq.** Aniqlovchining belgili va belgisiz kelishi holatlarini izohlang.

**5-topshiriq.** Aniqlovchining so'z birikmasi, kengaytirilgan birikmalar bilan ifodalanishiga, ular tarkibidagi nisbiy so'zlar va tinish belgilaringishlatilishiga e'tiborni qarating.

**6-topshiriq.** Aniqlovchi vazifasida kelgan gaplarni kengaytirilgan birikmalar bilan almashtiring va v.h.

**Sifatlovchi aniqlovchi.** qanday?, qanaqa?, qaysi?, qancha?, nechanchi?, necha?, qayerdag'i?, kabi so'roqlarga javob bo'lishi, sifatlovchi-sifatlanmishga bitishuv yo'li bilan bog'lanishi, ularning qaysi so'z turkumlari orqali ifodalanishini aniqlash topshiriladi.

**Qaratqich aniqlovchi.** Kimning?, nimaning?, qayerning?, so'roqlariga javob bo'lib, qaratqich-qaralmish moslashuvida birikadi: Alisher Navoiy(ning) haykali. O'zbekiston(ning) bahori kabi. Mazkur birikmalarda qaratqichdan qaralmish alohida turganida -ning qo'shimchasining tushib qolishi aniqlanadi: Bu tovushlar rasadxona tolibi ilmlarining sharpasiz odimlariga o'xshamas, siohlarning betakalluf qadamlarini eslatardi.(O.Y.)

Ko'ngildagi muhabbatning uchqunin,

Xayolimning bir burchida berkitdim.

Ul uchqunning kuchligidan siynamda

Hech tuzalmas, og'ir yara bor etdim. (Ch.)

Gaplarni mustaqil tahlil qilish, qaratqich va qaralmishni o'rganish jarayonida o'quvchilar shunday xulosaga kelishlari lozim:

— qaratqich va qaralmish orasida boshqa gap bo'laklari bo'lganda, qaratqich qo'shimchasi (-ning) saqlanadi;

— shaxs, narsa-buyum umumiylikni bildirganda, qaratqich qo'shimchasi tushirib qoldiriladi;

— qaratqich qator kelganda, ularning ba'zisi tushirib qoldiriladi; Akademik litsey(ning) uchinchi kurs(ining) talabalarining ota-onalar(ining) yig'ilishi bo'ladi. Diyorimiz(ning) bahorining fayzi o'zgacha kabi.

### Izohlovchi

Izohlovchi – aniqlovchining alohida ko'rinishi. Unda aniq ma'noni bildiruvchi turdosh ot – izohlovchi, umumiyligi ma'noni bildiruvchi ot izohlanmish bo'ladi. Izohlovchilar unvon, kasb, laqab, qarindoshlik,

o'xshatish, taxallusni bildiradi, ular orasiga ko'pincha chiziqcha qo'yiladi: injener-texnolog, ona-diyor, ijodkor-o'qituvchi kabi.

Gazeta, jurnal, korxona, muassasa kabilarning nomini bildirgan atoqli otlar ham izohlovchi bo'lib, ular atoqli otlar bilan ifodalananmasa, qo'shtirnoqqa olinadi: "Ma'rifat" gazetasi, "Sanam" jurnali, "Kamolot" tashkiloti kabi.

Xulosa qilib aytganda, aniqlovchi aniqlanmishning belgisini bildirishi, aniqlanmishdan oldin kelishi, izohlovchi esa izohlanishdan oldin yoki keyin kelib, izohlanmishdan anglashilgan predmet ma'nosining aniqlanishini va izohlanishini bilib oladilar. Bunday ijodiy topshiriqlar ustida ishlash jarayonida o'quvchilar nafaqat so'z boyligini oshirish, balki so'zni o'z o'mida, chiroyli ifodalash ko'nikmasini ham egallaydilar.

### Holni o'rganish usullari

Holni o'rganish u haqidagi bilimlarni hosil qilish, mustahkamlash, takrorlashdan boshlanadi. Holni aniqlashda matnda ajratilgan so'zlarning qaysi gap bo'lagi bo'lib kelganligini kesimdan so'roq berib aniqlash, bu so'zlarning harakatga nisbatan o'rin, payt, miqdor, sabab va maqsadni o'xshatish va chog'ishtirish, harakatning bajarilishi tartibini ifodalovchi so'zlar kabi guruhlarga ajratish, mazkur so'zлarni ma'nodosh va uyadosh so'zlar bilan almashtirish orqali hol ma'nosini o'zgartirish va sharhlash.

Masalan: Qo'zg'olonda butun xalq: o'zbek, rus, qozoq, yahudiy qatnashadi. Oltin sirg'alardek shoda uzumlar:

Husayni, sohibi, charos, so'limlar

Quyoshda tovlanur sharbatga to'lib... (G. G'ulom)

Tadbirga yoshlari, keksalar, ayollar — barcha qatnashdi.

Tinish belgilarining ishlatilishiga oid quyidagicha chizmalar asosida ishslash, chizgiga muvofiq gaplar tuzish, uyushiq bo'laklar hamda umumlashtiruvchi so'zlar haqida olingan bilimlarni mustahkamlash, tinish belgilarini to'g'ri va o'z o'rnida ishlatish malakalarini egallahsga yaxshi yordam beradi.

### Uyushiq bo'laklarda tinish belgilari

1. Vergul qo'yilmaydi.

\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_ ham \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_ hamda \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_ bilan \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_ yo \_\_\_\_\_

2. Vergul qo'yiladi:

\_\_\_\_, \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_, ammo \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_, lekin \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_, biroq \_\_\_\_\_  
emas, \_\_\_\_\_

yoki _____	-da,
-u(-yu) _____	yoki _____, yoki _____
	ba'zan _____, ba'zan _____
na _____, na _____	
goh _____, goh _____	
ham _____, ham _____	
bir _____, bir _____	
yo _____, yo _____	

**Umumlashtiruvchi so‘z – uyushiq bo‘lak; uyushiq bo‘laklar – umumlashtiruvchi so‘z**

O'quvchilarning umumlashtiruvchi so'z va uyushiq bo'laklarga oid bilimlarini mustahkamlashda quyidagi o'quv topshiriqlaridan foydalanish mumkin:

- umumlashtiruvchi so‘zning o‘rnini o‘zgartirib, gapni qayta tuzish;
  - xususiy tushunchalarni anglatadigan so‘z topib, umumlashtiruvchi so‘zli gaplar tuzish;
  - umumlashtiruvchi so‘zli uyushiq bo‘lakli gaplar ishtirokida matn yaratish...v.h.

Mazkur mavzuni o'rganish o'quvchilarda badiiy asarlarni o'qishga qiziqish uyg'otadi, shuningdek, yozuvchining tili, uslubiga tilshunos ko'zi bilan qarashga o'rgatadi, ularda til faktlarini ajrata bilish ko'nikma va malakalarini hosil qiladi.

#### Ajratilgan bo‘lakli gaplarni o‘rganish

Ajratilgan bo‘laklar bir tushunchaning ikki xil nomidir. U o‘zidan oldingi bo‘lakni izohlaydi (Akademik litseyda tajribali o‘qituvchilar, ya’ni o‘z kasbini e’zozlovlchilar saboq beradi). Uyushiq bo‘laklar bir necha shaxs yoki narsa-buyum, belgi, harakat-holatni ifodalaydi (Nodira bilan Salima dars tayyorladilar).

**Ajratilgan to'ldiruvchi** o‘zidan oldingi to‘ldiruvchini izohlab keladi. To‘ldiruvchi *tashqari, boshqa, o‘rniga, bilan, birga* kabi so‘zli birikmalar bilan ifodalanganda ham ajratiladi: Sinf rahbari sinfboshiga, Dilbarga, vazifani tushuntirdi. 2. Opam, ishslash *ilan birga*, magistraturada o‘qishni davom ettirmoqda. 3. Dono, *Barnoga qaraganda*, balandroq. Birinchi gapdagi (Dilbarga) ajratilgan to‘ldiruvchi, sinfboshiga so‘zini izohlash uchun qo‘llangan, ikkinchi gapda harakatning qo‘sishma ma’nosini (ishslash bilan birga) anglatish, uchinchi gapda ajratilgan to‘ldiruvchi (*Barnoga qaraganda*) chegaralash, ajratish ma’nosini anglatadi.

Bunday to'ldiruvchilar og'zaki nutqda ohang, yozuvda vergul bilan ajratiladi.

Ajratilgan aniqlovchi **ajratilgan qaratqich aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi, ajratilgan izohlovchi** turlariga bo'linadi.

Sifatlovchi aniqlovchi gapdag'i biror bo'lakning belgisini bo'rttirib, ma'no ahamiyatini kuchaytirib ko'rsatish uchun ajratiladi. Bunda sifatlovchi bilan sifatlanmish tartibi o'zgaradi: *Alisher Navoiy, buyuk alloma, o'zining butun umrini xalq farovonligi, mamlakat obodonligiga sarfladi.*

Ajratilgan qaratqich aniqlovchi o'zidan oldin kelgan qaratqich aniqlovchini izohlash, uning ma'nosini aniqlashtirish uchun qo'llanadi: *Nigoraning, ajoyib raqqosaning, raqslarini tomoshabinlar qizg'in olqishladilar.* Ajratilgan izohlovchilar izohlanmishdan keyin kelib, uning ma'nosini aniqlash, biror xarakterli tomonini ko'rsatishga xizmat qiladi: *O'tsimon o'simlik, yalpiz, ko'proq ariq bo'yida o'sadi.*

Xulosa qilib aytganda, ajratilgan aniqlovchi, aniqlanmishning belgisini aniqlash, bo'rttirish uchun ishlatiladi.

Talabalarning bilimlarini mustahkamlashda, ifodali o'qish, tinish belgilaringning qo'llanilishini tushuntirish, sintaktik va punktuatsion topshiriqli ijodiy-amaliy ishlarni bajarish, ular anglatgan ma'no nozikliklarini sharhlash kabi usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

### **Undalmani o'rganish**

Undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildirishini o'quvchilarga eslatish, tegishli gaplar asosida izohlash maqsadga muvofiq bo'ladi: M: *Ioda, darsingni tezroq tayyorlagin. Quyosh, nuringni ayamay sochaver! Ey mehribon padar, nasihatlariningizni unutmayman.*

Mana, oppoq bo'lib gulladi o'rik,

Hamid Olimjonning armonlari, u.

*Murod Shams!* Mehringiz qo'msaydi yoshlik,

Ayub G'ulom ruhi qalblarda mangu.

O'quvchilar berilgan gaplar va to'rtlikni o'qib, tahlil qilish orqali quyidagicha xulosaga keladilar:

— undalma aytilayotgan fikr qaratilgan shaxsni bildirib, tinglovchi diqqatini tortish uchun ishlatiladi.

— undalma, asosan, shaxs otlaridan, badiiy asarlarda esa (ko'proq she'riyatda, xalq og'zaki ijodida) jonli va jonsiz predmet nomlari ham undalma vazifasida keladi va badiiy tasvir, jonlantirish, tinglovchi ruhiyatiga ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladi: *Shamol!* Qudrating-la bulutlarni quv. *Yoshlar,* sizlarni ulug' ishlar kutadi.

Undalma gap o'rtasida kelganda, ma'no urg'usi olmaydi, u tez va pastroq tovushda aytildi, to'xtalish qisqaroq bo'ladi: *Sizlarni, yoshlar, ulug'ishlar kutadi*.

Undalma gap oxirida kelganda, birinchidan, kuchli, hayajonli fikr bilan bog'liqligini, ikkinchidan, fikrning tartibi, nihoyat tasdiq va inkorni bildiradi.

Berilgan gaplarda undalmalar *ishonch* va *tasdiq* (albatta), *gumon* (taxminimcha), *shodlik* va *achinishning* (baxtimizga, afsuski), *fikrning biror kimsaga qarashliligi* (aytishlaricha), *oldingi fikr bilan bog'liqligi* (umuman olganda), *fikr tartibi* (avvalo, birinchidan, nihoyat), *tasdiq yoki inkor* (ha, yo'q, mayli) kabi ma'nolarni bildirib, asosan modal so'zlar bilan ifodalaniishi haqida ma'lumot beriladi.

Shuningdek, kirish so'z yo birikma gap boshida, o'rtasida oxirida kelishi, ular vergul bilan ajratilishi ham aytildi.

**Kirish gap:** so'zlovchining o'z fikriga bildirgan mundasabatini anglatib, asosiy fikrni to'ldirish... izohlash uchun ishlatiladi. Ular vergul, qavs, tire bilan ajratilishi o'qituvchi tomonidan o'quvchilar yodiga solinadi va quyidagi gaplarni o'qib, tahlil qilinadi:

Ona farzandlarini maqtamasa-da (maqtanish unga yot edi), ular bilan ich-ichidan faxrlanardi. Kuzning ba'zi belgilariga ko'ra (Ernazar akaning aytishicha), bu yil chilla qattiq kelarmish.

Kirish bo'laklar haqidagi bilimlarni mustahkamlash maqsadida amaliy-ijodiy mashqlar bajarish, ular ishtirokida gaplar qurish, gap tarkibidagi so'zlarning o'rnnini almashtirib ko'tish, o'quvchini nasriy va nazmiy shakllar, inversiya hodisasi bilan yaqindan tanishtiradi, yozma nutq malakasini shakllantiradi.

### **Qo'shma gaplarni o'rganish**

Qo'shma gap sintaksisini o'rganish talabalarning nutqiy taraqqiyotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, fikrni nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini, madaniy nutq malakalarini shakllantiradi va rivojlantiradi.

Darsliklarimizda qo'shma gaplar talqini anchayin murakkab. U ikki va undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik shakl va ohang asosida birikuvidan tuziladi. Uning tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan bog'lovchilar, yuklamalar, ko'makchilar, nisbiy so'zlar, fe'l shakllari va ohang orqali bog'lanadi.

Ona tili o'qitish metodikasida qo'shma gaplarni o'rganish yuzasidan an'anaviy darslikdagi mashqlar, savol va topshiriqlar 1950-yillarda

shakllantirilgan va hozirgi kunga qadar amalda qo'llanilayotgan dastur va darsliklar talablari doirasida qolib ketgan edi.

Mazkur o'quv qo'llanmada o'zbek tilshunosligining so'nggi yillarda qo'lga kiritgan yutuqlariga tayangan holda qo'shma gaplarni:

1. Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
2. Yuklama vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
3. Teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
4. Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar.
5. Nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar kabi yangi tasniflarga asoslanib o'rghanish tavsiya etilmoqda.

"Kesim – gap markazi" degan talqinni o'quvchilar ongiga singdirmay turib, qo'shma gaplar tasnifini puxta o'rghanib bo'lmaydi.

Bunda kesimdan so'roq berish orqali gapni kengaytirish usullari, sodda yoyiq gaplardan uyushiq bo'lakli gaplar hosil qilish; sodda gap juftlaridan teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida qo'shma gaplar qurish; ulardan foydalanib, turli mavzularda kichik matnlar yaratish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlardan unumli foydalanish orqali o'quvchi ongiga qo'shma gaplar tuzish yuzasidan, zaruriy ko'nikma va malakalarni singdirish lozim. Quyida kesimdan savol berib gaplarni kengaytirish usuli bilan ishlashga yo'naltiruvchi mustaqil ishlardan namunalar beramiz:

Namuna: *O'qidi.(Kim o'qidi?) Oybek o'qidi. Oybek kutubxonadan olgan kitobni qiziqib o'qidi(qaysi kitobni o'qidi?). U hikoya o'qishni yaxshi ko'radi (nimani yaxshi ko'radi?). Oybek kitobni qiziqib o'qidi, chunki u hikoyalar o'qishni yaxshi ko'radi (Nima uchun kitobni qiziqib o'qidi?).*

### **Bog'lovchisiz qo'shma gaplar**

Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar — qo'shma gapning bog'lovchisiz yoki grammatik vositalarsiz tarkib topishidir.

Masalan: Qorlar eridi, havo yorishib ketdi. Yaxshi o'g'il yedirar, yomon o'g'il pand berar (maqol). Barvaqt qilingan harakat, hosilga berar barakat (maqol).

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar o'z tarkibidagi sodda gaplarning mazmun munosabatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. *Qizlar olma terishdi, yigitlar olma joylangan yashiklarni mashinaga joyladilar. Qo'ng'iroq chalindi, dars boshlandi.* Bunday ko'rinishli sodda gaplar mazmunidan harakat, voqeа-hodisaning bir paytda yoki ketma-ket yuz berishi anglashiladi.

2. *Davlat tugar, bilim tugamas (maqol). Gapni oz so'zla, ishni ko'p ko'zla (maqol).* Maqollarda to'plangan mol-u dunyoning sarf qilinganda tugab qolishi, egallangan bilimlar esa tugamasligi, umrning oxirigacha

o‘z sohibiga xizmat qilishi; oz so‘zlab, ko‘proq ishlash dono kishiga xos fazilat ekani ta’kidlanadi.

Hozirgi ona tili ta’limi yoshlarning nutqiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishni bosh omil deb hisoblar ekan, qo‘shma gap sinonimiyasi ustida doimiy ravishda amaliy-ijodiy ishlash talab etiladi:

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishini o‘rganish, bunday gaplarni og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli qo‘llash malakalarini mustahkamlaydi.

1. Voqeа-hodisalarning bir paytda, ketma-ket yuz berishini ifodalagan bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari zidlanish yoki qiyoslash mazmunida ifodalansa, ular orasiga tire (—) qo‘yiladi:

Masalan: *Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘ (maqol). Yaxshidan ot qoladi, yomondan isnod (maqol).* 2. *Qo‘shning tinch — sen tinch* gapi shart ma’nosini anglatса, ...barcha savollarga javob berdim, o‘qituvchi yuqori baho qo‘ydi gapi — natija mazmunini bildirib keladi. *Barchamiz ter to‘kib ishlagan edik, hosil mo‘l bo‘ldi,* gapi esa nima uchun hosil mo‘l bo‘lganligi sababini tushuntirib, ta’kidlab kelgan.

O‘quvchilar mazkur gaplar ustida ishlash jarayonida qo‘shma gaplarning ikkinchi qismi shart, sabab, natija, to‘siqsizlik mazmunini anglatishi mumkinligini bilib oladilar: *Onaning yuragi shuv etib ketdi: eshik taqillayotgan edi.* Ikkinci gap birinchi gapdagи biror bo‘lak ma’nosini izohlasa ham birinchi gapdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: *To‘g‘risi shu: bog‘dagi mevalarni tezroq yig‘ib olish kerak.*

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari qiyoslanish, zidlanish ma’nolarini bildirganda, bog‘langan qo‘shma gap shart, sabab, natija bildirganda, ergashgan qo‘shma gaplarga sinonim bo‘lib keladi: Qo‘shning tinch bo‘lsa, sen tinch bo‘lasan. To‘g‘risi shuki, bog‘dagi mevalarni tezroq yig‘ib olish kerak.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar sinonimiyasi va uslubiyati ustida ijodiy-amaliy topshiriqlar bajarish jarayonida ikki nuqta yoki tirening ishlatilish sabablarini aniqlash; ohang bilan bog‘langan gaplardan foydalanib, ijodiy matnlar yaratish, mavzu yuzasidan egallangan BKMLarni mustahkamlash, ularni amaliyotda qo‘llab ko‘rish yaxshi natija beradi.

### **Yuklama vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar**

Ushbu mavzuni o‘rganishda, “Yuklama” mavzusi yuzasidan egallangan BKMLar qisqa takrorlanadi. Buning uchun:

1. *Biz Vatanimizni sevamiz. Uning tarixini yaxshi bilmog‘imiz lozim.*
  2. *Qo‘ng‘iroq chalindi. Mashg‘ulotlar boshlandi.*
  3. *Soy yoqalab biroz yurdik. Yo‘l o‘ngga burildi, gap juftlari beriladi.*
- Mustaqil ish sifatida berilgan sodda gaplardan -mi, -da, -u(-yu), -ku

kabi yuklamalar vositasida qo'shma gaplar tuzish vazifasi topshiriladi:  
1. Biz Vatanimizni sevamizmi, uning tarixini ham bilmog'imiz kerak.  
2.Qo'ng'iroq chalindi-yu, mashg'ulotlar boshlandi. 3.Soy yoqalab biroz yurdik-da, yo'l bo'ylab o'ngga burildik.

O'quvchilar berilgan matnlardan faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarni ajratish, shu gaplarni yuklamalar vositasida bog'lab ko'rish, ma'noda yuz bergen o'zgarishlarni sharhlash kabi ijodiy-amaliy ishlarni bajarish orqali qo'shma gap haqida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkamlanishiga erishadilar.

Mazkur mavzuni o'rganishda ham asosiy e'tibor o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ikki sodda gapni bir necha yuklama vositasida bog'lab, qo'shma gap hosil qilish, vergulni o'rinni qo'llash, yuklamalarni imlo qoidalariga muvofiq yozish, o'qilish ohangiga e'tibor berish talab qilinadi.

### Teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gap

Mavzuni o'rganishda o'quvchilarga badiiy matnlardan teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplarni topish, izohlash, teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar tuzish, ularni ma'nodoshi bilan almashtirish, teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar yordamida matn tuzish singari ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish havola qilinadi: Namuna:

#### **Qissadan hissa.**

*Donolarning aytishicha, uch guruh kishilar bilan do'stlik yo'lini tutish maqsadga muvofiqdir.*

*Birinchisi – ilm ahli bo'lib, ular o'z hayotlarini ilm-u odob bilan o'tkazgan va hayotning barcha achchiq-chuchugini totgan bo'ladilar.*

*Ikkinchisi – baxtiyor tabiatli, saodatmand kishilar bo'lib, ular o'z do'stlarining ayblarini odamlardan yashiradilar va hech qachon oshkor qilmaydilar. Xilvatda do'stdan sodir bo'lgan xatolarni yuzlariga aytib beradilar va ulardan hech bir nasihatlarini ayamaydilar.*

*Uchinchisi – beg'araz va beta'ma kishilar bo'lib, ularning do'stliklari haqiqiy bo'ladi, biror foyda topish evaziga qurilmagan bo'ladi. Xursandchilikda birga bo'lgandek, qayg'u-kulfat chog'larida ham hamisha yoningda bo'ladi. Ularga doimo suyanish, orqa qilish mumkin.*

(Abdulbarakot Qodiriy)

Ko'm-ko'k osmonni qora bulutlar qoplaydi, beozorgina tog' shamoli borgan sari zo'rayadi, qurigan ravoch barglari bir-biriga uriladi. Talabaish baxshi kuylayotgan qadimiy afsonalarni zavq bilan tinglaydilar hamda

unga Avesto tarixiga doir savollar beradilar. Shohida dugonasining gaplarini sabr-qanoat bilan eshitdi, ammo yupatuvchi bir so'z demadi.

### **Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma otlar**

Mavzuni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar e'tiboriga sodda gap juftlari beriladi. Ulardan ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida qo'shma gaplar tuzish so'raladi:

1. *Bahor keldi. Qushlar issiq o'lkalardan qaytib kela boshladidi.*

2. *Gulchehra chet tillarini o'rghanishni yaxshi ko'radi. U rus va ingлиз tillarida yaxshi gapiradi.*

*Namuna: Bahor keldi, shuning uchun qushlar issiq o'lkalardan qaytib kela boshladilar...*

Mavzuni o'rghanishda bog'lovchi vositalarni ma'nodoshi bilan almashtirish, ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplardagi ma'noviy munosabatni aniqlash, ulardan o'rinli foydalanish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlar beriladi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar, sodda gaplarning mazmuni jihatidan birining boshqasiga ergashishidan tuziladi:

"Siz tilagingizga yetasiz, chunki orzuyingiz yuksak, qalbingiz toza" gapida ikki sodda gap biri ikkinchisining mazmunini izohlaydi. Bu gapning mazmunini yanada tiniqlashtirish uchun uning sinonimini misol tariqasida keltirish mumkin: *Orzuyingiz yuksak, qalbingiz toza bo'lgani uchun ham siz tilagingizga yetasiz.*

Qo'shma gaplarni o'rghanishda gap sinonimiysi ustida ishslash uning mazmunini to'liq tushunishga, nutqni ravon, rang-barang hamda jozibador qilishga yordam beradi. Badiiy matnlarni lisoniy tahlil qilish, undagi qo'shma gaplarning qanday yo'l bilan tuzilganini sharhlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirishi bilan birga nutqiy mahoratning risoladagidek shakllanishiga yordam beradi.

### **Nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar**

Bu mavzuni o'rghanishda ham o'qituvchi tomonidan tanlab berilgan yoki o'quvchilar tomonidan tuzilgan sodda yig'iq va sodda yoyiq gap juftlaridan nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar tuziladi.

1. *Mashinalar qatnovi yaxshilandi. Ko'chalar kengaytirildi – Mashinalar qatnovi yaxshilansin deb, ko'chalar kengaytirildi.*

2. *Qayerda intizom yaxshi bo'lsa, u yerda obodonchilik ham bo'ladi.*

3. *Kim ko'p mehnat qilsa, u hurmatga sazovor bo'ladi.*

O'quvchilar gaplarni tahlil qilish orqali nisbiy so'zlar (**qaysi, shu, kim, o'sha, qayerda, shu yerda, deb** kabi) bog'langan qo'shma gaplarni hosil qilishda muhim rol o'ynashini bilib oladilar. Bunda nisbiy so'zlar fikrni, mazmun va maqsadni aniq ifodalash imkonini berayotganini anglab yetadilar.

Nisbiy so'zli qo'shma gaplarni ma'nodoshi yoki zid ma'nosi bilan almashtirish, nisbiy so'zli maqol va hikmatli so'zlar ustida ishlash, ulardag'i so'zlarning o'rmini va o'zini (ma'nodoshiba) almashtirib ko'rish, hosil qilingan gaplar, hikmatlar ishtirokida matn yaratish kabi ijodiy-amaliy ishlar bajariladi: *Shunday inson haqida xabar keltirdimki, uning har bir so'zi beabajo gavhardir.* (Oybek)

Men shunday komil (fozil, donishmand, valene'mat, solih, fasih, oliynasab) inson birla tanishmoq baxtiga musharraf bo'ldimki, ul zotning har bir kalomi olmosdek keskir, yoqutdek bebahodir.

### Murakkab sintaktik butunlik

Qo'shma gapning bu turi asosan ilmiy va badiiy adabiyotlarda qo'llaniladi, ko'proq, taqriz, bayonnama, tavsifnama, annotatsiya, kirish, muallif so'zi, xulosa, ilova qismlarida uchraydi. U uch va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro birikuvidan tarkib topadi:

*Unga aytинг, men aslo o'lgаним yo'q,*

*Yov qo'liga taslim ham bo'lgаним yo'q,*

*Men elimning yuragida yashayman,*

*Erk deganning tilagida yashayman.* (H. Olimjon)

Murakkab sintaktik butunlik tarkibidagi sodda gaplar ergashish, bog'lanish, aralash holatlarda qo'llaniladi:

*Qo'ng'iroq chalindi, zalga tomoshabinlar yig'ildi, biroq tadbir kechroq boshlandi. Mana bu kanal bitsa, yangi yerlar ochiladi, bog'-rog'lar barpo etilgach, mevalar ham ko'p bo'ladi.*

Berilgan gaplar ohang, (ketma-ketlik) grammatik vositalar yordamida bog'langan.

Mustaqil sintaktik butunliklar qatnashgan badiiy matnlarni tahlil qilish, qanday usullar yordamida tuzilganini sharhlash, shunga o'xshash gaplar tuzish, matnlar yaratish kabi ijodiy-amaliy topshiriqlarni bajarish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, nutqiy salohiyatini shakllantirishga yordam beradi.

### O'zgalar nutqini ifodalash usullari

Nutqda ko'chirma va o'zlashtirma gap, dialog va ko'chirma shaklidagi boshqalar fikridan yozma va og'zaki foydalanish holatlari ham ko'plab

uchraydi. Mazkur holatlar tilshunoslikda “Ko‘chirma va o‘zlashtirma gap” mavzusi ostida o‘rganiladi.

Ko‘chirma gapda o‘zgalarning gapi hech qanday o‘zgarishsiz beriladi. Ko‘chirma gap tarkibi ko‘chirilgan va muallif gaplaridan iborat bo‘lib, *dedi, aytdi, deb so‘radi, deb javob berdi, gapirdi, so‘zladi* kabi fe’llar bilan muallif gapining kesimi ifodalanadi.

Ko‘chirma gapda ko‘chirilgan gapning muallif gapiga nisbatan o‘rniga ko‘ra, tinish belgilarining ishlatalishi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Ko‘chirilgan gap muallif gapidan oldin kelsa, undan keyin vergul va tire qo‘yiladi. Agar ular so‘roq va undov ma’nolarini bildirsa, so‘roq, undov belgilari qo‘shtirnoq yopilmasdan qo‘yiladi. “*Biz hasharda astoydil mehnat qildik*”, — *dedi Nodir*.

“K.gap”, —m. “K.gap?” —m.

2. Ko‘chirma gap muallif gapidan keyin kelsa, ikki nuqta qo‘yiladi. Ko‘chirma gapning mazmuniga ko‘ra nuqta, so‘roq yoki undov belgisi qo‘yilib, qo‘shtirnoq yopiladi.

M: “K.gap”.

3. Muallif gapi ko‘chirilgan gap ichida kelsa, tinish belgilarining ishlatalishi quyidagicha bo‘ladi:

1. Muallif gapi o‘rtada kelganda, ikki tomondan vergul va tire bilan ajratiladi: “*Yosh avlodga, — dedi o‘qituvchimiz, — kitob xuddi maktab kabi zarur*”.

“K.gap,—m.g, —k.g.”

2. Ko‘chirilgan gapning uzilib qolgan qismida nuqta qo‘yilgan bo‘lsa, tire, muallif gapidan so‘ng vergul va tire, ko‘chirma gap so‘ngida nuqta qo‘yilib, qo‘shtirnoq yopiladi. “*Men konsert tugashi bilan chiqib, kiyimlarni olaman, — dedi Alisher, — momaqaldiroq gumburlab, chaqmoq chaqdi, jala quyadiganga o‘xshaydi*”.

“K.g. , —m.g. , —k.g.”.

3. Ko‘chirilgan gapning uzilib qolgan qismi so‘roq yoki his-hayajon gap bo‘lsa, muallif gapidan avval so‘roq yoki undov belgisi, tire (?!, !, —), muallif gapidan keyin nuqta va tire qo‘yilib, ko‘chirma gap davomi bosh harf bilan boshlanadi: “*Tevarak-atrofda hech kim yo‘qmi? — so‘radi qiz. —Soy tomonda bo‘lishsa kerak*”.

“K.gap? — m.g. — k.g.”.

4. Ko‘chirilgan gap o‘rtada kelganda muallif gapidan so‘ng ikki nuqta (:)qo‘yilib, qo‘shtirnoq ochiladi, ko‘chirma gap (so‘roq yoki undov gap bo‘lsa, tegishli belgi qo‘shtirnoq ichida)dan keyin vergul va tire qo‘yilib, muallif gapining davomi yoziladi: *Ustoz*: “*Sen qaysi badiiy kitoblarni o‘qib chiqding?*” — *deb so‘radilar*.

M: "K.g?" — m.

5. Ko'chirma gaplar dialog tarzida ifodalanganda, gap oldidan tire qo'yiladi. Bunda muallif gapi ishlatilmaydi:

- *Yotoqxonada turasizmi?*
- *Ha.*
- *Yolg'izmi?*
- *Yo'q, uch kishimiz.*

**O'zlashtirma gap** qo'shma gapning shakli o'zgartirilib, mazmuni saqlangan holda muallif gapiga singdirib berilgan holati bo'lib, **so'roq, buyruq, istak** mazmuni, darak gap shaklida beriladi. O'zlashtirma gap, ko'chirma gapga -ligimni, -ligini (aytdi...) kabi qo'shimchalarni qo'shish orqali hosil qilinadi.

Odatda, ko'chirma gap muallif gapi bilan qo'llangan fikrni asoslash, tasdiqlash yoki inkor etish uchun keltiriladi. Bunday ko'chirmalar e'tirof tarzida qo'llanilib, qo'shtirnoqqa olinmaydi.

She'riy qatorlar ham ko'chirma shaklida qo'shtirnoqqa olinmaydi.

Mazkur mavzuni mustahkamlashda dialog, monolog kabi parchalarni yod olish, rollarga bo'lib o'qish, ularni qatnashtirib matnlar tuzish yaxshi natija beradi, tinish belgilarini o'z o'rnidida qo'llash ko'nikma va malakalari shakllantiriladi.

## Ona tili darslarini tahlil qilishning namunaviy rejasি

Dars tahlilida birinchi navbatda uning maqsadiga alohida e'tibor berish lozim. Darsda qanday maqsadlar qo'yiladi?

1. Dars og'zaki yoki yozma nutqqa oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

2. Dars turli til sathlarini (fonetika, tilning lug'at tarkibi, morfologiya, sintaksis) o'rganishni mo'ljallashi;

3. Dars ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni qamrab olishi mumkin.

Ayni dars boshqa darslar bilan aloqadorlik darajasiga ko'ra ham farq qiladi. Bu jihatdan uning mavzuni ochib berishga yoki davom ettirishga, yakunlashga qaratilganligi ajratiladi.

Tahlil jarayonida darsning tegishli fan dasturiga muvofiq yoki muvofiq emasligi ham ko'rsatilishi kerak.

Shundan keyin darsning tuzilishiga e'tibor qaratish o'rini bo'ladi.

Darsning boshlanishi alohida e'tiborga molik qismidir. Bunda:

- o'qituvchining dars rejasini, mavzusini bayon qilgan, qilmaganligi;

- darsdan oldin fikriy mashg'ulot o'tkazgan-o'tkazmaganligi;

- darsni o'tish uchun ijodiy, ishchi muhitini yaratib olgan-olmaganligi;

- o'quvchilar bilan umumiy til muhitini yaratib ulgurgani-ulgurmaganligi kuzatiladi, baholanadi.

O'qituvchining uy vazifalariga munosabati ham tahlilning muhim bandini tashkil etadi. Bunda o'qituvchining:

- o'quvchilardan guruh bo'yicha so'rashni amalga oshirganligi;

- o'quvchilar bilan alohida ishslashni uddalay olganlik darajasi;

- o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarga munosabati, ularni tasnid va tahlil qilish darajasi e'tiborda bo'ladi;

- uyga berilgan vazifa va topshiriqlarning bajarilishini baholash-baholanmasligi tahlil qilinadi.

Shundan keyin yangi mavzuning bayoni tahlil qilinadi. Bunda:

O'qituvchining yangi mavzuni o'zaro muloqotda, hamkorlikdagи ishslash tarzi, matnlar, dialoglar, ijodiy topshiriqlardan foydalana olish mahorati;

- til birliklarining ma'nolarini yoritishda ularning amaliyotdagи qo'llanishiga e'tiborning mavjud yoki mavjud emasligi;

- yangi mavzuni bayon etish jarayonida texnik, audio va video vositalardan, doskadan, darslik va boshqa qo'shimcha material va ko'rgazmali quollardan foydalanish darajasi ko'rsatiladi.

Darsni mustahkamlash jarayoniga oid qismda esa o'qituvchining an'anaviy va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasi, matn bilan ishlash, darslik bilan ishlash, ko'rgazmali qurollar va boshqa materiallar bilan ishlashning samaradorlik darajasi, matn mazmunining o'quvchilar qiziqishiga ta'sir ko'rsatgan-ko'rsatmaganligi, ularning bahs va munozaralarga omil bo'lgan-bo'limganligi, o'quvchilarning o'rganilgan materiallardan o'z nutqlarida foydalana olish darajasi tahlil qilinadi.

### **Darsning yakuniy qismi.**

Bunda o'qituvchining darsga yakun yasagani yoki xulosa qilmaganligi, uning bundan keyingi dars jarayonini tashkil etishga omil bo'lgan-bo'limgan, o'quvchilarini rag'battantirishning tafovutlashgan shakllaridan foydalanish darajasi, bunda har bir o'quvchining o'ziga xos jihatlarini e'tiborda tuta olish salohiyati ko'rsatib o'tiladi.

Ona tili darslarini tahlil qilishda dars jarayonidagi ish shakllariga ham e'tibor berish kerak bo'ladi. Bunda frontal – ommaviy, guruhli, juftliklar bilan ishlash, zanjirli tizimdagagi hamda individual ishslash nazarga olinadi.

O'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi, o'quvchi-darslik, o'quvchi-doska, o'quvchi-rasm va topshiriqlar, o'quvchi – texnik vositalar, o'quvchi – kompyuter tizimining amal qilish jarayoni kuzatiladi.

Dars tahlilida darsga ajratilgan vaqt taqsimotining samaraliligiga ham e'tibor qaratish kerak. Bunda:

- dars qismlariga (tashkiliy qism – uy vazifasini tekshirish – yangi materialni bayon qilish – mustahkamlash – tashxislash – faollashtirish – nazorat – yakun);
- o'qituvchi va o'quvchilar nutqiga ajratilgan qismlarga;
- vaqtadan samarali foydalanish darajasiga urg'u beriladi.

Dars tahlilida o'qituvchining alohida xususiyat va fazilatlari ham e'tiborda bo'lishi kerak. Xususan:

- sinfda ijodiy, ishchi muhitini yarata olishi;
- sinf bilan bevosita muloqot darajasi;
- o'z o'quvchilarini yaqindan bilishi;
- dars bayonida o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini nazarda tutishi;
- nutqning namunali va ta'sirchanligi;
- nutqda xayrixohlik, yoqimlilik ohanglarining mavjudligi;
- o'quvchilarining bilish faoliyatini boshqara olishi;
- o'qituvchida humor hissining mavjudligi, o'quvchilarini hurmat qilishi v.b.

Tahlil davomida o‘quvchilarning faoliyot darajasi, darsga qiziqishlari, mustaqil va ijodiy fikrlashga moyilliklari, o‘qituvchining nuqtayi nazariga hurmat va e’tiborlari ko‘rsatiladi.

Albatta, har bir darsda qo‘yilgan maqsadga erishilgan – erishilmaganligini ko‘rsatish mazkur darsga berilgan yakuniy baho bo‘lishi kerak.

Taniqli pedagog N.P.Kapustin to‘g‘ri ta’kidlaganidek:

“Dars samaradorligi deganda biz uning har bir bolaning intellektual ravnaq uchun foydalilagini tushunamiz”<sup>1</sup>. Ayni shu muallif dars samaradorligining mezonlari sifatida bir qator ko‘rsatkichlarni tavsiya etadi. Ular:

1. Butun dars davomida har bir o‘quvchining faol fikrlash faoliyati.
2. O‘quvchining o‘zi va boshqalar faoliyatiga emotsiyal aloqadorligining ta’minlanganligi.
3. O‘quvchining darsdagi bilish faoliyatining motivatsiyasi.
4. Butun dars davomidagi faoliyati jarayonida o‘quvchining munosabati va o‘z-o‘zini nazorat qila olishi.
5. Darsda mustaqil ish va ijodiy topshiriqlarning mavjud bo‘lishi.
6. Bilimlarning to‘la o‘zlashtirilganligi bahosi.
7. Dars maqsadlariga erishish<sup>2</sup>.

O‘ylaymizki, tahlil jarayonida bu ko‘rsatkichlarga e’tibor berish tahlilning xolis va atroficha bo‘lishini ta’minlaydi.

1 Капустин Н. П.Педагогические технологии аддитивные школы. Москва, ACADEMIA, 2001, с. 29.

2 Там же, с. 29-34.

## OTLARNING YASALISHI

## MORFOLOGIK USUL

**Shaxs otini  
yasovchi**

Ot +

-chi, -xon  
-dosh, -soz  
-don, -dor  
-kash, -kor  
-shunos...

**O'r-in-joy otini  
yasovchi**

-zor, -loq  
-iston, -goh  
-xona, -obod

**Mavhum ot  
yasovchi**

-ch  
-lik  
-liq

**Narsa-buyum  
otini yasovchi**

-chak  
-gich  
-g'ich  
-qich  
-qi, -oq

## SINTAKTIK USUL

**Qo'shma otlar**

bog'bon  
kilobxon  
sinifdosh  
tilshunos  
suratkash

**sifat+ot**

paxtazor  
Gulliston  
choyxona  
mirzaobod

**ot+fe'l**

quvonch  
yaxshilik  
otaliq

**son+ot**

belanchak  
purkagich  
suzg'ich  
ochqich...

**Juft otlar**

yer-ko'k  
kecha-kunduz  
yor-do'st  
iskabtopar  
toblabotar

**fe'l+fe'l**

toshbaqa  
tog'olcha  
qo'iqop

**Olinma  
so'zlar**

oqqush  
oqsosol  
Orta Chirchiq  
koksulton

**Qisqartma  
otlar**

uchburchak  
qiraqluoq  
mingbuloq

## SINTAKTIK USUL

**Juft otlar**

yer-ko'k  
kecha-kunduz  
yor-do'st  
iskabtopar  
toblabotar

**fe'l+fe'l**

toshbaqa  
tog'olcha  
qo'iqop

**Olinma  
so'zlar**

oqqush  
oqsosol  
Orta Chirchiq  
koksulton

**Qisqartma  
otlar**

uchburchak  
qiraqluoq  
mingbuloq

**sifat+ot**

quvonch  
yaxshilik  
otaliq

**ot+fe'l**

o'rimbosar  
molboqar  
besiktervatar

**son+ot**

uchburchak  
qiraqluoq  
mingbuloq

**avtoyo'l  
aviabo'llinma**

**BMT  
RMT  
GuIDU  
O'ZMU**

**Teleradiokompaniya**

## SIFATLARNING YASALISHI

MORFOLOGIK  
USUL

SODDA SIFATLAR

-chil, -aki,  
-li, -al, -xo'r,  
-y, -viy,  
-chan, -simon,  
-dosh, -ser,  
-ba, -don

OT

horg'in, toshqin,  
kuyunchak,  
erimchoq,  
hurkovich,  
topqir,  
bilag'on,  
trishqoq, yetuk

FE'L

SINTAKTIK  
USUL

QO'SHMA SIFATLAR

SIFAT+SIFAT

OCH+KO'Z, QORAQOSH

RAVISH+FE'L

TEZOTAR, TOBLABOTAR


TAKRORIY SIFATLAR

shirin shirin, do'mboq do'mboq,  
qisqa-qisqa, tolim-tolim...


JUFT SIFATLAR

katta-kichik, yosh-qari,  
qing'ir-qiyshiq, yakka-yagona


## SIFATNING MA'NO GURUHLARI



## SON HAQIDA MA'LUMOT



## OLMOSH HAQIDA MA'LUMOT



RAVISHLARNING YASALISHI

MORFOLOGIK USUL

MORFOLOGİK USUL

## 1.Ravish yasovchi qo'shimchalar bilan

Sodda ravishlar yasalishi

-cha:	o'zgacha, yangicha
-larcha:	do'stlarcha, otalarcha
-chasiغا:	yigitchasiga, dehqonchasisiga
-siga:	yalpisiga, birontasiga
-ona, -vor:	mardona, ustuvor
-ligicha:	yangiligicha, soddaligicha
-lab:	o'nlab, ko 'plab
-an:	taxminan, rasman
-lay (in):	triklay, butunlay
-siz, -be:	to 'xtovsiz, beixtiyor
-chang:	sarpoychang, ko'yakchan
-inchä:	aksinchä, o'q'rimcha

Qo'shma ravish		
olmosh	u yoqq bu yerg shu yero	har vac hammi birday, h vaqt, b necha, talay, v.
+ ravish		
	belgilash va bo'lishsizlik olmoshi, son+ravish	allava allaqa ...
		gumon olmoshi+ravish

Qo'shma ravish	u yoqq bu yerg shu yerd
olmosh + ravish	

1. So 'zlar ni qo'shib ravish yasash

Juft ravish

u yozqa, bu yerga, hu yerdä...	tub ravishlar	har vaqt, hamma, iday, hech vaqt, bir necha, bir alay, v.h.	ot va olmoshning ko'chishi	yaqin ma'noli so'zlardan	zid ma'noli so'zlardan
asta-sekin, bugun-erta, qishin-yozin	oya-yilda, unda-bunda	esson-oman ochiq-oqydin, to'la-to'kis	erta-kech, ochin-to'qin, kecha-kundu		

! Sodda ravishlar boshqa so'z turkumlardan ravish yasovchi qo'shimchalar yordamida yasaladi.

! Juft va takroriy ravishlar chiziqcha bilan yoziladi: asta-sekin, nari-beri

## FE'L HAQIDA MA'LUMOT

### Bo'llishli va bo'llishsiz fe'llar

- 1.Bo'llishli: keldi, kelyapti, keladi.
- 2.Bo'llishsiz: -ma, -emas, yo'q, na  
sözlari orqali ifodalanadi: kelmadni,  
kelmayapti, kelmaydi, yozmoqchi  
emas...

### FE'L

- Tuslanish  
(shaxs va sonda)
- 1.keldim, keldik
  - 2.kelding, keldingiz
  - 3.keldi, keldilar

### O'timli va o'timsiz fe'llar

- 1.O'timli: tushum kelishigidagi so'zga  
bog'lanadi: o'qidi(kitobni), ko'rди(Karimni)
- 2.O'timsiz: tushum kelishigidagi  
so'zni bog'lay olmaydi

### FE'l zamoni

- Nima qildi?  
Nima qilgan edi?  
Yozgan edi. Keldi.  
O'qib chiqdi.  
Ko'rib qoldi.  
Kulib yubordi.

Nima qilyapti?

- Nima qilmoqda?  
Nima qilayotir?  
Yozayotirman.  
Kezmoqdaman.

Nima qizmoqchi?

- Nima qilasani?  
Bormoqchiman.  
Borasani. Borursiz.  
yot, tur, qo'y, ol,  
o't, qo'sh...v.h.

### FE'l mayallari

- 1.Xabar mayli uch zamonda  
bo'ladi: bordi, boryapti, boradi.
- 2.Buyruq-istak mayli: -ay, -gin,  
-sin, -aylik, -ingiz, -sinlar  
qo'shimchalari yordamida  
yasaladi: bilay, sezsin, o'qillyik,  
kelsinlar.

3.Shart mayli:-sa: kelsa, o'qisa,  
yo'qsa.

- 4.Maqсад mayli: -moqchi:  
kelmoqchi bo'ldim, yozmoqchi  
bo'lyapman, bormoqchiman.


### FE'l nisbatlari

- 1.Aniq nisbat: o'qiydi, yozdi.
- 2.O'qlik nisbat: -n, -l, -in, -il;:  
sevindi, faxlandi, o'yandidi.
- 3.Majhui nisbat: tokildi, to'plandi,  
ochildi, olindi.
- 4.Birgalik nisbat: -sh, -ish: yozishdi,  
terishdi, to'plashdi.
- 5.Ortirma nisbat: -t, -lir, -ir, -ar, -  
iz, -giz, -qiz, -sat, -dir...  
ovut, oldir, oshir, keltir, qaytar,  
yurg'iz, o'tkaz, ko'rsat...

### FE'l nisbatlari

- 1.O'timli: tushum kelishigidagi so'zga  
bog'lanadi: o'qidi(kitobni), ko'rди(Karimni)
- 2.O'timsiz: tushum kelishigidagi  
so'zni bog'lay olmaydi

# FE'LLARNING TUZILISHI



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida”. — T.: 1997.
- Karimov I.A. “Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis sessiyasida so‘zlagan nutqi. — T.: 1999-yil 29-avgust.
- Karimov I.A. “Milliy mafkura — kelajak poydevori”. — T.: 2000.
- Asqarova M va boshq. “Ona tili” (5-sinf uchun darslik). — T.: 1996.
- Abdurahmonov G‘. Punktuatsiya o‘qitish metodikasi. — T.: 1968.
- Bobokalonov R, Ne’matova G. Ona tili o‘qitishning yangi texnologiyasi haqida. — T.: 1998.
- “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. “Ma’rifat”, 1987-yil 30-avgust.
- O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonun, 1989.
- Ziyodova T.U. “Hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish”. O‘quv-metodik qo‘llanma. Akademik litseylar uchun. — T.: 2002.
- Ziyodova T.U. “Ona tilidan rangli proyekcion slaydlar komplekti” 1-qism. — Samarqand, 2001.
- Ziyodova T.U. “Ona tilidan rangli proyekcion slaydlar komplekti” 1-2-qismlar. — Samarqand, 2002.
- Ziyodova T.U. “O‘qituvchi kitobi”. Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. — T.: 2002.
- Ziyodova T.U. “O‘zbek tilidan repetitor kitobi”. Abituriyentlar, o‘quvchi va o‘qituvchilar uchun o‘quv qo‘llanma. — T.: 2004.
- Ziyodova T.U. 5-sinflar uchun elektron-didaktik slaydlar to‘plami. — Guliston, Toshkent, 2006.
- Ziyodova T. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish. — T.: “O‘qituvchi”, 2000.
- Nazarova S. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” (O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi talabalar uchun qo‘llanma sifatida tavsiya etgan). “O‘qituvchi”, 1992.
- Mahmudov N., Nurmonov A., Ahmedov A., Solixo‘jayeva. “O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi”. — T.: “Fan”, 1992.
- Mahmudov N., Nurmonov A. “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi” — T.: “O‘qituvchi”, 1995.
- Mahmudov N., Nurmonov A. va boshq. “Ona tili” 5-7-sinflar, 9-sinf. — T.: “Ma’naviyat”, 2004-2006.
- Mahmudov N., To‘xliev B. “O‘zbek tilini o‘rganamiz” rasmlli lug‘at.
- Rahmatullaev Sh. va boshq. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”. — T.: “O‘qituvchi”, 1995.

Shamsiyeva M. O‘rta maktablarda uyushiq bo‘lakli gaplarni o‘rgatish. Qo‘llanma. — T.: 1991.

Shamsiyeva M. So‘z turkumlarini sintaksis asosida o‘rganish. Ilmiy-metodik to‘plam. — T.: 1993.

Shamsiyeva M. Ajratilgan II darajali bo‘lakli gaplarni o‘rgatish. Ilmiy metodik to‘plam. — T.: 1993.

Rahmatullaev Sh. “O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi” — T.: “Universitet”, 1999.

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuniga sharhlar”. — T.: “O‘zbekiston”, 1999.

# M U N D A R I J A

Kirish.....	3
O'zbek tilini o'qitish metodikasi o'quv, ilmiy hamda amaliy fan sifatida.....	10
O'zbek tili o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.....	12
Birinchi qism. O'zbek tili o'qitish mazmuni.....	10
O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi va vazifalari.....	12
O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining ilmiy taddiqot usullari.....	15
O'zbek tili o'qitish metodikasining qisqacha tarixi.....	16
O'zbek tili o'qitish prinsiplari.....	22
Ilmiylik va tushunarllilik prinsiplari.....	24
Tizimlilik va izchillik prinsiplari.....	24
Mustaqillik va faollik prinsiplari.....	25
Ko'rsatmalilik prinsiplari.....	26
Onglilik prinsiplari.....	31
O'zbek tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari.....	35
O'zbek tili o'qitish metodlari.....	37
Muammoli ta'limda o'qituvchi va talaba faoliyati.....	39
Ona tili ta'limida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.....	40
Zamonaviy dars turlari va shakllari.....	41
Til mashg'ulotlarini rejalashtirishda o'quvchi — ta'lim — o'qituvchi tizimiga asoslanish.....	43
Ona tili o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar.....	46
"O'quvchi — ta'lim — o'qituvchi" tizimida o'zaro hamkorlik munosabatlari.....	47
Ona tili dasturi va darsliklari haqida.....	48
Ona tili o'qitish metodikasida fanlararo aloqa.....	51
Til o'qitish metodikasida qiroat san'ati.....	55
Ona tili darslarida maqollar, topishmoqlar, hikmatli so'zlardan foydalanish.....	57
So'z haqida hikmatlar.....	60
Ikkinci qism. Ona tilining izchil kursini o'rganish.....	61
Fonetikani o'rganish metodikasi.....	61
Leksikologiyani o'rganish metodikasi.....	66
So'zlarning shakl va ma'no munosabatlari ko'ra turlari.....	69
Zid ma'noli so'zlar ustida ishlash.....	74
Shakldosh so'zlar ustida ishlash.....	76
Paronim so'zlar ustida ishlash.....	77
Ibora va tasviriy ifodalar ustida ishlash.....	80

Grammatikani o'rganish usullari.....	82
Morfologiyani o'rganish metodikasi.....	83
Morfologiyani o'rganishda uyadoshlik hodisasi va uning ahamiyati.....	84
Lug'at ustida ishlash.....	85
So'z turkumlarini o'rganish.....	87
Morfologik tahlil namunasi.....	89
Aniq va mavhum otlarni o'rganish.....	90
Atoqli va turdosh otlar.....	91
Otlarda egalik qo'shimchasi.....	93
Otlarning yasalishi mavzusi ustida ishlash.....	95
Otlarning tuzilishi va imlosi ustida ishlash.....	96
Sifat so'z turkumini o'rganish.....	100
Son so'z turkumini o'rganish.....	105
Ravish so'z turkumini o'rganish.....	106
Fe'l so'z turkumini o'rganish.....	109
Fe'llarning ma'noviy guruhlarini o'rganish.....	110
Fe'l zamonlarini o'rganish.....	112
Fe'llarning tuslanishi.....	115
Fe'l nisbatlarini o'rganish.....	115
Fe'llarning vazifadosh shakllari.....	117
Fe'llarning yasalishi.....	119
Olmosh so'z turkumini o'rganish.....	122
Yordamchi so'z turkumlari.....	125
Ko'makchi.....	125
Bog'lovchi.....	128
Yuklama.....	129
Alohidha so'z turkumlari.....	131
Modal so'zlar.....	131
Undov so'zlar.....	132
Taqlid so'zlarni o'rganish.....	133
Sintaksis va punktuatsiya o'qitish metodikasi.....	134
Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.....	139
Gap bo'laklari.....	142
Ikkinchchi darajali bo'laklarni o'rganish.....	144
Uyushiq bo'laklarda tinish belgilari.....	149
Ajratilgan bo'lakli gaplarni o'rganish.....	149
Undalmani o'rganish.....	150
Qo'shma gaplarni o'rganish.....	151
Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.....	152
Yuklama yositasida bog'langan qo'shma gaplar.....	154

Teng bog‘lovchilar vositasida bog‘langan qo‘shma gap.....	154
Ergashtiruvchi bog‘lovchilar vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar.....	155
Nisbiy so‘zlar vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar.....	156
Murakkab sintaktik butunlik.....	156
O‘zgalar nutqini ifodalash usullari.....	157
Ilovalar.....	158
Foydalaniilgan adabiyotlar.....	170

B.TO‘XLIYEV, M.SHAMSIYEVA, T.ZIYODOVA

# O‘ZBEK TILI

# O‘QITISH METODIKASI

Muharrir:

*Behbud Botirov*

Dizayner:

*Bahodir To‘xliyev*

Texnik muharrir:

*Nodir Rahmonov*

Bosishga ruxsat etildi: 7.10.2010.

Qog‘oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$  Hajmi 11,5 b.t. Adadi 500 nusxa  
Buyurtma № 17

Alisher Navoiy nomidagi

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti

“BAYOZ” МЧЖ matbaa korxonasida chop etildi.

100100, Toshkent sh., Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy.



ISBN 978-9943-06-301-3

9 789943 063013

